

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

N.M.Egamberdiyeva

IJTIMOIIY PEDAGOGIKA
(DARSLIK)



Toshkent 2007

So'z boshi

Ijtimoiy pedagogika, garchi u avvaldan yurtimizda “ijtimoiy tarbiya”, “ijtimoiy muhofaza”, “ijtimoiy yordam” ko'rinishida mavjud bo'lgan bo'lsada pedagogik bilim sohasi va fan sifatida O'zbekiston uchun yangi hodisa va tushunchadir. Uning mustaqil fanga aylanganligi, ammo amaliy tajribalarni tizimlashtirilmaganligining sabablari O'zbekiston tarixiy rivojlanishining murakkabliklari va qarama-qarshiliklari bilan izohlanadi. Ijtimoiy pedagogikaga salbiy ta'sir ko'rsatgan hodisalarga XX asrning 30-yillarida boshlangan ijtimoiy tarbiyaning diskreditatsiyalashuvi, mahalliy olimlar, pedagoglarni xorij tajribasi va chet ellik hamkasblaridan ajratgan “temir parda”ning paydo bo'lishi, umuminsoniy qadriyatlarni sinfiy qadriyatlarga almashtirilishi, ijtimoiy muammolar haqida jim turish siyosati, rahmdillik, mehr-muruvvat an'analarining yo'q qilinishi misol bo'ladi.

Bugungi kunda ijtimoiy pedagogikaga qiziqish jamiyat taraqqiyotining ehtiyojlari va davlatning ijtimoiy buyurtmasi asosida paydo bo'ldi.

Hozirda respublikamizning barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim borasida ham katta islohotlarni amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy tuzilmalarni insonparvarlashtirishda yangi tamoyillarga asoslanish, bozor iqtisodiyoti munosabati qonunlari, mafkuraviy va axloqiy tamoyillarning o'zgarishi ishsizlik, moddiy etishmovchilik, bolalarning nazoratsizligi, oilalarning ajralib ketishi, g'ayri ijtimoiy hodisalar; alkogolizm, narkomaniya, jinoyatchilik, fohishalik kabi ijtimoiy muammolarni ham echimini topishga qaratilgan chora va tadbirlarni ishlab chiqishga asos bo'lmoqda. Bu holatda birinchi navbatda, bolalar, so'ngra esa kattalar ijtimoiy yordamga muhtojdirlar. Bunday sharoitlarda jamiyatning ijtimoiy muammolari bilan bog'liq bo'lgan pedagogik masalalarni hal qiluvchi, uning ijtimoiylashuvi jarayonida shaxsga yordam beruvchi mutaxassis sifatida ijtimoiy pedagogga talab paydo bo'ldi.

Muhtojlarga ijtimoiy-pedagogik yordamni amalga oshirish, jamiyatda insoniylik, fuqarolarning haq-huquqlarini amalga oshirishga asoslangan yangi demokratik qadriyatlar paydo bo'lgani bilan ham izohlanadi. Bu masalaning ahamiyatliligi davlatimizning boshqaruv tizimlari tomonidan mustaqillikning ilk kunlaridanoq anglanganligini, quyidagilar bilan izohlash mumkin:

1. Kuchli ijtimoiy siyosatni respublika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishi sifatida e'lon qilinishi;
2. Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini himoya qilish yuzasidan bir qator qonun va farmonlarning qabul qilinishi;
3. Sobiq ijtimoiy himoya muassasalarining moddiy texnik bazasining yaxshilanishi va yangilarining ta'sis etilishi;
4. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy pedagogik choralar majmuasi sifatida joriy qilinishi.

O'zbekiston fuqarolari hayotida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash masalasi Prezident I.Karimov asarlari va chiqishlarida ham muhim o'rin tutmoqda. Ularda insoniylik, mehribonlik o'zbek xalqining ajralmas xususiyati ekanligi ta'kidlanadi va ijtimoiy xarakterdagi ko'pgina muammolar- sog'liqni saqlash, maktab va shifoxonalarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash va sport majmualarini qurish, ko'pbolali oilalarga yordam berish va boshqa bir qator masalalar muhokama qilinadi.

Bundan tashqari hozirgi vaqtda ta'lim mazmuniga shaxsni ijtimoiylashuvi masalasi asosiy g'oya sifatida kiritilayotgani ijtimoiy pedagogikani fan sifatida o'qitishni taqozo etadi. Buning uchun mazkur fanning mazmun-mohiyatini aks ettiruvchi darslik hamda o'quv qo'llanmalar nihoyatda zarur. Yuqoridagi bir qator omillarni hisobga olgan holda ushbu darslik yaratildi.

I BOB. IJTIMOIIY PEDAGOGIKA RIVOJLANISHINING MADANIY- TARIXIY ASOSLARI.

XORIJDA IJTIMOIIY PEDAGOGIKANING FAN SIFATIDA RIVOJLANISH TARIXIDAN.

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishi ancha qadimiylikka borib tutashadi. Uning qadimiyligi buyuk mutafakkirlarning ilmiy qarashlarida o'z tasdig'ini topadi.

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida rivojlanishining birinchi bosqichi - qadimgi davrlardan XVII asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda faktlar to'planishi, tarbiya tajribasining ortib borishi, pedagogik va ijtimoiy nazariyalarning shakllanishi roy bergan. Ijtimoiy pedagogikaning bu rivojlanish bosqichi tarbiyani ijtimoiy hodisa sifatida asta-sekin tan olinishi bilan xarakterlanadi. Buning natijasida tarbiyaga oid turli nazariyalar paydo bo'lgan.

Birinchi bosqichning bu kabi davriy chegaralanishi, avvalambor, insoniyat tarixining ilk bosqichlarida ham ijtimoiylashtirish muammosining mavjud bo'lganligi bilan izohlanadi. Chunki ibtidoiy jamoada to'plangan tajribalar tarbiyaga oid boy ijtimoiy pedagogik g'oyalar haqida gapirishga imkon beradi. Tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida insonning hayvonot olamidan ajralishi bilan paydo bo'lgan. Dastlab tarbiya umumiy taqlidiy ma'no kasb etgan bo'lsa, keyinchalik esa o'ziga xos faoliyat turiga aylangan va bu bilan shug'ullanuvchi odamlar - tarbiyachilar paydo bo'lgan. Vaqt o'tgani sari tarbiya jarayoni ham murakkablashib borgan, yosh, jins, mazmuniga ko'ra farqlana boshlagan, uning axloqiy jihatlariga e'tibor qaratila boshlagan. Bundan tashqari, arxeologik ma'lumotlar ibtidoiy jamoada kasal va yaradorlarga yordam ko'rsatilganligini, bolaligida olingan jarohatlar tufayli vafot etganlarning skeletlari asosida to'la tasdiqlaydi.. Bu kabi qarashlar etnografik ma'lumotlarda paydo bo'lishi bilan ham o'z tasdig'ini topgan. Ibtidoiy jamoa tuzumida yashagan barcha elatlarda mehnatning jins va yoshga qarab ajratish an'anasi bo'lgan. Mavjud yoshlarni muntazam ravishda turli kasb-hunarlariga o'rgatishgan. Bularning hammasi

ibtidoiy jamoada ijtimoiy-pedagogik tajribaning ilk ko'rinishlari mavjud bo'lganligi haqida tasavvur qilishga imkon beradi.

Agar ibtidoiy davr ijtimoiy pedagogik amaliyotning vujudga kelishiga zamin yaratgan bo'lsa, qadimgi dunyoning ilk tsivilizatsiyalarining paydo bo'lishi ijtimoiy-pedagogik fikrning shakllanishiga kuchli ta'sir etgan. SHarqning quldorlik davlatlarida ijtimoiy pedagogik g'oyalar bir nechta mualliflar tomonidan shakllantirilgan va odatda muqaddas kitoblar shaklida butun xalq mulkiga aylangan (Xitoyda-Shukit, Hindistonda-Vedalar, Misrda-Tot xudosi kitoblari, O'rta Osiyoda-Avesto va boshqa).

Faqatgina miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalari va ikkinchi yarmida ijtimoiy pedagogik g'oyalarni yaratuvchilarning nomlari ma'lum bo'la boshlaydi.

Shubhasiz, ijtimoiy pedagogik tafakkurning rivojlanishiga antik davr (yunon va rim) faylasuflari katta hissa qo'shishgan. Xususan, **Suqrot** (mil. avv. 469-399 y) "O'z o'zingni angla" degan shiorni ilgari surgan va shu bilan ong insonda barcha yovuzlikni yo'qotishi mumkinligini ta'kidlagan.

Demokrit (mil. avv. 460-370 y) o'z ta'limotida tarbiyada bola tabiatini hisobga olish tamoyilini asoslab bergan. Bundan tashqari uning fikricha, bola tarbiyasini yoshligidan boshlamoq kerak.

Aflotun (mil. avv. 423-347 y) ilk marotaba davlat va tarbiyaning o'zaro munosabati g'oyasini ilgari surgan. Uningcha, tarbiya davlatning eng muhim vazifasi bo'lgan.

Arastu (mil. avv. 384-322y.) antik dunyoda tarbiyaning to'liq nazariyasini ishlab chiqqan. Aflotundan farqli o'laroq, u inson tarbiyasida asosiy urg'uni davlatga to'liq boysundirishga emas, balki insonning o'z manfaatlariga qaratadi. SHaxsning jamoa bilan uyg'un rivojlanishi to'g'risidagi g'oya ham unga tegishlidir.

Mark Fabiy Kvintilian (mil. avv. 42-118 y) notiqlik san'atining qadimgi yunon nazariyotchisi, pedagog. "Notiqning tarbiyasi haqida" deb nomlangan ilk pedagogik asar unga tegishli bo'lib, unda tarbiyaning muhim g'oyalari, ta'lim metodikasi bayon etilgan. Kvintilianning asosiy g'oyalari –o'z "men"ini saqlab qolish, "o'z ustidan" hukmronlikka erishish kabilarni tashkil etadi.

Feodalizm davri tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari asketizm, dunyo dinlari qoidalariga qat'iy amal qilish bo'lgan. Asketizm(yunoncha)- tuyg'u va istaklarni cheklash yoki bostirish, azob tortish, hayot ne'matlaridan voz kechish degan ma'noni anglatadi. O'sha davrning (VI-XII asrlar) ijtimoiy-pedagogik g'oyasini yaratuvchilari o'sib kelayotgan avlodga singdirmoqchi bo'lgan axloqiy qadriyatlar orasida hamdardlik, yaqinlarga yordam xususan, kasallar va nochorlarga yordam kabilarni targ'ib etadilar.

XV-XVI asrda avval Italiyada, so'ngra Evropaning boshqa davlatlarida kapitalistik munosabatlar rivojlana boshladi. Paydo bo'layotgan yangi toifa vakillariga, xususan, ziyolilarga asketizmning tamoyillari begona edi. Yangi burjua madaniyati shakllana boshlagan bir paytda uni tavsiflash uchun odatda insoniylashtirish va qayta tiklash tushunchalari qo'llanilgan. Gumanizm (insoniylik) tushunchasi yangi madaniyat markazida ilohiylik emas, inson shaxsi turishidan guvohlik berardi. Uning o'zi ham qalban, ham jisman go'zal bo'lishi lozim. Inson faqatgina o'z ongi, kuchi, muvaffaqiyatiga ishonchi, faolligi, irodasi tufayli barcha qadriyatlar va o'z baxtining yaratuvchisiga aylana oladi. Shu bilan birga gumanistlar cherkovga qarshi ochiq qarshi chiqmaganlar. Ular xudoga buyuk yaratuvchi sifatida qarashgan.

XIV-XVI asrlar gumanistlarining aksariyati o'zlari pedagog bo'lishgan yoki pedagogik nazariyaga murojaat qilishgan. Gumanizm g'oyasi pedagogikada xuddi ana shu davrlardan boshlab o'rnasha boshlagan.

Asl tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra doim go'zallik haqida, uning kelajagi haqidagi g'amxo'rlikni bildirgan. Uyg'onish davrida ijtimoiy gumanizm g'oyalarini amalga oshirila boshlanishi mashhur italiyalik pedagog-gumanist Vittorino de Genotre (1378-1446) tomonidan ilk marta "Quvonch uyi" nomli internat maktabning yaratilishi bilan bog'liq. Shuni ta'kidlash joizki, ta'riflanayotgan davrda din, pedagogika va ijtimoiy-pedagogika bir-biri bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan.

Diniy qarashlarda asosiy e'tibor umuminsoniy qadriyatlarga qaratilgan. Diniy rivoyatlarda, muqaddas kitoblarda, oyatlarda axloqiy o'gitlar, insonlararo munosabatlar, qavm-qarindoshlarga, bolalarga g'amxo'rlik haqida ko'p gapirilgan.

Bu asosda ko'pgina avlodlar tarbiya topishgan va bu borada Evropada cherkov uzoq vaqt mobaynida "nogiron bolalar rahnamosi" bo'lgan. Unga nafaqat ruhiy yordam so'rab, balki tibbiy, moddiy yordam so'rab, adolatsizlikdan himoya so'rab murojaat qilishgan. Bu borada butun dunyoda diniy tashkilotlarning boy ana'nalari mavjud. Masalan, Evropada antik davrlardan buyon ota-onasiz qolgan bolalarni ibodatxonalar eshigi oldiga qoyib ketishgan. Manbalarga ko'ra, ota-onasiz qolgan bolalar uchun ilk tarbiya uylari IV asrda Kesariya shahrida episkop **Vasiliy Kesariy**ning tashabbusi bilan paydo bo'lgan. 787 yilda bunday muassasa Milandagi soborda ham paydo bo'lgan. Uzoq vaqt u Evropada yagona tashkilot bo'lib qolavergan va faqat XIV asrga kelib tarbiya uylari soni o'ttiztagacha ko'paygan. Qizig'i, endi unda faqat tarbiya bilan shug'ullanishmagan, ularda amaliy ishlar ham olib borilgan: onalarga yordam berilgan, bolalarni oilalarga berishgan, ularning tarbiyasini nazorat qilishgan. Keyinchalik ham bolalar uylari ruhoniylar tomonidan boshqarilgan. Parijda 1640 yil ruhoniy **Vintsentom Depolen** tomonidan asos solingan tarbiya uyi juda mashhur bo'lgan. U tarbiya uyini qirol Lyudovik XIV tomonidan moliyalashtirishga erishgan. Mehribonlik bilan shug'ullanuvchi uyushmalar - yirik cherkov tashkilotlari ham tuzila boshlagan.

Ijtimoiy pedagogika rivojining ikkinchi davri XVII-XIX asrlar - ijtimoiy-pedagogika eng ilg'or g'oyalar va ilmiy kontseptsiyalar bilan boyitilgan davr bo'ldi desak, xato bo'lmaydi.

XVIII-XIX asrlar (burjua-demokratik inqiloblar davri) olimlarining (pedagog, faylasuf, sotsiolog, psixologlar) davlat va jamoat institutlari bilan hamkorlikda ijtimoiy-pedagogik muammolarni hal qilish g'oyalarining paydo bo'lishi davridir. Tarbiya masalalari jamiyat islohotlari, inson huquqlari tengligi bilan bog'lana boshlangan. Aynan shu davrda ijtimoiy-pedagogikaning asosiy yo'nalishlarining aniq faoliyatda amalga oshishi sodir bo'ladi.

Ijtimoiy pedagogik g'oyalarning rivojlanishiga frantsuz faylasufi, yozuvchi, ma'rifatparvar **J.J.Russo** (1712-1778) ulkan hissa qo'shgan. U huquqiy, diniy va tabiiy rivojlanish asosiga qurilgan tabiatan shakllangan tarbiya g'oyalarini ilgari

suradi. Rus qomusiy olimi va pedagogi **M.V.Lomonosov** (1711-1765) o'z "reglamentlari"da tarbiyaning xalqparvar g'oyalari, insonga faol shaxs sifatida yondashuv bolaning axloqiy sifatlarini shakllantirishda o'ta muhimligini bayon etgan.

Yangi ijtimoiy pedagogik g'oyalar frantsuz faylasufi va ma'rifatparvari **Klod Adriana Gelvetsiy** (1715-1771) ishlarida ham tilga olingan. Ular tarbiya omillari hisoblanmish muhit va pedagogik ta'sir, shaxs va jamiyat manfaatlarining birligi masalalaridir.

Shvetsariyalik buyuk pedagog **Iogann Genrix Pestalotsti** (1746-1827 y) o'z faoliyatida ijtimoiy pedagogik nazariyani va amaliyotni birlashtirgan va o'z mablag'lari hisobiga etimlar uylari ochgan.

Ingliz faylasufi va pedagogi **Robert Ouening** ijtimoiy pedagogik faoliyati bir qancha qiziqarli va sermahsul tajribalardan iborat. Nyu-Lenarkda "Inson xarakterini tuzishning yangi instituti"ni ishchilarning turmush darajasini yaxshilash uchun yaratib, u amaliyotda ishlab chiqarish ta'limini madaniyat bilan bog'lab qoydi. Jahonda ilk marta didaktik oyinlar o'tkaziladigan, bolalarning jismoniy holati haqida g'amxo'rlik qiluvchi muassasalar u tomonidan tuzilgan.

Ingliz faylasufi **Gebert Spenser** (1820-1903) oilaning shaxs shakllanishidagi o'rni haqidagi ijtimoiy pedagogik g'oyalar bilan to'ldirilgan asarlar yaratgan. Bu maqsadlarga erishishi uchun u qiziq usulni ilgari surgan. Angliyaning davlat va siyosiy tuzilmasini oila va maktab tomonidan imitatsiyalashuvi.

XIX asr shunisi bilan xarakterliki, bu davr mobaynida ijtimoiy pedagogikaning pedagogikadan ajralishi jarayoni sodir bo'lgan. Ikkinchi tomondan, uning boshqa fanlar, xususan, psixologiya, sotsiologiya, tibbiyot, falsafa kabi fanlar yaqinlashuvi bilan ham roy bergan.

XIX asr ijtimoiy pedagogikaning asosiy yo'nalishlari esa quyidagilardan iborat:

1) ijtimoiy pedagogikaning nazariy asoslarini ishlab chiqilgan. Bu uning fan sifatida paydo bo'lishiga olib kelgan;

2) ta'lim sohasidagi ijtimoiy pedagogik faoliyat vujudga kelgan. Bu erda ijtimoiy pedagogik ta'lim, tarbiya maqsadi va xarakteri, ta'siri haqida gap bormoqd

3) ijtimoiy pedagogika harakat doirasining kengayishi roy bergan. "Nochor" va tanlab olingan bolalar bilan bir qatorda katta yoshdagilar bilan ham faoliyat boshlanadi. Asosiysi, ijtimoiy pedagogika o'z faoliyatini davlat siyosati darajasiga ko'taradi. XIX asrning 60-70 yillarida Germaniya, Angliya, AQShda ijtimoiy qonunchilik tizimlari yaratiladi.

Shuni aytib o'tish joizki, ijtimoiy pedagogika fani rivojlanishining barcha yo'nalishlarini uning eng asosiy vazifasi- bolalarni ijtimoiy jihatdan himoya qilish g'oyasi birlashtiradi. Biroq, XVIII-XIX asrlarda u avvallari e'tiborsiz bo'lgan g'oyalar bilan to'ldiriladi. Aniqrog'i, ijtimoiy pedagogika nazariyasi va amaliyotida birinchi o'ringa umuminsoniy qadriyatlar chiqadi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab pedagogika va ommaviy tarbiya tizimiga e'tibor kuchayadi. Unda yoshlarni tarbiyalash, shuningdek, ijtimoiy xulq-atvor normalarini buzuvchi shaxslarni qayta tarbiyalash muammolari hal qilina boshlandi. Industriallashtirish qishloq axolisining shaharga ommaviy migratsiyasini keltirib chiqardi. Evropa va Amerika mintaqalarining ijtimoiy - madaniy jarayonlari bilan ham bog'liq o'zgarishlar, qishloq axolisining shaharga ko'chib o'tishlari g'ayriaxloqiy xulq-atvor, jinoyatchilik, daydilikning ko'payishiga olib keldi. Ayniqsa, AQShda holat nihoyatda og'ir edi chunki, bu davlatga boshqa kam rivojlangan davlatlardan aholi ko'chib kelishi ortib bordi. Ayni vaziyatda cherkov rolining susayishi kuzatildi. CHerkov shu paytgacha axloqiy normalarning ana'naviy tashuvchisi bo'lib kelgan, biroq endi u jamiyatning yangi ehtiyojlari va voqeliklarini anglay olmadi va ko'pgina odamlar hayotida o'zining avvalgi mavqeini yo'qotdi. Shu bilan birga, Evropada milliy davlatchilikning shakllanishi va Amerikada millatning yuzaga kelishi barcha ijtimoiy qatlamlarda muayyan g'oya va qadriyatlarning madaniylashuvini talab qilardi. Bu esa masalaning echish vositalarini topishni taqozo etardi. XIX asr

oxirida mustaqil fanga aylangan ijtimoiy pedagogika rivojiga aynan shu omil turtki bo'ldi.

Bu paytda esa nemis pedagogi **Fridrix Disterveg** tomonidan faqatgina XX asrda keng qo'llanilgan «ijtimoiy pedagogika» atamasi fanga kiritildi.

Aynan shu vaqtdan ijtimoiy pedagogikaning mustaqil fan sifatida rivojlanishining uchinchi bosqichi boshlanadi. XX asr inson tsivilizatsiyasi tarixida ilmiy-texnikaviy inqiloblar asri sifatida nom qoldirdi. Fan ishlab chiqarish ob'ektidan iqtisodiy va madaniy sohaning etakchi omiliga aylandi. Ilmiy inqiloblar ijtimoiy pedagogikaning keyingi rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ijtimoiy pedagogikaning boshqa fanlar-psixologiya, fiziologiya, anatomiya, tarix, sotsiologiya va boshqalar fanlar bilan yaqinlashuvi roy berdi. Eng asosiysi-XX asrda insonning muammolari, uning tarbiyasi va ta'limi uchun ijtimoiy sharoitlarni yaratish zamonning eng global muammosiga aylandi. Aynan shu davrda “pedalogiya” bolani har tomonlama o'rganish haqidagi fan rivojlana boshlaydi. Uning asoschilari E.Meyman, S.Xoll, Torndayk hisoblanadi. Bu borada Rudolf Shteynerning pedagogikasi ham muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy pedagogikani yangi g'oyalar va tarbiya usullari bilan boyitgan pedagogika arboblardan Georg Kirshenshteyner (1854-1932, Germaniya), Jon Dyui (1859-1952, AQSH), Vilgelm Layni (1862-1926, Germaniya) ko'rsatsa bo'ladi.

G.Kirshenshteynerning pedagogik nazariyasi maktablarda bolalarning sust qabul qilishidan faol harakatdagi ehtiyojlarini ijodiy amalga oshirishga, ijodga ko'ra isloh qilish g'oyasiga asoslanadi. Kirshenshteyner ijtimoiy pedagogik qarashlarining asosini bolalarni jamiyatda har tomonlama tayyorlash uchun mehnat maktablarini yaratish, hamkorlik malakalarini rivojlantirish, davlat manfaatiga xizmat qiluvchi bolalarning fuqarolik tarbiyasini amalga oshirish kerakligi tashkil etadi.

Jon Dyui pragmatik pedagogika asoschisi hisoblanadi. Uning oliy qadriyatlari amaliy natija, biznesda muvaffaqiyatga erishish hisoblanadi. Bu pedagogning xizmati shundaki, u maktab bilan hayotning aloqasi, ta'limning individuallasuvi kabi ijtimoiy psixologik g'oyalarga murojaat qilganidir.

Hozirgacha turli davlat olimlari o'rtasida ijtimoiy pedagogikaning boshqa pedagogik fanlari orasidagi o'rni borasida – bu mustaqil fan bo'la oladimi yoki faqatgina yosh guruhlarini o'rganish bilan cheklanadigan pedagogikaning bir sohasi bo'lib qolaveradimi, degan masalada bahs-munozara davom etmoqda.

Bu bahslar, yangi fan tushunchasining shakllanmaganligi ijtimoiy pedagogika mohiyatini inkor etuvchi ba'zi pedagoglar nazariyalarida paydo bo'lgan. Masalan G.Noll va G.Boymer (1920-1930 y.) ijtimoiy pedagogikani bolalarga yordam berish va voyaga etmagan huquqbuzarlarning profilaktikasi deb tushunishgan.

Ijtimoiy pedagogikaning mohiyatini nemis olimi **Paul Natori** (XX asrning 20-yillari) umuman boshqacha ta'riflagan. U ijtimoiy pedagogika xalqning madaniy va ahloqiy darajasini ko'tarish maqsadida jamiyatning barcha tarbiyaviy kuchlarini yaqinlashtirish muammosini tadqiq etadi deb hisoblagan. Bunaqa tushunish yangi davrning buyurtmasiga ko'proq mos kelgan va ijtimoiy pedagogika inson hayoti davomida tarbiyalash haqidagi bilim sohasi ekanligini tasdiqlagan.

XX asrning 60-yillarida ijtimoiy pedagogika huquqbuzarlik sodir etgan bolalarga yordam berish, bolalar uylarida tarbiyaviy ishlarni olib borish, ijtimoiy pedagogik faoliyat olib boruvchi mutaxassislarni tayyorlashni o'z ichiga qamrab oladi. Xususan, XX asrning 70-yillaridan Germaniyada oliy ma'lumotli ijtimoiy pedagoglar tayyorlana boshlandi.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib ijtimoiy pedagogik muammolarning global darajaga etganiga BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 20.11.1959 yil va 20.11.1989 yilda bola huquqlari deklaratsiyasini qabul qilinganligi guvohlik beradi. Unda alohida e'tibor etimlarning ijtimoiy himoyasiga, ko'p bolali oilalar, kam ta'minlangan oilalar bolalariga ijtimoiy yordam ko'rsatishga va boshqa bir qator muammolarga qaratilgan.

O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika an'ana va tamoyillarini tiklanishi murakkab sharoitlarda amalga oshmoqda. Davlat ta'lim standartlarini va darsliklarni yaratish, mutaxassislar tayyorlash, o'quv rejalari va dasturlarni tuzishda mavjud

tajriba va chet el mutaxassisleri bilan yaqin hamkorlik asosida bo'lish kerak. Chunki Germaniya, Angliya, AQShlarda boy ijtimoiy pedagogik tajriba mavjud.

Savol va topshiriqlar:

1. Xorijda ijtimoiy pedagogika taraqqiyotining asosiy bosqichlarini sanab o'ting?
2. Ikkinchi bosqichning qisqa ta'rifini bering?
3. "Ijtimoiy pedagogika" atamasi kim tomonidan va qachon fanga kiritilgan?
4. Nima sababdan XX asrda ijtimoiy pedagogika fani va faoliyatiga ijtimoiy talab kuchaydi?
5. XX asr ijtimoiy pedagogika vakillarining qarashlarini ochib bering?

Adabiyotlar:

1. Sotsialnaya pedagogika / Pod red. M.A.Galaguzovoy. – M., 2003.
2. Mudrik A.V. Sotsialnaya pedagogika. – M., 2003
3. Bocharova V.G. Sotsialnaya pedagogika. – M., 1994.
4. Lixachev B.T. Vvedenie v teoriyu i istoriyu vospitatel'nykh tsennostey. – Samara, 1997.
5. Sotsialnaya pedagogika i sotsialnaya rabota za rubejom. Вып. 1. – M., 1991.

O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY PEDAGOGIKANING RIVOJLANISHI TARIXI

Ijtimoiy pedagogika fan sifatida respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng o'qitila boshlagan bo'lsada, ijtimoiy tarbiya, ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy himoya ko'rinishida qadimiy ildizlarga ega. Ilk diniy-falsafiy (Avesto) va adabiy (Alpomish, Go'ro'g'li) manbalarda biz insonning ijtimoiy kelib chiqishi nuqtai nazaridan pedagogik qarashlarning aks etganini ko'ramiz. Keyinchalik VI-VII asrlarda Markaziy Osiyo hududida islom dinining tarqalishi yangi ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni olib keldi. Ular mintaqada oila va jamiyat tarbiyasiga ta'sir ko'rsatdi. Markaziy Osiyoning arab halifaligi tarkibiga kirishi madaniy almashinuv, fikr va qarashlarning erkin kurashi, o'zaro munosabatlarning shakllanishiga olib keldi. Moddiy barqarorlik, ishlab chiqarish hamda savdo rivoji ehtiyojlariga asoslangan yangi ijtimoiy-iqtisodiy holat ma'naviy va madaniy hayotning yuksalishiga, dunyoviy ilm va fanlarning gullab-yashnashiga, fors, arab, qadimgi yunon madaniyati yutuqlarini o'zlashtirishga yordam berdi.

O'rta Osiyo qomusiy olimlarining ijtimoiy pedagogik g'oyalari.

Ijtimoiy pedagogik g'oyalar va nazariyalarning shakllanishida SHarq uyg'onish davri olimlarining asarlari beqiyos o'ringa ega. Ular faoliyatining mohiyati shuki, mavjud bo'lgan o'sha davrni ijtimoiylashtirish usullari ilmiy asarlarining asosiga singdirilganidadir. Etuk olimlarning faoliyat xarakteri - ilm bilan mashg'ul bo'lishi ijtimoiy pedagogik qarashlarning mazmuniga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Buyuk olim **Al-Xorazmiy** (783-850 y.)ning asarlari yorqin didaktik xarakterga egadir. U savol-javob metodi orqali bilimlar qo'lga kiritilishini, bu jarayonda shaxs boshqalar bilan munosabatlarga kirishishini va jamiyatning faol a'zosiga aylanishini ta'kidlagan.

Al-Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek kabi olimlar o'z ilmiy va pedagogik faoliyatlarida rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi va ta'lim beruvchi ta'sir kuchlarini o'sib kelayotgan avlodga qaratish g'oyasini tushunishgan va buni tadbqiq etishgan. Bu avvalambor ular ta'limning maqsadi hayotga tayyorlash, axloqiy

norma va qoidalar, kasbiy malakalar va chuqur bilimlarga ega bo'lishida deb bilganliklarida namoyon bo'lgan.

Buyuk qomusiy olim **Abu Rayxon Beruniy** (973-1050 y.) ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ilmiy usullarni ishlab chiqqan. U shuningdek, ta'lim tamoyillarini ham tasniflagan. Uning pedagogik qarashlarining ijtimoiy yo'naltirilishi u axloqni ijtimoiy xususiyatlar va hissiyotlarning ifodasi sifatida tushunganligida o'z ifodasini topgan. Olimning tarbiya, shaxsning shakllanishida va jamiyatdagi amaliy faoliyat uchun ilm va mehnatning ahamiyati haqidagi g'oyalari hozirgacha muhimligini saqlab qolgan.

Buyuq qomusiy olim **Abu Ali ibn Sino** (980-1037 y) o'z davrining barcha bilim sohalarini qamrab oluvchi katta ilmiy meros qoldirgan. Uning barcha asarlarida pedagogik qarashlar mavjud. Uning bilim, iroda va insonning rivojlanish jarayonidagi maqsadga intiluvchanligi, atrof- muhit ta'siri, axloqiy va mehnat tarbiyasi, muomala san'ati, bolalarni jamoada o'qitish haqidagi g'oyalari muhim hisoblanadi.

Forobiy, Beruniy ta'lim muammolari boyicha fikrlar bildirishgan va insonning jamiyatga sermahsul xizmat qilishi uchun o'z aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat qobiliyatlaridan samarali foydalanish imkonini beruvchi ta'lim vazifasini ajratib ko'rsatganlar. Ta'limning rivojlatiruvchi vazifasini amalga oshirish maqsadida ular quyidagi didaktik tamoyillardan foydalanishni maslahat berganlar:

- ✓ asta-sekin tushunchalarning murakkablashuvi;
- ✓ amaliyotni tajriba bilan bog'lash;
- ✓ qabul qila olishlilik;
- ✓ ko'rgazmalilik.

Ibn Sinoning fikricha, ijtimoiylashtirish ko'nikmalari jamoa bo'lib o'qitish shaklida yaxshi shakllanadi. Buning uchun u quyidagilarga asoslanishi lozim:

1. Ta'lim oluvchilar, o'qituvchi va o'quvchilar orasida tajriba, bilim, ma'naviy va axloqiy qadriyatlar almashinuvini tashkil qilish.
2. Musobaqalashuv elementidan foydalanish.

3. O'quvchining ijtimoiy axloqiy xususiyatlarini-muomala, o'zaro tushunish, o'zaro yordam, do'stlik hissini rivojlantirish.

Buyuk olimlarning pedagogik qarashlari va faoliyatlarining ijtimoiy pedagogik yo'naltirilganligi, ularning avvalambor hayotga har tomonlama tayyorlash hisoblangan ta'lim maqsadini sharhlashlarida o'z ifodasini topgan. SHaxsning jamiyatda o'z o'rnini belgilab olishini ta'minlab beruvchi eng muhim xususiyatlar deb, ular mehribonlik, yaqinlarga yordam, g'urur, vijdon, yaxshi niyatlilik, sabrni bilishgan. O'quvchilarning har tomonlama intellektual va mehnat tayyorgarliklariga katta e'tibor qaratib, Forobiy va ibn Sino yoshlarning jamiyatga "kirish"larining eng muhim omillari sifatida, faollik, mustaqil tashabbuskorlik, intiluvchanlik, qiziquvchanlik, ijodiy qobiliyatni ko'rsatib o'tishgan.

Forobiy ijtimoiy tarbiyada o'qituvchiga etakchi o'rin ajratib, uning faoliyatini - jamiyatning kelajagi unga bog'liq bo'lgan hukmdor faoliyatiga qiyoslaydi. Forobiy ham ibn Sino kabi ustoz va o'qituvchilarning bilimlarini hayotga tadbiq etishlariga e'tibor berish lozimligiga ishora qilgan.

Qomusiy olimlar shaxsiy namunaga nihoyatda katta e'tibor berishgan hamda o'zlari ham intiluvchanlik, yuqori ijtimoiy mavqega erishganlik namunasi bo'lib xizmat qilishgan. Forobiy nihoyatda mehnatsevar, irodali, kamtar, sodda bo'lgan va doim yordamga intilgan. Forobiyning o'quvchilarning individual psixologik va aqliy xususiyatlariga mos tushuvchi ta'limning ustuvorligi, kasb tanlash muhimligi haqidagi fikrlari hozir ham katta ahamiyatga ega.

Tarbiyaning ijtimoiy xarakteri haqidagi g'oyalar **Alisher Navoiy**ning adabiy merosida nihoyatda aniq ifodasini topgan. SHoirning pedagogik qarashlari insonparvar xarakterga ega. Inson egallashi lozim bo'lgan barcha bilim va kasb-hunarlar u tomonidan Vatan foydasi uchun qo'llanilishi kerak.

XI-XII asr Markaziy Osiyo ma'rifatparvar olimlari turli fanlar, shu jumladan pedagogikaning rivojiga katta hissa qo'shishdi. Yusuf Xos Hojib, Burxoniddin Zarnujiy va Ahmad Yugnakiylar bolalar jamiyatda o'z o'rnini topishida bilim, ota-ona, oilaning o'rnini alohida ajratib ko'rsatadilar. Ular tarbiyaning asosiy maqsadi deb, komil insonni tarbiyalash, unga etishish vositasi deb esa qattiqqo'llik, doimiy

mehnatga o'rgatish deb bilishgan. Zarnujiyning "Ta'limda o'quvchiga pandlar" kitobi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari Markaziy Osiyoda pedagogikadan birinchi kitoblar hisoblanadi.

O'rta Osiyo olimlari tomonidan tarbiya va ta'limning ijtimoiy o'rnini tushunishlari shunda namoyon bo'ldiki, ular ijtimoiylashuvning mikroo'millar-muhit, oila, o'quvchilar guruhiga e'tibor karatganlar va ota-onalar, pedagog va o'quvchining harakatlarini mujassamlashtirish kerakligini ta'kidlaganlar.

Shunday qilib, o'rta asr olimlari ijtimoiy pedagogika sohasida katta meros qoldirganlar. Ularning ilmiy pedagogik asarlari zamonaviy ijtimoiy pedagogika ilmini rivojlantirish uchun muhim manba hisoblanadi.

Alisher Navoiy, Forobiy, Ibn Sinolarning falsafiy va pedagogik kontseptsiyalari keyingi davrlarning etakchi ta'limotlarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

XIX-XX asr demokrat shoirlarining ijtimoiy pedagogik qarashlari

XVIII-XIX asrning ma'rifatparvar shoirlari Munis Xorazmiy (1778-1829), Muhammad Ogahiy (1809-1874), Ubaydulla Zavqiy (1853-1921) birinchi o'ringa keng ommaning ma'rifatli kilish va ta'lim masalalarini qoyishgan. Ta'limning asosiy vazifasini ular axloqiy mukammallashuvda va mehnatga o'rgatishda deb bilishgan.

Saidahmad Siddiqiyning (1864-1927) qarashlari uzoqni ko'ra olishlik va zakovati bilan ajralib turgan. Dehqon oilasidan chiqqan pedagog, demokrat shoir o'z qishlog'i hovlisida dehqon va xunarmandlar uchun ilk maktabni ochgan, kattalar uchun maktab tuzgan, 1914 yil kitob, darslik va o'quv qo'llanmalari bilan savdo qiluvchi do'kon ochgan. Keyinchalik Siddiqiy yana bir nechta qishloq maktablari ochgan va ularda o'zbek, tojik, rus bolalariga ta'lim-tarbiya bergan. Tabiatshunoslik va geografiya darslari tabiat qoynida o'tkazilgan.

.

Ma'rifatparvarlik va demokratik g'oyalar XIX asrning oxiri- XX asr boshlarida yuqori cho'qqiga ko'tarildi. O'rta asr g'oyalari: zohidlik, dogmatizm, sxolastikaga

qarshi chiqib, o'zbek ma'rifatparvarlari yangi ta'lim usullari va tamoyillarini ilgari surdilar: har tomonlama tarbiyalashga asoslangan (aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat) dunyoviy, o'g'il bolalar va qizlar uchun bir xil, insoniylik, demokratiya, vatanparvarlik ruhidagi tarbiyani ilgari surdilar va asoslab berdilar.

O'zbekistondagi demokratik pedagogik g'oyaning taraqqiyparvar yo'nalishining yirik vakillaridan biri Abdulla Avloniydir (1878-1934) U SHarq tillari va adabiyotini yoshligida chuqur o'rganib, mumtoz o'zbek klassikasi ta'sirida she'rlar yozgan. Uzoq vaqt mobaynida Toshkent maktablarining birida bolalarga ta'lim bergan. Avloniyni o'zbek pedagogikasiga qo'shgan hissasi shuki, u ilk marta tarbiya oldiga ijtimoiy vazifalarni qoya olgan. Bu shoir va pedagogning katta jasorati o'z asarlarida shaxs rivojlanishida tarbiyaning hal qiluvchi rolining e'tirof etilishi bo'ldi. Uning fikricha, tarbiya ijtimoiy maqsadlarni ko'zlashi kerak. Avloniy "yangi kishi" tushunchasini shaxsiy emas, balki ijtimoiy manfaatlardan kelib chiquvchi jamoat arbobi sifatida ta'riflaydi. Tarbiyaning muvaffaqiyati Avloniy fikricha oila, ota-onalar va pedagoglarning shaxsiy namunaviy roli bilan belgilanadi. Eng muhim ijtimoiy xususiyat deb, u mustaqillik, tashabbuskorlik, amaliy tajribani e'tirof etgan.

O'zbek ma'rifatparvarlarining yorqin vakili bo'lgan Avloniy "to'g'ri" g'oyalarni kengaytirib va "noto'g'ri" g'oyalarni bartaraf qilibgina yovuzlikni yo'qotish mumkinligiga ishongan. Shuning uchun tarbiya mavzusi ma'rifat gazetasi bo'lmish "Shuhrat" gazetasida keng yoritilgan.

Mustamlakachilik sharoitlarida Turkistonda matbuot cheklangan o'quvchilariga ega bo'lgan. Bu holatda dramaturgiya ma'rifiy g'oyalarni tatbiq qilishning eng samarali vositasi bo'lgan. Teatr Abdulla Avloniy uchun odamlarni tarbiyalash, birlashtirish vositasi bo'lgan. U 1913 yilda Toshkentda "Turon" nomli teatr truppasini tashkil etdi. Truppaning maqsad-vazifalarini Toshkentdagi "Turon" dramatik san'at jamiyatining nizomida aniqlangan "sahnaga nisbatan muhabbat va jiddiy munosabat tug'dirish, xalq uchun spektakllar tashkil qilish" tashkil etar edi. Bu maqsadga erishish uchun jamiyat kechalar, kontsertlar, spektakllar va boshqa ommaviy chiqishlarni tashkil etishga, klub va musiqa kurslari, kutubxona va

qiroatxona tashkil qilishga, boshlang'ich maktablar ochishga, ta'limni o'rta va oliy o'quv yurtlarida davom ettirish uchun stipendiyalar ta'sis etish huquqiga ega bo'lgan. Shuningdek, u mavjud hayriya va ta'lim muassasalariga moddiy yordam ko'rsatishi mumkin edi¹.

Avloniy ma'rifiy g'oyalarini nafaqat ijodda ilgari surgan. U tomonidan 1908 yilda kambag'allar uchun maktab ochilgan va u erda ona tilini o'qitishning yangi usullari qo'llanilgan. Pedagogik faoliyat bilan sermahsul shug'ullanishni kanda qilmay, u darslik va qo'llanmalar yoza boshlagan. Ta'lim tarbiya tizimini kundalik hayotga yaqinlashtirish, ya'ni amaliyot eng kerakli va foydali vosita ekanligini uning "Birinch muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yoxud axloq" darsliklarida aks etdi.

Avloniydan so'ng ma'rifat va dunyoviy bilimlarning faol targ'ibotchisi Miskin edi. Miskinning ta'limiy va ma'rifiy qarashlari ijtimoiy-siyosiy mohiyatga ega bo'lib, u o'zbek ilg'or pedagogik g'oyalarining rivojiga katta hissa qo'shgan. Insonni reallikdan ajratib oluvchi va uni shukronalik ruhida tarbiyalovchi musulmon pedagogikasiga qarshi Miskin ta'lim jarayonini yosh avlodni xalqqa xizmat qilish uchun tarbiyalash kerak deb tushungan va o'z qarashini rivojlantirgan. Miskin va boshqa o'zbek ma'rifatparvarlarining intilishlari tarbiyaning ijtimoiy jihatini oshirishga, ijtimoiy tarbiyani kengaytirishga, insonning turli ijtimoiy munosabatlarga kirishi, boshqa davlatlar va xalqlar hayotini o'rganishga qaratilgan edi.

Biroq bu ijtimoiy xususiyatlar bilan birga o'zbek ma'rifatparvarlari XIX asr ikkinchi yarmida o'z qarashlarining tizimli emasligi, ularning feodal-mustamlaka tuzumga qarshi kurashdagi ojizliklarini kelib chiqishiga sabab bo'lgan mustahkam dasturning yo'qligi bilan ajralib turardilar. Biroq ularning dunyoqarashi cheklanganligi va qarama-qarshiliklarga uchraganiga qaramay, ular O'zbekistonda ilg'or g'oyalarning rivojiga o'z hissalarini qo'shishdi.

XX asr boshidagi o'zbek pedagogik g'oyasida 3 asosiy yo'nalishni ajratsa bo'ladi:

✓ ko'proq hukmronlik qiluvchi o'rta asr feodal klerikal yo'nalishi;

¹ А. Бобохонов. Хамзанинг ижтимоий педагогик ва адабий фаолияти. Т.: ЎИТИВ. 1979 й. 15 б.

✓ paydo bo'layotgan milliy burjua yo'nalishi (jadidchilik). Uning vakillari bu davrda feodal klerikal maktabga qarshi chiqib, o'zlarining "usuli jadid" maktablarining pedagogik talablarini ilgari surish;

✓ demokratik taraqqiyparvar yo'nalish. Demokratik pedagogika o'rta asr maktabini va tarbiyasini tanqid qilgan va inkor etgan hamda unga qarshi yangi, ilg'or g'oyalarni ilgari surgan.

XX asr boshida O'zbekistonda demokratik pedagogikaning eng yirik vakili Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929) edi. Hamza XX asr boshida o'zbek xalqi madaniy hayoti va ma'rifiy harakatining eng yirik namoyandasi edi. Uning nomi bilan O'zbekiston tarixining butun bir davri bog'liq. U o'z asarlarida o'zbek xalqi pedagogik g'oyasi rivojining eng yaxshi yutuqlarini jamlab hamda Rossiya ijtimoiy-ma'rifiy g'oyalariga tayanib, ta'lim tarbiyaning eng global muammolarini ko'tara oldi.

Qo'qonda ozod milliy maktabning yaratilishi, keyinroq esa Farg'ona, Marg'ilon va Toshkentda shunday maktablarning yaratilishi bu ajoyib pedagog va jamoat arbobining jasoratli qadami bo'ldi. Bu maktablarda ta'lim-tarbiya ishlarining yo'lga qoyilishi shaxsning har tomonlama rivojlanishi va ijtimoiy faollashuvi uchun sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan edi. Hamzaning pedagogik faoliyatining ijtimoiy xarakteri tarbiyaning barcha turlari (estetik, aqliy, jismoniy, axloqiy, mehnat), muomala va atrofdagilar bilan o'zaro munosabat malakalarini rivojlantirish jarayonida, tarbiyalanuvchilarning turli hayotiy, madaniy va aqliy darajalarini oshirishlari uchun imkoniyatlar yaratishga asoslanadi.

1911 yilda Hamza o'zining yangi usul maktabini ochdi va unda o'quv jarayonini tashkil etishni tubdan isloh qildi. Biroq uning pedagogik faoliyatidagi eng asosiy hodisa 1914 yilda etimlar va kam ta'minlangan bolalar uchun "Dorul ojizin" nomli maktabning ochilishi bo'ldi. Unda bolalar bepul o'qitilgan hamda kitob, daftar, qalam va boshqa yozuv qurollari bilan ta'minlanganlar. Biroq Hamzaning maktablarni isloh qilish va demokratiyalashtirish uchun qilgan harakatlari musulmon ruhoniylari va chor hukumatining keskin noroziligiga sabab bo'ldi.

Buning oqibatida “Dorul ojizin” yopildi va Hamza chor politsiyasi nazoratiga olindi.

Hamza ta’limning mohiyatini, ozodlikka erishishi uchun asosiy qurol, ya’ni faol ijodiy shaxsni tarbiyalash vositasiga aylantirish kerakligi g’oyasini ilgari surdi. Uning qarashlari o’zbek ilg’or pedagogik g’oyasining rivojlanishida katta qadam edi. Insonni reallikdan ajratuvchi va uni shukronalik ruhida tarbiyalovchi hukmron sxolastik tarbiyadan farqli o’laroq Hamza Hakimzoda ta’lim mohiyatiga yangi qarashlarni kiritdi. Ta’lim jarayonini yosh avlodni xalqqa xizmat qilish ruhida tarbiyalash deb tushundi. SHoir tarbiyaning asosiy vazifasi yoshlarni jamoat faoliyatiga tayorlash deb bilgan. Hamza yoshlar o’z vatani va xalqi oldidagi ma’suliyatlarini tushunish kerakligini ko’p marta ta’kidladi.

Hamza tarbiyaga eng kuchli ta’sir qiluvchi omillarga muhit va oilani kiritgan. Go’dakning kelajagi, undagi hislarning, dunyoqarashning rivoji va boshqa ijtimoiy psixologik vazifalar uni o’rab turgan atrof-muhit va turmush tarziga bog’liqdir. Oilaning bola tarbiyasidagi o’rni bolani jamiyatda o’zaro muloqatga kirishuvchan qilib tarbiyalashdan iboratdir. Hamza onaga alohida rol ajratadi, chunki u bolalar bilan psixologik, ruhiy va biologik jihatdan eng ko’p bog’langan shaxsdir. U bolalarni e’tiborsiz yoki noto’g’ri tarbiyalaydigan otalarni qoralaydi. Hamza ta’lim-tarbiyada tub o’zgarishlarni amalga oshirish uchun bir qator yangi darsliklarni o’zbek tilida yaratdi: o’zbek alifbosini o’rganish uchun “Engil adabiyot”, o’qish uchun “O’qish kitobi”, adabiyotdan “Qiroat kitobi”. Hamzaning kitoblari ta’lim oluvchilar tomonidan katta qiziqish bilan o’qilgan va tez o’zlashtirilgan. Hamzaning barcha kitoblari o’zbek bolasining erkin o’qishi uchun qulay hisoblangan.

1917-1940 yillardagi ijtimoiy pedagogik faoliyatning asosiy yo’nalishlari.

Hamza faoliyati ikki davr - inqilobgacha va inqilobdan keyingi davrlar to’qnashuvida davom etgan. 1917 yilgi oktyabr inqilobi natijasida bolsheviklarning yangi hokimiyati tomonidan xayriya faoliyatiga chek qoyilgan va uning moddiy (shaxsiy mulk) va ma’naviy (din) manbalari yo’q qilingan. Ijtimoiy muammolarni echishni esa davlat o’z zimmasiga olgan.

Bu vaqtda barcha joylarda, jumladan O'zbekistonda ijtimoiy tarbiya bo'limlari tuzila boshlandi. Voyaga etmaganlarni ijtimoiy huquqiy himoyasi bo'yicha muassasalar tashkil etildi. XX asrning 20-yillarda maktabga moddiy yordam beruvchi "komsod" (yordam qo'mitasi) nomli tashkilotlar faoliyat yuritgan. Shuningdek, kam ta'minlangan oilalarni moddiy ta'minlovchi "kambag'alik fondlari" ham mavjud bo'lgan. Bu fondlar kambag'al oilalarni minimal darajadagi oziq ovqat maxsulotlari bilan ta'minlaganlar

V.F.Lubentsov tomonidan boshqariladigan K.Libxknet nomli mehnat maktabining tuzilishi respublika hayotida muhim voqea bo'ldi. Maktab faoliyati ijtimoiy pedagogik tamoyillarga asoslandi. Karl Libxnet nomidagi tajriba kommuna - maktabi Toshkent yaqinidagi 600 ta etim bolalar tarbiya topgan ilk maktablardandir. Turkiston ASR hukumati 1918 yilda maktabga Nikolskoe qishlog'i yonidagi yangi binoni berdi. 1919-20 yillar qishi juda og'ir keldi. Isitilmagan xonalarda yashashdi, na chiroq, na kerosin bor edi. Qiyinchiliklarga qaramay maktab pedagogik jamoasi ijod bilan mashg'ul bo'lishni davom ettirdi.. Maktab bayramlarida yosh iqtidorli bolalar chiqish qilishardi. O'quvchilar aksariyat vaqtlarini toza havoda, sport bilan shug'ullanishar, turli rasmlar chizish bilan o'tkazishardi. O'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib maktab pedagoglari ta'lim-tarbiyani qattiqqo'llik tamoyillari asosida olib borishardi. Maktabning o'quv va mehnat faoliyati yorqin ijtimoiy yo'nalishga ega bo'lgan. Masalan, "Nihol" to'garagi eng kambag'al aholiga 6000 dona nihol hadya etdi, 30ta dehqonga qishloq xo'jaligi ko'rgazmasida ishtirok etishga ko'maklashdi.

"Tozalik" to'garagi ovqatlanish, suvdan foydalanish, maishiy va qishloqdagi sanitar-gigienik sharoitlarni nazorat qilardi. O'qituvchilar o'zlari turli fanlardan o'quv qo'llanmalari tuzishar edilar. Jismoniy, mehnat, o'quv va fakultativ mashg'ulotlari bilan bir vaqtda o'tkazilardi. Bahor, yoz va kuzda mashg'ulotlar dala va bog'larda o'tardi. Ular bug'doy, paxta, guruch, jo'xori, sabzavotlar etishtirish bilan birga ipakchilik, asalarichilik bilan ham shug'ullanishardi.

Bunaqa turli xil mashg'ulotlar o'quvchilarda agrotexnik va zootexnik ko'nikmalar paydo bo'lishiga olib kelgan.

Bolalar mustaqilligi va mas'uliyatlilikini rivojlantirishning yana bir metodi o'z o'zini boshqarish tizimi bo'lib, u jamoada muomala qilish ko'nikmalari shakllantirilar edi.

Maktab jamoasi barcha moddiy qiyinchiliklarni bartaraf etdi va 1921 yil bu muassasa tajriba maktabiga aylantirildi. Qisqa vaqt mobaynida iqtidorli va qiziquvchan pedagoglar jamoasining tashabbusi bilan ushbu maktab o'qituvchi kadrlar malakasini oshirish bilan shug'ullanuvchi, shahar va qishloq maktablari uchun metodik qo'llanmalar, dasturlar chiqaruvchi respublika ilmiy-metodika markaziga aylantirildi.

Maktab jamoasi ilk marta "qishloq o'qituvchisining kutubxonasi" nomli metodik darsliklar yaratdi. Shuningdek, 1925 yilda V.Lubentsovning "Boshlang'ich maktabda dars berish metodlari" (o'zbek tilida) nomli kitobi, 1928 yilda V.F.Lubentsov va N.P.Arangel'skiy taxriri ostida "Bilim" nomli o'zbek maktabi boshlang'ich sinflari uchun ilk xrestomatiya chop etildi.

Bu maktab tajribasi nihoyatda qiziqarli bo'lgan va hozirgi ijtimoiy holatda ham qo'llash uchun o'rganishni talab qiladi. 1920-1930 yillarda ijtimoiy pedagogik tarbiyaning asosiy yo'nalishlari quyidagilar bo'lgan:

- ✓ savodsizlikni bartaraf etish (ayniqsa ayollarda);
- ✓ mehnat tarbiyasi va ta'limni yo'lga qoyish;
- ✓ maktab-internatlarni yaratish;
- ✓ ta'limni ishlab chiqarish bilan birlashtirish.

XX asrning 30-yillarida maktabdan tashqari bolalar texnik va qishloq xo'jaligi stantsiyalari, klublari, kutubxona va teatrlari faoliyat yuritdi. Maktab to'garaklari yoshlarning ijodini rivojlantirish vositasi sifatida bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazishi uchun tashkil qilindi. Aynan shu davrda pedagogik faoliyatini boshlagan o'zbek shoiri G'.G'ulomni (1903-1966) tilga olmay iloj yo'q. 1918 yildan G'.G'ulom ilk o'zbek maktab-internatlarining ochilishida faol ishtirok etgan va 1943 yilgacha bu maktablarda dars bergan. Uning faoliyati bir qator ijtimoiy

pedagogik vazifalardan-savodsizlikka qarshi kurash, kattalar uchun kechki kurslarni tashkil qilish, ta'lim berishning ilg'or usullaridan foydalanish, o'quvchilarning mustaqil badiiy faoliyatiga rahbarlik, o'quvchilarda kasb, mehnatga qiziqish uyg'otishdan iborat edi. G'.G'ulom oilaviy tarbiyaga katta e'tibor bergan va bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy rivojlanishi ota-ona shaxsiy namunasiga bog'liq ekanligini dalillar bilan asoslagan.

Urush yillari (1941-1945)da aholiga ijtimoiy pedagogik yordam

ko'rsatish chora - tadbirlari. 1941-1945 yillar urush oqibatida yuzaga kelgan ijtimoiy muammolar bolalarning ahvolini og'irlashtirdi. Davlat va jamoatchilikning urush qurbonlari-bolalarga munosabati o'zgardi. Davlat bu muammolarni ko'chirib keltirilgan bolalar uchun maktab-internat, bolalar uylari sonini kuchaytirish orqali hal etishga harakat qildi. Bu harakat, ayniqsa harbiy urush o'choqlaridan ko'plab bolalar muassasalari ko'chirib keltirilgan O'zbekistonda yaqqol namoyon bo'ldi.

Ko'chirib keltirilgan bolalar va kattalarni joylashtirish va qabul qilish respublika hayotining urush yillaridagi asosiy faoliyatiga aylandi. 1941 yilda Toshkentda Zuev va Pastki Qrim bolalar uyining tarbiyalanuvchilari joylashtirildi. Popda tumanning eng zo'r maktabini bolalar uyiga aylantirildi. Biroq kerakli jihozlar - krovat, ko'rpa to'shak, yostiq, kiyim-kechak yo'q edi. Bularni mahalliy aholi olib kelishar edi. Shuningdek, Toshkentda №1,2,3,15,18 sonli bolalar uylari, 14,15sonli maktab bolalar uylari, Belorussiya bolalar uyi, Go'daklar uyi ham faoliyat yuritardi.

Arxivlarda Toshkent Go'daklar uyining 1941-1942 yillardagi qaydnoma kitoblari saqlanib qolgan. Unda kengash nomiga tushgan bolalikka olish haqidagi arizalar uchraydi. Go'daklar uyida bunday arizalar 1941 yil yanvar-sentyabr oylarida 11ta, noyabr oyida 32ta, dekabrda 79ta, 1942 yil yanvar oyida 86taga etgan. Toshkent shahrida voyaga etmaganlarni qabul qilish va ularni bolalar uyiga joylashtirish markazi tashkil qilingan edi.

1942 yilda bunday markazlar Toshkent, Farg'ona, Urganch, Namangan. Andijon, To'rtko'l shaharlarida ham tuziladi. Qishloq joylarida 2000 ta gacha bolalar uyi

tarbiyalanuvchilarini qabul qilish uchun joylar tayyorlanadi. 100 ta o'rinli nogiron bolalar uyi ham tashkil qilindi. Toshkent viloyatining Kalinin tumanidagi 2- sonli bolalar uyi Odessa va Lugansk shahrining ikkita bolalar uyi tarbiyalanuvchilarini qabul qildi. Moskva, Odessa va Voronejdand ko'chirib keltirilgan 4 ta harbiy-musiqqa maktabi ham bolalar uyida edilar. 1942 yil Yangiyo'l tumanida yangi bolalar uyi tashkil qilindi. Shuningdek, Rishton, Vobkent, Qarshi tumanlarida ham bolalar uylari faoliyat yuritardi.

O'zbekistonga jumladan Samarqandga Evropa davlatlaridan 21-sonli Polsha bolalar uyi va ispan yoshlari ko'chirib keltirildi.

“Front kundaligi” asari muallifi, mashhur rumin publitsisti va yozuvchisi Xarlamb Zinke ham urush yillarida O'zbekistonga 18 yoshida evakuatsiya qilingan edi. U Samarqandda kolxozchi Abdurasul Jo'raev oilasida yashagan.

1944 yil noyabr oyidan Toshkentda ko'chirish markazi faoliyat yuritgan va unda bolalar uyi rahbarlarining eng yaxshilari navbatchilik qilishgan. Bolalarni ko'chirish jarayoni ham havfsiz emas edi, chunki bolalar haftalab yo'lda bo'lishar, ular orasida dizenteriya, teri kasalliklari keng tarqalar edi. Shuning uchun bolalar ikki hafta mobaynida vrachlar nazorati ostida bo'lishar va keyin turli bolalar uylariga jo'natilar edilar. Bu yillarda ko'chirib keltirilgan bolalarni tarbiya qilishga olish keng tarqaldi. Masalan, birinchilardan bo'lib leningradlik qizaloq - Fainani Usmon Yusupov va uning xotini Yulya Stepanenko tomonidan tarbiyaga olingan. Barchaga toshkentlik temirchi SHoahmad SHomahmudov va uning xotini Bahri ayaning jasorati ma'lum. Ular turli millatdagi 14 bolani o'z oilalariga qabul qilishgan.

Toshkentdagi 110-sonli maktabga to'rtta ko'chirib keltirilgan bolani qabul qilishdi va ularga alohida xona ajratishdi. Evakuatsiya qilingan bolalarni o'qitish boyicha ham choralar ko'rila boshlandi.

1944-1945 yillarda ko'r va kar bolalar uchun maxsus sinflar tashkil qilindi. 1942 yil avgustda “Pravda” gazetasida A.Tolstoyning O'zbekistondagi taassurotlari haqidagi maqolasi e'lon qilindi.

Urush davri mobaynida bolalar uylari tarmog'i va ulardagi tarbiyalanuvchilar soni muttasil oshib bordi. 1945 yil oxirida respublikada 267 ta bolalar uyi mavjud bo'lib, ularda 30792 tarbiyalanuvchi bo'lgan.

Urush davrida davlat va jamoat tuzilmalarining asosiy harakatlari bolalarning maktabda o'qishlarini ta'minlashga qaratilgan edi. Xalq ta'limi bo'limlari nafaqat o'quv jarayonini boshqarishgan, balki frontdagilar, ularning oilalari, ko'chirib keltirilgan bolalarga kerakli yordamlarni ham tashkil qilishgan. 1942 yildan boshlab shahar va qishloq maktablari oilalar va frontchilarga yordam ko'rsatishgan. Ularga issiq ovqat, darsliklar, daftarlar, kiyim-kechak berishgan. Maktablarning o'quvchilari kasal bo'lgan sinfdoshlariga va ularning oila a'zolari-onalari, buvilariga uy ro'zg'or ishlarida yordam berishgan, oziq-ovqat va yoqilg'i olib kelishgan, yosh go'daklarga qarab turishgan.

Toshkentning 50- sonli maktabi yaxshi tashabbus bilan chiqdi. YA'ni 1943 yildan boshlab 150 kishilik bolalar dam olish maskani tashkil qilindi. Bu maskanda boshlang'ich sinf bolalari soat 19:00 gacha qolishardi. Bolalar bu erda gigienik talablarga javob beruvchi xonalar, yuqori sifatli tushlik bilan ta'minlanishgan, o'qituvchilar nazorati ostida dars tayyorlashgan, sayr qilishgan.

Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davrda O'zbekistonda maktabdan tashqari muassasalar, shuningdek to'garak, ma'ruza, biror mavzuga oid kechalar keng tarqalgan. Badiiy ijod uylari va saroylarida badiiy, mehnat, vatanparvarlik, estetik va jismoniy tarbiya amalga oshirilgan. Maktabdan tashqari bolalar muassasalariga jiddiy qiyinchiliklarni engishga to'g'ri keldi. Chunki ularning aksariyati o'z binolarini ko'chirib keltirilgan tashkilot, korxonalarga yotoqxona qilib bergan edi. Boshqa ba'zi maktablardan tashqari muassasalar yopilgan edi.

Agar urushgacha maktabdan tashqari muassasalarda ko'proq bolalarning badiiy tarbiyasiga bog'liq to'garaklar ochilgan bo'lsa, urush yillarida esa aviamodelchilar, yosh tabiatshunoslar, texniklar, fizik va ximiklar to'garaklari soni ko'paydi. Bunday to'garaklarda ishlash bolalarning va o'smirlarning texnik qobiliyatlarini oshirdi va ularda turli mehnat sohalari boyicha ko'nikmalar paydo qildi.

O'zbekiston bolalarini badiiy tarbiyalash markaziy uyi 1942 yil bolalar rasmlarining ko'rgazmasini tashkil qilish boyicha tashabbusini ko'tarib chiqishdi. Rasmlardan urush dahshatlari bilan to'qnash kelgan bolalarning taassurotlari joy olgan edi. 400 ta eng yaxshi rasm katta muvaffaqiyat bilan Moskvada ham namoyish qilingan, keyinchalik esa Amerika rassomlarining iltimosiga ko'ra Nyu-Yorkdagi ko'rgazmada ham ishtirok etishgan.

Urush yakunlanganidan so'ng ko'pgina ko'chirib keltirilgan bolalar va oilalar o'z yurtlariga qaytishgan. Bu davrda bolalar uylari tarbiyalanuvchilari sonining kamayishi kuzatilgan, ammo ko'pchilik bolalar va oilalar o'z xohishlari bilan O'zbekistonda qolganlar.

1956 yilda O'zbekiston hukumati jamoatchilikning keng yordami bilan oltita internat-maktabni ochdi: ikkitasi Toshkentda, qolganlari Yangiyo'l, Farg'ona, Qo'qon, Xivada edi. 1962 yilda maktab-internatlar soni 119 taga ko'paydi, tarbiyalanuvchilar soni esa 38000taga etdi. Maktab-internatlar yangi turdagi o'quv-tarbiya muassasalari bo'lib, unda bolalarning o'qishi va rivojlanishi uchun juda yaxshi sharoitlar yaratilgan. Bunday muassasalar faoliyatining asosiy yo'nalish turlari axloqiy, estetik, jismoniy tarbiya, mehnat ko'nikmalarini paydo qilish, hayot bilan aloqani amalga oshirish bo'lgan. Keyinroq respublikada yangi maxsus maktab-internatlar: Glier nomidagi musiqa maktabi, san'at maktabi, sport maktabi ochildi. Bundan tashqari aqliy va jismoniy nogiron bolalar uchun ham maktab-internatlar tashkil etildi. 60-yillar boshqa turdagi tarbiya muassasalari: bolalar bog'chalarining rivojlanishi kuzatildi. Biroq, bu muassasalarning faoliyat yuritishiga qaramay, bunday maktablarning ilg'or tajribasi matbuot va pedagogik nashrlarda yoritilmagan. Natijada respublika ijtimoiy pedagogika fani bugungi kunda nihoyatda qashshoq nazariy va amaliy bazaga asoslanadi.

XX asrning 70-yillari oxirida yoshlarning, ayniqsa o'smirlarning axloqi keskinlashdi. XX asrning 80-yillarida alkogolizm, narkomaniya va taksokomaniyaga qarshi kurash va profilaktika muammolari haqida masala ko'ndalang qoyildi. Bunday muammolarning paydo bo'lishi va tarqalishi maktabning oila bilan munosabatida bir qator muammolarni keltirib chiqardi.

O'quvchilarning ijtimoiy va kasbiy ko'nikmalarini hosil qilish shakllaridan biri o'quv-ishlab chiqarish korxonalarining tashkil qilinishi bo'ldi. Unda bolalar turli kasblarga o'qitilgan. Bunga misol qilib Toshkentdagi 210-TTZ ishlab chiqarish korxonasini keltirish mumkin. Maktab faoliyati va bolalarni himoyalashning ijtimoiy- pedagogik asoslari bilan birga, ta'lim yo'nalishi ham rivojlanib kelgan.

O'zbekistonda ommaviy maktabgacha ta'lim muassasalarining rivojlanishi va unda bolalarning ijtimoiylashuvi tarixidan.

O'zbekistonda ommaviy maktabgacha tarbiyaning yuzaga kelishi o'tgan asrning 1910-1920 yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda Turkistonda bolalarni gimnaziyaga kirishga tayyorlovchi xususiy bolalar bog'chalari mavjud edi. 1919 yilda respublikadagi siyosiy va iqtisodiy holat munosabati bilan o'sib kelayotgan avlodning sog'lig'ini saqlash, oziq-ovqat bilan ta'minlash masalalari bilan shug'ullanuvchi "Bog'chalarni himoyalash Kengashi" tuzildi. Bolalarni davlatning yanada sermahsul mintaqalariga ko'chirib o'tkazish, shuningdek, ularni ovqat, kiyim-kechak, uy, yoqilg'i, tibbiy yordam bilan ta'minlash masalalari o'rganilgan. Bu masalalarni echishning asosiy vositasi ommaviy oshxonalar, bolalar bog'chalari va yaslilar tashkil etish bilan bir qatorda ayollarni respublikaning jamoat va siyosiy hayotida faol ishtirok etishga yordam berishga tayyorlash edi.

Ta'lim ishini rivojlantirish uchun 1918 yilda Toshkentning Eski shahar qismida o'zbek bolalari uchun 4-bolalar bog'chasi tashkil qilindi. 1919 yilda esa Samarqandda 2-bolalar bog'chasi va 3-bolalar uyida maktabgacha guruhlar ochildi. 1926 yilga kelib maktabgacha ta'lim muassasalarida (jami 40 ta) 2000ga yaqin bolalar bo'lgan.¹ Maktabgacha tarbiya muassasi xodimlarining malakasini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturi ishlab chiqildi. 1927 yilda boshlangan ayollarning "Hujum" harakati munosabati bilan bolalarning bolalar bog'chasiga berish hollari yanada ko'paydi. Kasaba uyushmalari va yirik fabrika-zavodlarda ishlayotgan ayollarga yordamchi tashkilot sifatida yozgi sog'lomlashtirish maydonchalari tashkil etildi.

¹ О.О. Эшонхўжаева. Ўзбекистон ССРда таълимнинг ривожланиши. Т.:Фан. 1990 й. 7 б.

XX asrning 30-yillarida bolalar bog'chalarining tozalik va metodik yordam holatini tekshirish keng tarqaldi. Bu tekshirishlar natijalariga ko'ra xonalar va maydonchalarning jihozlanmaganligi, asbob-uskunalar bilan ta'minlanmaganligi, tozalik me'yorlariga amal qilinmasligi kabi kamchiliklarga qarshi kurash olib borilgan.

Qishloqlardagi bolalar bog'chalari va maydonchalari ta'lim muassasalariga nisbatan bo'lgan salbiy qarashlar tufayli katta qiyinchiliklarga duchor bo'lgan.

1930 yilda O'zbekistonda respublikaning barcha katta shaharlari va viloyatlarida o'z bo'linmalariga ega bo'lgan pedagogik maslahatxonalar tashkil qilindi. Uning faoliyati doimiy ma'ruzalar, radiosuhbatlar, ayollar uchun ko'rgazmalar tashkil qilishdan iborat edi. Ular uchun bolalarga eng yaxshi burchak qilish bo'yicha musobaqa ham o'tkazilgan. Pedagogik maslahat beruvchilar oilalarga borishgan, bolalar burchaklarini tashkil qilishgan va shu bilan bolalarni bog'chalarga qabul qilish tartibi hamda oilalarga tarbiya masalalari bo'yicha maslahatlar berib borishgan.

1933-1934 yillarda O'zbekistonda 3840ta kolxoz maydonchalari bo'lib, unda 127 ming bolalar qatnashgan. 1933 yil bolalar bog'chalari uchun ilk dastur loyihalarini ishlab chiqarish yili sifatida muhrlandi. Rusiy zabon bolalar bog'chalari dasturlari asosida tuzilgan bu dasturlar keyinchalik mahalliy sharoitlarni inobatga olib qayta tuzildi.

Ta'lim birlashmalarining metodik faoliyati yagona markaz tomonidan rahbarlikni amalga oshirishga ehtiyoj sezgan. 1934 yil Toshkentda tuzilgan Respublika ta'lim metodik xonasi shunday markaz vazifasini bajardi.

Ommaviy ta'limning rivojlanishida eng katta to'siqlardan biri malakali kadrlarning etishmasligi bo'lgan. Qishloq aholisidan kadrlar tayyorlash uchun qisqa muddatli uch oylik kurslar tashkil qilingan. Bundan tashqari XX asrning 30- yillaridan boshlab ta'lim mutaxassislarini tayyorlash vazifasi pedagogika o'quv yurtlari zimmasiga qoyildi. 1930 yildan Toshkentda faoliyat yurituvchi pedagogika o'quv yurti 1936 yilga 60 ta mutaxassis tayyorladi.

1938-1939 yillarda respublikada 927ta bolalar bog'chasi ochilgan edi va ularda 36710 ta bola bor edi. Maydonchalar soni esa 4835 ta bo'lib, ularda 152000 bola bor edi. Shu bilan birga bu vaqtda onalar uchun "Bolalar xonalari" ham tashkil etilgan.

Shu yillarda ta'limni yaxshilash maqsadida quyidagi choralar ko'rilgan:

- ✓ joylarda metodik ishlarni tashkil qilish;
- ✓ mebel, o'quv qo'llanmalari, oyingohlarga qoyiladigan talablarni ishlab chiqish;
- ✓ ta'lim masalalariga jamoatchilik va aholining e'tiborini qaratish (matbuotda nashr qilish, hujjatlarni tuzish) va sh.k.

Urush yillari O'zbekistonda 200.000 bola ko'chirib keltirilgan va natijada bolalar bog'chalari tarmog'ining kengayishi, ularda ish kunini uzaytirish zaruriyati paydo bo'lgan. Urush yillari maktabgacha internatlar ham tashkil qilingan. Ulardagi tarbiyaning o'ziga xosligi shundan iboratki, ularda o'z oilasi, yaqinlaridan ajragan bolalar tarbiyalangan. Bu hol pedagoglarda har bir bola uchun yanada mas'uliyatli va e'tiborli bo'lishni taqazo etgan.

Urushdan keyingi davrda oziq-ovqat muammolari tufayli kuchsizlangan bolalar uchun sog'lomlashtirish chora-tadbirlari kuchaytirildi. Bu maqsadda respublikaning bir qator shaharlarida sanatoriya tipidagi bog'chalar tashkil qilindi. Qishloq hududida ta'lim ning rivojlanishiga katta ahamiyat berildi. Bu qishloq ho'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqishda ayollar mehnatidan foydalanish zaruriyati bilan bog'liq edi. 1959 yildan ta'lim ning yagona tuzilishini tashkil qilish maqsadida ikki turdagi ta'lim muassasalari bitta bolalar bog'chaga birlashtirildi. Bu esa bolalarni tarbiyalash jarayonining faollashuviga olib keldi.

O'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar Toshkent va Marg'ilon pedagogika bilim yurtlari tomonidan tayyorlangan. 1957-58 yillar ular 517 ta mutaxassis chiqarishgan. Metodik va tarbiya ishlarini yaxshilash maqsadida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Namangan, Farg'ona, Chirchiq shaharlarida metod xonalari ochilgan. 1961 yil Qori-Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot

institutida O'zbekistondagi ta'lim muammolari borasida tadqiqot olib boruvchi, bolalar bog'chalari va metodika xonalariga yordam ko'rsatuvchi markaz ochildi.

Toshkentda 1966 yil 26 aprelda bo'lib o'tgan zilzila natijasida 225 ta ta'lim muassasalari barbod bo'ldi. Biroq qisqa vaqt mobaynida boshqa respublika quruvchilari yordami bilan bu muassasalar qayta tiklandi.

XX asrning 60-80-yillarida ommaviy ta'lim quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilgan:

- ✓ xo'jaliklararo ta'lim muassasalarining ish tajribasini o'rganish uchun respublika miqyosida anjumanlar o'tkazish;
- ✓ kolxozlar orasida "Eng yaxshi ta'lim muassasasi" sovrinlari uchun musobaqalar o'tkazish;
- ✓ yuqumli kasalliklardan aziyat chekuvchi bolalar uchun maxsus muassasalar tashkil etish;
- ✓ bolalar sog'ligini saqlash boyicha ta'lim muassasalarini tashkil qilish;
- ✓ Bolalar bog'chalari(MTM) va boshqa tarbiya muassasalari uchun mutaxassislar tayyorlash;
- ✓ respublikaning pedagogik va musiqa o'quv yurtlarini keng turdagi mutaxassislar tayyorlab berishga o'tkazish;
- ✓ maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning yagona dasturini ishlab chiqish;
- ✓ bolalarning estetik tarbiyasiga katta ahamiyat berish, o'zbek milliy san'ati asarlaridan foydalanish va boshqalar.

O'zbekistonning mustaqil davlat maqomini qo'lga kiritishi bilan jamiyatning ijtimoiy muammolari yanada ko'paydi va keskinlashdi. Birinchidan, siyosiy, ma'naviy, iqtisodiy ustuvor yo'nalishlarning almashishi, ikkinchidan, bu davrda ijtimoiy muammolarni yaxshi tushunmaslik oqibatida roy berdi. Biroq, demokratiya va oshkoralik tamoyillari, xorij davlatlari tajribasi yordamida davlat muhtojlarga real ijtimoiy pedagogik yordam bermoqda, ijtimoiy pedagogik fanini rivojlantirish uchun chora-tadbirlar ko'rmoqda.

Adabiyotlar:

1. Tillashev Z. Pedagogicheskaya mysl prosvetiteley Uzbekistana – T.: Znanie, 1984.
2. Raximov S.R. Psixologo-pedagogicheskie vzglyady Abu Ali ibn Sinы. – T.: Ukituvchi, 1979.
3. Xayrullaev M.M. Mirovozzrenie Farabi i ego znachenie v istorii filosofii. – T.: Fan, 1967.
4. Zaxidov V.Y. Biruni kak myslitel // Biruni. – M.-L.: Izd-vo AN SSSR, 1950.
5. Turakulov E. Biruni o vospitanii i obuchenii: Diss. ... kand.ped.nauk. – T., 1987.
6. Tillashev X. Obщepedagogicheskie i didakticheskie idei uchenых-entsiklopedistov Blijnego i Srednego Vostoka epoxi srednevekovY.
7. Taxiroy M. Pedagogicheskie vzglyady Mirzo Ulugbeka. – T.: Fan, 1984.
8. Xasanov S. Prosvetitelsko-pedagogicheskie idei Munisa Xorezmi: Diss. ... kand.ped.nauk. – T., 1990.
9. Antologiya pedagogicheskoy myсли Uzbekskoy SSR. – M.: Pedagogika, 1986.
10. Poluvekovoy put narodnogo obrazovaniya Uzbekskoy SSR. – T.: Ukituvchi, 1974.
11. Allabergenova X. Narodnoe obrazovanie na pod’eme. – T.: Ukituvchi, 1978.
12. Abbasova O.S. SHagi reformы. – T.: Ukituvchi, 1987.
13. Rachinskaya E.V. Narodnoe obrazovanie v Uzbekistane v godы Velikoy Otechestvennoy voynы. T., 1963.
14. Yuldashev D.G. Sistemy povыsheniya kvalifikatsii pedagogicheskix rabotnikov. – T.: SHark, 1996.

O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY PEDAGOGIKA FANINING RIVOJLANISH SHART-SHAROITLARI

O'zbek xalq pedagogikasining zamonaviy ijtimoiy g'oyalari.

Ajdodlar tajribasini o'rganish zamonaviy pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biridir. Biroq tarbiyaning milliy xususiyatlariga murojaat qilish madaniy jihatdan o'z qobig'iga o'ralib qolmasligiga olib kelmasligi kerak. Zamonaviy pedagogika fanining maqsadi milliy xususiyatlar asosida fanning zamonaviy muammolarini echishga yordam beruvchi, uning rivojiga o'z hissasini qo'shuvchi kuchlarni topishdan iborat bo'lmog'i lozim.

Hozirda dunyoning turli davlatlarida xalqlarning madaniy xususiyatlariga katta e'tibor berilishi mavjud madaniy yutuqlarning hozirgi zamon talablariga javob berishi, ma'lum muammolarni hal qilish uchun ulardan foydalanish masalasining keskinligini tushirmaydi. O'sib kelayotgan avlodni hayotga tayyorlashning ko'p asrlik tajribasi yordamida yoshlarning zamonaviy bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyatga tayyorlash mumkinmi, degan masalada qizg'in bahs munozara boradi.

Qanday qilib xalqning o'z milliy qiyofasi, madaniy xususiyatlarini tiklamasdan bugunning muammolarini echsa bo'ladi? Shubhasiz, moziy tajribasida, xalq pedagogikasida ta'lim va tarbiya jarayonlarida qo'llash mumkin bo'lgan ko'p narsa bor. Xalq pedagogikasi shaxsga ijtimoiy xususiyatlarni paydo qilish uchun lozim bo'lgan pedagogik bilim, ko'nikma va malakalar, ta'lim-tarbiya berish yo'llari, vositalarining majmuasi hisoblanadi.

Milliy pedagogika xalqning ta'lim-tarbiya masalasi yuzasidagi qarashlari, g'oyalari, an'analari asosida shakllanadi. Milliy pedagogikaning tengsiz qadriyati shuki, u, birinchidan, o'zida asrlar davomida shakllangan pedagogik haqiqatlarga ega, ikkinchidan, esa u hayotiy, amaliy xarakterga ega. U o'z ifodasini xalq pedagogikasining barcha g'oyalari amaliy tajribaga asoslanganligi,, amaliyotda sinalgan va yosh avlodni tarbiyalash boyicha amaliy faoliyatga qaratilganligida topadi..

Xalq pedagogikasidagi mavjud hayotiy (maishiy, mehnat, axloqiy) va pedagogik ma'lumotlar, kuzatuvlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, bular muomala jarayonida ham kattalar, ham bolalar tomonidan bir xil o'zlashtiriladi. Xalq pedagogikasi tarixiy va ijtimoiy tajriba mahsuli bo'lishi bilan birga ijtimoiy axloq va ijtimoiy moslashuv malakalarining shakllanishi vositasi, omili hisoblanadi.

Xalq pedagogikasi jamiyatning pedagogik madaniyatidagi eng yaxshi qadriyatlarni mujassamlashtirgan: kattalarga hurmat, mehmondo'stlik, mehnatsevarlik, yuqori axloq, rostgoylik va boshqalar.

Xalq pedagogikasining ijtimoiy xarakteri yana shundaki, u ko'pgina etnomadaniy hodisalar - dunyoqarash, tibbiyot, etika, din, ekologiya va boshqalar bilan o'zaro munosabatda yorqin namoyon bo'ladi. Bu muammolar olimlar tomonidan o'rganilmoqda.

O'zbek xalq pedagogikasida shaxs dunyoni hayotiy va shaxsiy tajriba orqali o'zlashtiradi, degan teran fikr mavjud, chunki u boshqa shaxslar bilan muomalaga kirar ekan, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

O'zbek xalqida shunday naql bor: chaqaloq hali shaxs emas, u tom ma'nodagi inson bo'ladimi, yo'qmi-bu uning ota-onasi, uni o'rab muhit va boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatiga bog'liq. Shuning uchun xalq pedagogikasida ta'kidlanishicha go'dak faqatgina avlodlar tomonidan erishilgan, ishlab chiqarilgan turli ong shakllarini o'zlashtirsagina go'dak shaxsga aylanadi. Bolaning tug'ilishi bilan tarbiyani boshlamaslik halq hayotining rivoji, oldinga intilishiga salbiy ta'sir etadi. Bu g'oya ko'psonli xalq rivoyatlari, afsonalari, dostonlarida o'rin olgan. Agar uni zamonaviy tushunchalarda ifodalasak, o'zbek xalq pedagogikasining asosini bolaga g'amxo'rlik qilish, uning sog'ligi haqida qayg'urish, uning hayotini himoya qilish, kattalar tomonidan uning aqliy rivojini, axloqiy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyasi uchun ularga ta'sir qilishning majmuasi tashkil etadi.

O'zbeklar etnografiyasini o'rganish uchun turli xil materiallarni tahlil qilar ekanmiz, u o'ziga yarasha mukammal inson modelini yarata olishini e'tirof etishimiz mumkin.

Buyuk ma'rifatparvarlar, olimlar, pedagoglar, shoirlarning asarlarini o'rganish inson tarbiyasi haqidagi xalq g'oyalari ularning mazmuniga singdirilganini ko'rsatadi. Ibn Sinoning "Tadbiri manzil" kitobining "Bolalar tarbiyasi va ta'limi" bobida oila tarbiyasidan, Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kitobida turli xalqlarning an'analaridan, Al-Farobiyning "Katta musiqa kitobi"da xalq musiqasidan ko'p misollar bor. Nosir Husravning "Baxt kitobi"da ham oddiy odamlarning mehnatlari ulug'lanadi.

Xalq pedagogikasini o'rganish uchun S.R.Rajabov, A.Ismoilova, I.Obidova, S.Temurova, M.Ochilov, A.Otaeva, Z.Mirtursunov, A.Minavarov kabi o'zbek olimlari ilmiy izlanishlar olib borganlar. Bu mualliflarning ishlarini birlashtirgan holda o'zbek xalq pedagogikasining quyidagi yo'nalishlarini ajratsak bo'ladi:

- ✓ bolaning aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va estetik tarbiyasining o'zaro aloqasi asosida har tomonlama rivojlanishi g'oyasi;
- ✓ shaxsning rivojlanishida oilaviy tarbiyaning etakchi rolini belgilash;
- ✓ xalq pedagogikasi usul va tamoyillarining xalq ijodi namunalarida mujassamlashuvi;
- ✓ ta'lim-tarbiyaning pedagogik usullarini birlashtirish;
- ✓ xalq pedagogikasining amaliy xarakteri;
- ✓ xalq pedagogikasining o'sib kelayotgan avlodni fuqarolik, oila faoliyatiga tayyorlashdagi ijtimoiy roli.

Xalq pedagogikasi xalq og'zaki ijodi namunalari - maqol, ertak, topishmoq, ashula, doston, rivoyatlarda o'zining ifodasini topgan. Aynan shularda xalq asrlar mobaynida o'z ijtimoiy tajribasini umumlashtirgan. Ular hikmatlar shaklida pand, o'git, nasihat mazmuniga ega bo'lib xalqning ijtimoiy hayotga bo'lgan real (hayotiy) qarashlarini ifodalaydi.

O'zbek xalq pedagogikasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri xalq og'zaki ijodi matnlarida tarbiyaning vosita, usullarining tavsifi beriladi.

Hayotiy sharoitlar, oilaviy an'analar, tarbiya usullari va vositalari o'zbek xalqi orasida nihoyatda turli-tumandir va bundan ko'p sonli manbalar dalolat beradi.

Aynan shularda biz mehnat jarayonlarini yigit va qizlar uchun mo'ljallangan bayramlarning o'ziga xos tavsiflarini topamiz.

An'ana, odat, marosimlar avloddan-avlodga o'tgan. Nikoh tuzish, bolaning tug'ilishi, mehmonlarni kutib olish va kuzatish, dafn marosimi, mehnat jarayonlarini o'tkazishning muayyan qoidalari va boshqalar mavjud bo'lgan. Bu marosimlarda bolalarning doimiy ishtiroki ta'minlanadi. Bu odatlar yordamida o'zbeklarning an'anaviy muomala shakli shakllanadi.

Sobiq sho'ro tuzimi davrida milliy an'analarga, odatlarga hurmatsizlik qilish oxir-oqibat axloqiy holatlarning yomonlashuviga olib keldi. So'nggi yillarda insonlarning tabiat, jamiyat, dinga nisbatan munosabatlariida erkinlik paydo bo'ldi. Bunday sharoitlarda odat, marosimlar, muomala madaniyatdagi o'ziga xoslik o'sib kelayotgan avlodning har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash tizimida yanada muhim o'rin tuta boshladi. O'zbek xalqi axloqiy odatlarining mustahkamligi asosan oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiyaga alohida ahamiyat berilishi bilan bog'liq.

O'zbek xalq pedagogikasida sevgi, oila, bolalar haqidagi qarashlar ko'p yillik tajriba ta'sirida shakllangan. Bu tushunchalarning qonun va qonuniyatlarida pedagogik amaliyotda sinalgan tarbiya normalari, qoidalari o'z aksini topgan. Xalq pedagogikasida oila inson hayotida eng asosiy tarbiya omili sifatida ko'riladi. Oila jamiyat negizidir. Oila bolalarga ta'sir etish usullari, odat-an'analarni bilishi kerak. U dam olish tartibini, bolalarning mehnat va o'quv mashg'ulotlarini belgilashi lozim. Shuningdek, oila ota-ona va bolalar orasidagi o'zaro munosabatlarning eng qulay me'yorlarini ishlab chiqadi. Chunki bola o'zini qiziqtirgan masalalar boyicha eng avvallom bor o'z ota-onasi bilan o'rtoqlashadi. Bu erda oila a'zolari orasidagi munosabatlar amalga oshadi, hamda ota-onaning tarbiyaviy vazifalari aniqlanadi.

Oila va oilaviy tarbiyaning u yoki bu xususiyatlari doimo xalq e'tiborida bo'lgan va bu xalq pedagogikasida o'z ifodasini topgan. Xalq avvalom-bor baxtli oila yaratish uchun kurashgan. Xalq pedagogikasida oilani "baxt manbai", "tabiat go'zalligi", mehnatsevar oila jamoasi sifatida ko'riladi, oilada ayol va erkak teng

huquqliligini e'tirof etiladi, ayollar huquqini himoya qiladi, ajralishlarni qoralaydi, oilaviy nizolarni nihoyatda ehtiyotkorlik bilan hal qilishni maslahat beradi.

Xalq pedagogikasida onalikka oliy ijtimoiy qadriyat sifatida qaraladi, xalq og'zaki ijodida esa ona doim ulug'lab kelinadi. Oilaning ijtimoiy vazifalarini xalq bolada ahloq, hurmat, kattalar va kichiklar bilan hushmuomala bo'lish, qishloq xo'jaligi, kasb-hunar malakalarini egallashda ko'rgan.

Islom dinidagi ma'naviy-axloqiy o'g'itlarning ijtimoiy mazmuni.

So'nggi paytlarda respublikamiz olimlari xalq pedagogikasining manbalari doirasini kengaytirishni taklif qilishmoqda. "Evropa pedagogikasida tarbiya uchun zarur bo'lgan umuminsoniy xislatlarning mavjudligini tan olgan holda, Yan Amos Komenskiy, Ushinskiy, Makarenkolarning ilmiy merosiy ahamiyatini e'tibordan chetda qoldirmay, bizda ham boshqa xalqlarda bo'lgani kabi Beruniy, Forobiy, Imom al-Buxoriy, At-Termiziy, Navoiy, Avloniy, Behbudiy, Munavvarqori kabi mashhur mutaffakkirlar borligini unutmasligimiz lozim. Yoshlarimiz ko'p yillar mobaynida ulardan, buyuk merosdan bebahra bo'lishganligi esa achinarli holdir." ko'rib chiqish kerak

Shuni ham nazarda tutish kerakki, bu sanab o'tilgan shaxslarning barchasi Beruniy, Farobiy va Navoiylardan tashqari bevosita islomga aloqador bo'lishgan. Imom Buhoriy (810-870) islom olamida mashhur hadisshunos olim hisoblanadi. 600000 hadis ichidan 7400 sahih hadisni tanlab olib, u "Al-Jome' Sahih" kitobini yozgan, bu asar Qur'ondan keyingi o'rinda turuvchi muqaddas kitob hisoblanadi.

At-Termiziy- eng yirik musulmon olimlaridan biri, 80 tadan ko'p islom tarixi, ta'limoti, so'fiylik nazariyasiga bag'ishlangan asarlar yozgan. Uning "SHamoyili Muhammadiya" (Muhammad hayoti) asari barcha diniy o'quv yurtlarida darslik hisoblanadi. Gap shundaki, aksariyat voqea-hodisalar islomning paydo bo'lish davriga tegishli bo'lsa, ularning katta qismi islomning keyingi rivoji bilan bog'liq. Hadislarning obro'si bilan islomda shakllanayotgan yangi tamoyillar, diniy, huquqiy, maishiy va ma'muriy amaliyotning barcha sohalari yoritilgan. Hadis

shaklida islomga madaniy va g'oyaviy merosning ko'pgina turlari kirdi. Biroq hadislar Qur'on va islomdan tashqarida mavjud bo'lmaydi.

Islom monoteistik din, ya'ni uning mazmuni yagona xudo-Allohga iymon keltirishdir. Bu dinning asoschisi payg'ambar Muhammad s.a.v.(570-632). Musulmonlar o'limdan keyingi hayotga ishonishadi. Ularning muqaddas kitobi Qur'onidir.

Qur'on matni VII asrda yozilgan. Xalifa Usmon davrida Qur'on yagona kitob shakliga keltirilgan va uning boshqa barcha matnlari yo'q qilingan. Qur'on 114 suradan iborat. Oddiy musulmon Qur'onning murakkab suralarini faqatgina tafsirlar orqali tushunishi mumkin. Eng mashhur tafsirlar At-Tabariy, Zamahshariy, Baydoviy, Fahriddin, ar-Roziy, al-Qurtubiyga tegishli. Natijada sunna-Qur'onni mazmunini tushunishini boshqarish yaratilgan. Sunna oila a'zolari, qabila a'zolari orasidagi munosabatlarni tartibga keltirgan, yozilmagan axloqiy qoidalar sifatida ham qo'llanilgan. Sunna hadis shakliga ega. Hadislarni yig'ish, ularni ajratishga ko'p olimlar o'z umrlarini bag'ishlaganlar. Islomga muvofiq Qur'on barcha musulmonlar boysunishlari lozim bo'lgan muqaddas kitobdir.

Muhammad (s.a.v.) va sahobalarning hayotidagi hatto ahamiyatsiz oilaviy sunnalar ham ilohiylashtirilgan va insonlarning eng katta xohishi payg'ambarga o'xshashga harakat qilish bulgan. Bu o'xshashlik nafaqat milliy tamoyillarni qabul qilish balki marosimlar, odatlarni ham qamrab olgan. Qur'on aslida ijtimoiy-huquqiy qoidalar yig'indisi hisoblanadi. Qur'on nafaqat SHarqda balki Evropada ham nihoyatda e'zozlanadi.

VII asrning o'zidayoq islom inson hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi insonning ijtimoiy huquq va erkinliklarini e'lon qildi.

SHariatning huquqiy qadriyatlari ijtimoiy xarakterga ega va quyidagi tamoyillarga asoslangan odil jamiyatni ifodalaydi:

- ✓ jamiyatning barcha a'zolarining irqi, tili va diniy mansubligidan qat'iy nazar tengligi;
- ✓ jamiyat barcha a'zolarining teng mas'uliyatga egaliklari, chunki ular bitta manbadan kelib chiqqanligi;

- ✓ inson hayoti va erkinligi tengligi;
- ✓ oila jamiyatning asosidir: jamiyat oilani o'z himoyasiga oladi va unga g'amxo'rlik qiladi;
- ✓ boshqaruvchi va boshqariluvchilarining tengligi;
- ✓ yagona Alloh barcha narsaning egasi va u tomonidan yaratilgan ne'matlar barcha mavjudot va maxluqotlarga uning hadyasidir. Har bir inson bu hadyadan o'z bo'lagini olishga haqli.
- ✓ xalq va jamiyatga tegishli barcha siyosiy, ijtimoiy va boshqa masalalar xalq bilan maslahatlashib hal qilinishi lozim.
- ✓ o'zining dunyoviy ishlari uchun har kishi jamiyat oldida javob beradi. Inson va ma'naviy hayotga tegishli ishlari uchun esa-faqatgina Alloh oldida;
- ✓ jamiyatning bir bo'lagi bo'lmish inson ma'n etilganlarni sodir etayotgan shaxsga qarshi da'vo qilishi mumkin va sh.k.

Islom hadislarida bayon etilgan eng muhim inson huquqlari sifatida quyidagilarni kafolatlaydi:

- ✓ yashash huquqi, o'limdan so'ng esa janoza o'qilishiga “Agar birortangiz birodaringizni kafanlasangiz, bu ishni hurmat va mehr bilan qiling”, “o'liklarni urishmang, ular o'tmishlarini tugatishdi”;
- ✓ erkinlik huquqi, “siz qachon odamlarni qulga aylantirdingiz. Axir ular ozod tug'ilishgan edi-ku?”
- ✓ tenglik huquqi, “arab boshqalardan, boshqalar esa arabdan ustun emaslar, qora sariqdan, sariq esa qoradan ustun emas. Ustunlikka sazovor bo'lgan inson ustundur”;

Islom dini besh asosga tayanadi:

- ✓ Iymon-Allohdan boshqa iloh yo'q va Muhammad (sav) uning rasuli.
- ✓ Solat-musulmon kunida besh mahal bajaradigan ibodat (namoz).
- ✓ Zakot-rahmdillik. Beruvchi insonning munosabati, u berayotgan miqdordan muhimroqdir.
- ✓ Ro'za, ramazon musulmonlar uchun muqaddas oy, chunki aynan shu oyda Muhammad (sav) payg'ambar bo'lgan.

✓ Haj – har bir imkoni bor musulmon Makkaga haj safari uyushtirishi lozim.

Tarbiyaviy vositaga ega bo'lgan Qur'on oyatlari muhim ahamiyatga ega. Ularda ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabat haqida bolalarni tarbiyalayotgan ota-ona nimaga intilishi haqida, shuningdek ular etmoqchi bo'lgan maqsadlar ham aniq belgilab qoyilgan.

Qur'on musulmonlar hayotining mazmuni va maqsadi haqidagi qarashlariga katta ta'sir ko'rsatgan va uning g'oyalari musulmon halqlarining madaniyatidan chuqur joy olganlar hamda xalq pedagogikasi manbalari-maqol, rivoyat, ertaklar va boshqalarga har tomonlama ta'sir ko'rsatgan.

O'sib kelayotgan avlodning tarbiyasi va ijtimoiy jarayonlarga moslashuvida bilim, unga munosabat masalasi doimiy muammo hisoblanadi. Bu muammo zamonaviy sharoitda yanada keskin ko'rinish kasb etmoqda. Bir tomondan iqtisodiy hayotda roy berayotgan jarayonlar shunga olib keldiki, bilimsiz odamlar katta pul topadigan bo'lishdi. Ularning topganlari bilan ziyolilarning maoshini tenglashtirib bo'lmaydi. Buning hammasi yoshlarda bilim olishga qiziqish pasayishiga sabab bo'ldi. Ularga bilim olish moddiy va ma'naviy muvaffaqiyat garovi bo'lib tuyulmayapti. Boshqa tomondan esa bozor munosabatlari va unga bog'liq bo'lgan texnikaning doimiy yangilanishi, korxonalar orasidagi raqobat, ishsizlik yoshlardan faqat chuqur bilimlar, balki ularning doimiy yangilanishini ham talab qiladi.

Yoshlarning bilim olishida Qur'on tayanch bo'lishi mumkin. Ma'lumki, Qur'onda "ilm" so'zi 750 marta uchraydi. Agar Qur'on 780000 so'zdan iboratligini inobatga olsak, "ilm" so'zi muqaddas kitobning ma'lum qismini tashkil qilishi ma'lum bo'ladi.

Qur'on inson bilimlarini ikkiga ajratadi- diniy va dunyoviy. Diniy bilimlar-dunyo asoslarini, dunyo yaratilishini bilish. Bilimning bu turi inson etishishi mumkin bo'lgan eng oliy cho'qqidir. Bu masalaga qisqa to'xtalib o'tsak.

Qur'onda inson ega bo'lgan dunyoviy bilim haqidagi oyatlarni uchratamiz. U badanning uch a'zosi-ko'z, quloq va yurak bilan qo'lga kiritildi.

Bilimning holatlaridan tashqari Qur'on uning rivojlanishining dialektik, dinamik jarayonini va inson tomonidan o'zlashtirilishini ham qayd etadi. Buning hammasi Muhammad s.a.v. bu fenomenga qanchalik e'tibor berganligidan dalolat beradi. Endi esa Qur'on qoidalarida hadislarida o'z rivojini topishini ko'rib chiqamiz. F.Rouzental to'liq hajmda Imom Buxoriyning "as-Sahih" asarini tahlil qilib chiqqan va ularda bilim bilan bog'liq quyidagi g'oyalarni ko'rsatib o'tgan:

- ✓ bilim talab qilish jannatga yo'l ochadi;
- ✓ bilim faqatgina o'qish orqali qo'lga kiritiladi;
- ✓ inson rahbar bo'lishidan oldin bilimli bo'lishi kerak;
- ✓ ayollarni o'qitishga ruxsat berilgan;
- ✓ ilm va olimlarning yo'qolishi dunyoning oxiriga etganini bildiradi.

Boshqa mashhur hadislarda ham islom nuqtai nazaridan bilim va fanlar naqadar qadrli ekanligini bildiruvchi g'oyalar uchraydi:

- ✓ to'lin oy qancha yulduzlardan ustun bo'lsa, olimlar mo'minlardan shunchalik ustundirlar.
- ✓ olimlar o'zlaridan keyin pul emas, bilim qoldiruvchi vorislardir.

Har bir alohida shaxsning ijtimoiylashtirish munosabati bilan Qur'onning hayot va inson mehnatiga nisbatan bo'lgan munosabati haqidagi g'oyalarining ahamiyati katta. Islomshunoslarning tadqiqotlarida islomning inson hayoti va mehnatga nisbatan munosabati borasida izlanishlar olib boriladi. Qur'on boyliklarni qoralaydi, biroq u barcha boylikni emas, balki Xudo qismatni musulmonning farzlarini unutishga chorlovchi boylikni qoralaydi. Agar boylik din nuqtai nazaridan halol topilgan bo'lsa va zakoti berilsa, uni islom qonuniy hisoblaydi. Qur'on harakatsizlikni ham qoralaydi. U ham dunyoviy, ham diniy ishlardagi faol kishilarni yoqlab chiqadi.

Bu borada tarbiya tizimiga hadislarini qo'shish nihoyatda maqbul hisoblanadi. Chunki ularda payg'ambarning hayoti va faoliyatidan turli hikoyalar va uning axloqiy pandlari mavjud. Hadislarda islom asoslarining sharhlari berilgan, mehribonlik, muqaddas dargoh, tozalik, halol-harom, ayyorlik kabi tushunchalar

ko'rib chiqiladi. Shuningdek, yaxshilik, yomonlik, axloq to'g'risida o'gitlar berilgan.

Hadislarning pedagogik tahlili ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan eng muhim mazmuniy yo'nalishlarini aniqlash imkonini berdi:

- ✓ “go'zal xulq sohibi” – u insonlarning bir-biriga ishonchini paydo qiladi;
- ✓ o'z xatolarining tan olinishi xalqning buyukligidan dalolat beradi;
- ✓ o'z fikrini bildirish – inson kuchining ifodasidir. O'z fikrini bildirmaslik esa shariat va sog'lom fikrlashga nisbatan norozilik alomati;
- ✓ o'z farzini tushunish va uni ixtiyoriy bajarish insonda yaxshi xislatlar paydo bo'lishiga olib keladi; insonning o'z Vatani, do'stlari, xalqi oldida majburiyatini bajarishi-inson tarbiyalanganligining ko'rsatkichi;
- ✓ hayotda vaqtning qadriga etish-insonning va jamiyatning rivojlanishining asosiy shartidir;
- ✓ sabr qilish baxtsizlik, etishmovchilik, kasalliklarni engishga yordam beruvchi xislatlar. Muvaffaqiyatga erishish uchun aqldan tashqari sabr ham talab qilinadi;
- ✓ insonni farishta darajasiga ko'taruvchi, bu - hislatdir. Undan mahrum bo'lgan kishida asl sevgi bo'lishi mumkin emas. Ichkilikbozlik, fahsh, zino-buning hammasi irodasizlikdir. Bunday insonlar atrofdagilarga, o'z xalqiga zarar keltiradi;
- ✓ chuqur fikr yuritish-insonning aqliy voyaga etganlik alomatidir;
- ✓ kim o'z o'tmishini yo'qotsa-uning kelajagi yo'qdir. Qariyalarning hikmatlarini unutgan yosh avlod iymonni ham unutadi va shunda yovuzlik yaxshilik ustidan g'alaba qozonadi.

Milliy mentalitet va uning ijtimoiylashuvda tutgan o'rni. Ijtimoiy pedagogikaning amaliyoti va nazariyasi xalqning etnografik, tarixiy, madaniy an'analari va xususiyatlariga bog'liq va inson, insoniy qadriyatlar haqidagi diniy va axloqiy qarashlarga suyanadi. Inson tsivilizatsiyasi davomida har qanday jamiyat o'zi mustaqil mavjud bo'lishini ta'minlay olmaydigan a'zolari: bolalar, qariyalar, kasallarga munosabat mavzusi bilan bir necha bor duch kelgan. Bunday odamlarga munosabat jamiyatning g'oyaviy, ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy va milliy

xususiyatlariga bog'liq ravishda rivojlangan va ularning jismoniy yo'q qilinishidan tortib, jamiyatda to'liq integratsiyalashuvlarigacha bo'lgan ko'rinishlarda ifodalangan.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, davlat va jamiyat rivojining o'ziga xos yo'lini tanlashi, milliy-madaniy, ma'naviy qadriyatlarni tiklash, saqlab qolish imkonini berdi va hayotning barcha jabhalarida milliy xususiyatlarni inobatga olish vazifasini qoydi.

Bugun shaxs shakllanishiga bevosita va bilvosita ta'sir qiluvchi omillarni alohida inobatga olish kerak. Bunday omillarga nafaqat moddiy, g'oyaviy va psixologik sharoitlar, balki shaxsning shakllanishi roy bergan muhit ham mansubdir. Bu jarayonga mustaqil davlatlarda olib beriladigan millatlararo munosabatlar milliy siyosat ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu ayniqsa shaxsiy hislatlarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday xislatlarga milliy o'z-o'zini anglash, g'urur, iftixor kabi tushunchalar kirishini e'tiborga olsak, shaxsning axloqiy shakllanishi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga chambarchas bog'liq holda kechadi, dab xulosa qilish mumkin.

O'zbek xalqi o'ziga xos etnik muhit egadir. Bunday muhitda bolalar yoshligidan o'z ona (milliy) tillarining va unda aksini topgan ertaklar, afsonalar, rivoyatlar, maqollar, ashulalarning ta'sirida bo'ladilar. Bolalar asta-sekin milliy an'analar, urf-odatlarining aniq me'yorlariga ko'nikishadi. O'quvchilarda milliy tarixni, adabiyotni o'rganishi va ona tillarida turli ma'lumotlarni olishi orqali o'smirlik yoshida o'z mansubligini va etnik umummilliylikni anglash roy beradi.

Etnomadaniy sharoitlarning ijtimoiylashuviga ta'lim mentalitet (bu tushuncha XX asr boshida frantsuz olimi L.Levi Bryul tomonidan fanga kiritilgan) darajasida namoyon bo'ladi. Mentalitetning tarqalishi xalq tushunchasidan xoli bo'lmaydi. Etnos-bu tarixan bir hududda shakllangan, til, madaniyat, ruhiyatning umumiy, nisbatan barqaror xususiyatlariga ega, shuningdek boshqa shunday tuzilmalardan o'z-o'zini anglashi bilan ajralib turuvchi insonlar majmuasidir. Etnos (xalq)ga mansublik tug'ilishdanoq bo'lmay, ijtimoiylashuv, shaxsning muayyan madaniy sohadagi shakllanishi, bolaning axloqiy steriotiplarni o'zlashtirishi davomida

paydo bo'ladi. Etnosning muhim xususiyatlaridan biri etnik o'z-o'zini anglashning mavjudligidir. Etnosni boshqa etnoslardan ajratib turuvchi xususiyatlarga (til, qadriyat, me'yor, din, ilmiy xarakter, san'at) asosan shu etnosning a'zosi deb hisoblanadigan kishilarning mavjudligi boyicha aniqlasa bo'ladi.

Etnos insonlarning ijtimoiy-pedagogik birligi sifatida har bir inson uchun muhim vazifalarni bajarishi mumkin: himoya qilish, nafaqat ijtimoiy, balki jismoniy o'zini his qilishi uchun. Etnik jamiyat vaqtda muqimdir, uning tarkibi barqarordir. Inson etnik maqomga ega va uni etnosdan ajratib bo'lmaydi. Shu xususiyatlar uchun etnos inson uchun qo'llab-quvvatlash guruhi hisoblanadi.

Etnosning shaxsiy, ijtimoiy, faoliyat darajalaridagi xususiyatlari etnopsixologiya orqali ifodalanadi. Etnopsixologiya o'z ichiga milliy hissiyat va kayfiyat, milliy madaniyat va mo'ljal, milliy an'analarni oladi. So'ngi paytlarda etnopsixologiyada "milliy xarakter" tushunchasi kam ishlatilmoqda. Etnik guruhlarining psixologik xususiyatlarini ifodalash uchun esa mentallik va mentalitet tushunchalari qo'llanilmoqda.

Mentallik insonning olam, o'zining bu olamda tutgan o'rni haqidagi tasavvurlari asosida etgan obrazlar tizimidir, ya'ni mentallik etnik guruhga u yoki bu davrga xos bo'lgan o'ziga yarasha dunyoqarashdir.

"Mentalitet" kategoriyasi gumanitar fanlarda an'analar va madaniyat orqali aniqlab beriluvchi ommaviy dunyoqarashning tarkiblarini ifodalash uchun ishlatilmoqda. Mentalitetning turli ta'riflari mavjud. Mentalitet bu anglanmagan darajadagi jamoa tasavvurlari majmuasi bo'lib, muayyan tabiiy-iqlimiy va tarixiy-madaniy sharoitlarda shakllangandir. (A.V. Mudrik)

Mentalitet – bu shaxs yoki ijtimoiy guruhning dunyoni muayyan obrazda qabul qilish, his qilish va unda tafakkur yuritishini ichiga oluvchi individual va jamoa ongining darajasidir. Mentalitet shu xalqning uzoq tarixiy rivojlanishi natijasida shakllanadi va milliy xarakter, iqtisodiy va ijtimoiy xulq atvorining milliy modelini belgilab beradi.

Mentalitet hatto bir mafkura boshqasiga o'zgarganda ham o'zining asosiy parametrlarini saqlab qolish mumkin. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda mentalitet

madaniyatga tegishli odamlarda umumiy aqliy qurilmalari ning mavjudligi bilan aniqlanadi. Turli xalqlarning mentalitlari farqi ular quyidagi ijtimoiy hodisalar: ijtimoiy tuzilmaga baho berish, huquq va odat haqidagi qarashlari, ozodlikka munosabati, ozodlikni tushunishlari, mehnat, mulkchilik, boylikka munosabatlari, zamon va makonni tushunishlarini qanday qabul qilishlarida namoyon bo'ladi.

Mentalitet – bu xalq madaniyatining keng maydondagi kvint-esseksiya-sidir. “Mentalitet” kategoriyasi, odatda ijtimoiy psixologik kategoriya sifatida tushuniladi. Mentalitet tushunchasining tarkibini psixologik tahlili mentalitet tushunchasini muayyan madaniyatda yashovchi odamlarning integral tasviri sifatida tushunish imkonini beradi. Bu tahlil I.G.Dubrov, V.I.Kukushkin, A.S.Pamarin, V.S.Barulinlar tomonidan o'tkazilgan. Boshqacha aytganda mentalitet jamiyatning ma'naviy-ruhiy qiyofasi, jamiyat dunyoqarashining asosiy o'lchovi sifatida tushuniladi.


Mentalitet ijtimoiylashuv jarayonida muhim o'rin tutadi, chunki u ijtimoiy axborot tashuvchisi hisoblanadi. Ijtimoiy axborot bu holatda 3 asosiy guruhda bo'ladi:


- ✓ ishlab chiqarish qurollari va mehnatning jamoaviy natijalari;
- ✓ ob'ektiv ijtimoiy munosabatlar;
- ✓ til va muloqot.

Mentalitet ijtimoiy axborotning o'ziga xos qismi sifatida o'zining uzatish kanallariga ega. Ular orasida eng asosiylari tabiiy muhit, mumtoz va boshqa keng tarqalgan matnlar, til strukturalari, kundalik yumushlar hisoblanadi. Hozirgi kunda hali fanda mentalitet tushunchasi tor va keng ma'noda tushuniladi.

Keng ma'noda mentalitet jamiyat, jamiyat ongini qabul qilish o'ziga xosligi sifatida o'zining tabiat va ijtimoiylashtirishni qabul qilishga o'zicha dunyoga munosabatda bo'lish imkonini beradi.

1-chizma.





Tarbiyalanuvchilarning milliy psixologik xususiyatlarini ijtimoiy pedagog inobatga olishi kerak. Milliy psixologiyani bila turib, u tarbiya ishining sifatini oshirishda kerakli qoidalarni topa olish mumkin. Etnopsixologiya pedagogika faniga muayyan milliy guruhlar vakillari tomonidan tarbiyaviy ta'sir choralarini qabul qilishning o'ziga xoslik, turli xalqlarning tarixiy tajribasini inobatga olib, tarbiya tadbirlarining mazmunini, u yoki bu millat vakillarining tarbiya choralariga ko'nikishlari xususiyatlarini, aniq etnik guruh vakillarida milliy psixologiyaning ifodalanishini, turli xalqlarda tarbiyaviy ta'sir paytida nizomiy munosabatlarning ifodalanishi xususiyatlarini, milliy mintaqalarda odamlarga nisbatan qo'llanilayotgan psixologik ta'sirga bog'liq ravishda tarbiya ishining mahsuldorligi, turli millat vakillarining muomalasi jarayonida shaxslararo munosabatlarning shakllanishini o'rganishga yordam beradi.

Insonlarning milliy psixologik xususiyatlari ularning faoliyatiga quyidagi shakllarda ta'sir ko'rsatadi:

- ✓ faoliyatning milliy o'ziga xosligi;
- ✓ inson xislatlarining milliy xususiyati;
- ✓ axloqiy holatning milliy o'ziga xosligi.

Milliy psixologik xususiyatlar nafaqat inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi, balki bu jarayonga muayyan tuzilish va mazmun beradi.

Milliy psixologiyada ijtimoiy ong hodisasi sifatida to'rtta sohani ajratsa bo'ladi.

Motivatsion fan sohasi milliy umumiylikning sabablari va g'oyalarining o'ziga xosligini xarakterlaydi.

Intellektual soha esa milliy psixika tashuvchilari tafakkurining o'ziga xosligini xarakterlaydi. Bu jihat ularda aqliy hislatlar mavjudligida ifodalanadi.

Kommunikativ soha esa har bir xalqning o'rnatilib bo'lingan o'zaro munosabatlar me'yorlari, o'z axloq stereotiplari, o'z rahbarlik shakllari mavjudligidan dalolat beradi.

Shunday xalq gipotezasi mavjudki, har bir xalq nerv tizimi va aqlining tug'ma xususiyatlarining faoliyat yuritishida o'z xususiyatlariga ega. Bu esa milliy xarakterning **emotsional-irodaviy** sohalarining o'ziga xosligini keltirib chiqaradi.

Milliy psixologik xususiyatlar ko'nikma va stereotiplar mexanizmlari orqali namoyon bo'ladi. Qurilmalar insonning muayyan shaklda u yoki bu hodisani qabul qilishidir, ya'ni qurilma muayyan faoliyat yuritishga tayyorlik, biror bir milliy jamoa vakili o'z etnik sharoitlaridan kelib chiqib milliy mentaliteti shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida milliy axloqiy me'yorlari va qadriyatlar, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish yo'nalishlarini mustahkamlash, atrof-muhitdagi odamlarga baho berish, o'z millati nuqtai nazariga mos kelmaydigan g'oyalarni qoralash vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy va pedagogik amaliyot, bir qator tadqiqotlar insonning milliy majburiyatini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy institutlar sifatida oilani e'tirof etadi.

Oila:

- ✓ milliy axloqiy normalarni o'zlashtirish, milliy madaniy muhitga va uning qadriyatlariga ko'nikishning eng bevosita va abadiy manbasi hisoblanadi.
- ✓ millat psixologiyasi jihatlarining taqlid yo'li orqali alohida shaxslar ongi va ruhiy olamiga kirishini ta'kidlaydi.
- ✓ milliy qadriyatlarga amal qiladi, ularni saqlaydi.
- ✓ o'zining milliy tarbiyaviy ahamiyati inson hayoti davomida saqlab qoladi.
- ✓ milliy odatlar, urf va an'analarning asosiy tashuvchisi hisoblanadi.

Oilaning barcha sanab o'tilgan xususiyatlari o'zbek oilasida o'zining yorqin ifodasini topadi.

O'zbek xalqi shaxsiy xislatlarida ifodalangan milliy xususiyatlari oilada milliy va diniy qadriyatlar asosida shakllangan va avloddan-avlodga o'tib ta'lim-tarbiya, odat, marosimlar, qoidalar shaklida mustahkamlangan. Bunday qadriyatlarga avvalo o'z yurtining o'tmishiga hurmat, milliy an'analarga sodiqlik va ularni hayotga tadbiq etish kiradi. Milliy xususiyatlarning shakllanishiga mehnat faoliyatining xarakteri va yo'naltirilganligi, ijtimoiy jarayonlarda qatnashish darajasi, madaniy ta'lim darajasi ta'sir qiladi.

Milliy xislatlar shakllanishining asosi milliy, tarixiy, madaniy, diniy, axloqiy qadriyatlar hisoblanadi. Ularning shakllanishi, saqlanishi va boshqa avlodlarga uzatilishi vositasi- milliy odat va an'analar hisoblanadi.

Axloqiy qadriyatlar asosida o'zbek oilasida rostgoylik, vazminlik kabi xislatlar shakllanadi. O'zbek oilasining pedagogik va psixologik xususiyatlari alohida e'tiborga loyiq. Chunki ular hayot tarzi, ma'naviy axloqiy muhit, tarbiyaviy tamoyillarni belgilab beradi. Bularga milliy qadriyatlarga sodiqlik, diniy amallarga hurmat, bolalarni yaxshi, xayrli ishlarni qilishga undash, o'z so'zida turish, kattalarning yoshlarga namuna bo'lishi, sabr-toqatli bo'lish, yosh xususiyatlarining inobatga olinishi, munosabatlarning hamkorligi, o'zaro hurmat tamoyillari asosida qurilishi kiradi.

Bir qator tadqiqotlar va shaxsiy kuzatuvlar asosida biz shunday xulosaga keldikki, tarbiyaviy ta'sirlarning natijalari o'zbek millatining o'ziga xos xususiyatlariga ta'sir ko'rsatadi. Ularni esa shartli ravishda ikkiga bo'lsak bo'ladi:

- ✓ xarakterli-ishonuvchanlik, hissiyotlik, sodiqlik, sabrlilik, bolalarni sevish;
- ✓ axloqiy-tarbiyalanganlik, rostgoylik, mehnatsevarlik, mehribonlik, insoniylik, insoflilik, g'amxo'rlik, saxiylik. vatanparvarlik.

An'analar iqtisodiy va ma'naviy borliqning tarkibiy unsuri sifatida qaysidir ma'noda bizning hayotimizni kelajak bilan bog'laydi. Har bir rivojlanish bosqichida an'analarning mazmuni va ahamiyati aniq ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar va vazifalar bilan belgilanadi.

Ijtimoiy hayotning barcha jabhalari-maishiy, ijtimoiy, san'at sohasining zaruriy tarkibiy qismi bo'lish bilan birga, an'ana va odatlar odamlarning har bir davrdagi

ko'p asrli qarashlarini mujassamlashtiradilar. Aksariyat hollarda an'analarning kelib chiqishi muhim tarixiy hodisalarga borib taqaladi.

Xalqda faqatgina insonlarni tashqi va ichki holatda birlashtiruvchi shu qadriyatlar qadrlanadi. An'analar qanchalik qadimiylik ega bo'lsa, shuncha ishonch bilan ularning ahamiyati va uning jamiyat institutlari tomonidan qabul qilinishiga e'tibor qaratsa bo'ladi.

An'analar o'z ifodalarini topish boyicha nihoyatda milliylik xususiyatiga egadirlar,, biroq tarixiy rivojlanish mobaynida ular boshqa xalqlari tomonidan ham boyitiladi va shu paytning o'zidayoq umumxalq, xalqaro qiyofaga ega bo'lishadi. An'ana va odatlarga ikki o'zaro bog'liq ijtimoiy vazifa xosdir: a) shu jamiyatda o'rnatilgan munosabatlarni barqarorlashtirish vositalari, b) bu munosabatlarni yangi avlod hayotida amalga oshirish. Bu vazifalar turli yo'llar bilan amalga oshiriladi: agar an'analar bu hayotda qanday harakat qilish lozimligini aniq belgilab qoygan bo'lsa, unda an'analar, yurish-turishning umumiy me'yorlari yoki tamoyillarini ilgari surishadi.

Hozirgi kunda o'zbek xalqining mentaliteti milliy istiqlol g'oyasiga asoslanadi. Prezident I.A.Karimovning fikricha quyidagilar milliy mentalitetning asosiy tushunchalari hisoblanadi:

- ✓ Vatanga muhabbat:
- ✓ ona tiliga muhabbat:
- ✓ milliy axloqiy, madaniy, ma'naviy qadriyatlar:
- ✓ oila:
- ✓ mahalla:
- ✓ islom dini:
- ✓ ta'lim va ma'rifatning o'rni:
- ✓ umuminsoniy qadriyatlarga tayanish.

Mahalla ijtimoiylashuvning an'anaviy omili sifatida. O'zbek mentalitetining muhim xususiyatlaridan biri maxsus ijtimoiy tuzilma mahallaning mavjudligidir.

Toshkent shahrida XIX asrdan boshlab mahalla mavjud. Ularning tashkil topishi va faoliyat yuritishi bir tomondan milliy- psixologik xususiyatlari, boshqa

tomondan esa aholiga yoshligidanoq ijtimoiy munosabatlarga g'arq bo'lishlariga imkon yaratish bilan bog'liqdir. Boshqacha aytganda, mahalla mikrotsizm bo'lib, unda axloqiy tamoyil va qoidalarga amal qilish, marosim va jamoat faoliyatining boshqa turlarida ishtirok etish orqali shaxsning yanada kattaroq hamjamiyatda ijtimoiylashuvi usullari shakllanadi. Mahallaning demokratiyalashuv, ijtimoiylashuv, insoniylashuv va mukammallashuv jarayonlariga faol ta'sir qila olishini Prezident I.A.Karimov quyidagicha ta'kidlab o'tgan: "Mahalla-bizning jamiyat hayotida insoniy tarbiya va kelishuvning o'zgarmas manbasi. Tarixning guvohlik berishicha, bizning davlat daryolar boyida paydo bo'lgan. Tabiat kataklizmalari, tashqi hayvonlarni birgalikda engish, qiyin kunlarda qo'llab-quvvatlash bizning ajdodlarimizni jamoa bo'lib yashashga o'rgatgan.

Mehribonlik, rahmdillik kabi insoniy hislatlar aynan mahallada shakllanadi. Bu ma'noda mahallani o'z-o'zini boshqarish maktabi, kerak bo'lsa, demokratiya maktabi desa bo'ladi".

Ijtimoiylashuv nafaqat shaxsning jamiyatda qulayliklarga ega bo'lishini ko'zda tutadi, balki shaxsning muayyan axloqiy va etnik qoidalarni egallashini ham ko'zda tutadi. Shu borada mahalla ijtimoiylashuvining unikal mexanizmi hisoblanadi. Chunki unda:

- ✓ har bir inson amal qilishi kerak bo'lgan muayyan axloqiy qonunlar ishlab turadi;
- ✓ muomala bir qator axloqiy tamoyillarga asoslanadi;
- ✓ hokimiyatga ishonch va xizmat, shaxsiy namuna kuchi kattalarga hurmat, bolalar haqida g'amxo'rlik;
- ✓ axloq va jamoatchilikning tarbiyasi amaliy faoliyatga kiritish orqali amalga oshiriladi;
- ✓ ommaviy ong qadriyatlari mahalladan oila va shaxsga uzaytiriladi;
- ✓ alohida shaxs hayotining asosiy bosqichlari jamoaning barcha a'zolari tomonidan kuzatuvda bo'ladi.

Alohida tarixiy davrlarda an'anaviy hayotiy muammolarning buzilishiga urinishlar amalga oshirilishiga qaramay, mahalla bunga qarshilik ko'rsatdi va an'ana, odatlarning saqlanib qolishiga yordam beradi.

Mahallaning ijtimoiy o'rni shunda namoyon bo'ladiki, u doimo jiddiy ijtimoiy o'zgarishlarga o'z munosabatini bildirgan va oliy insoniy hamda axloqiy tamoyillarga tayanadi. Masalan, XX asrning 20-30 yillarida mahallada ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishga qo'shilishi, savodsizlikni bartaraf etish, aholining madaniy dunyoqarashini kengaytirish qo'llab-quvvatlangan

Hammaga mahalla aholisining Rossiya, Ukraina, Belorusiyadan evakuatsiya qilinganlarni qabul qilganliklari ma'lum. Mahalliy aholi vakillari ko'chib kelganlarga o'z uylarining bir qismini berishgan, moddiy yordam ko'rsatishgan. Mahalla jamoalari nihoyatda yuqori axloqiy va ijtimoiy salohiyatga ega, ular odamlarda yaxshi niyatlilik, o'zaro hurmat, o'zaro tushunish kabi hislatlarni tarbiyalashadi.

Mahalla an'analarni saqlab qolish va ularni yoshlarga etkazish, jamiyatni demokratiyalashning ilk davrlarida milliy qadriyatlarning tiklanishiga katta yordam bergan. Yangi sharoitlarda mahalla o'z-o'zini boshqarish organi sifatida yangi mazmun va ahamiyatga ega bo'ldi. Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ham ta'kidlangan.

Mahalla maktablari yuqori sinf o'quvchilarining ijtimoiy va ma'naviy qiyofalari ham ancha o'zgarib qoldi. Ularning aksariyati muassasa, maktablarda tashkiliy ish tajribasiga egalar. Oqsoqollarning aksariyat qismi savodxon, ularning ba'zilari ilmiy darajaga egadirlar. Mahalla insonlarning axloqiy birlashuvi markazi bo'lishni davom ettirmoqda. Bu avvalambor, mahalla qo'mitalari faoliyatlarining asosiy yo'nalishlaridan biri ijtimoiy mehnatlarni, shu jumladan obodonlashtirish boyicha ishlarni tashkil qilishda namoyon bo'ladi. Bunaqa ishlarning asosiy turlari-ariqlarni tozalash, daraxtlarni kesish, axlatni chiqarish kabi hasharlardir. Bunaqa tadbirlar asosan Navro'z, Ramazon, Qurbon hayitlari, Mustaqillik kunlari oldidan o'tkaziladi. Hashar yo'li bilan uylar, klublar, oshxona, masjidlar bunyod etilmoqda.

Eng muhim an'analardan biri mehr-muruvvat bo'lib, u quyidagi qiyofalarda namoyon bo'ladi:

- ✓ jamoaning g'amxo'rliqi, qo'shnilarining kasal, keksa va kam ta'minlanganlariga yordam ko'rsatishadi;
- ✓ o'ziga to'q kishilarning kam ta'minlangan qarindoshlariga va qo'shnilariga moddiy yordam berishlari;
- ✓ oqsoqol va mahalla qo'mitasi tomonidan boquvchisini yo'qotgan va qariyalarga yordam ko'rsatishi va boshqalar.

Bularga misol qilib, 50-yillarda "Yangiobod" mahallasida aholining yordami bilan klub bunyod etilib, unda ma'ruza, kontsert, kechalar o'tkazilgan. Bu ishlarda o'qituvchilar, san'atkorlar faol ishtirok etishgan.

Jamoada yordam ko'rsatish an'anasi hozir yangi shakllarga ega bo'ldi va hokimiyatlar, mahalla qo'mitalarning asosiy vazifasiga aylandi. Respublika Prezidentining (1994 yil 23 avgust) "Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyasini kuchaytirish chora-tadbirlari" haqidagi farmoni bilan aholini ijtimoiy himoya qilishning yangi turi joriy qilindi: kam ta'minlangan oilalarga har oy ko'rsatiladigan yordam. Bu yordamning yangiligi shundaki oilalar taqsimotini mahalla hal qiladi. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari 1999 yil yanvarda O'zbekiston Prezidentining hamda Vazirlar Mahkamasining 2002 yil yanvardagi "Aholining Ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashining 2002-2003 yillarda mo'ljallangan dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori talablarini amalga oshirmoqdalar. "Fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlarining aholining ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash" to'g'risidagi farmoni chiqdi.

Hozirgi kunda mahalla jamiyatda etnomadaniy qadriyatlarni tiklash jarayonida muhim rol oynamoqda. Nikoh, janoza, aqiqa toyi, sunnat toyi, muchal toyi kabi marosimlar ham o'tkazilmoqda.

Bozor munosabatlarini shakllantirishning murakkab holatida mahallaning ijtimoiylashtiruv roli oshib ketadi. Bu avvalambor oila qadriyatlarini saqlab qolishda namoyon bo'ladi. Nizoli holatlar paydo bo'lganda xotin-qizlar qo'mitasi

yoki mahalla oila vakillari bilan suhbat o'tkazadi va odatda vaziyatga oydinlik kiritadi va ajralishlar bo'lishiga olib keladi. Bundan tashqari mahalla ishsizlarga ishga joylashishlariga, militsiya xodimlariga tartibni saqlashda yordam beradi, xizmatga chaqirilganlar bilan tushuntirish ishlari olib boradi. Avvalgiday jamoa o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashda muhim o'rin tutmoqda. Hozirda mahalla bolalar bog'chalari va maktablari bilan yaqin hamkorlik olib borib, ularga ta'mirlash ishlarini olib borishda, tarbiya ishlarida yordam ko'rsatadi. Mahalla qo'mitasi majlislarida maktab intizomining jiddiy buzilishlari ham ko'rib chiqiladi. Yoshlarga ta'sir ko'rsatishning bu rasmiy tarmoqlaridan tashqari jamoani nazorat qilishning an'anaviy usuli ham saqlanib qolgan. Har qanday mahallada boy hayotiy tajribaga ega odamlar mavjud. Ularning asosiy vazifasi aholining an'anaviy ahloq-odob qoidalariga rioya qilishlarini, bolalarning ko'chadagi yurish-turishini nazorat qilishdir. Ular har qanday odamga tanbeh berishlari mumkin, biroq bu ishni doimo ularning hurmatini saqlagan holda amalga oshiriladi. Ota-onalarning bunday munosabatni qadrlashi tahsinga sazovor. Shuning uchun "mahalla sening ham otang, ham onang" degan maqol mavjud. Boshqa sohalarda namoyon bo'ladigan milliy tiklanish, xalqning milliy o'z-o'zini anglashni faollashtirish orqali bo'ladi. Sobiq Sovet ittifoqi davrida bu kabi an'analar to'liq yo'qolib ketmagan, balki ayrim oilalarda o'ziga xos tarzda saqlanib qolgan va yoshlarga berilgan. Bu ayniqsa, hayotning an'anaviy turmush tarzini saqlab kelayotgan eski shahar mahallalarida yashovchilar orasida yaqqol namoyon bo'lgan. Mahalla fuqarolarining yuqori savodxonlik va madaniy darajasi (yosh va o'rta avlod, o'rta yoki oliy ma'lumotga ega) badiiy ijodning keng rivojlanishi, marosimlar o'tkazishda ma'naviy o'z-o'zini ifodalashning keng imkoniyatlarini ko'zda tutadi.

Shuni ta'kidlash joizki, etnik an'analar va marosimlarning tiklanishida avvalo, oiladagi katta avlod, shuningdek, ommaviy axborot vositalari, ayniqsa televidenie katta o'rin tutadi.

Hozirgi kunda mahallaning ahamiyati oshib bormoqda. Biroq yoshlar tarbiyasida muammolar kam emas. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yoshlarning axloqiy

tarbiyasiga xalaqit beradigan bir qancha holatlar ham kelib chiqmoqda. Yoshlarning yoshligidanoq savdo-sotiq qilishga va boshqa tijorat ishlariga sho'g'ib ketishi ularning o'qishiga, bilim olishga bo'lgan intilishlariga, ijtimoiy munosabatlarga kirishishga, salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ba'zi hollarda muallimlar o'quvchilarni to'liq tarbiyalash imkoniyatidan mahrumdirlar, ya'ni ular boshqa faoliyat bilan ham shug'ullanadilar. Jamiyatni demokratiyalashtirishning mazkur bosqichida yoshlar faoliyat turini tanlashda keng imkoniyatlarga ega bo'lishdi. Biroq ular bulardan to'liq foydalana olmaydilar. So'nggi yillarda yoshlar orasida siyosiy-tarbiyaviy ishlarni olib borish susaydi, din ta'siri kuchaydi va bu natijada yoshlar mafkuraviy sohada o'z mo'ljallarini yo'qotishlariga olib keldi. Mahalla tarbiyaning an'anaviy usullaridan foydalanib, yosh avlod bilan yanada faol ish olib borish, ularda hozirgi jamiyat talablariga muvofiq keladigan dunyoqarash va axloqiy tamoyillar hosil qilishdan iborat.

Mahalla azaldan nafaqat o'sib kelayotgan avlodning tarbiyachisi vazifasini bajargan, balki ijtimoiy fikrni shakllantirgan ham. Qo'shnilar o'rtasidagi barcha nizoli holatlar, shuningdek, esa oilaviy janjallar mahalla qo'mitalari faollari tomonidan muhokama qilinadi. Bular orasida ko'pincha qaynona-kelin, yosh kelin-kuyovlar orasida janjallar ko'p uchraydi. Bunaqa holatlarda xotin-qizlar qo'mitasi suhbat o'tkazadi. Agar ikki tomonni yarashtirib bo'lmasa, bu holat bilan mahalla qo'mitasi shug'ullanadi. Odatda o'sha joyning o'zida muammo hal qilinadi. Shuning uchun ajralishlar soni ko'p emas. So'nggi paytlarda uy ishlari bilan band ayollar, yosh oilalar bilan ishlash faollashdi, ularni kasb-hunarlariga o'rgatish ishlari olib borilmoqda. Mahalla ishsizlarning ishga joylashishlariga ham ko'maklashmoqda. Harbiy qo'mitalar askarlikka olishga tanlov bo'lganda mahalla faolligiga tayanishadi.

1999 yil 14 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari haqida"gi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Unda yana bir marta fuqarolarning o'z-o'zini boshqarishi asosida tarixiy taraqqiy xususiyatlari, milliy va ma'naviy qadriyatlar, mahalliy odat va an'analar yotishi ta'kidlandi. Qonunda mahallaning vazifalari belgilab qoyilgan. Yuqorida sanab o'tilgan

vazifalardan tashqari mahallaga yangi vazifalar-tijorat va maishiy xizmat ko'rsatishni, hududning tozalik holatini, aholidan soliqlarni o'z vaqtida topshirilishini nazorat qilish ham yuklatildi. Davlat mahallaga avval mahalliy kengashlar bajargan vazifalarni yuklamoqda. Bu esa mahalla qo'mitalari davlat tuzilmalariga aylanayotganligidan guvohlik beradi.

Mahallaning ijtimoiy hayotida so'nggi o'n yillarda katta o'zgarishlarni boshdan kechirgan qo'shnichilik munosabatlari muhim o'rin tutmoqda. Oilaviy muhitning individuallashtirish jarayoni ketmoqda. Shu bilan birga yaqin qo'shnichilik munosabatlari o'zbek oilasining qadriyatlaridan biri bo'lib qolaveradi. Bu avvalombor xo'jalik yordamida, bolalar tarbiyasida, qiyin vaziyatlarda yordam ko'rsatishda namoyon bo'lmoqda. Shuning asosida ma'naviy yaqinlik paydo bo'ladi, ya'ni kundalik axborot almashinuvi, mahalladagi voqealar muhokamasi bo'lib o'tadi. Shu tarzda mahalladagi eng kichik guruhlardan biri-qo'shnichilik guruhi paydo bo'ladi.

Mana shu guruh bilan bir qatorda qarindoshlik aloqalari ham mavjud. Ular hozirda avvalgidan ko'ra kamroq bo'lsada, uning a'zolarining faol o'zaro yordami bilan xarakterlidir. Qarindoshlik munosabatlari o'zbeklarning oilaviy qadriyatlari tizimida hali ham birinchi o'rinda turadi.

O'zbeklarning ijtimoiy hayotidagi muhim hodisalardan biri erkaklar birlashmalari-gap, gashtak, ziyofatdir va ularning maqsadi bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazishdir. Har bir yosh guruh o'zining muomala shakliga ega: Qadimda Toshkentda gaplar ommaviy xarakterga ega bo'lgan. Ular hosil yig'im terimi yakunlangan kuzgi-qishki davrda o'tkazilgan. To'qmada erkaklar har kuni bir-birlarining uyida to'planishgan va har kim qo'lidan kelganini olib kelgan. Buning hammasi "umumiy qozon"ga solingan. O'zlari taom tayyorlashgan, o'zlari uy yig'ishtirishgan, namoz o'qishgan, suhbatlashishgan, axborot almashishgan.

Tuqmadan farqli o'laroq, gap haftada bir marta odatda juma kunlari ishtirokchilardan birining uyida o'tkazilgan. Har bir gapda saylangan rahbar va ishtirok etish qoidalari bo'lgan. Qoidabuzarlar gapdan chetlashtirilgan. Ziyofat xarajatlarini mezbon ko'targan. Namoz va diniy adabiyotlar uchun odamlarni

qamashgan XX asrning 30- yillarida gaplarda to'planish havfli bo'lgan. II jahon urushi davrida moddiy qiyinchiliklar ham gaplar o'tkazilmasligiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Biroq gaplar XX asrning 50-60 yillarida asta-sekin tiklana boshladi. Biroq bu gaplar biroz boshqacha edi. Avvalo, endi ayollar orasida ham gap tashkillashtirildi. Hozirda ayollar gaplari erkaklarnikidan ko'ra keng tarqalgan. Oilaviy gaplar, avvalombor sinfdoshlar, kursdoshlar orasida, shuningdek kasbiy gaplar ham ommaboplashdi.

Gaplarning ijobiy xususiyatlari bilan birgalikda ularda salbiy jihatlar ham mavjud. Bu isrofgarchilik va ichkilik bilan bog'liq. Kitoblar mutolaasi, mazmunli suhbatlar tan olinmay kelindi. Avvalgilaridan farqli ravishda hozirgi gaplar yil davomida o'tkaziladi. Toy paytida gap ishtirokchilari toy egasiga yordam ko'rsatishadi. Ular og'aynilarini qiyin kunlarda qo'llab-quvvatlashadi. Har bir gapning shuhrati bor. Insonni, ayniqsa yoshlarni qaysi gapga a'zo bo'lganidan u qanaqa tarbiya olganini aniqlasa bo'ladi.

Ayollar orasidagi gaplar XX asrning 60-70 yillarida keng rivojlana boshladi. Bu mahalladagi qo'shnilarning birlashmasi edi. Biroq ishtirokchining yoshi inobatga olingan. Har bir mahallada o'rta yosh ayollar, yosh ayollar (asosan kelinlar)ning birlashmalari mavjud bo'lgan.

Yaqin qarindoshlar orasidagi gaplar ham keng tarqalgan. Odatda bunda yoshi eng ulug' ishtirokchi rahbar bo'ladi. Bunday gaplarga ayollar farzandlarini ham olib kelishgan.

Shuningdek oilaviy gaplar ham paydo bo'ldi. Ularda erkaklar o'z xotinlari bilan ishtirok etishadi. Bu gaplar sinfdoshlar yoki kursdoshlar gaplari sifatida boshlangan va keyinchalik har uylangan a'zo o'z xotinini ham olib kela boshlaydi. Bu gaplar umumiy qoidalar asosida mavjud bo'lib, nihoyatda kam uchraydi.

O'rta va katta avlod ayollari o'rtasida to'planishning boshqa shakllari ham mavjud. Bular mushkul kushod va mavlud kabi diniy marosimlar bo'lib, ular so'nggi yillarda Toshkent mahallalarida ochiq-oydin o'tkazilmoqda. Mavlud yoki mushkul kushodga to'planishgan ayollar nafaqat diniy marosimlarda ishtirok etishadi, balki muomalaga kirishish imkoniyatiga ham ega bo'lishadi. Hayotning eng yaxshi

axloqiy me'yor va tamoyillarining tiklanishi fanda hayotning ba'zi eskirgan jihatlarini yangilashga, ayollar erkinligi va huquqlarini cheklashga ham urinishlar bo'ldi.

Mahalla hozirda zamonaviy jamiyat hayotining ijtimoiy tizimida o'z o'rnini topgan. Milliy va etnik an'analarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston siyosati bu an'anaviy institutning yanada faol faoliyat yuritishiga yangi zaminlar yaratdi.

O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIY BOSQICHDA IJTIMOIIY PEDAGOGIKA RIVOJLANISHINING IJTIMOIIY-SIYOSIIY VA HUQUQIIY ASOSLARI.

Ijtimoiy pedagogikani va ijtimoiy-pedagogik faoliyat rivojining metodologik asoslari. Ijtimoiy pedagogikani va ijtimoiy-pedagogik faoliyat rivojining metodologik asoslari quyidagilar hisoblanadi:

1. Bozor munosabatlarini shakllantirish va jamiyatni demokratiyalashtirish sharoitida davlatning kuchli ijtimoiy siyosati. Bu siyosatning asosiy yo'nalishlari I.A.Karimov asarlarida va davlat dasturiy hujjatlarida ko'rsatilgan.

2. Aholining eng kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish choralari to'g'risidagi hukumat farmoyishlari, qonun, farmonlarni hayotga tatbiq etish.

3. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy pedagogik kontseptsiyasi.

Ijtimoiy muammolarga nihoyatda katta e'tibor qaratilishining sababi milliy davlatchilikni shakllantirish jarayonidir. Bu davrda ayniqsa ijtimoiy muammolar nihoyatda keskinlashadi, ijtimoiy qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi milliy havfsizlikka tahdid omili bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuning uchun vaqtida choralar qabul qilish nihoyatda muhimdir.

Iqtisodning liberallasuvi turli ijtimoiy qiyinchiliklarni –ilmsizlar sonining ortishi, turli tengsizliklar paydo bo'lishi, hayot tarzining buzilishini keltirib chiqardi. Shuning uchun O'zbekiston taraqqiyotining o'z yo'li, asoslanadigan etakchi tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy siyosat olib borish hisoblanadi. Bu siyosatning maqsadi quyidagilardir:

6. Bozor islohotlarining hamma bosqichlarida aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash;

7. Aholining turli qatlamlarini paydo qilmaslik orqali ijtimoiy kelishuvni ta'minlash.

Mustaqillik yillarida ko'rsatilgan maqsadlarga aholining ijtimoiy himoyasining yangi mehanizmi shakllangan va u quyidagilarda namoyon bo'ladi:

✓ ishlab chiqarishni barqarorlashtirish;

- ✓ davlat mablag'laridan tashqari, mehnat jamoalari, ijtimoiy va mehribonlik fond va tashkilotlarining mablag'larini yo'naltirish;
- ✓ aholi daromadlarining yuqori tabaqalashuviga yo'l qoymaslik;
- ✓ kambag'allikka qarshi kurashish, nogiron, etim va qariyalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish.

Milliy mentalitet va hayot tarzining xususiyatlarini inobatga olib, eng kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va ularga mahalla qo'mitalari orqali yordam ko'rsatish kabi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash shakli tarqalmoqda. Bunday yondashuv bizning xalqimizda ko'p asrli ildizlarga ega va amaliy ahamiyati esa mablag'larning hayotda aniq tarqatilishini ta'minlaydi.

Respublikada olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning huquqiy asosi bo'lib quyidagi yo'nalishlarga doir hujjatlar xizmat qilmoqda:

1. Xayriya – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 4 martdagi "Sog'lom avlod uchun xalqaro nohukumat xayriya fondining faoliyatini ta'minlash choralari to'g'risida"gi farmoni. Unda fondning asosiy vazifalari belgilangan:

- ✓ mablag'larni "Sog'lom avlod" davlat dasturiga qaratish;
- ✓ oila va jamiyatda sog'lom hayot tarzini targ'ib qilish;
- ✓ xorij va milliy homiylarning xayriya yordami vosita va mablag'larini jalb qilish;
- ✓ ko'p farzandli oilalar, nogiron bolalar, bolalar uylari tarbiyalanuvchilariga insonparvarlik yordami ko'rsatish.

2. Mehr-muruvvatga oid O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 27 yanvardagi "Mehr-muruvvat to'g'risida"gi farmoyishi. Uning maqsadi jamiyatda do'stlik, bag'rikenglik, xalqlararo totuvlik fuqarolar, ayniqsa yoshlarning yaxshi axloqiy hislatlarini rivojlantirishdir.

3. Sog'lom avlod tarbiyasiga oid O'zbekiston Respublikasining "fuqarolar sog'ligini saqlash to'g'risida"gi qonuni haqida aholining malakali tibbiy yordam va ijtimoiy himoya olishdagi konstitutsiyaviy huquqlarni amalga oshirishi, sog'liqni saqlash tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga

moslashtirish maqsadida quyidagi farmon va farmoyishlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 1998 yil 10 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 3 dekabrda "O'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish muammolarini kompleks hal qilish to'g'risida"gi farmoyishi, 2000 yil 15 fevraldagi "Sog'lom avlod davlat dasturi to'g'risida"gi, 2002 yil 31 oktyabrdagi "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish fondi faoliyatini tashkil qilish to'g'risida"gi, 2002 yil 25 yanvardagi "Ayollar va o'sib kelayotgan avlodning sog'ligini mustahkamlash to'g'risida"gi farmoni.

4. Ayollarning ijtimoiy himoyasiga oid O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Ayollarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"gi 1989 yil 14 apreldagi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1989 yil 17 martdagi "Ayollarning maxsus himoyasini kuchaytirish to'g'risida"gi farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 17 martdagi "Zararli va sharoiti og'ir ishlarda band ayollarning daromadlariga soliq solinayotganidagi imtiyozlar to'g'risida"gi farmoni.

5. Oilani qo'llab-quvvatlashga oid O'zbekiston Respublikasi prezidentining 1994 yil 16 iyundagi "Ko'p bolali oilalarga ijtimoiy yordam tizimini mukammallashtirish to'g'risida"gi farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1986 yil 10 dekabrda "Ko'p bolali oilalarga yordam ko'rsatish to'g'risida"gi farmoyishi. "Voyaga etmagan bolali oilalarga nafaqa to'lash to'g'risida"gi Nizomida bu nafaqalarni olish huquqiga quyidagilar ega:

- ✓ nogiron bolali oilalar;
- ✓ ota-onasi yo'q bo'lgan va bolalarning tarbiyasi bilan qarindoshlari shug'ullanuvchi oilalar;
- ✓ ota-onadan biri yoki ikkalasi ham nogiron bo'lgan oilalar;
- ✓ ota-onadan biri yoki ikkalasi ham ishsiz bo'lsa.

6. Nogironlarga yordam berishga oid 1991 yil 18 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida nogironlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida", Vazirlar Mahkamasining "Yoshligidan nogiron bo'lganlarga, qariyalarga va

mehnat qilishga layoqatsiz shaxslarga nafaqa to'lash to'g'risida"gi 1994 yil 24 iyundagi № 319 farmoyishi. Ularda nazarda tutilgan choralar nogironlar uchun individual rivojlanishlari, ularning ta'limlari va ishlab chiqarishda qatnashishlari, sog'liqni saqlash dasturini amalga oshirishga qaratilgan.

7. Aholining kam ta'minlangan qatlamlarini himoyalashga oid O'zbekiston Respublikasining aholining kam ta'minlangan oilalarini himoyasi to'g'risidagi farmon, farmoyishlari. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini ishga joylashtirishda ish o'rinlarining minimal soni o'rnatiladi.

8. Mahallaning ijtimoiy maqomini mustahkamlashga oid Mahalla qo'mitalariga fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organiga aylanishi munosabati bilan 1999 yil 14 apreldagi "Fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun, shuningdek 1999 yil 13 yanvardagi "Aholining ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishini ta'minlashda o'z-o'zini boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risida"gi farmon qabul qilindi. Ular shahar, qishloq, mahalla oqsoqollari yig'ilishlarining vakolatlarini belgilab berishadi. Ulardan asosiylari davlatning oilalarni ijtimoiy ta'minlash uchun ajratilgan mablag'larini to'g'ri taqsimlash, ayollar manfaatlarini himoya qilish, oilada ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirish, ijtimoiy tartibni ta'minlashda ishtirok etish, huquqbuzarliklarning oldini olish, voyaga etmaganlarning huquqlarini himoya qilish, aholi markazlarining tozalik va ekologik holatini nazorat qilish.

9. Zamonaviy sharoitlarda ijtimoiy siyosatni o'tkazish hayotning barcha sohalarini ijtimoiylashtiruv ijtimoiy ishlarning aniq belgilangan yangi shakllarini joriy qilish zarurligini tug'diradi. Bu borada quyidagi ishlar amalga oshirildi: 1996 yil 23 fevralda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda tibbiy- ijtimoiy patronaj tizimini tuzish" haqidagi buyrug'i chiqdi. Unda "Sog'lom avlod" fondining taklifi bilan viloyatlar, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasida 15 ta tez tibbiy yordam guruhlarini tuzilishiga mablag' ajratildi. Bu buyruq tibbiy- ijtimoiy yordam ko'chma guruhlarini mutaxassislar bilan ta'minlash vazifasini amalga oshirishga qaratilgan. Unda shuningdek tibbiy- ijtimoiy patronaj ishchilarini tayyorlash tashkiloti zarurligi ham aytilgan. O'zbekiston Respublikasi mehnat

vazirligiga bir oy muddat ichida kasb-hunarlarni tasniflash Respublika markaziga yangi kasb-“tibbiy- ijtimoiy ishchi” kasbini kiritish vazifasi yuklatildi.

- ✓ Tibbiy- ijtimoiy patronaj funksiyalari tarkibiga quyidagilar kiradi:
- ✓ tibbiy- ijtimoiy patronaj ijtimoiy sohada faoliyat yurituvchi turli tashkilot, muassasalar intilishlarini birlashtiradi.
- ✓ tibbiy- ijtimoiy patronaj o'z faoliyatida O'zbekistonda yashovchi xalqlarning asriy an'alariga, fan yutuqlariga asoslanadi va O'zbekistonda yuritilayotgan samarali ijtimoiy siyosatni har bir oilaga etkazishga majburdir;
- ✓ tibbiy- ijtimoiy patronaj har bir oilaning tibbiy ijtimoiy holati monitoringini o'tkazadi..

Tibbiy- ijtimoiy patronaj maqsadlari quyidagilardan iborat:

- ✓ sog'liqni saqlash vazirligi, Aholini ijtimoiy ta'minoti vazirligi va Sog'lom avlod uchun fondi ko'rsatkichlari yordamida mahalliy organlar bilan yaqin aloqada bo'lib yashashning tozalik gigienik sharoitlarini, oilaning psixologik iqlimini, uning a'zolarining sog'ligi holatini aniqlash
- ✓ tibbiy, ijtimoiy va psixologik yordamga muhtoj ayollar va bolalarni o'z vaqtida aniqlash;
- ✓ oilada sog'lom turmush tarzining shakllanishi.
- ✓ ko'rsatilgan maqsadlarga muvofiq tibbiy ijtimoiy patronajga quyidagilar yuklatiladi:
- ✓ oilalarga tibbiy, ijtimoiy va huquqiy yordam ko'rsatish;
- ✓ ayol va bolalarni sog'lomlashtirishda yordam ko'rsatish, oilani rivojlantirish boyicha keng tushuntirish ishlarini olib borish;

1998 yil 1 aprelda Vazirlar Mahkamasining “Ona va bola skiringi dasturini tasdiqlash to'g'risida”gi farmoyishi chiqdi. Bu dastur homilador ayollarda nogiron bolalarning tug'ilishini oldini olish uchun tug'ma va boshqa patologiyasini aniqlashga qaratilgan. Bu farmoyishga binoan “Ona va bola skiringi” dasturini qo'llab-quvvatlash mas'uliyati “Sog'lom avlod uchun”, “Mahalla” fondi, O'zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo'mitasiga yuklatildi.

1998-2001 yillar orasidagi davrda “Sog’lom avlod uchun” fondining “Villak” (Finlandiya) va Bristol Monteds Skvibb (AQSH) kompaniyalari bilan tuzilgan shartnomalariga muvofiq skrining markazlari agrotexnika va boshqa texnik jihozlari bilan ta’minlandilar.

1997 yil 31 dekabrda Vazirlar Mahkamasining “SOS-O’zbekiston bolalar qishloqlari assotsiatsiyasini ta’ sis etish to’g’risida”gi farmoyishi chop etildi. Bu assotsiatsiya bolalar qishloqlarini tashkil qilish jamiyati- SOS-Kinderford xalqaro jamiyati (Avstriya) tomonidan ta’ sis etildi.

Assosatsiya faoliyatining asosiy maqsad va yo’nalishlari quyidagilardan iborat:

- ✓ jamoatchilik va davlat tuzilmalarining etim bolalarning jismoniy, aqliy va axloqiy jihatdan rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishdagi harakatlarini tartibga solish;
- ✓ etim bolalarga yordam berishga qaratilgan loyiha va dasturlarni amalga oshirishda moliyaviy yordam berish;
- ✓ falokatga uchragan barcha bolalarga yordam ko’rsatish;
- ✓ O’zbekiston Respublikasida SOS-O’zbekiston bolalar qishloqlarini tashkil qilish va ularni jihozlar bilan ta’minlash;
- ✓ SOS-Kinderford interneyshnl bilan hamkorlik qilish;
- ✓ assotsiatsiya faoliyatiga davlat, jamoat va xususiy xususiyatlarni jalb qiladimi;
- ✓ etim bolalar uchun insonparvarlik dasturlarini tarqatish va qo’llab-quvvatlash uchun OAVlari bilan hamkorlik qilish, ko’rgazma, seminarlar o’tkazish, axborot materiallarini chop etish.

Yuqorida keltirilgan hujjatlardan ko’rinib turibdiki, ijtimoiy muammolarga alohida e’tibor 1996 yildan qaratilgan. Bir yil avval 1995 yil O’zbekistonda shaxsni shakllantirishning ijtimoiy pedagogik kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Uning tuzilishi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta’lim tizimini to’g’ri isloh qilish bilan izohlanadi.

Kontseptsianing asosiy qoidalari:

- ✓ madaniy-axloqiy tarbiyaning ta'limdan ustuvorligi;
- ✓ insonda ijtimoiy faollik, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari, muomala va axloq madaniyati, yuqori intizomga ega demokratik jamiyat fuqarosini tarbiyalash;
- ✓ ijtimoiy faol shaxsni jamiyat ishlab chiqarishning asosiy sharti sifatida shakllantirish har bir fuqaro hayotining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy sohalarida ishtirok etishi;
- ✓ shaxsni ijtimoiylashtirish vositalari sifatida demokratiyalashtirish, insonparvarlik tamoyillarini amalga oshirish;

Ta'limni demokratiyalashtirish-faollik va tashabbusni, hamkorlik, birlik vositalarini rivojlantirishni nazarda tutsa insoniylashtirish-yosh avlodni milliy, ijtimoiy-madaniy qadriyatlar orqali umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarga, inson huquqlarini ta'minlashga ko'nikishlari demakdir.

Bu kontsepsiya boy tarixiy, madaniy, ma'naviy, pedagogik, ijtimoiy an'analar bilan birgalikda ijtimoiy-pedagogika fanining amaliy faoliyat sohasi sifatidagi rivojida poydevor bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar:

- Karimov I. A. Uzbekistan na poroge XXI veka: ugrozy bezopasnosti, usloviya i garantii progressa. – T.: Uzbekiston, 1997.
- Karimov I.A. Ideologiya natsionalnoy nezavisimosti – ubejdenie naroda i vera v velikoe budущеe. Otvetny na voprosy korrespondenta gazety «Fidokor» // Nasha vysshaya tsel – nezavisimost i protsvetanie Rodiny, svoboda i blagopoluchie naroda. T.8. – T.: Uzbekiston, 2000. – S. 476-495.
- Ideya natsionalnoy nezavisimosti: osnovnyye ponyatiya i printsipy. – T.: Uzbekiston, 2001.
- Natsionalnaya programma po podgotovke kadrov // Garmonichno razvitoe pokolenie – osnova progressa Uzbekistana. – T.: SHark, 1998. – S. 33-61.
- Abdulatipov R.G. CHelovek. NatsiY. Obщество. – M.: Politizdat, 1991.
- Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. – M., 1988.
- Bartold V.V. Kultura musulmanstva // Soch. t.6. – M., 1966.

- Bromley Y.V. Ocherki teorii etnosa. – M.: Nauka, 1983.
- Vagabov M.V. Islam i semʼY. – M.: Nauka, 1980.
- Izmaylov A.E. Narodnaya pedagogika: pedagogicheskie vozzreniya narodov Sredney Azii i Kazaxstana. – M.: Pedagogika, 1991. – 256 s.
- Islam. Entsiklopedicheskiy slovar. – M., 1991.
- Кадыров Б. Formirovanie uzbekskoy narodnoy pedagogiki. – T., 1992.
- Koran (Per. I.Y.Krachkovskogo). – M.: Madjess, 1990.
- Kukushkin V.S., Stolyarenko L.D. Etnopedagogika i etnopsixologiya. – Rostov-na-Donu, 2000.
- Mirtursunov Z.F. Uzbeksкая narodnaya pedagogika.
- Muminov R. Etnopedagogika i sovremennaya uzbeksкая shkola. – M., 1993.
- Niyazaliev SH. Natsionalnaya psixologiya i ee mesto v formirovanii i razvitii lichnosti. – Frunze, 1986.
- Rouzentel F. Torjestvo znaniya. Kontseptsiya znaniya v srednevekovom islame. – M., 1976.
- Semeyny kodeks Respubliki Uzbekistan. – T., 1998.
- Erkaev A. Duxovnost – energiya nezavisimosti. – T.: Maʼnaviyat, 1998.

III-BOB. IJTIMOIIY PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA

IJTIMOIIY PEDAGOGIKA FANINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ijtimoiy pedagogika tushunchasining mohiyati. Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatidagi ta'rifi bir qator baxs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. YAxshi ma'lumki, har qanday fan bilim sohasi sifatida nazariya va amaliyotning birligi sifatida faoliyat yuritadi. Bu ikki soha doimo bir-birini to'ldirib keladi va voqelikning mukammallashuviga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Demak, biz ijtimoiy pedagogikani ham fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida o'rganishimiz lozim. Bundan tashqari ijtimoiy pedagogika ko'pgina boshqa fanlar (falsafa, matematika, biologiya) kabi o'quv fani bo'lib ham xizmat qilishi mumkin.

O'zbekiston tarixiy pedagogik an'analarga ega davlatdir. SHarq mutafakkirlari va diniy arboblarning asarlarida ijtimoiy pedagogika fanining rivojlanishiga asos bo'ladigan g'oyalar mavjuddir. XIX asrda o'zbek ma'rifatparvarlari, XX asrdagi novator pedagoglarining ijtimoiy tarbiya sohasidagi faoliyati ijtimoiy pedagogika uchun boy materiallar manbai hisodlanadi.

Biroq ma'lum bir davrda ijtimoiy pedagogikaning MDH hududidagi tadrijiy rivojlanishi to'xtatib qoyildi. Ijtimoiy pedagogikaning tiklanishi faqatgina XX asrning 90-yillarida roy bera boshladi. Uning qayta "tug'ilishi" ijtimoiy pedagoglarni hozirgi sharoitdagi amaliy faoliyatlarida ijtimoiy pedagogika fanining yutuqlaridan foydalanish zaruriyati tug'ilgani bilan izohlanadi. Bu erda davlat va jamiyatning faoliyat yuritishining yangi tamoyillari-bozor iqtisodiyoti, raqobat, byudjetdan pul ajratishni ko'paytirish yoki kamaytirish, dunyo hamjamiyatiga kirish, iqtisodiy holatning barqarorligi nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga ijtimoiy hayotni demokratiyalashtirish, jahon hamjamiyatiga kirish aholining kam ta'minlangan qatlamlariga e'tiborni yanada kuchaytirishni talab qiladi. Biroq ijtimoiy pedagogika sohasidagi mavjud nazariya va amaliyotning tizimlashtirilmagani bu ikki soha bir-biridan alohida ravishda rivojlanishiga sabab bo'ldi va ijtimoiy pedagogikaning fan sifatida shakllanishiga ta'sirini ko'rsatdi. Natijada bugunda ilmning bu sohasini to'liq qamrab oluvchi ta'rifni

barish ancha murakkab hisoblanadi, ammo Rossiyalik qator olimlar ijtimoiy pedagogikaga ta'rif berishga harakat qiladilar.

Masalan, Y.V.Vasilkova bu fanni “alohida shaxs yoki guruhni tarbiyalash, o'qitish nazariyasi va amaliyotidir” deb ta'kidlaydi.

A.V.Mudrikning fikricha, “Ijtimoiy pedagogika - barcha yosh va ijtimoiy guruhlar ijtimoiy tarbiyasini o'rganuvchi pedagogika”dir.

V.D.Semenov “Ijtimoiy pedagogika yoki muhit pedagogikasi”ni ma'lum yutuqlarni birlashtiruvchi va ularni ijtimoiy tarbiya jarayonida amalga oshiradigan fan, deb hisoblaydi.

I.P.Podlasiyning “Pedagogika” darsligida quyidagicha ta'rif mavjud:

“Ijtimoiy pedagogika - ijtimoiy muhitning shaxsni shakllantirishga va ijtimoiy tarbiya muammolariga ta'siri qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır”.

M.A.Galaguzova ijtimoiy pedagogikaga uning ob'ekti va predmetini aniqlash orqali ta'rif bermoqchi bo'lgan.

Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatidagi mohiyatini aniqlash uchun “fan” tushunchasining o'zi ob'ektiv bilimlarini tizimlashtirish va ishlab chiqishga qaratilgan faoliyat ekanligini ta'kidlash lozim. Tushunchaning ilmiy mazmuniy jihatini o'rganish “ijtimoiy pedagogika” atamasiga e'tibor qaratishni talab qiladi. U ikki sohadan iborat bo'lib, ya'ni “Pedagogika” va “Sotsiologiya”ning birlashuvidan vujudga kelgan. Bu birlashuv tasodifiy emas. U fanda tabaqalashuv va ixtisoslashuvning zamonaviy jarayonlariga bog'liq. Pedagogika fanida tabaqalashuv va ixtisoslashuv jarayoni keyingi yillarda ancha kuchaydi. Ba'zi bir ixtisoslashtirilgan sohalar - maktabgacha pedagogika, maktab pedagogikasi, maxsus pedagogika, kasb-xunar pedagogikasi, pedagogika tarixi va boshqa bir qancha fanlar mustaqil ilmiy sohalarga aylanib bo'ldi. Ularning qatoriga ijtimoiy pedagogikani ham kiritsak bo'ladi.

Ijtimoiy pedagogika pedagogika singari ta'lim-tarbiya jarayoni va hodisalarini o'rganadi. Biroq ular o'ziga xos yo'nalishlarni va xususiyatlarni tadqiq etadi. Bu fanning o'ziga xos xususiyati “ijtimoiy” so'zida mujassamlashtirilgan.

“Ijtimoiy” (lotinchada sokialis-umumiy, ijtimoiy) tushunchasi ostida insonlar orasidagi o‘zaro munosabatlarning turli shakllari bilan bog‘liq barcha jarayonlar tushuniladi. Bu degani, agar pedagogika o‘tib kelayotgan avlodlarning ta‘lim tarbiyasi haqidagi fan bo‘lsa, ijtimoiy pedagogika ta‘lim-tarbiya jarayonlarida bolaning jamiyatga qo‘shilishi(integratsiya) bilan bog‘liq xodisalarni alohida ajratadi. Bolaning jamiyatga “kirish” jarayoni, uning muayyan ijtimoiy tajribani qo‘lga kiritishi (bilim, qadriyat, yurish-turish qoidalari va boshqalar) ijtimoiylashuv deyiladi.

Shunday qilib, agar biz ijtimoiy pedagogika mohiyatini bu fanning ob‘ekt va predmetini qiyoslash orqali aniqlamoqchi bo‘lsak quyidagi holat kelib chiqadi. Pedagogikaning ham, ijtimoiy pedagogikaning ham ob‘ekti- bu bola, biroq o‘rganish predmetlari turlicha. Pedagogikaning o‘rganish predmeti bolani tarbiyalash qonuniyatlari hisoblanadi, ijtimoiy pedagogikaning predmeti esa bolani ijtimoiylashtirish qonuniyatlari hisoblanadi. Shuni ta‘kidlash lozimki, bu ikki fanning uzoq tarixiy aloqasiga qaramay ularning o‘ziga xos vazifalari tufayli uzoqlashish ro‘y berdi. Umumiy pedagogikaning o‘ziga xos vazifasi ta‘lim-tarbiyadir. Bola va bolalikni himoya qilish ijtimoiy pedagogikaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogika jamiyatni va ijtimoiy munosabatlarni o‘rganadi, insonlar birlari bilan qanday muomalaga kirishishlarini, guruhlarga birlashish sabablarini va jamiyatning boshqa ijtimoiy masalalarini aniqlashga harakat qiladi. Ijtimoiy pedagogika bu muammolarni biroz boshqacha tarzda, uning ilmiy vazifalariga mos ravishda o‘rganadi. Shu bilan birga o‘z rivojlanishida umumiy pedagogikadan ajralib chiqib, u kompleks xarakterga ega bo‘ldi. Hozirda uning nazariy va amaliy faoliyati sohasiga maktab va maktabdan tashqari muassasalarda tarbiya va qayta tarbiya, “Mehribonlik uylari”, qariyalar uylarida yashovchilarga g‘amxo‘rlik, huquqbuzarlar bilan ishlash va boshqalar kiradi. Ijtimoiy pedagogikaning kompleks xarakteri uning boshqa fanlar bilan munosabatida namoyon bo‘ladi.

Falsafa va ijtimoiy pedagogika. Falsafa inson borlig‘i haqidagi masalalarini o‘rtaga qoyadi va ularga javob topishga harakat qilib, dunyoqarashning

umumlashgan tizimini ishlab chiqadi. Ijtimoiy pedagogikaning “ ijtimoiy tarbiya falsafasi” bo’limi inson va uning tarbiyasiga muayan qarashlardan kelib chiqadi. Bu qarashlarda har doim u yoki bu falsafiy asoslarni uchratsak bo’ladi.

Etika va ijtimoiy pedagogika. Etika axloqiy tasavvur va qarashlar rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, shuningdek, u tartibga solayotgan axloqiy ong shakllarini va ularning axloqiy faoliyatini tahlil etadi. Ijtimoiy pedagogika etika shakllantirgan tamoyillardan foydalanadi, tarbiya usullari va maqsadlarini ishlab chiqadi.

Sotsiologiya va ijtimoiy pedagogika. Sotsiologiya – jamiyat va ijtimoiy munosabatlarning paydo bo’lishi, rivojlanishi, faoliyat yuritishi, shakllanishi qonuniyatlari haqidagi fandir. Ijtimoiy pedagogika ijtimoiylashuv muammolarini o’rgana turib, sotsiologik ma’lumotlarga murojaat etadi va ulardan o’z o’rnida foydalanadi. (yosh, shahar va qishloq, dam olish, ommaviy aloqalar, yoshlar, axloq, ta’lim, jinoyatchilik, din, oila sotsiologiyasi).

Etnografiya, etnopsixologiya va ijtimoiy pedagogika. Etnografiya xalqlarning maishiy va madaniy xususiyatlarini o’rganadi. Etnopsixologiya insonlar ruhiyatining etnik xususiyatlari, milliy xarakteri, milliy o’z-o’zini anglashning shakllanish qonuniyatlari, etnik steriotiplarni o’rganuvchi bilim sohasidir. Ijtimoiy psixologiya va etnopsixologiya inson hayotining yosh davrlarga bo’linishi, etnik xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar, etnosda ma’lum yoshdagi yoki jinsdagi insonlarning tutgan o’rnini belgilovchi omillar, ijtimoiylashuvda tarbiyaning etnik xususiyatlari va qonuniyatlarini o’rganadi.

Ijtimoiy tarbiya nazariyasini ishlab chiqishda etnografiya va etnopsixologiya ma’lumotlari ham inobatga olinadi. Etnik xususiyatlarni tarbiyaning aniq vazifa va mazmunini belgilashda, tarbiya tizimini tashkil etishda inobatga olish lozim. Shu bilan birga umuminsoniy tarbiya tamoyillariga mos keladigan, etnosda shakllangan tarbiya usullaridan shu xalq doirasining ijtimoiy tarbiya tizimida foylanish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari ijtimoiylashuv va tarbiyaning ba’zi bir etnik xususiyatlarini muayyan doirada jadallashtirish va o’rnini to’ldirish ham lozimdir.

Ijtimoiy va yosh psixologiyasi hamda ijtimoiy pedagogika. Ijtimoiy psixologiya inson va guruhlar faoliyatiga psixologik tasnif berish bilan birga insonlarni ijtimoiy guruhlariga qo'shilishlari faktini keltirib chiquvchi inson faoliyati va yurish-turish qonuniyatlarini ham ham o'rganadi. Yosh psixologiyasi inson ruhiyati dinamikasi va yosh xususiyatlarini, shuningdek shaxs rivojlanishining yoshga bog'liq omillarini ham o'rganadi. Ijtimoiy pedagogika ijtimoiylashuv va viktimologiya (jinoyatshunoslik) muammolarini o'rganishda ijtimoiy tarbiya metodikasi va texnologiyasini ishlab chiqishda ijtimoiy va yosh psixologiyasi ma'lumotlaridan foydalanadi.

Shunday qilib, ijtimoiy pedagogika ilmiy tadqiqotlarning fanlararo bog'langan sohasi hisoblanadi. Uning asosini pedagogika, pedagogika tarixi, pedagogik usullar va vositalar tashkil etadi. Shu bilan birga ijtimoiylashuv muammolari sotsiologiya fani tomonidan ham o'rganilganligi sababli ijtimoiy pedagogika ba'zi sotsiologik nazariya, usul va vositalardan ham foydalanadi. Shu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, ijtimoiy pedagogika o'zining nazariya, uslub, vosita va texnologiyalarini ham ishlab chiqmoqda.

Yuqorida bayon etilgan ma'lumotlar asosida Y.N.Galaguzovaning ta'rifiga juda yaqin turuvchi ijtimoiy pedagogikaning eng aniq ta'rifi quyidagicha:

Ijtimoiy pedagogika - shaxsning ijtimoiylashuvi qonuniyat-larini o'rganish, jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilish maqsadida ijtimoiy pedagogik faoliyatning samarali usullari, texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni qo'llashga qaratilgan pedagogika sohasi.

Shuningdek, ijtimoiy pedagogikaga bola ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o'rganadigan, mutaxassislarni ijtimoiy tarbiya va ta'lim usullari hamda texnologiyalar bilan ta'minlaydigan fan sifatida ta'rif bersak ham bo'ladi.

Ijtimoiy pedagogikaning sohalari va vazifalari. Ijtimoiy pedagogika bilim sohasi sifatida bir nechta bo'limlardan iborat. Bu bo'limlarda olingan bilimlar ijtimoiy tarbiyani ijtimoiy faoliyat turlaridan biri sifatida xarakterlashga va uni mukammallashtirish boyicha muayyan tavsiyalarni berish imkonini yaratadi.

Ijtimoiy falsafa falsafa, etika, sotsiologiya va pedagogika fanlarining to'qnashuvidan kelib chiqadi. Unda amaliy, uslubiy va dunyoqarashga oid masalalar o'rganiladi. Xususan, ijtimoiy tarbiya va uning vazifalariga ta'rif beriladi: inson obrazini muayyan tushunish asosida rivojlanish, ijtimoiylashuv va tarbiyaga nisbatan umumiy yondashuvlar ishlab chiqiladi; ijtimoiy tarbiyaning qadriyat sifatida tamoyillari ishlab chiqiladi va boshqalar.

Ijtimoiy tarbiya sotsiologiyasi ijtimoiylashuvni ijtimoiy tarbiya konteksti va ijtimoiy tarbiyani ijtimoiylashuv tarkibi sifatida o'rganadi. Olingan bilimlar ularning tarbiya salohiyatlaridan foydalanish, ijtimoiylashuv jarayonida inson rivojiga ta'sir etish mumkin bo'lgan ijobiy ta'sirlarni kuchaytirish, salbiy ta'sirni kamaytirishning usullari va yo'llarini izlab topish imkonini beradi. Umuman olganda, ijtimoiy tarbiya sotsiologiyasi tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar jamiyatdagi tarbiyaviy kuchlarni birlashtirish yo'llarini qidirishga asos bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy tarbiya nazariyasi ijtimoiy tarbiyaning faoliyat yuritishini tavsiflaydi, tushuntiradi va bashorat qiladi. Ijtimoiy tarbiya nazariyasi ijtimoiy tarbiya filosofiyasidan kelib chiqib, ijtimoiy tarbiya sotsiologiyasi hamda viktimiologiya ma'lumotlarini inobatga olib individual, guruhli, ijtimoiy sub'ektlar nima ekanligini va ular o'zaro qanday munosabatda bo'lishlarini o'rganadi.

Ijtimoiy tarbiya psixologiyasi guruh va insonlarning ijtimoiy psixologik tavsiflari, ularning turli yoshlardagi xususiyatlari asosida ijtimoiy tarbiya sub'ektlarining o'zaro munosabati samaradorligining psixologik sharoitlarini aniqlaydi.

Ijtimoiy tarbiya metodikasi ijtimoiy tarbiyani maqsadga muvofiq tashkil qilishning yangi usullari va metodlarini ishlab chiqadi.

Ijtimoiy tarbiya menejmenti va iqtisodiyoti bir tomondan jamiyatning "inson kapitali"ga bo'lgan ehtiyojini, boshqa tomondan ijtimoiy tarbiyani tashkil qilishda foydalanishi mumkin bo'lgan jamiyatning iqtisodiy resurslarini tadqiq etadi. Bundan tashqari bu bo'limda ijtimoiy tarbiya boshqaruvi ham ko'rib chiqiladi.

Ijtimoiy pedagogika fan sohasi sifatida bir qator vazifalarga ega. A.V.Mudrik bu vazifalarni 3 guruhga ajratib ko'rsatadi: nazariy, amaliy va insonparvarlikka oid.

Nazariy vazifa ijtimoiy pedagogika oid bilimlarni to'plab zamonaviy jamiyatda o'rganayotgan jarayon va hodisalarining to'liq tasvirini nazariy jihatdan yoritib berishda namoyon bo'ladi.

Amaliy vazifalarga ijtimoiy pedagogikaning ijtimoiylashuviga tashkiliy-pedagogik va psixologik yo'nalishlardagi ta'sirini samarali takomillashtirish ishlarini aniqlash bilan bog'liq. Amaliy vazifalarga quyidagilar kiradi:

- 1) bola (o'smir) ongida yaxshilik, adolat, yaqinlariga, ijodga, o'zaro tushunishga muhabbatni tarbiyalash;
- 2) inqirozli holatlardan mustaqil chiqib ketish maqsadini qoyish, chiqish yo'llarini aniqlash, atrofdagilar bilan muloqot qilishni o'rganish, hayot mazmuni va maqsadini aniqlash;
- 3) atrof-muhit, inson, uning jismoniy va ma'naviy xususiyatlari, jamiyatdagi huquq va majburiyatlarini bilishga intilishni rivojlantirish;
- 4) g'urur, mustaqillik, o'ziga ishonch hissini rivojlantirish;

5) bola (o'smir)da oila, maktab, tengdoshlari davrasida, ishda muomala madaniyatini oshirish. Bunda ijtimoiy pedagog o'z tarbiyalanuvchilarining yosh xususiyatlarini bilishi zarur. Shuningdek, u bolaga ijtimoiy munosabatlarning axloq va huquq normalariga suyangan holda insonlar, shaxs va jamiyat o'rtasidagi nizolarni echishga o'rgatishi kerak. Bu vazifalar yaxshilik qilish, o'z hayotini tashkil etishga o'rgatish, o'ziga xoslik va iqtidorni tashkil qilishga rivojlantirishda o'z aksini topadi.

Insonparvarlik vazifasi shaxsning rivojlanishida o'z-o'zini takomillashtirish uchun sharoitlar yaratib beruvchi, ijtimoiy pedagogik jarayonlarni mukammallashtiruvchi, qoyilgan maqsad va vazifalarni ishlab chiqishda insoniylikka asoslanishda o'z ifodasini topadi. Zamonaviy ijtimoiy pedagogikaning insonparvarligi bola va pedagog o'rtasidagi munosabatlarni qattiqqo'llik emas, o'zaro tushunishga asoslanishida ko'rinadi. Ijtimoiy

pedagogning vazifasi bolaning jismoniy, axloqiy va ma'naviy kuchlarini shakllantirishida, unda jamiyat qabul qilgan xislatlarni tarbiyalashga yordam berishdan iborat.

Y.V.Vasilkova ijtimoiy pedagogikaning asosiy tarbiyaviy, ijtimoiy-huquqiy va ijtimoiy reabilitatsion vazifalarini ajratadi.

Tarbiyaviy vazifa bolaning jamiyatga qo'shilishi yoki uning ijtimoiylashuv jarayoni, o'quv va tarbiya jarayoniga ko'nikishida ekanligini ko'zda tutadi.

Ijtimoiy - huquqiy vazifaning asosini davlatning bolalarga g'amxo'rliqi, ularning huquqiy himoyasini tashkillashtirish, muammolarini hal qilishda maslahatlar beruvchi tashkilotlar ishini takomillashtirish tashkil etadi.

Ijtimoiy reabilitatsion vazifa – nogiron, jismoniy va ruhiy nuqsonlarga ega bolalar bilan tarbiyaviy va o'quv ishlarini olib borishdir. Bunda asosiy vazifalarni ijtimoiy pedagog bajaradi.

Shu bilan birga Y.V.Vasil'kova vazifalarning yanada kengroq tavsiflarini ham beradi:

- ✓ falokatga uchragan bola(o'smir)larga yordam ko'rsatish, inqirozdan chiqish yo'llarini topish, qiyin vaqtda qo'llab-quvvatlashi;
- ✓ bola(o'smir)ni, uning holatini, oila va maktabdagi munosabatlarini o'rganishi;
- ✓ bolani o'rab turgan va unga ta'sir qiluvchi turli ijtimoiy sohalardagi ijtimoiy tarbiya holatining tahlili;
- ✓ ijtimoiy pedagogikaning ijobiy tajribalarini tahlil qilishi, tarqatishi, targ'ib qilishga qaratishi;
- ✓ u bola(o'smir) faoliyatini o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini o'qitish va o'z hayotini mustaqil tashkil qilishni bilishga qaratishi ;
- ✓ ijtimoiy pedagog bola (o'smir) muammolarini hal qiluvchi, uning muammolari, huquqlariga aloqador tashkilot va mutaxassislarni birlashtirish bilan ham shug'ullanishi;
- ✓ ijtimoiy tarbiyaning turli muammolarini o'rganishni tashkil qilishi, ijtimoiy pedagoglar faoliyatini tahlil qilishi lozim.

Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari. Har bir fanni shu fanning o'rganish predmetiga asoslangan bilimlar tizimi ajratib turadi. Fanning bilimlar tizimi uning tushuncha va kategoriyalarida aks etadi. Tushuncha - real olamni bilish jarayonida aks etish shakllaridan biri. Reallikning o'zgaruvchanligi va ko'p qirraliligi tufayli tushunchalar dinamik, rivojlanadigan xarakterga ega. Ular tarixiy holat va hayot sharoitlariga bog'liq ravishda o'zgaradi.

Har qanday fan rivojlanishi jarayonida tushunchalar fan kategoriyalariga birlashadi. Fan kategoriyalari shu fanda qo'llaniladigan yanada kattaroq, amaliy tushunchalardir. Ijtimoiy pedagogikaning asosiy kategoriyalariga olimlar "ijtimoiy pedagogik faoliyat", "ijtimoiy ta'lim" va "ijtimoiy tarbiya"ni kiritishadi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat va ijtimoiy ta'lim. Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom va rol, ijtimoiy xulq-atvorning me'yor va qoidalari haqida ko'p bilimlarni o'zlashtiradi. U shuningdek, uning jamiyatga ko'nikishiga yordam beruvchi turli ko'nikma va malakalarni ham o'zlashtiradi. Bu jarayon ayniqsa bolalikda juda jadal amalga oshadi. Ma'lumki, bola besh yoshgacha uning keyingi hayotida o'z aksini topuvchi nihoyatda ko'p bilimlarni oladi.

Bolalar ijtimoiylashuvining ajralib turuvchi xususiyati shuki, bola jamiyat ilgari surayotgan yurish-turish me'yorlariga baho berishi va nazorat qilishi qiyin. U bularni faqat o'zlashtirib boradi. Shuning uchun bolalarning ijtimoiylashuv jarayonida ota-onalar, qarindoshlar, ular bilan ishlayotgan mutaxassislarning (psixolog, shifokor, pedagoglar, "agent"lar) ta'siri katta bo'lib, bolalarni hayotda zarur ijtimoiy bilimlarni ertaroq va yaxshiroq o'zlashtirishlari, ularni hayotda qo'llashga intilishlari aynan ularga bog'liqdir. Buning ijtimoiy pedagogika bilan bog'liqligi shundaki, maktab yoki boshqa ta'lim muassasida ta'lim olish jarayonida ma'lumki bola avvalo akademik bilimlarni o'zlashtiradi. Biroq shu bilan bir paytda u muayyan tizimlashgan ijtimoiy bilim, ko'nikma va malakalarni qo'lga kiritadi. Bu bilim, ko'nikma va malakalar ijtimoiylashuv jarayonida bolaga maxsus yordam kerak bo'lganda juda zarur bo'ladi.

Bolaning ijtimoiylashuviga yordam beradigan ijtimoiy bilimlarni bolaga etkazish, unda ijtimoiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni ijtimoiy ta'lim deyiladi.

Tarbiya va ijtimoiy tarbiY. Tarbiya pedagogikaning asosiy ob'ekti sifatida pedagogikaning rivojlanish tarixi mobaynida olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Shu bilan birga "tarbiya" tushunchasining mazmuni amaliy ahamiyatga ega. Chunki bu tushuncha pedagogik faoliyatning vazifa va maqsadlariga asosiy yondashuvlarni belgilaydi.

Boshqa tomondan tarbiya ijtimoiy hayotning doimiy va umumiy kategoriyasidir. Tarbiyaning ijtimoiy qamrovi uning lug'aviy ma'nosidan ancha kengdir.

Ijtimoiy tarbiyani insonning qobiliyati, bilimi, yurish-turish namunasi, qadriyatlar u yashayotgan jamiyatga munosabatidan iborat imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi, maxsus tarbiya tashkilotlarida amalga oshiriladigan jarayon sifatida ko'rib chiqish lozim.

Boshqacha aytganda, ijtimoiy tarbiyaning maqsadi insonni ijobiy rivojlanishga qaratilgan sharoitlar yaratish jarayoniga yo'naltirishdir. Bu sharoitlar individual va guruhii sub'ektlarning uchta o'zaro bog'liq va shu paytning o'zida mazmuni, shakli, usuli jihatidan nisbatan mustaqil bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi: bolalar, o'smirlar, o'spirinlar ijtimoiy tajribasini tashkil qilish, ularning ta'lim olishlarini ta'minlash, ularga individual yordam ko'rsatish.

Ijtimoiy tajribani tashkil qilish guruh (jamoal)larning maishiy va hayotiy faoliyatini tashkil qilish, guruhdagi o'z-o'zini boshqarish faoliyatini rag'batlantirish va norasmiy mikroguruhlarga ta'sir etish orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy tajriba keng ma'noda turli ko'nikma va malakalar, bilim va fikrlash usullari, yurish-turish me'yor va stereotiplari, qadriyatlar, odamlar bilan munosabatga kirishish tajribasi, moslashish tajribasi, shuningdek o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini belgilash yig'indisidir.

Ta'lim o'z ichiga quyidagilarni oladi: uzluksiz tizimli ta'lim (rasmiy ta'lim), madaniyatni targ'ib qilish va tarqatish, o'z-o'zini shakllantirishga va mustaqil ta'lim olishga yo'naltirish.

Individual yordam insonga muammolarni hal qilishda, o'z-o'zini rivojlantirishda, jamiyatdagi mavqei, o'rnini yuksaltirishda yordam berishda namoyon bo'ladi. Individual yordam boshqa insonlarning ehtiyojlarini qondirishga zarur bo'lgan bilim, malakalarni o'zlashtirishga insonga ongli yordam berish, insonning o'z qadrini bilishi, o'z-o'zini anglash, oila, guruh, jamiyatga mansubligi hissini rivojlantirishdir.

Tabiiyki, ijtimoiy tajriba ta'lim va individual yordamning usul, shakl, mazmuni, xarakter, jadalligi bevosita tarbiyalanuvchilarning yoshi, jinsi, qaysi kasb egasi ekanligi ularning va ijtimoiy-madaniy mansubligiga bog'liq. Bu jihatlar turli ta'lim muassasalari va tashkilotlari farqlanadi. Farqlar ham tashkilot turiga, ham unda faoliyat yuritadigan pedagoglarning o'z faoliyatlarida amalga oshirayotgan ishlariga bog'liq.

Ijtimoiy tarbiya jarayonidagi o'zaro munosabat uning sub'ektlari orasidagi axborot, faoliyat usullari, qadriyatlar almashuvidir. Bunaqa munosabat ijtimoiy jihatdan tabaqalashgan, alohida ko'rinishga ega. Chunki o'zaro munosabatning aniq ishtirokchilari muayyan etnik, ijtimoiy va ijtimoiy psixologik guruhlar vakili bo'la turib, o'z munosabatlarida u yoki bu darajada ular mansub guruhlariga tegishli ijtimoiy yurish-turishni amalga oshirishadi.

Umuman olganda, o'zaro munosabat tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning, birgalikdagi faoliyati, uning mazmuni, xakteri, tarbiyaviy samaradorligi, unda kimlar ishtirok etishi va ular o'zlarini qay darajada shaxs deb hisoblashiga bog'liq. O'zaro munosabat jarayonida amalga oshirilayotgan ijtimoiy tarbiya insonning ijobiy ijtimoiy, ma'naviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishda qulay sharoitlar yaratadi.

IJTIMOIIY PEDAGOGIIKA AMALIIY FAOLIIYAT SOHASI SIFATIDA

Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish. XIX asrda Evropa va Shimoliy Amerikada bo'lib o'tgan ijtimoiy-madaniy jarayonlar nafaqat ijtimoiy pedagogika balki "ijtimoiy ish" deb nomlangan ijtimoiy faoliyat sohasining paydo bo'lishini ta'minladi.

G'arbiy Evropa davlatlarida, ayniqsa, Germaniyada XX asr davomida ijtimoiy pedagogika bilan bir qatorda ijtimoiy ish ham amaliy faoliyat sohasi sifatida rivojlandi, biroq ijtimoiy pedagoglar va ijtimoiy xodimlarning kasbiy faoliyatlarida ko'p umumiy jihatlar bor. Ular bir kasbni anglatuvchi sinonim so'zlardir. Bu mutaxassislar jamiyatda tarbiyaviy, axborot, hamkorlik, tashkiliy, himoya, qo'llab-quvvatlovchi vazifalarni bajarishadi.

Bu toifa xodimlarning paydo bo'lishi aholining himoyalangan qatlamlariga ijtimoiy yordam bera oladigan mutaxassislarga ehtiyoj tug'ilgani bilan bog'liq.

Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishning rivojlanish tarixi juda yaqin. Avvalambor ularni insonlarga munosabatning tarixiy-madaniy an'analari birlashtiradi. "Mehribonlik", "hayriya", "yordam" tushunchalarining ham ijtimoiy pedagogikada, ham ijtimoiy ishda qo'llanishi tasodif emas.

Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish amaliy faoliyatining yaqinligi, bu ikki hamkasblar toifasini kengaytirish, ularning maqsadlarining yaqinlashuviga va bir-birlarini to'ldirishlariga olib keldi. Turli davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida masalan, bolalar bog'chalari, maktablarda hozirda ham ijtimoiy xodimlar va ijtimoiy pedagoglar birgalikda ishlashlari mumkin. Biroq ulardan har biri o'z majburiyatlariga ega.

Ularning farqlari quyidagilarda namoyon bo'ladi. Ular bilim sohasi sifatida turli fanlardan kelib chiqqan: ijtimoiy pedagogika-pedagogikadan, ijtimoiy ish esa sotsiologiyadan.

Amaliy faoliyatda ularning farqlari ijtimoiy pedagoglar o'z faoliyatlarida pedagog faoliyatining nazariy va metodik asoslariga suyananlarida, ijtimoiy ishchilar esa asosan ijtimoiy nazariya va texnologiyalardan foydalanishlarida namoyon bo'ladi. Bu ikki mutaxassisliklar shuningdek, faoliyat ob'ekti boyicha ham farqlanadilar.

Ijtimoiy ish ob'ekti insonning me'yorda faoliyat yuritishiga xalaqit beruvchi muammolarga ega shaxsdir. Muammolar har bir insonda butun hayoti davomida yuzaga keladi. Ular psixologik, tibbiy, huquqiy, moddiy bo'lishi mumkin. Ular ham insonga bog'liq bo'lmagan tashqi omillar(kasallik va boshqa)ga bog'liq

bo'lishi ham mumkin. Bu holatda ijtimoiy ish ob'ekti o'z muammolarini mustaqil hal qilishga kuchi etmaydigan va kasbiy yordamga muhtoj bo'lgan inson bo'ladi. Shunday qilib, ijtimoiy ish ob'ekti hayoti davomida ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan insondir. Ijtimoiy pedagogika ob'ekti esa bolaning ijtimoiy sub'ektga aylanishiga kerak bo'ladigan yordamdir.

Ijtimoiy xodim yordam ko'rsatayotgan inson mijoz deyiladi, ijtimoiy pedagogikada odatda "go'dak", "bola" so'zlari ishlatiladi.

"Ijtimoiy ish" insonlarning bir-biriga insoniy munosabatining namoyon bo'lishini bildiruvchi ibora. U hali qadim zamonlardayoq insonning diniy burchi, ehtiyojmandlarga insoniy xizmatlar tizimi sifatida paydo bo'lgan. Biroq faqatgina bizning asrimizga kelib ijtimoiy ish butun dunyoda maxsus tayyorgarlikni talab qiluvchi kasb sifatida tan olinmoqda.

Ijtimoiy faoliyat-insonning jamiyatga muvoffaqiyatli moslashuvini osonlashtirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlardir. U mehribonlik va shuncha o'xshash faoliyat doirasida nafaqat kundalik muammolarni hal qilishga yordam berish, balki ehtiyojlarni qondirishga to'siq bo'ladigan muammolarni hal qilishga yordam berish bilan ajralib turadi.

Davlat va jamoatchilik qo'llab-quvvatlaydigan tashkilotlar (tijorat va notijorat) tomonidan ko'rsatiladigan yordam eng samaralidir. Ijtimoiy yordam ko'rsatish jamiyatning yuqori madaniyati va taraqqiy etganligidan dalolat beradi. U butun aholining hamdardligiga sabab bo'ladi. Shuning uchun bu kasb egalari ancha obro'-e'tiborga ega. Biroq ijtimoiy xodimlarning maoshi butun dunyo miqyosida yuqori emas va ijtimoiy tashkilotlarga ishga kiruvchilar soni ham ko'p emas.

Ijtimoiy xodim ishini ham ahloqiy burch, ham kasb desak bo'ladi. Savol paydo bo'ladi: ijtimoiy xodim o'zi nima bilan shug'ullanadi?

Ijtimoiy ishning o'ziga xosligini tushunishda asosiy omil 1917 yilda Meri Richmandning "Ijtimoiy suhbat" kitobining chop etilishi bo'ldi. Bu mumtoz asarda "YAxshi ijtimoiy xodim odamlarni kambag'allikdan halos etish bilan shug'ullanmaydi, u kambag'allikni umuman bartaraf etish uchun nima qilish

haqida o'ylaydi",-deb yozilgan. Ijtimoiy ishda M.Richmondan keyin izlanish, tashhis, davolash paradigmasi asosiy bo'ldi.

Ijtimoiy ishni metodologik asoslashga bag'ishlangan ilk yirik asarlardan birida I.Karpf (1931 yil) o'z rivojlanishida tayanish lozim bo'lgan fanlarni sanab o'tgan: biologiya, iqtisod, tibbiyot, psixiatriya, sotsiologiya, statistika, antropologiya, pedagogika, ijtimoiy psixologiya. Shundan buyon bu royxat deyarli o'zgarmadi.

Amaliy ijtimoiy xodim atamasi 1970 dan buyon qo'llanilmoqda. Avvallari bu ishga turli ta'riflar berilgan: metodologiya nuqtai nazaridan-mijoz, guruh bilan ishlash, yo'naltirilganligi nuqtai nazaridan-bolalarni ijtimoiy ta'minlash, oilaviy xizmatlar, tibbiy ijtimoiy ish, axloq tuzatish muassasalarida psixiatrik ishlari, kambag'allar, nogironlar, aqliy ojizlar, aroqxo'rlar bilan ishlash. Bunaqa tor ixtisoslashgan yondashuvlar bilan birga yanada kengroq yondashuvlar ham shakllandi.

Ijtimoiy ishchilar keng doiradagi muammolar bilan to'qnash kelishadi. Bu muammolarga aroqxo'rlik, mulkchilik huquqlarining buzilishi, bolalarga yomon munosabat, oiladagi nizolar ruhiy va jismoniy kasalliklar, bezorilik, jamiyatdan ajralib qolish, kabilarni kiritish mumkin. Muammolarni bunday tasniflash mutaxassisga ularni yanada chuqurroq o'rganish imkonini berdi.

Hozirda amaliy ish sohalari quyidagilar hisoblanadi: oila, bolalarga yordam berish, sog'liqni saqlash, turli kasb egalari bilan ijtimoiy ish olib borish, qariyalar, ta'lim va axloq tuzatish muassasalari. Bu ixtisoslashuvga eng keng ta'rifdir. Ijtimoiy xodimdan o'z sohasida unga yordam so'rab murojaat qilgan aholi toifalari haqida zaruriy bilimlarga ega bo'lishini talab qilinadi.

XX asrning 70-yillarida tizimli yoki bir butun yondoshuv etakchi yondoshuvga aylandi. Unga muvofiq ijtimoiy xodimlardan bir sohaga ixtisoslashuv, moslashuv, universallik, turli usullarni uyg'unlashtira olish talab qilina boshlandi. Pedagogik, sotsiologik nazariyalarning ahamiyati oshdi. Birlashishga ehtiyoj ijtimoiy ish tarkibida ham muhim o'zgarishlar ro'y bera boshladi: metodik madaniyat, ijtimoiy ishlarning aniq texnologiyasiga ehtiyoj tug'ildi. Tizimli yondashuv yordamida

ijtimoiy xodimlar bir vaqtning o'zida bir qancha inson muammolarini hal qilishni amalga oshirish malakasiga ega bo'ldi.

Butun dunyoda ijtimoiy xodimlar jiddiy o'qitilmoqda. Unda milliy ta'lim tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari aks etadi. U turli davlatlarda, ya'ni Frantsiya, Germaniya, Italiya, Belgiya, Norvegiya, Daniya, Shvetsariya va Yaponiyada o'ziga xos xususiyatlari bilan katta farqlarga ega.

Zamonaviy ijtimoiy pedagogika jiddiy ilmiy asosga asoslanadi. Ijtimoiy ish bilimlar zahirasi sohaga oid ishlangan va boshqa sohalardan o'zlashtirishgan bilimlarning yig'indisidan iborat. Ijtimoiy ish falsafa, etika, huquqshunoslik, sotsiologiya, psixologiya fanlariga oid bilimlarga asoslanadi. Ijtimoiy xodimlar shaxs, ijtimoiy guruhlarining yurish-turishi, oila muammolari, hokimiyat, qo'shnichilik va ijtimoiy hayot, ijtimoiylashtirish, submadaniyat, ijtimoiy qatlamlanish, murakkab tuzilmalar, turli madaniy tizimlarning turlarini psixologiya va sotsiologiyadan o'zlashtirishdi. Biroq mizojlar va guruhlar bilan amaliy ish olib borish metodikasi pedagogika, psixologiya va tibbiyot ta'siri ostida shakllandi.

Bugungi kunda ijtimoiy ish ilmiy asoslangan bo'lishi lozimligini talab etilmoqda, shuning uchun bu kasb boyicha o'tkazilayotgan ilmiy tadqiqotlarning nufuzi oshib bormoqda. Maxsus konferentsiyalar o'tkazilmoqda va ularda nazariyani amaliyotda yana samarali qo'llash masalalari muhokama qilinmoqda. Xalqaro darajada ilg'or yutuqlar almashinuvi ijtimoiy pedagogikaning dinamik rivojlanishini ta'minlashi mumkin.

Savol va topshiriqlar:

- Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatidagi xususiyatlari qaysilar?
- Ijtimoiy pedagogikaning fan sifatidagi mazmunini xarakterlang?
- Ijtimoiy pedagogika atamalariga ta'rif bering?
- Ijtimoiy pedagogikaning funktsiyalarini aniqlang?
- Ijtimoiy ish nima?
- Ijtimoiy xodimning faoliyati mazmuni?

- Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ishning o'zaro munosabati nimadan iborat?
- Ijtimoiy pedagogika va ijtimoiy ish o'rtasidagi farqlarni ayting?
- Ijtimoiy o'qitish va ijtimoiy tarbiyaga ta'rif bering?

Adabiyotlar:

Sotsialnaya pedagogika. Kurs lektsiy. Pod red. M.A.Galaguzovoy. – M.: VLADOS, 2003.

Mudrik A.V. Sotsialnaya pedagogika. – M.: Akademiya, 2003.

Podlasyy I.P. Pedagogika: Novyy kurs. – M.: VLADOS. – Kn. 2.

Podlasyy I.P. Pedagogika: 100 voprosov – 100 otvetov. – M., 2001.

Pedagogika. Kurs lektsiy. – T.: TGPU, 2001.

Vasilkova Y.V., Vasilkova T.A. Sotsialnaya pedagogika. – M., 2003.

IV BOB. IJTIMOIYLASHUV IJTIMOIIY PEDAGOGIK HODISA SIFATIDA

IJTIMOIYLASHUV: MAZMUN VA MOHIYATI

Ijtimoiylashuv tushunchasi. “Ijtimoiylashuv” so’zi dastlab siyosiy iqtisodiyotdan kelib chiqqan. U siyosiy iqtisodiyotda er, ishlab chiqarish vositalarining umumlashuvi ma’nosini anglatgan.

“Ijtimoiylashuv” atamasini birinchi bo’lib insonlarga nisbatan qo’llagan amerikalik sotsiolog F.G.Keddings hisoblanadi. U “Ijtimoiylashuv nazariyasi” (1987) kitobida hozirgiga yaqin ma’noda “ijtimoiy tabiat yoki individ xarakterini rivojlantirish, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir” degan fikrni bildiradi.

XX asr o’rtalarida ijtimoiylashuv inson rivojlanishini butun umri mobaynida o’rganuvchi fanlararo bog’lanuvchi mustaqil ilmiy sohaga aylandi. Ijtimoiylashuvning turli kontseptsiyalarining tahlili uni shartli ravishda ikki asosiy yondoshuvga ajratish imkonini beradi:

- 1) sub’ektiv-ob’ektiv. Unda insonga jamiyat ta’sirining passiv iste’molchisi sifatida qaraladi (E.Dyurkgeym, T.Parsons)
- 2) sub’ektiv-sub’ektiv. Bunda ijtimoiylashuv jarayonida insonning faol o’rni, uning hayotiy holatlarga ta’sir etish qobiliyati nazarda tutiladi.

Jamiyat va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini tushunishning hozirgi talablariga ikkinchi yondashuv ko’proq mos keladi, chunki zamonaviy fanda ijtimoiylashuv insonning madaniyatni o’zlashtirish jarayonidagi rivojlanish va o’zgarishi bilan aniqlanadi.

Ijtimoiylashuv jarayoni. Bolaning ijtimoiylashuvi, xususan, insonning ijtimoiy moslashuvi uning bilishga bo’lgan ob’ektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo’ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bola boshqa bir ob’ektiv ehtiyoj -o’ziga xosligini namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi roy beradi. SHaxsning faqat o’ziga tegishli bo’lgan ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari individual tarzda namoyon bo’ladi, uning ijtimoiy yurish-turishi takrorlanmas jihatlariga ega bo’ladi. Shunday qilib, bolaning ijtimoiy rivojlanishi o’zaro bog’liq

ikki yo'nalishda olib boriladi: ijtimoiylashuv (ijtimoiy madaniy tajriba madaniyatni o'zlashtirish) va individuallashuv (mustaqillik, nisbiy o'ziga xoslikni qo'lga kiritish). Shu tarzda ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda moslashuv va individuallashuv jarayonlari bilan bog'liq ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni tashkil etadi. Inson(bola)ning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvi sub'ekt va ijtimoiy muhitning o'zaro faol yaqinlashuv jarayoni va natijasidir. (J.Pia Je, R.Mertoj).

Ijtimoiy moslashuv esa ijtimoiy muhit talablariga insonning munosabat bildirishidir. Shunday qilib, ijtimoiylashuv (moslashuv) individning ijtimoiy mavjudodga aylanish jarayoni va natijasidir.

Individuallashuv insonning hali yoshligidayoq paydo bo'ladigan ob'ektiv ehtiyojlari bilan bog'liq jamiyatdagi o'z-o'zini egallashidir. Bu ehtiyoj:

- a) o'z qarashlariga ega bo'lish;
- b) o'ziga xosliklariga ega bo'lish;
- v) unga tegishli bo'lgan masalalarni hal qilish, uning o'z darajasini aniqlab olishiga xalaqit beradigan hayotiy holatlarga qarshi turish xohishi sifatida namoyon bo'ladi.

Agar shaxsning jamiyatga kirishida ijtimoiylashuv va individuallashuv jarayonlari o'rtasida tenglik yuzaga kelsa, insonning jamiyatga yaqinlashuvi roy beradi. Shu bilan birga bu erda shaxs va muhitning o'zaro ta'sir etishi ham sodir bo'ladi. Shunday qilib, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv moslashuv va individuallashuv o'rtasida muvozanat saqlangandagina amalga oshishi mumkin. Bu jarayon uch asosiy sohada amalga oshadi:

1.Faoliyat turlarning kengayishi, uning shakl va vositalarini qo'lga kiritish, erkin mo'ljal olish.

2. Muloqot doirasini kengaytirish, uning mazmunini chuqurlashtirish, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish.

3. SHaxsiy "Men" obrazini faoliyatning faol ishtirokchisi sifatida shakllantirish, o'z ijtimoiy mansubligi va o'rnini anglash, o'ziga baho berishni shakllantirish.

Ijtimoiylashuv vositalari. Inson ijtimoiylashuvi u yoki bu jamiyat ijtimoiy qatlamlariga xos bo'lgan universal vositalar orqali amalga oshiriladi, ularga: go'dakni emizish va g'amxo'rlik qilish usullari, maishiy va gigienik yurish-turish qoidalari, insonni o'rab turuvchi moddiy madaniyat mahsulotlari, ma'naviy madaniyat unsurlari(alladan boshlab ertaklargacha), muomala usuli va mazmuni, shuningdek oilada jazolash va mukofotlash uslublari, insonning hayotiy faoliyatidagi ko'p sonli munosabatlari-muloqot, oyinlar, ma'naviy-amaliy faoliyati, sport bilan shug'ullanishi kiradi.

Har bir jamiyat, davlat, ijtimoiy guruh ijobiy va salbiy, formal va noformal sanksiyalarni man etish, ruxsat berish, majburlash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Bu choralar yordamida inson xulq-atvori shu jamiyatda qabul qilingan me'yoriy qadriyatlarga moslashtiriladi.

Bola ijtimoiylashuvining etakchi vositalari: muloqot (ota-onalar, tengdoshlar va boshqalar bilan) hamda faoliyat (oyin, o'qish, ijod, sport). Psixologik-pedagogik tadqiqotlar jarayonida turli yosh davrlariga turli faoliyat turlari mos kelishi aniqlangan.

Bolaning me'yorida rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri muloqot. Muloqot va faoliyatning etakchi turlariga nisbatan quyidagi yosh davrlari qo'llaniladi::

- go'daklik davri-bevosita hissiy-ruhiy;
- go'daklikdan keyingi davr-predmetli faoliyat;
- maktabgacha davr-rolli oyinlar;
- ilk maktab davri-o'quv faoliyati;
- o'smirlik davri-kasb ta'limi faoliyati;
- o'spirinlik davri-shaxsiy muloqot faoliyati.

Ijtimoiylashuv agentlari. Insonning voyaga etishida, uning shakllanish jarayonida, u bevosita munosabatda bo'lgan kishilar muhim o'rin tutishadi. Ularni ijtimoiy pedagogikaga oid adabiyotlarda ijtimoiylashuv agentlari deb ham nomlanadi. Turli yosh davrlarida agentlarning tarkibi turli bo'ladi. Bolalar va o'smirlar uchun ota-ona, aka-uka, opa-singillar, qarindoshlari, tengdoshlari,

qo'shnilar agent bo'lishlari mumkin. Yoshlik davriga kelib, agentlar qatoriga turmush o'rtog'i, hamkasblari ham qo'shilishlari mumkin. Ijtimoiylashuvdagi tutgan o'rinlariga, inson uchun qanchalik ahamiyatli ekanligiga qarab agentlar ham farqlanadi: faol ta'sir etuvchi va faol ta'sir ko'rsatmaydigan.

Ijtimoiylashuv mexanizmlari. Insonning ijtimoiylashuvi turli omillar, agentlar bilan hamkorlikda va bir qator mexanizmlar asosida amalga oshadi. Frantsuz olimi Gabriel Tard amerikalik Uri Bronfenbrenner, rus olimlari V.S.Muxina va A.V.Petrovskiylarning tadqiqotlari ijtimoiylashuv mexanizmlariga turli yondoshuvlarni keltirib chiqaradi. Mavjud ma'lumotlarning umumlashtirilishi quyidagi mexanizmlarni alohida ajratib ko'rsatish imkonini beradi:

1. I.P.Podlasıy tasnifi bo'yicha:

Bostirish mexanizmi, uning mazmuni muayyan g'oya, fikr, xohish, istaklarni ongdan chiqarib tashlashdan iborat. Bu mexanizmning tashqi va ichki turlari mavjud. Ichki mexanizm ham o'z o'rnida ixtiyoriy va g'ayri ixtiyoriyga bo'linadi. G'ayriixtiyoriy mexanizm - unutishdir. Ixtiyoriy bostirish mexanizmi esa iroda kuchi bilan amalga oshiriladi. Tashqi bostirish mexanizmi tarbiyaning keng tarqalgan usulidir;

Ajratish mexanizmi. Bu mexanizm ijtimoiylashuv mexanizmi sifatida inson o'zi uchun yomon taassurotlardan voz kechishi bilan bog'liq. Ajratish mexanizmi odatda nizolarni hal qilishda kuzatiladi

O'z-o'zini cheklash mexanizmi. Bu mexanizm ijtimoiylashuv jarayonida muhim o'rin tutadi. Agar tarbiyalanuvchiga uning yutuqlari do'stlarinikidan ko'ra ahamiyatsizroq tuyulsa, uning o'z-o'ziga hurmati pasayadi, yomon o'qiy boshlaydi. Bu o'z "Men"ini cheklab qoyish, qiyinchiliklar oldida ojiz qolishdir. Ba'zi hollarda o'z-o'zini cheklash mexanizmini qo'llashni oqlasa bo'ladi. Chunki bu holatda moslashuv sodir bo'lishi mumkin. Biroq uzoq muddatli o'z-o'zini cheklash, o'z-o'ziga baho berishning pasayishiga olib keladi. Buning natijasida o'z salohiyatini bilmay turib tarbiyalanuvchi ilk muvaffaqiyatsizlikdan so'ng boshlagan ishini tashlab qoyadi, oqimda suza boshlaydi;

Loyihalash mexanizmining mohiyatini o'z kamchiliklarini boshqalarga tegishli deb hisoblash tashkil qiladi. O'ziga, boshqalarga qarshi qaratilgan salbiy hissiyotlar bilan inson o'ziga bo'lgan hurmatni saqlab qoladi. Shubhali inson hammadan gumonsiraydi, xudbin hammani xudbin hisoblaydi;

Identifikatsiyalash ijtimoiylashuvning yana bir asosiy mexanizmidir. Identifikatsiya jarayonida tarbiyalanuvchi hayolan o'zini o'rtoqlari bilan qiyoslaydi. Identifikatsiya ob'ekti nafaqat real insonlar, balki tasavvurlardagi insonlar ham bo'lishi mumkin. Identifikatsiyaning to'liq, qisman, ongli, ongsiz turlari mavjud.

identifikatsiya mexanizimi **introektsiya** mexanizimi bilan juda bog'liq. Bunda boshqalarning xislatlari o'zgarmagan holda o'zlashtirib olinadi. Garchi bu mexanizm xayolan amalga oshirilsa ham uning natijalarini anglab olish qiyin emas;

Empatiya mexanizmi, ya'ni boshqa odamning hissiy holatiga hamdard bo'lish. SHaxsning muammo, qiyinchiliklarini engishga yordam berish hissiyotga boy shaxslarning ijtimoiylashuvida muhim ahamiyatga ega;

Intellektuallashuv mexanizmida katta yoshdagi tarbiyalanuvchi abstrakt fikrlay boshlaydi va vaziyatdan chiqib ketish yo'lini o'zi uchun emas, goyoki boshqa odam uchun qidiriyotgandek tuyuladi. Bu mexanizm tarbiyalanuvchi hayotiy muhim muammolarga (kasallik, boshqa maktabga o'tish, institutga kirish) duchor bo'lganda namoyon bo'ladi.

Harakatlarni bekor qilish mexanizmi fikr, xissiyot, harakatlarni susaytirish uchun qo'llaniladi. Tarbiyalanuvchi kechirim so'raganida, uning harakatlari kechirilishi va sof vijdon bilan harakat qila boshlashiga ishonadi. Ko'p shaxslar shu tarzda komillikka erishishadi.

2. I.V.Mudrikning fikricha psixologik va ijtimoiy psixologik mexanizmlarga quyidagilarni kiritisa bo'ladi:

Imprinting (xotirada saqlab qolish)-insonga ta'sir qiladigan hayotiy muhim ob'ektlarni eslab qolishi. Bu mexanizm odatda go'daklik davrida ko'p qo'llaniladi. Biroq keyingi yosh davrlarida ham imprintingni kuzatishimiz mumkin.

Eksiztentsial bosim mexanizmi-tilni o'zlashtirish va o'zaro munosabatga kirishganda kerak bo'ladigan ijtimoiy xulq-atvor normalariga anglamagan holda ega bo'lish.

Taqlid - biror-bir "namuna"ga o'xshash uchun harakat qilish. Bu holat insonning ijtimoiy tajriba to'plashining ixtiyoriy va asosan ixtiyorsiz yo'llaridan biridir.

Reflektsiya mexanizmi - ichki suhbat. Unda inson jamiyatning turli institutlari, oila, tengdoshlar jamoasi, obro'-e'tiborli shaxslarga xos xususiyatlarga baho beradi, ularni ko'rib chiqadi yoki inkor etadi. Reflektsiya insonning turli "men" obrazlari orasidagi real va xayoliy shaxslarning ichki suhbatidir. Bu mexanizm yordamida insonning shakllanishi roy beradi.

Bundan tashqari ijtimoiylashuvning ijtimoiy pedagogik mexanizmlariga quyidagilarni ham kiritib bo'ladi:

1. **An'anaviy mexanizmi** inson tomonidan oila, atrof-muhit, qo'shnilar, o'rtoqlariga xos norma, qarash stereotiplarini o'zlashtirishni ko'zda tutadi. Bu o'zlashtirish ongsiz holatda amalga oshib, taassurotlar yordamida sodir bo'ladi.

2. **Institutsional mexanizm** insonning jamiyat institutlari va turli tashkilotlari bilan o'zaro munosabati jarayonida kuzatiladi. Bu jarayonda inson turli bilim va tajribalarni to'plashi mumkin.

Ijtimoiylashuv omillari. Ijtimoiylashuv bolalar, o'smirlar, yoshlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ko'p sonli shart-sharoitlar bilan o'zaro munosabatida yuzaga keladi. Insonga ta'sir qiluvchi bu sharoitlar omil deyiladi. Aslida ularning hammasi ham aniqlanmagan. O'rganilgan omillar haqida bilimlar etarli emas. Ijtimoiylashuvning omillari ikki guruhga bo'linadi: tashqi va ichki.

Tashqi omillarga quyidagilar kiradi.

1. **Megaomillar** (mega-eng katta)-kosmos, er shari, planetar jarayonlarni kiritib bo'ladi.

2. **Makroomillar** (makro-katta)-davlat, xalq, jamiyat, shuningdek bularga demografik, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ya'ni ularning barcha aholisining ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatadigan omillarni kiritiladi.

3. Mezoomillar (mezo-o'rta)-hudud va yashash joyi ommaviy aloqa tarmoqlari, u yoki bu submadaniyatga tegishliligiga ko'ra ajratilgan guruhlarining ijtimoiylashuvi shart-sharoitlari. Mezoomillar etnik qurilmalarni shakllantirish jarayoniga, mintaqaviy sharoitlarga, shu hududning OAVlariga ta'sir qiladi.

4. Mikroomillar, ya'ni muayyan shaxslarga ta'sir qiluvchi omillarga -oila, qo'shnilar, tengdoshlar guruhlari, tarbiya muassasalari, turli ijtimoiy, diniy, davlat, xususiy tashkilotlar kiradi.

SHaxs tug'ilganidan boshlab rivojlanadigan muhit **sotsium** yoki **mikrosotsium** deyiladi.

Tashqi ijtimoiy omillardan tashqari ichki biologik omillar ham mavjud. Ularni bir-biridan mustaqil o'rganishning iloji yo'q. Zamonaviy ilmiy nazariyalarda shaxs rivojlanishining asosiy omillari sifatida biologik va ijtimoiy omillar ajratib ko'rsatiladi.

Biologik omillar. Biologik irsiyat insonni inson qiluvchi umumiy jihatlarini aniqlaydi. Irsiyat deganda ota-onalardan bolalarga turli belgi, o'xshashlik, xususiyatlarning o'tishi tushuniladi. Irsiyatga ko'ra bolaga ota-onasidan inson organizmi, asab tizimi, miya va his-tuyg'u organlari, shuningdek, qomat tuzilishi, soch, teri rangi o'tadi. Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi tashqi omillar hisoblanadi. Shuningdek irsiyat boyicha nerv faoliyatini rivojlantiradigan nerv xususiyatlari ham o'tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror-bir faoliyat sohasida muayyan qobiliyatlarining shakllanishini ko'zda tutadi. Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, qobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo'la olmaydi. Bola qobiliyatlarining namoyon bo'lishi uning hayot, ta'lim-tarbiya jarayonlariga bog'liq.

Ota-onadan bolaga o'tuvchi bir qator kasalliklar mavjud. Masalan: qon kasalliklari, shizofreniya, epilepsiya, daun kasalligi va boshqalar. Bu kasalliklarni ginetika fani o'rganadi.

Hozirgi paytda bola rivojlanishiga ekologik muhit, atmosferaning buzilishi kabi tashqi omillar ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida jismoniy nuqsonli bo'lib tug'ilayotgan bolalar soni ko'paymoqda. Bunday bolalarning muomalaga

kirishishi va faoliyat yuritishi nihoyatda og'ir kechadi. Shuning uchun ularga o'qitishning yangi metodlari joriy qilinmoqda va bu metodlar ularning aqliy rivojlanishga erishishlariga yordam beradi. Jismoniy nuqsonli bolalar bilan maxsus pedagoglar shug'ullanishadi. Bu bolalar o'z tengqurlari bilan muomalaga kirishganlarida jiddiy muammolarga duch kelishadi. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvlarini qiyinlashtiradi. Shuning uchun bunday bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning asosiy maqsadi bolaga tashqi olam bilan aloqa qilish kanallarini ochishdir.

Ijtimoiy omillar. Insonning biologik mavjudotdan ijtimoiy sub'ektga aylanishi uning ijtimoiylashuvi, jamiyatga integratsiyasi natijasida sodir bo'ladi. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari asosida shakllanadigan qadriyat, ijtimoiy norma, xulq-atvor namunasi orqali amalga oshadi.

Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayondir. U ayniqsa bolalik va yoshlik davrida nihoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki aynan bolalikda asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi.

Bola ijtimoiylashuvida sotsium muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy muhitni bola asta-sekinlik bilan o'zlashtiradi. Agar bola tug'ilgandan keyin asosan oilada rivojlansa, uning keyingi rivojlanishi turli muhitlar - maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, turli ko'ngilochar maskanlarda kechadi. Yosh o'sib borgan sari ijtimoiy muhit "hududi" kengayib boradi. Bola qanchalik ko'p muhitlarni o'zlashtirsa, u shunchalik keng doira hududini egallashga harakat qiladi. Bola doimo o'zi uchun qulay bo'lgan uni yaxshi tushunadigan, unga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan muhitni izlashga urinadi. Shuning uchun u bir muhitdan boshqa muhitga ko'chib yuradi. Muhit bolaning shakllanishida, uning ijtimoiy tajriba to'plashida ijtimoiylashuv jarayoni uchun muhim ahamiyatga ega.

Muhit tushunchasi turli fan vakillari-sotsiologlar, psixologlar, pedagoglarning o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Ular muhitning bunyodkorlik salohiyati va bola shakllanishi, rivojlanishidagi ta'sirini o'rgandilar.

Ijtimoiylashuv jarayonida muhitning o'рни. Ijtimoiy pedagogikada jamiyat, ijtimoiy muhit avvalambor bolaning yangi muhitlarga integratsiyalashuvi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Shu nuqtai nazardan inson va unga ta'sir qiluvchi tashqi omillarning jamiyatdagi o'zaro munosabati hamkorlik xarakteriga ega ekanligi muhimdir. Muhit-inson kirishishi, o'zini qulay sezishi uchun joylashuvinigina etarli bilishi lozim bo'lgan ko'cha, uy va boshqa narsalar emas. Balki, muhit bu alohida o'zaro munosabatlar tizimi va qoidalari bilan xarakterlanadigan inson jamoalari hamdir. Shuning uchun inson muhitga yangilik kiritadi, muayyan darajada ta'sir qiladi hamda o'zgartiradi va o'z o'rnida muhit ham inson oldiga o'z talablarini qoyadi. U insonni, uning xatti-harakatlarini qabul qilishi ham, inkor qilishi ham mumkin. Muhitning insonga munosabatini insonning yurish-turishi, uning talablariga qanchalik javob berishiga qarab aniqlasa bo'ladi. Insonning xulq-atvori uning jamiyatda tutgan o'rne bilan belgilanadi.

Inson jamiyatda bir vaqtning o'zida bir qancha mavqelarni egallashi mumkin. Masalan, ayol ham rafika, ham ona, ham ustoz mavqelarini egallashi mumkin. Har bir mavqe insonga muayyan talablarni qoyadi va shu bilan birga unga bir qancha huquqlarni beradi. Insonning jamiyatdagi muayyan huquq va majburiyatlar bilan xarakterlanadigan mavqei ijtimoiy maqom deyiladi. Insonda tug'ma maqomlar bo'lishi mumkin. Insonning ijtimoiy maqomiga millati, tug'ilgan joyi, familiyasi va boshqa omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday maqomlarga odatda tug'ma maqom deyiladi. Boshqalari esa inson jamiyatda nimalarga mustaqil erishganligiga qarab belgilanadi. Masalan, ijtimoiy pedagog maqomiga shu sohadagi kasb tayyorlovchi o'quv muassasasida ta'lim olgan va bu soha boyicha diplomga ega bo'lgan shaxs erishishi mumkin. Yuqoridagi maqomni qo'lga kiritilgan maqom desak adashmagan bo'lamiz.

Maqom insonning jamiyatdagi xulq-atvorini muayyan vaziyatlarda o'zini shu maqomdagilar holatiga ko'ra belgilaydi. Atrofdagilar u shaxsdan nima kutishlari xam muhimdir. Shuning uchun inson maqomi bilan belgilanadigan xulq-atvor ijtimoiy rol deyiladi. Turli ijtimoiy rollarni o'zlashtirish shaxs ijtimoiylashuvi jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Uning murakkablik jihati shundaki,

jamiyatda faqat jamiyat tomonidan ma'qullanadigan maqomlar bo'lmasdan ijtimoiy norma va qadriyatlarga mos kelmaydigan maqomlar ham mavjud. Shuning uchun bola shakllanish va rivojlanish jarayonida ham ijobiy, ham salbiy rollarni o'zlashtirishi mumkin.

Pozitiv rollarga avvalo oila a'zosining rolini kiritsak bo'ladi. Oilada bola bunday rollarning bir nechtasini o'zlashtiradi: o'g'il yoki qiz, aka yoki opa, jiyan, nabira, shuningdek, bobokalonlari bilan ham tanishishi mumkin.

Bola o'z rivojlanishi davomida o'zlashtiradigan yana bir muhim roli bu jamoa a'zosi rolidir. Bolalar bog'chasi va maktabda, sport to'garagida tengqurlari bilan muomala qilganda, bola jamoa a'zosi, o'rtoq, do'st, o'quvchi, etakchi kabi rollarni o'zlashtiradi. Har bir inson iste'molchi rolini bajaradi. Chunki u hayoti mobaynida zarur bo'lgan narsalarga doim ehtiyoj sezadi. Bular: ovqat, kiyim-kechak, kitob va boshqalar. Jamiyat insonga taqdim etgan xizmatlardan oqilona foydalana olishni bola yoshligidayoq o'zlashtirishi lozim.

Yana bir muhim ijtimoiy rol-o'z vatani fuqarosi bo'lish, uni sevish, u bilan faxrlanish, vatanparvar bo'lish bilan bog'liqdir. Shu bilan birga bola o'zlashtirishi mumkin bo'lgan boshqa rollar ham bor. Masalan, mutaxassis roli. Uni bola maktab, litsey yoki boshlang'ich kasbiy bilim yurtlarida o'zlashtiradi. Salbiy rollarga daydi, tilanchi rollarini misol qilsak bo'ladi. Katta shahar ko'chalarida, magazin, bozor, jamoa transportlarida tilanchi bolalarni ham uchratishimiz mumkin. Ular bu rollarga ko'nikishgan. O'tgan-qaytganlardan mohirlik bilan pul undirib olishadi. Ular orasida o'g'irlik bilan shug'ullanadiganlari ham uchraydi. Ba'zi hollarda bo'lsa, ularni bu ishga kattalar undashadi.

Bolaning xulq-atvor mexanizmlarini o'zlashtirishi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi. Ijtimoiy moslashuv deganda shaxsning ijtimoiy muhit sharoitlariga ko'nikishi tushuniladi.

Ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi hisoblanadi. Bu asosan uch yo'nalishda olib boriladi: faoliyat, muloqot va anglash. Faoliyat sohasida bolada faoliyat turlarining kengayishi, faoliyatning zaruriy shakl va vositalarini qo'lga kiritishi, muomala doirasining kengayishi, uning

mazmunining chuqurlashishi, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishi sodir bo'ladi. Anglash sohasida o'z "Men"i obrazini shakllantirish, o'zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o'rnini anglash roy beradi. Bu jarayonlarning barchasini tarbiya tartibga soladi.

Tarbiya ijtimoiylashuv sifatida. So'nggi o'n yilliklar davomida pedagogika va boshqa fanlarda ijtimoiylashuv va tarbiya tushunchalarining o'zaro munosabati keng muhokama qilib kelinmoqda. Davlat mafkurasining o'zgarishi sababli bu muammoga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu bilan birga ba'zi mualliflar tarbiyani ijtimoiylashuv bilan almashtirishga harakat qilishmoqda. Boshqalari tarbiyani bola ijtimoiylashuvining bir qismi sifatida o'rganishadi. Ba'zi olimlar esa ijtimoiylashuv deganda, fuqaroviy va axloqiy tarbiyani tushunishadi. To'rtinchi guruh olimlari shaxs ijtimoiylashuvini tarbiyaning asosiy maqsadi deb hisoblashadi. Biroq tarbiya bola ijtimoiylashuvining asosiy omillaridan biri ekanligini hamma tan oladi. Tarbiyaning asosida ijtimoiy harakat bo'lishi, uni ijtimoiylashuvdan farqlaydi. Ijtimoiylashuv tushunchasini fanga kiritgan **Maks Veberg** uni muammolarni echishga qaratilgan harakat, inson xulq-atvorining taxminiy variantlarini sub'ektiv anglash sifatida ta'riflagan.

Umuman olganda, ijtimoiylashuv uzluksiz jarayondir, ya'ni inson doimo jamiyat bilan munosabatda bo'ladi. Tarbiya esa diskret (uzlukli) jarayondir. Chunki u muayyan tashkilotlarda amalga oshirilib, zamon va makonda cheklangan bo'ladi. Tarbiya pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biridir. Shunga qaramay, tarbiyaning umume'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas. Bunga uning ko'p ma'noliligini sabab qilib ko'rsatsak bo'ladi. Tarbiyani ijtimoiy hodisa, faoliyat, jarayon, qadriyat, tizim, ta'sir, o'zaro munosabat sifatida ko'rib chiqsak bo'ladi. Bu tushunchalarning hech qaysisi tarbiya mazmunini alohida olgan holatda to'liq ochib bera olmaydi.

Quyida ijtimoiylashuvning nisbatan ijtimoiy nazorat qilinuvchi jarayonga xos bo'lgan umumiylikni aks etishga harakat qilingan tarbiyaning ta'rifi keltirilgan. Biroq unda oilaviy, diniy, ijtimoiy tarbiyaning xususiyatlari inobatga olinmagan. A.V.Mudrik quyidagi ta'rifni ilgari suradi:

Tarbiya – insonning jamiyatga ko'nikishiga ko'maklashuvchi va bu ko'nikish sodir etiladigan guruh va tashkilotlarning xususiyatlariga mos keluvchi sharoitlar yaratuvchi insonning ongli rivojlanishi. Bu ta'rifni ham to'liq va butunlay to'g'ri, deb bo'lmaydi. Unda muallifning nuqtai nafari o'z aksini topgan.

Ijtimoiy omillarning insonga ta'sir ko'rsatishining tarkibiy qismi bo'lgan tarbiya o'z xususiyatlariga ega. Bu jarayon boshqalaridan farqli ravishda doimo bir maqsad sari yo'naltirilgan va bu faoliyat maxsus tayyorlangan odamlar tomonidan amalga oshiriladi. Tarbiya jarayonida bola ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi boshqa omillar- muhit, OAV, madaniyatlar inobatga olinadi. Biroq shuni esda tutish lozimki, tarbiya boshqa ijtimoiy omillar ichida o'z o'rniga ega bo'lib boshqa omillarning o'rnini to'liq to'ldira olmaydi ham, bekor qila olmaydi ham.

Tarbiyaning bola rivojlanishiga ta'siri vaqt o'tgan sari o'zgaradi. Bola qanchalik kichik bo'lsin, tarbiya uning shakllanishiga shuncha ko'p ta'sir ko'rsatadi. Vaqt o'tgani sayin tarbiyaning hissassi kamayib boradi. Bu vaqtda bolaning u yoki bu ijtimoiy qadriyatni tanlashdagi mustaqilligi ortadi.

Borgan sari tashqi tarbiyaviy omillarning ta'siri kamayadi. Biroq boshqa bir jarayon – **o'z-o'zini tarbiyalash** jarayoni rivojlana boshlaydi. Bolaning o'z shaxsini mukammallashtirish, o'z-o'zini rivojlantirish boyicha mustaqil faoliyatini anglashi ortadi. Ma'lumki, o'z-o'zini tarbiyalashga ehtiyoj shaxs rivojining eng yuksak shakli hisoblanadi. Bizning modelga binoan insonning o'z-o'zini tarbiyalashi ehrom bunyod etish bilan barobardir. Shuning uchun o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni bir umrga cho'ziladi.

Tarbiya o'z-o'zini tarbiyalash va boshqa ijtimoiy omillarning (madaniy, diniy, tarixiy an'analar, OAV, maktab jamoasi, do'stlar, bolalar bog'chasi va boshqalar) ijobiy ta'siri natijasida bolaning jamiyatga integratsiyalashuvining tabiiy jarayonini sodir etadi. Ijtimoiy muhitning ta'siri qanchalik turli bo'lsa, bola undan shuncha erkin va mustaqil bo'ladi.

Bola ijtimoiylashuvi uning jismoniy va ruhiy rivojlanishining salbiy xususiyatlari bilan qiyinlashtirilishi, bolaning ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirishi muhitning salbiy ta'siri oqibatida noto'g'ri yo'nalishda ketib qolishi

mumkin. Buning natijasida bola me'yoriy ijtimoiy munosabatlardan chetda qolib, maxsus yordamga muhtoj bo'lib qoladi. Bunday bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni, avvalo, tarbiya orqali amalga oshadi. Biroq buning uchun har bir toifa bolalarning ijobiy jihatlarini faollashtiruvchi tarbiya metodlari va texnologiyalarini ishlab chiqish lozim.

Umuman olganda, tarbiyachi va mutaxassislarning vazifasi qiyin vaziyatlarda turgan bolaning ijtimoiy moslashuviga qaratilgan, ya'ni jamiyatda qabul qilingan qonun va me'yorlarga faol ko'nikishi yoki salbiy omillarning oqibatlarini engishdir.

Agar shaxsda ijtimoiy muhit solbiy sifatlarining shakllanmagan darajasi bolaga ijtimoiy muhitga ko'nikishga xalaqit beradigan holat bo'lsa, bolaning ijtimoiy moslasha olmasligi sodir bo'ladi. Bu holatda bola tomonidan yo'qotilgan ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni tiklashga qaratilgan maxsus chora-tadbirlarni qo'llash tavsiya etiladi.

Shunday qilib, bolaning jamiyatda o'sishi, rivojlanishi jarayonida uning ijtimoiylashuvi sodir bo'ladi. Agar bu jarayon sodir bo'lmasa, uning aksi-dezadaptatsiya kuzatiladi. Bunday holatda bolaning ijtimoiy reabilitatsiyasiga ehtiyoj tug'iladi.

TARBIYA IJTIMOIIY INSTITUT SIFATIDA.

Tarbiya – ijtimoiy institut. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy institutlarning bir butun tizimi mavjud. Ijtimoiy institut jamiyat a'zolarining ijtimoiy resurslardan foydalanish jarayonida vujudga kelgan u yoki bu ehtiyojlarini (iqtisodiy, siyosiy, madaniy, diniy va boshqa) qondirish uchun birgalikdagi faoliyatlarining tarixan shakllangan shaklidir. Tarbiya ijtimoiy institut sifatida jamiyat a'zolarining ijtimoiylashuvini amalga oshirish, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini targ'ib etish, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun sharoit yaratish umuman olganda jamiyatning faol a'zolari etishtirish uchun paydo bo'lgan. Tarbiya ijtimoiy institut sifatida muayyan jamiyatning muayyan rivojlanish bosqichida paydo bo'ladigan fenomen hisoblanadi.

Har bir jamiyatning tarixiy rivojlanish jarayonida muayyan bosqichlarda quyidagilarning sodir bo'lishi kuzatiladi:

1. Tarbiya oilaviy, diniy, ijtimoiy turlarga ajraladi, ularning o'rni, ahamiyati va o'zaro munosabati o'zgarmay qoladi.
2. Tarbiya jamiyatdagi katta avloddan yosh avlodga qarab yo'naladi va borgan sari ko'proq yosh guruhlarini qamrab oladi.
3. Ijtimoiy tarbiya jarayonida uning tarkibiy qismlari sifatida ta'lim olishni, keyinchalik ma'lumotli bo'lishni ajratsak bo'ladi.
4. Korreksion tarbiya paydo bo'ladi.
5. Totalitar, siyosiy va jinoyatga moyil jamiyatlarda g'ayri-ijtimoiy tarbiya amalga oshiriladi.
6. Tarbiyaning vazifa, shakl, usul va vositalari o'zgaradi.
7. Tarbiyaning ahamiyati ortadi. U jamiyat va davlatning alohida funktsiyasi bo'lib qoladi va ijtimoiy institutga aylanadi.

Tarbiya ijtimoiy institut sifatida o'z tarkibiga quyidagilarni qamrab oladi: oilaviy, diniy, ijtimoiy, korreksion tarbiyalar majmuasi; ijtimoiy rollar yig'indisi; tarbiyachilar, tarbiyalanuvchilar, oila a'zolari, din arboblari, mintaqaviy, xududiy tarbiya tashkilotlari rahbarlari, jinoiy va totalitar guruhlar etakchilari; turli xildagi tarbiya muassasalari; ijobiy va salbiy sanksiyalar yig'indisi; tarbiyachilarning ta'lim va professional tayyorgarligi darajasi.

Tarbiya ijtimoiy institut sifatida ijtimoiy hayotda muayyan vazifalarga ega. Tarbiyaning eng umumiy vazifalari quyidagilar:

- Jamiyat a'zolarida bir maqsad sari qaratilgan dunyoqarashni shakllantirish va ular tomonidan tarbiya jarayonida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan bir qator ehtiyojlarning qondirilishi uchun sharoitlar yaratish.
- Jamiyatda faoliyat yuritish va uni rivojlantirishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash.
- Ijtimoiy hayot barqarorligini madaniyatni avlodlarga meros qoldirish orqali ta'minlash.
- O'zgaruvchan ijtimoiy holatlarga jamiyat a'zolarini moslashishini ta'minlash.

- Jamiyat a'zolarining intilishlari, maqsadlarining birlashishini va ijtimoiy, kasbiy, etnokonfessial guruhlar manfaatlarining uyg'unlashuvini ta'minlash.

Ijtimoiy pedagogning bu yo'nalishlarga bog'liq asosiy faoliyati zamonaviy tarbiya tamoyillari asosida quriladi.

Tarbiya tamoyillari. **Tarbiya tamoyillari** - tarbiyani amalga oshirish qoidalari bo'lib, ular asosida nazariyalar ishlab chiqiladi va tarbiyaning metod, shakl va vositalari amalga oshiriladi.

Tarbiyaning insonparvarlik tamoyili. Tarbiyani insonparvarlashtirish zarurati haqidagi g'oya dastlab chex pedagogi Yan Amos Kamenskiyning asarlarida yaqqol ifodasini topgan. XVIII asrdan boshlab u turli davlatlar pedagoglarining tadqiqot ob'ektiga aylangan. Bu g'oya XVIII asrda frantsuz mutafakkiri Jan Jak Russo va rus pedagogi L.Tolstoyning erkin tarbiya nazariyalarida, XX asrda insonparvarlik psixologiyasida va insonparvarlik pedagogikasida o'z aksini topgan.

Ijtimoiy pedagogik nuqtai nazardan insonparvarlashuv tamoyili pedagogning o'z tarbiyalanuvchisiga, uning rivojlanish jarayonida mas'uliyatli va mustaqil sub'ektga nisbatan munosabatda bo'lishini ko'zda tutadi. Tarbiyaning insonparvarlashuv tamoyilini amalga oshirish bolalar, o'smirlar, yoshlarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu tamoyilning amalga oshirilishi natijasida:

- tarbiya ijtimoiylashuv obekti bo'lmish inson qay darajada g'ayri ijtimoiy qadriyatlarni emas, balki ijobiy me'yori va qadriyatlarni o'zlashtirishini aniqlaydi;
- tarbiya inson o'zini ijtimoiylashuv sub'ekti sifatida his qilishi, o'z sub'ektivligining namoyon qilishi va taraqqiy etishi uchun sharoit yaratadi;
- tarbiya inson uchun jamiyatga moslashuv darajasini ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi;
- tarbiya insonni muayyan yosh bosqichlarida xavflar bilan to'qnash kelishiga yo'l qoymasligi yoki insonning ijtimoiylashuv qurboniga aylanishi ehtimolini kamaytirishi mumkin.

Tarbiyaning insonparvarlashuv tamoyilini amalga oshirish tarbiyalanuvchida refleksiya va o'z-o'zini tartibga solishni rivojlantirishga, uning tashqi olam bilan munosabatlarini shakllanishiga, g'urur hissining oshishiga, jamiyatda demokratik va gumanistik munosabatlarni tashuvchisi bo'lgan insonning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yanada kengroq ma'noda insonparvarlashuv tamoyilining amalga oshishi insonlar orasidagi aloqalarning yaxshilanishi, ijtimoiy taraqqiyot uchun kurashda insonlarning birlashishiga ko'maklashadi.

Tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili. Tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligi haqidagi g'oya antik davrlarda paydo bo'lgan va bizgacha Demokrit, Aflotun, Arastu asarlari orqali etib kelgan.

Tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligi haqidagi tamoyilni XVII asrda Yan Amos Komenskiy ta'riflagan va u XVIII-XIX asrlarda pedagogikada keng rivojlangan.

XX asrda tabiat va inson haqidagi fanlarning rivojlanishi tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligi tamoyilini ancha boyitdi. Bunda rus olimi V.I.Vernadskiy tomonidan noosfera haqidagi ta'limotning yaratilishi ham muhim rol oynadi.

Noosfera – rivojlanishning shunday bosqichini aks etadigan tushunchaki, u bosqichda insonning ongli faoliyati global muammolarning paydo bo'lishi va hal etilishiga ta'sir qiladi.

Tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligi tamoyili tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning o'zaro aloqasini ilmiy tushunishga, inson va tabiat taraqqiyoti rivojlanishning umumiy qonunlari bilan mos kelishiga, insonning yoshi va jinsini hisobga olgan holda tarbiyalashga, shuningdek uni o'z rivojlanishiga o'zini javobgar etib tarbiyalashga va noosferaning kelajakdagi taraqqiyotini shakllantirish uchun mas'ul ekanligini ko'zda tutadi. Yuqoridagilarga asoslangan holda tarbiyaning tabiat bilan uyg'unligi tamoyiliga ko'ra inson:

- o'zini Borliqning bir bo'lagi deb sezishini;
- roy berayotgan planetar jarayonlarni va undagi mavjud global muammolarni tushunishini;
- o'zida noosfera uchun mas'uliyatni sezishini;

- o'zini noosferani yaratgan sub'ekt sifatida bilishini hamda tabiat, planeta va biosferaga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirilishi kerakligini ko'zda tutadi.

Tarbiyaning madaniyatga muvofiqlik tamoyili. Tarbiyaning madaniylashuvi zaruriyati g'oyasi ingliz pedagogi Jon Lok (XVIII asr), frantsuz mutafakkiri Klod Gelvetsiy (XVIII asr) va shvetsariyalik pedagog Iogann Pestalotstsi asarlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

XIX asrda nemis pedagogi Fridrix Disterverg tomonidan berilgan ta'rifga asosan tarbiyaning madaniyatga muvofiqlik tamoyili madaniyatning umuminsoniy qadriyatlariga asoslanishi, u yoki bu milliy madaniyatlarning qadriyatlari va me'yorlariga mos bunyod etilishini ko'zda tutadi.

Tarbiyaning madaniyatga muvofiqlik tamoyili o'z oldiga bolalar va o'smirlarga xalq hamda jamiyat madaniyatining turli yo'nalishlarini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatishni maqsad qilib qoyadi. Bunda madaniyatning maishiy, jismoniy, ma'naviy, aqliy, moddiy, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy yo'nalishlari nazarda tutilmoqda.

Tarbiyaning madaniylashuvi tamoyilining amalga oshirilishi umuminsoniy xarakterdagi madaniy qadriyatlarning turli jamiyatlarda farqlanishi sababli qiyinchiliklarga duchor bo'lmoqda.

Bizning davlatda shahar va qishloq aholisi o'rtasida, shaharda esa turli ijtimoiy-kasbiy guruhlar orasida farqlar mavjud. Shu bilan bir vaqtda turli madaniyat va submadaniyatlardagi qadriyatlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash tarbiya samaradorligining shartlaridan biridir.

Tarbiyaning variativligi tamoyili. Ijtimoiy tarbiyaning variativligi shaxs ehtiyojlarining xilma-xilligi bilan aniqlanadi.

Tarbiya variativligi tamoyili insonning mintaqaviy va lokal darajada umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, etnik xususiyatlar, shuningdek mintaqaviy munitsipal va lokal sharoitlarni inobatga olib, insoniy, yosh, differentsial va individual yondashuvlar asosida manaviy qadriyat jihatidan tarbiyalashni amalga oshirishda muhim o'rin tutadi.

Ijtimoiy tarbiyaning variativligi tamoyilining ta'rifini XX asrning 80-yillari oxiridan boshlab roy bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sababli asoslash imkoniyati yaratildi. Bu o'zgarishlar insonning jamoaviy guruhlar hamda jamiyatning yosh va ijtimoiy guruhlari maqsadlari bilan bir qatorda individual maqsadlarini tan olish, ta'limning etnik xususiyatlar va mintaqaviy sharoitlarga mos qilib isloh qilish uchun sharoitlar yaratish kabilar bilan izohlanadi.

Ijtimoiy tarbiyaning variativligi tamoyilini amalga oshirish uchun quyidagilar zarurdir:

- turli yoshdagi shaxslarning manfaatlari va ehtiyojlarini, turli etnik qatlamlarning ijtimoiy-kasbiy talablarini, hududiy va mintaqaviy tashkilotlarning ehtiyojlarini qondirish uchun turli xildagi tarbiya muassasalarini tashkil etish;
- ijtimoiy tarbiyaning mintaqaviy va munitsipal tizimlarini tashkil etish;
- mahalliy tarbiya tizimlarini tashkil qilish;
- inson tomonidan o'zining rivojlanish strategiyalari, hayotiy va kasbiy yo'llarini tanlashdagi imkoniyatlarini kengaytirish uchun sharoitlar yaratish.

Ijtimoiy tarbiyaning jamoaviyligi tamoyili. Bolaning ijtimoiylashuvi mikroomillarning ta'sirida, tengdoshlari va kattalar (oila, qo'shnilar, mikrojamiyat, tarbiya tashkilotlari) bilan o'zaro munosabatlarida roy beradi. Ijtimoiy tarbiya bir tomondan jamoalarda amalga oshiriladi, boshqa tomondan esa bolalar va o'smirlar jamoa hayotiga ob'ektiv zaruriyat sifatida kirib boradi.

Jamoa tarbiyaning eng muhim vositasi ekanligi haqidagi g'oya juda qadimda paydo bo'lgan, uning nazariy asoslari esa XIX asrdan boshlab pedagogik nuqtai nazardan jadallik bilan ishlab chiqilgan. Jamiyatning hozirgi rivojlanish bosqichida real hayotdagi inson ijtimoiylashuvi muammolari va insonning o'zgarib turuvchi dunyoga kirishi jamoaviy tamoyilni ijtimoiy tarbiyaning etakchi tashkiliy asosi deb hisoblashga zamin yaratadi.

Jamoaviylik tamoyilining zamonaviy ta'rifiga ko'ra ijtimoiy tarbiya turli jamoalarda amalga oshirilib, insonga hayot tajribasi, umuman olganda esa jamiyatga ko'nikish tajribasini qo'lga kiritish imkonini beradi.

Ijtimoiy tarbiyaning birgalikdagi faoliyat ekanligi. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasidagi suhbatning zarurligi g'oyasi qadimgi Elladada paydo bo'lib, o'rta asrlar ta'lim metodlarida, keyinchalik esa bir qator pedagoglarining asarlarida o'ziga xos rivojlanishga erishdi.

So'nggi o'n yilliklarda tarbiyaga sub'ekt-ob'ekt jarayoni sifatida qarash, keyinchalik esa, bu yondashuvni pedagogik amaliyotda tarqatish bu tamoyilni pedagogika uchun eng muhim tamoyilga aylanishiga olib keldi.

Ijtimoiy tarbiyaning birgalikdagi faoliyat tamoyiliga ko'ra bolalar, o'spirinlar, o'smirlarning ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishi tarbiyachi va tarbiyalanuvchi orasidagi qadriyatlar (aqliy, ijtimoiy) almashuvi jarayonida amalga oshiriladi. Bular:

- dunyo madaniyatlari va aniq bir jamiyatda ishlab chiqilgan qadriyatlar;
- ijtimoiy tarbiya sub'ektlariga xos bo'lgan qadriyatlar;
- tarbiya tashkilotlarining muayyan a'zosiga xos bo'lgan qadriyatlar.

Ijtimoiy tarbiyaning birgalikdagi faoliyat ekanligi tamoyili tarbiyachi va tarbiyalanuvchining tengligini taqozo etmaydi. Bu hol yoshdagi tafovutlar, hayotiy tajribaning bir xil emasligi, ijtimoiy rollarning assimetrialigi bilan izohlanadi. Birgalikdagi faoliyat tamoyilida birinchi o'rinda tenglik emas, balki o'zaro hurmat va sofdillik turadi.

Tarbiyaning davomiyligi tamoyili. Bu tamoyil ijtimoiylashuvning merosiylilik xarakteridan kelib chiqadi. Tarbiyaning davomiyligi tamoyili inson rivojlanishining har bir bosqichini individual va ijtimoiy qadriyat deb biladi. Bu tamoyilga ko'ra har bir bola, o'smirning ijtimoiy rivojlanishida doimo davomiy va tugallanmaydigan jihatlar mavjud bo'ladi. Chunki dunyo va o'zi bilan o'zaro munosabatda bo'la turib, ular doimo innovatik xususiyatini saqlab qolishadi (Masalan, L. Tolstoy hayoti davomida unda beshta inson o'zgargan deb hisoblaydi). Tarbiyaning davomiyligi tamoyiliga ko'ra tarbiyani shunday tashkil qilish kerakki, har bir yosh bosqichida inson "qayta shakllanish" imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Sanab o'tilgan tarbiya tamoyillarini inobatga olish va ularning ta'minlanishi ijtimoiy pedagogikada ijobiy natijaga erishishning shartlaridan biri hisoblanadi.

Savollar:

- Ijtimoiylashuv nima? Bolaning ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi omillar qaysilar?
- Bola rivojlanishiga muhitning ta'siri qanaqa bo'ladi?
- Bola tarbiyasi va uning ijtimoiylashuvi orasidagi bog'liqlik nimada?
- Ijtimoiy moslashuv nima?
- Tarbiya ijtimoiy institut sifatida qanday o'ziga xoslikka ega?
- Tarbiyaning ijtimoiy vazifalarini sanab bering.
- Tarbiya tamoyillarining mohiyatini bayon eting.
- SHaxsning ijtimoiy shakllanishida jamoaviylik va tarbiyaning davomiyigi tamoyillarining o'rni qanday?

Adabiyotlar:

- Sotsialnaya pedagogika. Kurs lektsiy. Pod red. M.A.Galaguzovoy. – M.: VLADOS, 2003.
- Mudrik A.V. Sotsialnaya pedagogika. – M.: Akademiya, 2003.
- Podlasyy I.P. Pedagogika: Novyy kurs. – M.: VLADOS. – Kn. 2.
- Podlasyy I.P. Pedagogika: 100 voprosov – 100 otvetov. – M., 2001.
- Pedagogika. Kurs lektsiy. – T.: TGPU, 2001.
- Vasilkova Y.V., Vasilkova T.A. Sotsialnaya pedagogika. – M., 2003.

OILA BILAN OLIB BORILADIGAN IJTIMOIIY PEDAGOGIK

FAOLIYAT

Oila va uning o'ziga xosliklari. Oila shaxs tarbiyasida boshqa ijtimoiy institutlar bilan taqqoslaganda eng muhim vazifalarni bajaradi. Chunki, aynan oilada individual qobiliyatlar, shaxsiy, kasbiy qiziqishlar, axloqiy normalar shakllanadi. Oila omili insonga butun umr davomida ta'sir etadi. Ijtimoiy jihatdan oila inson turli ijtimoiy maqomlarni egallaydigan jamoa hisoblanadi. Oila

insonning o'z – o'zini belgilab olishiga, uning ijtimoiy-ijodiy faolligini oshirishiga yordam beradi.

Oilaviy munosabatlar oliy qadriyat hisoblangan bizning respublikamizda O'zbekistonda oilaning ijtimoiy maqomi nihoyatda balanddir va o'z mavqeini hozirgacha ushlab turibdi. O'zbek oilasida zaruriy tarbiyaviy omil va ko'nikmalar avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Ko'pbolali o'zbek oilalarida patriarxal tartibning saqlanishi oiladagi munosabatlarning barqarorligini ta'minlagan. Biroq bugungi kunda oila inqirozi ko'pgina oilalar, shu jumladan, o'zbek oilalariga ham ta'sir qilmoqda. Oila a'zolari sonining qisqarishi, avlodlarning uzoqlashuvi muammosining kuchayishi munosabati bilan oilaviy munosabatlarni shakllantirish masalasi borgan sari muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Oila bugungi kunda yuksak malakali psixolog, ijtimoiy pedagoglar yordamiga muhtoj bo'lib qolgan.

Oila ikki yo'nalishda mavjud bo'ladi: kichik ijtimoiy guruh sifatida va ijtimoiy institut sifatida. Birinchi holatda, u qarindoshlik asosida tuzilgan va birga yashash bilan birlashtirilgan hamjamiyatdir. Ikkinchisida esa, insonlarning kundalik hayoti kechadigan ijtimoiy institutdir.

Jamiyatda oila bir nechta funktsiyalarni bajaradi.

Reproduktiv funktsiya. Bu funktsiya naslning davom ettirish bilan bog'liq bo'lib, hozirgi kunda O'zbekistonda ko'pbolali oilalarning mavjudligi bilan bir qatorda, oila a'zolari sonining qisqarishi ham kuzatilmoqda. Bu hodisalar asosan moddiy-iqtisodiy qiyinchiliklar, ma'naviy inqiroz, yosh oilalarning ota-ona uyidan ajralib chiqishi, tibbiy xizmatning darajasi, ekologiya inson salomatligiga ta'siri bilan izohlanadi.

Iqtisodiy funktsiya. Ma'lum bir oila a'zolari tomonidan boshqalari uchun moddiy mablag'lar topilishi, voyaga etmaganlar va qariyalarni moddiy ta'minlash, pul mablag'larini to'plash iqtisodiy funktsiyaning asosini tashkil etadi. Zamonaviy bozor munosabatlari mulk to'plash, mulkka ega bo'lish, meros masalalarida oilaning iqtisodiy vazifasini faollashuvini talab qiladi.

Ijtimoiylashuv funktsiya. Oila bola shakllanishiga ta'sir qiluvchi birinchi va asosiy ijtimoiy guruh hisoblanadi. Oilada ota-onalar va bolalarning tabiiy-

biologik hamda ijtimoiy aloqalari uzviy bog'lanib keladi. Oila mikromuhit sifatida bolaning ruhiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Oilaning vazifasi bolani asta-sekinlik bilan jamiyatga tayyorlashdir. Oilada insonga ta'lim va tarbiya beriladi, uning aqliy, ijodiy qobiliyatlarining rivoji sodir bo'ladi. Aynan oilada bola mehnat qilishga va mustaqillikka o'rganadi.

Xo'jalik-maishiy funktsiY. Oila jamiyatning asosiy va doimiy xo'jalik negizidir. Unda oila a'zolarining jismoniy holatini bir maromda ushlab turish, kasallar va qariyalarga g'amxo'rlik qilish amalga oshiriladi. Ilmiy – texnik taraqqiyot intensiv rivojlanayotgan bizning asrimizda oilaning kundalik yumushlarini (ovqat pishirish, uy tozalash, kir yuvish, kiyim tikish va b.) mayishiy xizmat ko'rsatish korxonalari zimmasiga yuklatilmoqda.

Tarbiyaviy funktsiY. Biz bu vazifani alohida ajratib ko'rsatamiz, chunki u bolaning ilk ijtimoiylashuvi jarayonida muhim rol oynaydi. Bola shakllanishiga shuningdek, atmosfera va iqlimning ta'siri ham bor. Tarbiyaning eng muhim vositalaridan biri shaxsiy namunadir. Yuqorida “Tarbiya ijtimoiy institut sifatida”, -deb nomlangan qismda ham tarbiyaning jamiyat va davlat taraqqiyotidagi o'rniga to'liq to'xtab o'tilgan.

Psixoterapevtik funktsiY. Bu vazifa shunda namoyon bo'ladiki, oilada hamma o'zini qulay sezishi lozim. Ruhshunoslar, sotsiologlar, pedagoglarning kuzatishlariga ko'ra inson kuchlari oila sharoitida jadal tiklanadi.

O'zbekistonda ko'pbolali oilalarning mintaqaviy xususiyatlari.

O'zbekistonda yuqori tug'ilish darajasi quyidagi mintaqaviy omillar bilan izohlanadi:

- Inson organizmiga geografik va iqlim sharoitlarining ta'siri, ayollarda homila davrining uzunligi;
- Erta nikohdan o'tish an'anasi;
- Ijtimoiy omillar;
- Ayolning jamiyat va oiladagi o'rne.

Hozirgi kungacha oilaviy tarbiya amaliyotida ko'pbolalikning ijobiy va salbiy xususiyatlari borasida bahslar olib borilmoqda, chunki bu muammoning ahamiyatli ekanligiga qaramay, bu masala etarli darajada o'rganilmagan.

Ko'pbolali oila – kattalar va bolalardan iborat o'ziga xos jamoadir. Unda shaxsning ijtimoiylashuvi uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Bunday oilada tarbiya jarayonini tashkil etish muammosi bilan shug'ullanuvchi olimlar ham turli qarashlarga egadirlar. Ularning ba'zilar ko'p bolali oilada bola jamoa munosabatlari orqali tajriba to'playdi deyishadi, chunki ko'p bolali oila tarbiya uchun qulay sharoitlar yaratadi va ota-onalarning bolalari haqida qayg'urishlari teng taqsimlangan bo'ladi. Boshqa tadqiqotchilar esa, aksincha ko'p bolali oilada bola har tomonlama etarli rivojlanmaydi, deb hisoblashadi.

Agar oilaviy tarbiya bola individualligini aniqlash va uning qobiliyatlarini rivojlantirish kerak, degan qoidadan kelib chiqsak, bu uchun oila nihoyatda rivojlangan bo'lishi kerakligiga amin bo'lamiz.

Ko'pbolali oilada individual yondashuv bo'ladimi? Bu erda tarbiya jarayonining ko'p tamonlamaligi va standartlashuvi roy bermaydimi? Individual yondashuv uchun avvalo psixologik va pedagogik bilimlar, shuningdek esa tarbiya jarayonida bolalarni kuzatish uchun maxsus vaqt va psixologik tahlil o'tkazish kerak.

Ba'zi tarbiyaviy omillar o'zbek oilasida, xususan ko'pbolali o'zbek oilasida uy xo'jaligini yuritish bilan bog'liq. Ko'p o'zbek oilalarida uy ishlarini qiz bolalar bajarishadi, o'g'il bolalar esa bu vazifalardan deyarli ozod etilganlar. Bu holat keyinchalik o'g'il bola xarakterida oiladagi muomalasiga xalaqit beruvchi odatlarni paydo qilishi mumkin. Ba'zan esa bolalar uy yumushlariga haddan ortiq vaqt ajratishadi. Bu ham ularning ta'lim olishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan o'zbek oilalarida ota-onalar bolalarining o'qishiga befarq bo'lishadi, ularga uyga berilgan topshiriqlarni bajarishda amaliy yordam berishmaydi. O'zbek oilalarida bola uy vazifalarini kechqurun-barcha oila a'zolari to'planishganda qilish odat bo'lgan. Bu vaziyatda ko'pgina chalg'ituvchi omillar ham paydo bo'ladi-televizor ko'rish, oila a'zolarining o'zaro suhbatlashishi, uy yumushlarini bajarish talabi va

h.k. Ko'pgina oilalarda bolalarning o'qishi uchun sharoitlar bor, biroq ular har doim ham yaxshi jihozlanmagan bo'ladi. Bu borada aksariyat ota-onalar pedagogik maslahatlarga ehtiyoj sezadilar. Ularni bolalarga yordam berishning aniq usullari bilan tanishtirish lozim.

O'zbek oilalaridagi yigit-qizlarning ijtimoiy moslashuviga xalaqit beruvchi omillarga qizlarni ko'pincha faqat oilaviy hayot uchun, yigitlarni esa mehnat, kasb uchun tayyorlashni kiritsak bo'ladi. Ayol kishidan malakaviy va kasbiy faollikni, erkak kishidan esa o'z xizmat va oilaviy majburiyatlarni bajarishni talab qiluvchi hozirgi kunda bu an'analarning saqlanib qolishi zamonaviy ijtimoiy talablarga zid keluvchi hodisadir. Bu hodisa ijtimoiy tarbiya va oilaviy tarbiya o'rtasida kelishmovchiliklar borligidan guvohlik beradi. Bunaqa oilalarning salbiy ta'sirini bartaraf etish oilani shaxs ijtimoiylashuvining asosiy omili sifatida mukammallashtirishni talab qiladi. Bu masalaning muhimligi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ilgari surilgan ta'lim-tarbiya jarayoni talablari bolalar tarbiyasiga nafaqat maktabda balki, oilada ham o'z talablarini qoyganligi bilan katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Shu bilan birga bir qator o'zbek pedagog olimlari aynan ko'pbolali oilalarda bolalar tarbiyasi uchun qulay sharoitlar mavjud, deb hisoblashadi. Avvalo, ko'pbolali oila pedagogik munosabatga kirishish uchun qulay bo'lgan yosh xususiyatlariga ega. Bir nechta bola mavjud bo'lganida ota-onalarning g'amxo'rliги ham ular orasida teng taqsimlanadi. Katta oilada bola yoshligidanoq jamoaviy munosabatlarga kirishadi. Katta va kichik bolalar o'rtasida turli o'zaro munosabatlar shakllanadi. Ko'pgina ota-onalar ko'pbolali oilalarda bolalarni tarbiyalash oson, chunki bunda katta farzandlar yordam berishadi, deyishadi. Ko'pbolali oilalardagi tarbiyaning eng muhim omillari muomola muhiti, birgalikdagi mehnat, jamoaviy tashabbus, ota-onalarning talabchanligi, bolalar yoshini inobatga olish hisoblanadi. Bunday oilalar farzandlari axloqiy xislatlarining shakllanganligi, mehnatsevarligi, mehribonligi, to'g'riligi, mustaqilligi, ishbilarmonligi bilan ajralib turishadi. Katta oilada mustahkam va

tabiiy bolalar jamoasi shakllanib, unda bu jamoa a'zolari birgalikda g'amxo'rlik ko'rsatishadi, boshqa a'zolar oldida mas'uliyatli ekanliklarini his etishadi.

Shunday qilib, o'zbek oilasining ko'pbolaliylik omili bola tarbiyasiga umuman olganda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Oilaning ijtimoiy maqomi. Oilaning jamiyatda moslashuvining ko'rsatkichi uning ijtimoiy maqomi hisoblanadi, ya'ni oilaning bugungi kundagi holati. Oila maqomi oila a'zolarining individual tavsiflari majmuasidan shakllanadi. Oilaning to'rtta ijtimoiy maqomi mavjuddir.

Ular ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ruhiy, ijtimoiy-madaniy, vaziyatli-rolli maqomlaridir.

Ijtimoiy-iqtisodiy maqom – oilaning moddiy holatini belgilaydi. Bu oila daromadlari, yashash ko'rsatkichlarini o'z ichiga oluvchi moddiy ta'minlanganlikdir. Daromadlar yuqori, o'rta va past bo'lishi mumkin.

Yuqori – daromad va yashash sharoitlari darajasi nafaqat maishiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini beradi, balki boshqa xizmatlardan foydalanishga ham zamin yaratadi.

O'rta – holat minimal ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish bilan bir qatorda dam olish, ta'lim va boshqa xizmatlardan foydalanishga ham zamin yaratadi.

Past – daromad va yashash sharoitlari darajasi belgilangan me'yorlardan past, ovqat, kiyim-kechak, yashash joyi to'lovi kabi masalalarda ham muammo chiqib turadi.

Psixologik (ruhiy) maqom – bu oilaning psixologik iqlimi. Yaxshi iqlim emotsional yaqinlik, hamkorlik, teng huquqlilik bilan xarakterlanadi. Yomon, noxush iqlim esa nizo-janjallar ko'pligida emotsional noqulayliklarda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-madaniy maqom – ta'lim darajasi, yurish-turish madaniyati, an'nalarni saqlab qolish va o'tkazish vazifasi, qiziqishlarning keng doirasi, rivojlangan ma'naviy ehtiyojlar, dam olish va maishiy hayotning birgalikdagi shakllari bilan xarakterlanadi.

Oilaning ijtimoiy moslashuvi boyicha tadqiqot o'tkazish uchun ijtimoiy pedagogika, uning xususiyatlarini bilish, ularga baho berish lozim. A. Q. Munavarovning¹ fikricha, oilaning tarbiyaviy funktsiyasining darajasi uch yo'nalishda bo'luvchi uning tuzilmasiga bog'liq.

Bu yo'nalishlar demografik – ko'pbolalilik, kambolalilik, ikki yoki uch avlodning birgalikda yashashi, ota-onalarning ikkalasining ham bo'lishi, oila a'zolarining ta'lim olganliklari darajasi, bolalarni tarbiyalashda vazifalarni taqsimlash, oila tarbiyasining o'ziga xosligi, shuningdek, oilaning milliy xususiyatlari ham inobatga olinadi.

Oila tipologiyasi ijtimoiy moslashuv darajasi boyicha farq qiluvchi to'rtta asosiy kategoriya asosida shakllanadi:

Tinch, baxtli oilalar – o'z vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishadi, o'z bolasi ehtiyojlariga tez ko'nikishadi. Muammo paydo bo'lib qolsa, ularga bir karra yordam ko'rsatish kifoY.

Xavfi bor oilalarda adaptativ qobiliyatlar pastroq. Ular bola tarbiyasini qiyinchilik bilan eplashadi va ijtimoiy pedagog yordami va nazoratiga ehtiyoj sezadilar.

Notinch oilalar hayotiy faoliyatning biror-bir sohasida past ijtimoiy maqomga ega bo'lib, ular o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajara olmaydilar, ularning adaptativ imkoniyatlari past, bola tarbiyasi jarayoni katta qiyinchiliklar bilan sekin kechadi. Bu oila turi uchun ijtimoiy pedagogning faol yordami zarur. Muammolari xarakteridan kelib chiqib, pedagog ularga pedagogik, psixologik yordamlar ko'rsatadi.

Asotsial oilalar – bu oilalar tubdan isloh qilinishi lozim. Bu oilalarda ota-onalar g'ayriaxloqiy va g'ayrihuquqiy hayot tarzini olib borishadi, yashash sharoitlari oddiy tozalik-gigienik talablarga javob bermaydi. Bolalar tarbiyasi bilan, albatta, hech kim shug'ullanmaydi, bolalar nazoratsiz qolib ketishadi, rivojlanishda ortda qolishadi. Ijtimoiy pedagog bu oilalar bilan ishlaganda

¹ Минаваров А. К. Оилавий тарбия эффективлигини педагогик шарт-шароитлари. Т.: Фан. 1989 й, 17 б.

huquqni muhofaza qilish organlari bilan yaqin hamkorlik asosida ish yuritishi darkor.

Ijtimoiy pedagogning oila bilan ish yuritishi. Ijtimoiy pedagog faoliyati oilani o'rganishdan boshlanadi. Oiladagi munosabatlarni o'rganish pedagogga oilada bolaning holatini tasavvur qilish imkonini beradi. Oilani o'rgangandan keyin ijtimoiy pedagog oldida oilada yangi munosabatlarni o'rnatish vazifasi turadi. Bu muammoni oilani turli klublar, maslahatlar, maishiy birlashmalar, bog', tomorqadagi ishga jalb qilish yo'li bilan hal qilsa bo'ladi.

Bolaning oilada tutgan o'rni haqida tasavvurga ega bo'lgandan so'ng ijtimoiy pedagog oila bilan birgalikda u uchun reabilitatsion dastur variantlarini ishlab chiqadi.

Ijtimoiy pedagog tomonidan "oila xaritasi"ni tuzishi ham mumkin. Unda oilaning har bir a'zosining tavsifi, tug'ilgan sanasi beriladi. Shuningdek oila maqomi, yashash sharoitlari, qo'shnichilik, oilaning diniy va milliy mansubligi aniqlanadi.

"Xarita"ning ilovasida "oilada bola tarbiyasini o'rganish" deb nomlangan qisim ham mavjud, unda ota-onalar bola bilan qancha vaqt va qanday o'tkazishadi, ularning umumiy ishlari nimalardan iboratligi, ota-onalar o'z farzandlari haqida nimalar bilishlari haqidagi ma'lumotlar o'z aksini topadi. Masalan, bola nimaga qiziqadi, nimalarni o'qiydi, kimlar bilan do'stlashgan, uning sog'ligi qanaqa va sh.k. Shuningdek, bu jarayonda bolalarning ham ota-onalari haqida nima bilishlarini aniqlash juda muhimdir.

Bundan tashqari, ijtimoiy pedagog oiladagi barcha munosabatlarkattalarning o'zaro munosabati, kattalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni inobatga olishi muhim hisoblanadi. Oilada hamkorlik mavjudmi yoki barcha munosabatlar kattalarning buyrug'i asosida quriladimi? Agar bola birinchi sinfga qatnay boshlasa, ijtimoiy pedagog bolaning holatini, kimga qanday murojaat qilishi, unga nima yoqishi-yoqmasligini aniqlashi lozim. Ijtimoiy pedagog, birinchi navbatda, muvaffaqiyatsiz oilalar bilan to'qnash keladi. Bularga bola doimiy ota-onalar janjallarida yashaydigan, ota-onasi giyohvand bo'lgan oilalar kiradi.

Zamonaviy sharoitlar bularga ishsiz oilalarni ham kiritib qoydi. Ijtimoiy pedagog oilaning turli muammolari (kasal bolalar, nogironlar, o'qishni hohlamaydigan bolalar, nafaqaxo'rlar, qariyalar, foxishabozlik, giyohvandlik, daydi bolalar, ota-onalarning ajralishlari) bilan duch keladi. Shubhasiz, ijtimoiy pedagogning oiladagi birinchi vazifasi bu inqirozli vaziyatlarni hal qilishdir. Ijtimoiy pedagog oila bilan ish yuritishda quyidagi asosiy rollarni bajaradi.


Maslahatchi – oilaga ota-onalar va bolalarning o'zaro ta'sirining muhimligi haqida gapirib beradi, bola tarbiyasi boyicha pedagogik maslahatlar beradi.

Konsultant – oila qonunchiligi masalasi boyicha maslahat beradi, mavjud tarbiya metodlarini ma'lum qiladi, oilada bolaning me'yorda o'sishi va rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratish usullarini tushuntirib beradi.

Himoyachi - bola ota-onalari tomonidan (giyohvand, aroqxo'r, bolalarga yomon munosabat) to'liq deqratatsiyaga duch kelganda bolani himoya qiladi.

Ijtimoiy pedagogning oiladagi asosiy faoliyatini ijtimoiy pedagogik yordam tashkil etadi. U ta'limiy, psixologik, vositachilik ko'rinishida bo'ladi.

5-chizma.



Pedagogik yordam o'z ichiga ijtimoiy-pedagogik faoliyatning ikki yo'nalishini oladi: ta'lim olishda va tarbiya olishda yordam.

Ta'lim olishda yordam oilada vujudga kelayotgan muammolarni bartaraf etish va ota-onalarning pedagogik-madaniyatini shakllantirishga qaratilgan.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat quyidagi masalalar boyicha ota-onalarni har tomonlama o'rganishni ko'zda tutadi:

- ota-onalarning bo'lajak farzandlarini tarbiyalashlari uchun pedagogik va ijtimoiy-biologik tayyorgarligi;
- bolalarda tengdoshlariga nisbatan adekvant munosabatni shakllantirishda ota-onaning o'rni;
- bola tarbiyasida shaxsiy namuna va ota-ona ijtimoiy maqomining ahamiyati;
- oilada turli avlodlarning o'zaro munosabati;
- oilada bolalarga pedagogik va psixologik ta'sir usullari, bolalar va kattalar orasida ijobiy munosabatning shakllanganligi.

Tarbiyaviy yordamlashish ijtimoiy pedagog tomonidan avvalo, ota-onalar bilan ularga maslahat berish orqali, shuningdek, bola bilan maxsus tarbiyaviy holatlar yaratish orqali o'tkaziladi.

Ijtimoiy pedagogik yordamning psixologik yo'nalishi ikki komponentdan iborat: ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash va korrektsiya (to'g'rilash).

Qo'llab-quvvatlash qisqa muddatli inqiroz davrida oilada yaxshi muhitni yaratishga qaratilgan turli shakldagi stress holatlarini boshdan kechirayotgan oilalarni psixologik qo'llab-quvvatlashni ijtimoiy pedagogning qo'shimcha psixologik ma'lumoti bo'lganda amalga oshiriladi. Bundan tashqari bu ishni psixolog va psixoterapevtlar ham bajarishlari mumkin. Agar qo'llab-quvvatlash kompleks tarzida amalga oshirilsa nihoyatda foydali bo'ladi. Ijtimoiy pedagog oiladagi shaxslararo munosabatlarni, oilada bolaning tutgan o'rnini, oilaning jamiyat bilan aloqasini tahlil qilish orqali muammoni o'rganadi, psixolog esa psixologik testlar va boshqa metodlar vositasida oila a'zolarining nizoga olib keluvchi ruhiy holatlarini aniqlaydi, psixiatr esa davolash bilan band bo'ladi.

SHaxslararo munosabatlarning pedagogik va psixologik korrektsiyasi asosan oilada bolaga nisbatan ruhiy zo'rlik bo'lganda qo'llanadi. Ruhiy zo'rlik bola asab-ruhiy va jismoniy holatining buzilishiga olib keladi. Yaqin-yaqingacha bu hodisaga

etarli e'tibor berilmagan. Bunday zo'rlikka bolani qo'rqitish, uni haqorat qilish, g'ururini poymol qilish, ishonchini oqlamaslik kiradi.

Ijtimoiy pedagog oiladagi munosabatlarni shunday korrektsiyalashi lozimki, oilada tartib va intizomni ta'minlashga qaratilgan barcha choralar "Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konventsiya" talablariga asoslanishi lozim. Psixoterapiyadan farqli o'laroq, korrektsiya oila ichidagi nizolarni ochib ko'rsatadi. Uning maqsadi oila a'zolariga, ular o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishga, muvozanatlashtirishga ko'maklashishdir.

Ijtimoiy pedagogik yordamning vositachilik yo'nalishi uch komponentdan iborat: tashkil qilishga yordam, tartibga solishga yordam va axborot berishga yordam.

Tashkil qilishga yordam oilaviy dam olishni tashkil qilishga qaratilgan. Oilaviy dam olish o'z ichiga xayriya auktsionlarini o'tkazish, oilaviy bayramlar, tanlovlar, uy xo'jaligini yuritish boyicha kurslar tashkil qilishdan iborat.

Tartibga solishga yordam berish muayyan oilaning muammosini hal qilish boyicha turli muassasa va xizmatlarni faollashtirishdir. Bunday muammolarga:

- 1) bolani tarbiyalash uchun boshqa oilaga topshirish;
- 2) bolalikka olish;
- 3) bolalarni bolalar uylariga joylashtirish kiradi.

Axborot berishga yordam oilani ijtimoiy himoya masalalari boyicha axborot bilan ta'minlashga qaratilgan va konsultatsiya shaklida o'tkaziladi. Masalalar maishiy, oilaviy, mehnat, fuqorolik, nafaqa qonunchiligi, bolalar, ayollar, nogironlar huquqlari, shuningdek oilaviy nizolarga tegishli bo'lishi mumkin.

Oilaga ko'rsatiladigan ijtimoiy pedagogik yordam uzoq muddatli va qisqa muddatli ish shakllaridan iborat bo'ladi.

Qisqa shakllar ichidan olimlar o'zaro munosabatlarning intervent va muammoli modellarini ajratishadi.

Oila bilan ish yuritishning intervent modeli inqirozli holatda bevosita yordam ko'rsatishni ko'zda tutadi. Bu inqirozlar oila hayotidagi o'zgarishlar yoki tasodifiy noxush holatlarga bog'liq bo'lishi mumkin.

Inqirozli holatga qaysi muammolar sabab bo'lganidan qat'iy nazar ijtimoiy pedagogning vazifasi bevosita emotsional yordam ko'rsatish orqali stress holatining ta'sirini yumshatish va oila kuchlarining inqirozini bartaraf etishga qaratishdir.

Bu holatdagi yordam psixologik, axborot va vositachilik xarakteriga ega bo'lishi mumkin.

Muammoli model ham qisqa muddatli ish shakliga tegishli bo'lib, uning muddati to'rt oydan oshmaydi. Muammoli model oiladagi amaliy vazifalarni echishga qaratiladi, ya'ni model markazida shunday talab turadiki, yordam ko'rsatuvchi mutaxassis shaxslar o'z harakatlarini oiladagi muammolarini echishga yo'naltirishlari kerak. Bu model muayyan holatlarda aksariyat muammolarni oila a'zolarining o'zlari xal qilishlariga asoslanadi. Ijtimoiy pedagogning asosiy vazifasi aynan shunday holatlarni yaratishdir, muammoli modelning etakchi metodi yordam ko'rsatuvchi ijtimoiy pedagog va oila o'rtasida shartnoma tuzilishidir. SHartnomaning asosini oilaning oldida turgan maqsad va vazifalarini aniqlash tashkil etadi. Ijtimoiy pedagogning vazifasi esa bu maqsad va vazifalarning amalga oshishi uchun etarli bo'lgan muddatni belgilashdir.

Shuni ta'kidlash joizki, ijtimoiy pedagog va oila o'rtasidagi shartnoma biznes yoki nikoh shartnomasiga o'xshamaydi. Bu holatda tomonlar moddiy emas, balki axloqiy majburiyatlarga ega bo'lishadi va bu rasmiy hujjat bilan tasdiqlanadi. SHartnoma boyicha hamkorlik oilani shartnoma shartlarini ishlab chiqishda, qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etishini ta'minlaydi. O'smirlar va o'spirinlar bilan ishlashda shartnomaning tuzilishi ularning mutaxassis bilan munosabatlariga jiddiy xarakter berishi bilan ijobiy jihatlarga ega.

Asosan xorij amaliyotida qo'llaniladigan uzoq muddatli ish shakllari **ijtimoiy psixologik yondoshuv**ga asoslanadi va to'rt oydan ortiq vaqtni talab qiladi. Ijtimoiy psixologik yondashuvning asosiy vazifalari biror bir vazifani bajarishga odatlantirish orqali oilaviy tizimni o'zgartirish, oilaga ta'sir qiluvchi boshqa ijtimoiy tizimlardagi holatlarni aniqlashdan iborat.

Ijtimoiy pedagogik yordam sharoitida patronajning qo'llanilishi maqsadga muvofiq. **Patronaj** – ijtimoiy pedagogik ish shakllaridan bo'lib, unda ijtimoiy pedagog tashhis, nazorat va reabilitatsiya maqsadlarida oilaga tashrif buyuradi. Bu esa oila bilan uzoq muddatli aloqalarni ushlab qolishga zamin yaratadi. Patronaj oilani uning tabiiy sharoitlarida kuzatishga imkon beradi. Patronajning o'tkazilishi bir qancha tamoyillarga amal qilishni talab qiladi. Bular: yordamni ixtiyoriy qabul qilish, konfidentsiallik va boshqalar. Shuning uchun oilani avvaldan ijtimoiy pedagog tashrifi to'g'risida xabardor qilish lozim.

Patronajlar tanlangan ish strategiyasiga qarab doimiy va bir martalik bo'ladi. Doimiy patronajlar, avvalambor, g'ayri ijtimoiy oilalarga nisbatan qo'llanilishi lozim. Chunki ularni doimiy nazorat qilish intizomga chaqiradi. Shu bilan birga vujudga kelayotgan inqirozli holatlarni aniqlash imkonini beradi.

Patronaj bilan bir qatorda ijtimoiy pedagogik faoliyatda oila bilan ish olib borishning muhim shakllaridan biri – bu konsultativ suhbat o'tkazishdir. Konsultatsiya asosan hayotiy masalalarni hal qilishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan sog'lom oilalarga mo'ljallangan. Yakka tarzdgai konsultatsion suhbatlar bilan bir qatorda oila bilan ishlashning jamoaviy shakllari – treninglar ham o'tkazilishi mumkin.

Ijtimoiy pedagogik trening amaliy psixologiyaning jamoaviy psixologik ish olib borishning faol metodlaridan foydalanishga asoslangan sohasi sifatida ta'riflanadi. Shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda o'tkazilayotgan trening dasturlarining maqsadlari kengaydi va trening faqatgina amaliy psixologiya sohasi bo'libgina qolmay, ijtimoiy pedagogika, ta'lim tizimida ham o'z o'rniga ega bo'ldi. Trening bir qancha individual va jamoaviy ish olib borish usullarining uyg'unlashuvi bo'lib, ota-onalarning psixologik, pedagogik savodxonligini oshirish muammosini hal qilishning eng istiqbolli usullaridan biriga aylandi. Bu muammo so'ngi o'n yilliklar davomida o'z global ahamiyatini yo'qotmayapti. Ayniqsa ruhiy va jismoniy nuqsonli farzandi bor oilalarda bu muammo nihoyatda keskindir.

Jamoaviy usullar ota-onalarga bir-birlari bilan tajriba almashinish, savollar berish va guruhda qo'llab-quvvatlanish imkonini beradi. Bundan tashqari, axborot

almashinuvida etakchilik rolini bajarish faollikni oshiradi. Yuqoridagi usullar – konsultativ suhbat, trening ommabop hisoblanib ham qisqa muddatli, ham uzoq muddatli shakllarda qo'llaniladi.

Oiladagi ijtimoiy pedagogik faoliyat tizimli yondashuvga asoslangan taqdirdagina samarali bo'lishi mumkin. U demografiya, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika (oilaning tarbiyaviy funktsiyasi), huquq, iqtisod (oilalar byudjeti), etnografiya, tarix, falsafa ma'lumotlarini o'rganishni va ulardan foydalanishni ko'zda tutadi.

Shunday qilib, zamonaviy sharoitlarda oilalar turli bilim sohalari: ijtimoiy pedagogika, ijtimoiy ish, sog'liqni saqlash va boshqalarning markaziy ob'ektlaridan biriga aylanmoqda. Chunki har bir jamiyatning kelajagi o'sha jamiyatdagi oilalardagi muammolarni hal qilishga bog'liqdir.

Savollar:

1. Oilaning bugungi kundagi muammolari haqida fikr yuriting.
2. Demokratik jamiyatda oilalar vazifalari nimalardan iborat?
3. Oilalar maqomi tushunchasi va uning darajalari?
4. Ijtimoiy pedagogning asotsial oilalar bilan olib boradigan faoliyatini tavsiflang.
5. Oilalar pedagogik yordam ko'rsatishning asosiy shakllari qaysilar?

Adabiyotlar:

1. Munavarov A. Oilalar pedagogikasi.
2. Vasilkova Y.V., Vasilkova T.A. Sotsialnaya pedagogika. – M.: Akademiya, 2003.
3. Musurmonova O.
4. SHoumarov G'.B.
5. Teshabaeva T.X., Savurov M.D. Novoe i traditsionnoe v bytu selskoy semi uzbekov. – T.: Fan, 1989.
6. Suxomlinskiy V.A. Roditelskaya pedagogika. – M., 1987.

7. Inomova M.
- 8.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN IJTIMOIY –PEDAGOGIK FAOLIYAT

Adaptatsiya tushunchasi. Adaptatsiya – organizmning tashqi muhit bilan adekvat aloqalarning shakllanish xususiyati. Shuningdek, adaptatsiya bu organizm faoliyatini tashqi muhit ehtiyojlariga qarab o'zgartirish qobiliyati hamdir.

Barcha tirik mavjudotlar o'zgaruvchan, atrof-muhitga doimiy adaptatsiyani ta'minlovchi mexanizmlarga ega. Bu qobiliyat gomeostaz asosida roy beradi. Biroq atrof-muhitning bunday o'zgarishlarini oldindan ko'ra bilish va unga ko'nika olish faqat insonga xosdir. Insonning bu yuqori adaptativ qobiliyati tug'ma bo'lmay, insonning muhit bilan doimiy aloqasining oqibati sifatida rivojlanib keladi.

Insonning ko'nikish reaksiyalari shakllari ijtimoiy adaptatsiya sifatida aniqlanishi lozim. Boshqa tirik mavjudotlardan farqli o'laroq, inson ijtimoiy muhit o'zgarishlariga ko'nika olishi va bu holatlar uchun yurish-turish reaksiyalarini ishlab chiqishi lozim.

Insonda adaptatsion mexanizmlarda hal qiluvchi rolni ijtimoiy omillar oynaydi. Ilmiy-texnikaviy rivojlanish, urbanizatsiyaning tezlashishi tabiat va kosmosni faol o'zlashtirish, aloqa vositalarining kengayishi va kompyuterlashtirish, davlatlararo integratsiya jarayonlari insonda o'zgaruvchan muhit sharoitlariga tez ko'nika olish qobiliyatini shakllantirish masalasini muhimlashtiradi. Bu qobiliyat shaxs rivojining yanada hal qiluvchi ahamiyatga ega komponentiga aylanmoqda.

Insonning tug'ilishi adaptatsiya borasidagi ilk sinovdir. Yangi tug'ilgan chaqaloqda ham ko'nikish mexanizmlari mavjud bo'ladi.

Biroq go'daklik davrida muhit bilan faol o'zaro munosabatlar natijasida oliy nerv faoliyatida ba'zi murakkab funktsiyalar vujudga keladi. Miyada axborot to'plash va uni qayta ishlash bolaga ijtimoiy muhitning ijtimoiy tajribasini tarbiyaviy ta'sir orqali o'zlashtirish imkonini beradi.

So'nggi yillarda go'daklik davridagi ijtimoiy adaptatsiyaga qiziqish ancha ortdi.

Ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan barcha bolalar uchun ijtimoiy adaptatsiya muammosi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda bolaning ko'nikish imkoniyatlarini oshirish, uning ijtimoiy aloqalarini kengaytirish bola shaxsining shakllanishi uchun nihoyatda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Bola shaxsining rivojlanishi uning aloqalarining xilma-xilligiga bog'liq. Demak, bolaning har tomonlama rivojlanishi uning aloqalarining ham har tomonlama rivojlanishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ijtimoiy aloqalarning barvaqt shakllanishi tarbiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy adaptatsiya qobiliyati oliy nerv faoliyatining rivojlanishiga bog'liq ravishda postanal antogenezda shakllanadi. Bu jarayon hayotning ilk uch yilida ayniqsa jadal kechadi.

SHaxsning ijtimoiy adaptatsiyasi uchun yangi ijtimoiy muhitdagi aloqa va me'yorlar haqidagi ma'lumot muhim ahamiyatga ega. Yangi ijtimoiy talablarga ko'nikish bir qancha ruhiy-hissiy qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi.

Bola ijtimoiy adaptatsiyani o'z tajribasi asosida ta'lim-tarbiya jarayonida o'rganadi. Ijtimoiy adaptatsiya qobiliyatini hosil qilish ko'nikish imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga bolaning ko'nikish imkoniyatlarida inqirozli holatlar ham paydo bo'ladi. Bu imkoniyatlar esa boshqalar bilan aloqalarning rivojlanishi, bola miyasida axborotlarni qayta ishlashga bog'liq bo'ladi.

Bolada aniq bir mikroijtimoiy muhitning shartlari sifatida shakllanadigan yurish-turish shakllari ijtimoiy adaptatsiyaning fiziologik holati hisoblanadi. Bu sharoitlar o'zgarganida, masalan, bolalar muassasasiga kirganda yurish-turishining ham o'zgarishi talab qilinadi. Turli yosh davrlarida bu turli darajadagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Bolalarning ta'lim muassasalaridagi adaptatsiyalarining asosiy xususiyati bolada oilasida shakllanadigan ota-onasi bilan munosabati va safdoshlar bilan shakllanadigan munosabatlari orasidagi farqdir.

Bolaning bolalar muassasasi jamoasiga ko'nikishida bola doim uyda, oilasida o'tkazgan davrlarida shakllangan ota-onasi bilan munosabatlarning

buzilishi haqida gap ketmaydi. Bunda yaqin insonlari bilan ayrimli va oilaviy xarakterga ega bo'lmagan yangi aloqalarning shakllanishi nazarda tutilmoqda.

Bolaning yangi muhit sharoitlari bilan tanishganidanoq oldiga qoyilgan talablar shubhasiz u yoki bu darajadagi qiyin masala hisoblanadi. Murakkablik darajasi bolaning individual xususiyatlariga bog'liq. Faqatgina ba'zi hollarda murakkablik darajasi bola imkoniyatlaridan oshib ketadi. Shuning uchun bolaga bu murakkabliklarni engishga yordam beradigan yo'llarni qidirish lozim, chunki, ayni shu paytning o'zida uning ijtimoiy aloqalarining kengayishi ham sodir bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bolalar muassasalari sharoitlariga moslashuvi xususiyatlari. Hayotning ilk uchinchil yilida bolalar bog'chasiga qabul qilinish boladan shu paytgacha shakllanib bo'lgan yurish-turish stereotipini o'zgartirishni talab qiladi. Ham bolaning sog'ligi, ham har tomonlama rivojlanishi borasida biror-bir noxush hodisalar paydo bo'lishini bartaraf etish uchun ijtimoiy pedagoglar ta'lim muassasalari ishini takomillashtirish borasida yordam ko'rsatishlari va bolalar hayotini har tomonlama qulay tashkil qilishda ishtirok etishlari zarur.

Bu yoshdagi bolalarning xususiyatlari:

- organizm barcha tizimlarining funktsional yakunlanmaganligi va ular rivojlanishining nihoyatda tez sur'atidir;
- jismoniy va ruhiy rivojlanishning o'zaro bog'liqligi;
- go'dak hayotining birinchi yillarida kattalarning o'rni.

Bola tug'ma yurish-turish shakllariga ega emas va u ijtimoiy muhitda rivojlana turib uch asosiy komponentni: hudud (narsa-predmetlar, ulardan foydalanish vositalari), vaqt (kundalik tartib) va muomala shakllarini o'zlashtiradi. Demak, bola tug'ilishdanoq uning faolligi "bola-kattalar" munosabatlari ichida tartibga solinadi.

Yosh bolalar yurish-turishining xarakterli jihati yuqori hissiyotchanlikdir. Bolaning emotsional holati uning rivojlanishi va tarbiyalanganligi darajasiga bog'liq. Atrof-muhit va odatiy hayot tarzining buzilishi birinchi navbatda emotsional holatnng buzilishiga olib keladi.

Oyin – bola faolligining asosiy va o'ziga xos shaklidir. Bu o'sayotgan bola organizmining tabiat, atrof-muhit ob'ektlari haqida ma'lumot yig'ishga, kattalarga taqlid qilishga, faol harakat qilishga ehtiyojidir. Oyin bolaning muhit bilan o'zaro aloqasi shakllanadigan faoliyat turidir. Shuningdek, oyinlarda bola bajara olmaydigan talablar qoyilmaydi. Bundan kelib chiqadiki, oyin bola hayoti, madaniyati va faoliyatini tashkil qilish shakli sifatida bolaning yangi muhitga ko'nikish shartidir.

Yuqorida aytilganlarni barchasini inobatga olib, ijtimoiy pedagogning ta'lim muassasidagi bolalarning muvaffaqiyatli adaptatsiyasiga qaratilgan faoliyati quyidagilar ekanligini aytsak bo'ladi:

1. Adaptatsion bosqichning kechishini og'irlashtiruvchi va bolalarning kasallanish darajasini oshiruvchi etakchi biologik va ijtimoiy omillarning kompleks tuzilmasini aniqlash;
2. Kompleks usullardan foydalangan holda adaptatsion bosqichning tahlili;
3. Adaptatsion bosqich kechishini engillashtiruvchi va qulay sog'liq holatini saqlashga yordam beruvchi chora-tadbirlarni izlash va ishlab chiqish.

Ijtimoiy adaptatsiya bolaning ruhiyatida qizg'inlikni paydo qilmasdan iloji yo'q. Buning ilk namoyon bo'lish shakllari emotsional holatning buzilishidir.

Ijtimoiy pedagog bolalarning ko'nikish darajasini aniqlashi uchun quyidagi tasnifga tayanishi lozim:

1.Engil adaptatsiya – bolaning yurish-turishi 10-15 kun ichida me'yoriy holatga qaytadi. Bola MTMga qatnay boshlaganidan so'ng bir oy o'tgach, o'zini me'yorda tuta boshlaydi.

2.O'rta adaptatsiya – bolaning yurish-turishi yoki emotsional holatidagi o'zgarishlar 15-30 kun ichida me'yoriy holatga qaytadi. Agar avval unda ozish kuzatilgan bo'lsa, keyinchalik u o'z vaznini tiklab oladi. MTMga qatnay boshlashidan bir oy mobaynida bir marotaba engil kasallikka chalinadi va 7-10 kun MTMga kelmasligi mumkin.

3.Og'ir adaptatsiya shunda namoyon bo'ladiki bolalarda tez-tez qaytadan kasal bo'lish kuzatiladi va u kasalliklar ba'zi hollarda jiddiy tus olishi mumkin (bronxit,

pnevmaniya). Bu holatda adaptatsiya bir oydan ziyod vaqtga cho'ziladi, rivojlanish va sog'liq ko'rsatgichlarida noxush holatlar ham namoyon bo'ladi.

Adaptatsiyaning noxush holatlarini maksimal bartaraf etish uchun ijtimoiy pedagog 9oylikdan 1,5 yoshgacha bo'lgan bolalar mikro ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlarni og'ir o'tkazishlarini inobatga olishi lozim. Shuningdek, adaptatsiya jarayonini oilaviy tarbiyaning quyidagi kamchiliklari ham og'irlashtirishi mumkin:

- noto'g'ri ovqatlanish;
- bolani noto'g'ri belash;
- salbiy odatlar;
- yoshiga mos kelmaydigan ko'nikmalar;

Ijtimoiy pedagog faoliyati uch bosqichdan iborat bo'lishi kerak: tashxis, tayyorlov, amaliyot.

Ijtimoiy-gigienik jihatlariga bag'ishlangan tadqiqotlarda emizikli va maktabgacha yoshdagi bolalarning adaptatsiya davrida bir qator muhim parametrlarni, ya'ni kasallanish, yurish-turish, ruhiy rivojlanishidagi o'zgarishlarni e'tiborga olish kerakligi ta'kidlanadi.

Birinchi bosqich patronaji xaritasi:

1. Ota-onasi haqida ma'lumotlar:

- otasi (F.I.SH., tug'ilgan yili, mansabi, ish joyi);
- onasi (F.I.SH., tug'ilgan yili, mansabi, ish joyi);
- onasida homilaning kechishi va bola tug'ilishi.

2. Maishiy sharoitlari:

- istiqomat qiluvchilar soni;
- yashash joyiga baho berish (qulayliklari);
- yuvinish moslamalari;
- yashash joyi havosining tozaligi;
- bola bilan birga yashayotgan bolalar qaysi muassasalarga qatnashadi?

3. Bola haqida ma'lumotlar:

- yoshi;

- sog'ligi;
- bolaga kim g'amxo'rlik qiladi?
- bolaning kun tartibi qanaqa?
- u alohida xona, krovatga egami?

4.Bedorlik vaqti:

- bola bedorlik vaqtini qanday o'tkazadi?
- uyg'oqlik davrining uzunligi;
- sevimli oyinchoqlari;
- kiyinish-echinish, yuvinish jarayonlariga munosabati;
- kattalarning bolaga munosabatlari;
- bolaning kattalarga munosabati;
- bola bilan tez-tez sayr qilishadimi?

5.Ovqatlanish:

- ovqatlanish tartibiga amal qilinadimi?
- bola nima eydi?
- nima yordamida ovqatlantirishadi (butilkami, qoshiqdami)
- bolaning ishtaxasi, faolligi.

7.Uyqu:

- bolani uxlatishda o'zini tutishi;
- uyqudagi kiyimi;
- bola qanday uxlab qoladi (tez, tinch)?
- kuniga necha marta, qancha uxlaydi?
- uyqu xarakteri va uzunligi;
- qanday uyg'onadi (tinch, yig'i bilan)?
- bola kunduzi qaerda uxlaydi (kravat, xona, ko'cha)?
- tunda qanday uxlaydi?
- bolani uxlatish uchun unga so'rg'ich berishadimi?

Adaptatsiya varaqasi

MTM_____guruh_____tug'ilgan sanasi_____

MTMga kirish sanasi_____

Kirishdagi yoshi: yosh, oy.

Sana	Ishta hasi	Uyqu uzunligi, xarakter	hissiy holati	Katta larga munos a bat	Oyinchoq larga munosaba t	O'zini tutishi	Tavsiyalar

Adaptatsiya varaqasida bolaning hissiy holati, uni ishtahasi, uyquusi inobatga olinadi. Shuningdek, unda kattalar, boshqa bolalar bilan munosabati, individual xususiyatlar ham qayd etiladi. Bu usuldan foydalanilganda adaptatsiya bosqichining tugashi deb shartli ravishda bola yurish – turishining normallasuvi olinadi.

Tayyorlov bosqichi o'z ichiga ijtimoiy pedagog tomonidan muayyan vaziyat asosida qabul qilinadigan bir qancha chora-tadbirlarni qamrab oladi:

- Og'ir adaptatsiya sabablarini aniqlash;
- Tuman pediatri, tibbiy xodimlar, psixolog, ta'lim muassasi tarbiyachilari bilan aloqa va hamkorlik o'rnatish;
- Bolalarning MTM, bolalar bog'chalariga kirishlaridan avval sog'lomlashtirish chora-tadbirlarini nazorat qilish;
- Bolalarga ijtimoiy pedagogik yordam rejasini tuzish;
- Bolaning ta'lim muassasalarida engil adaptatsiyasi uchun oilalar bilan aloqalar o'rnatish;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarning adaptatsiyasi uchun ijtimoiy pedagogik, ijtimoiy ruhiy, tibbiy chora-tadbirlarni aniqlash.

Amaliy bosqich quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Oila va ta'lim muassasasida bolaga bir xil yondashuvni shakllantirish;

- Oila bilan aloqalar – bolaning MTMga qatnay boshlaganida 3-4 kun mobaynida onasining ishtirok etishi;
- Axborot bazasining kengayib borishi;
- Bolalarni ruhiy-emotsional qo'llab-quvvatlash.

Savollar:

1. Adaptatsiya va ijtimoiy adaptatsiyaga ta'rif bering.
2. Bolalarning ta'lim muassasalarida muvaffaqiyatli adaptatsiyalarini ta'minlashda ijtimoiy pedagogning vazifalari nimalardan iborat.
3. Bolalar MTMga adaptatsiya(moslashish) turlarini sanab o'ting.

Adabiyotlar:

1. Mudrik A.V. Sotsialnaya pedagogika. – M., 2003.
2. Podlasyy I.P. Pedagogika: 100 voprosov – 100 otvetov. – M., 2001.
3. Xarlamov I.F. Pedagogika v voprosax i otvetax. – M., 2001.
4. Pedagogika. Pod red. P.I.Pidkasistogo. – M., 2003.
5. Slastenin V.A., Isaev I.F. i dr. Obshchaya pedagogika. CH.1. – M., 2003.

IJTIMOIIY PEDAGOGNING MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR BILAN OLIB BORADIGAN FAOLIYATI

Maktab yoshidagi bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borish. Maktab yoshidagi bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borish ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy pedagogik ishdan tubdan farq qiladi. Bu faoliyat o'quvchilarning doimiy kamol topishlari va ta'lim olishlariga bog'liq maktabdagi ijtimoiy pedagogik faoliyatning barcha jihatlarini bir bobda ochib berishning iloji yo'q shuning uchun biz eng muhim vaziyatlarini ochib berishga harakat qilamiz. Respublikamizda maktab o'quvchilari bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borish rivojlanmoqda. U qisman moziy tajribasi, qisman zamonaviy pedagogik tibbiy, psixologik, yuridik faoliyat turlariga tayanib ish olib bormoqda. So'nggi yillarda pedagogik jamoalar

ham paydo bo'lib, ularda maktab nafaqat ta'lim-tarbiya masalalarini, balki o'quvchining boshqa bir qator ijtimoiy muammolarini ham echmoqda.

Davlatimizdagi o'zgarishlar mavjud ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Chunki unda jamiyatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar aks etmasligi mumkin emas. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"dan kelib chiqib, umumta'lim maktabi o'zining o'quv, tarbiyaviy va ijtimoiy vazifalarini ko'rib chiqib, birinchi o'ringa quyidagi ijtimoiy vazifalarni qoymoqda:

- ta'limni bolalar va o'smirlar manfaati asosida tashkil qilish;
- maktabda tarbiya ishini ta'lim bilan teng yuritish;
- maktab faoliyatini qayta yo'naltirish;
- maktab ishini takomillashtirish;
- o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, turli bolalar klublari tuzish.

Maktabning asosiy ijtimoiy vazifasi bolaning ta'lim-tarbiya olishga bo'lgan huquqini amalga oshirish hisoblanadi. Zamonaviy maktab sharoitlarida bolalarning ijtimoiy pedagogik himoyasi quyidagicha amalga oshmoqda:

Maktab ma'muriyati, sinf rahbarlari, guruh tarbiyachilari, kam ta'minlangan oilalar farzandalriga moddiy yordam, bepul ovqatlanish tashkil qilishadi. Sinf rahbarlarning bolaning oiladagi holatini o'rganishadi, qiyin bolalar bilan alohida shug'ullanishadi.

Maktabda psixologlar bola qobiliyatlari va qiziqishlarini o'rganishadi. Ular otalar va bolalarga maslahat berishadi.

Maktabda mavjud bo'lgan **sog'liqni saqlash xizmati** maktab o'quvchilarini tibbiy ko'rikdan o'tkazishadi, jismoniy tarbiya guruhlari tuzishadi, kuchsiz bolalarga maxsus ovqatlanish tashkil qilishadi, karantin sinflarini nazorat qilishadi.

Maktabda ijtimoiy ishga maktab **direktori o'rinbosarlaridan** biri rahbarlik qiladi. Tarbiya ishlari boyicha direktor o'rinbosari maktabning ta'lim muassasalari, turli davlat tashkilotlari bilan aloqasiga katta e'tibor qaratadi.

Ota-onalar qo'mitasi ham o'z o'rnida tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlashga yordam beradi. Turli davlatlarda ijtimoiy pedagog ishiga ikki yondashuv mavjud: u maktab bilan hamkorlik qiladi yoki u maktabning shtatli hodimi hisoblanadi.

Maktab bilan hamkorlik qila turib ijtimoiy pedagog tez-tez maktabga borib turadi. Ota-onalar va o'quvchilarning o'zaro munosabtlarining yaxshilanishiga yordam beradi, dars qoldirish sabablarini aniqlaydi. U bolalar bilan qo'pol munosabatda bo'lgan oilalarni, jismoniy va ruhiy nuqsonli bolalarni aniqlaydi. Bola yoki oilaga yordam berish maqsadida bolaning uzoq davom etgan kasalligi sabablarini surishtiradi, bola o'qishda ortda qolmasligi uchun u bilan uyda va kasalxonada alohida shug'ullanadi. Bola tarbiyasidagi muammolarni xal qilish uchun huquqshunos, shifokor, militsiya hodimlari xizmatidan foydalanadi.

Ko'pgina G'arbiy Evropa davlatlarida ijtimoiy pedagog maktabning shtatli xodimi hisoblanadi. U ijtimoiy yordamga muhtoj bolalarni aniqlaydi. Bu bolalar maktab kursini o'zlashtirishga qobiliyati etmaydigan bolalardir. Bu bolalar maktab yoki oilada ruhiy tushkunlikni boshdan kechirishadi. Odatda bu bolalar voyaga etmaganlar ishlari boyicha komissiya royxatida turishadi. Ba'zan bolalar va ularning atrofida gilar bilan munosabatlarini oydinlashtirish etarli yordam beradi.

Ijtimoiy pedagog o'quvchining maktabdan tashqari vaqtini tashkillashtirib, o'z tarbiyaviy ishini olib borishida ota-onalar bilan hamkorlik qiladi. Hamkorlik yuzasidan sektsiya, klublar, har xil mehnat, turistik bo'linmalar tashkil qiladi. Ijtimoiy pedagog pedagogik jamoaning tarbiyasi og'ir bolalar bilan ish olib borishini tartibga soladi. U maktab pedagogik jamoasiga doimiy tarzda sinfdagi psixologik muhit to'g'risida axborot beradi. Aynan shu holat maktabda ijtimoiy ish olib borishning rejasini tuzishda muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy pedagog maktabdan haydalgan bolalarga alohida e'tibor qaratishi kerak. U ularni boshqa maktabga joylashtirishga, yangi jamoaga ko'nikishlariga yordam ko'rsatadi. Ijtimoiy pedagog dasr soatlari vaqtida noqonuniy ishlab yurgan bolalarni aniqlaydi, ularning o'qish masalasini hal qiladi. U ko'p bolali oilalarning barcha imtiyozlaridan foydalanishlari, bolalarning reabilitatsion markazlarga qatnashlarini nazorat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari va sinf rahbarlari

tumandagi oila va o'quvchilarni o'rganib chiqishadi. Ijtimoiy yordamga muhtoj bolalarga e'tibor berishadi, tarbiyasi og'ir bolalarni tarbiyalashda oilalarga yordam berishadi.

O'quv ishlari boyicha direktor o'rinbosari o'z faoliyatida to'garak, sektsiya, klublarni tashkil qilish, o'qituvchining o'quvchilar bilan individual ishlashini, yashash joyida bolalar bilan konsultatsiya o'tkazish, alohida pedagogik e'tiborga muhtoj bolalar bilan ish olib borishni nazorat qiladi.

Alohida fanlardan dars beruvchi o'qituvchilar bolalarning qiziqishlarini o'rganib chiqib, ularni turli to'garak va sektsiyalarga jalb qilishadi. Maktabda turli tadbirlar o'tkazishadi. Bu tadbirlarni o'tkazishda ota-onalar va sobiq o'quvchilar yordamidan foydalanishadi, maktabga mashhur kishilarni chaqirishadi.

Maktab yoshidagi bolalarning ijtimoiylashtirish omili bolalar submadaniyatini shakllantiruvchi tengqurlar jamoasidir. Ijtimoiy pedagog bu hodisalarning funktsiyalarini bilishi, ularning o'quvchilarning shaxsiy hislatlari va ijtimoiy munosabatlarini rivojlantirishdagi o'rinlarini ko'ra olishi lozim.

Tengqurlar jamoasi va bolalar submadaniyati. Bola ijtimoiylashuvining shartlaridan biri tengqurlar bilan munosabatga kirishishidir. Bu munosabat MTM guruhi, maktab sinflari, turli norasmiy bolalar va o'smirlar birlashmalari kabi kichik guruhlarda shakllanadi. Bolalar va o'smirlar guruhlarida tengdoshlar orasida funktsional, emotsional shaxsiy munosabatlar o'rnatiladi.

Funktsional munosabatlar bolalar faoliyatining alohida sohalari (mehnat, o'qish)da qayd etilgan bo'lib, kattalarning bevosita rahbarligi ostida guruhdagi xulq-atvor normalarini o'zlashtirish orqali shakllanadi. Tengdoshlar guruhining hamma a'zolari ham yosh jihatdan teng bo'lmaydi. Bu guruhga har xil yoshdagi, biroq umumiy qadriyatlar, munosabatlar tizimi yoki qiziqishlari bilan birlashgan bolalar ham kirishi mumkin. Tengdoshlar guruhi a'zolarining soni turlicha bo'lishi mumkin. O'rtoqlar guruhida 2-3 dan 5 gacha, og'aynilar guruhida 7-9 gacha, asotsial guruhlarda 20 tagacha, rasmiy guruhlar - sinf, to'garak va boshqalarda 30-40 tagacha a'zo bo'lishi mumkin.

Tengqurlar guruhi odatda a'zolarining hududiy yaqinligi asosida shakllanadi. Tengqurlar guruhi individual qiziqishlarning mos tushishi, rasmiy tashkilot(sinf, boshqalar) borligi va guruh a'zolari o'rtasida shaxsiy munosabatlar mavjudligi tufayli shakllanadi. Bu munosabatlar guruh a'zolarining xarakter va o'zaro ta'sirlarida, shuningdek sinfda rollarni taqsimlashda namoyon bo'ladi.

Birinchidan etakchi ajralib chiqadi. Eksperimental tadqiqotlarda etakchisi bo'lmagan guruh aniqlanmagan. Sohaviy etakchilar ham bo'lishi mumkin. Masalan, aqliy, emotsional, ishbilarmon etakchi bo'lishi mumkin. Tengqurlar guruhini bir necha parametrlar boyicha tasniflashimiz mumkin:

- Ijtimoiy tizimdagi yuridik maqomiga ko'ra tengqurlar guruhlari rasmiy, ya'ni jamiyat tomonidan tan olingan, biror bir davlat yoki jamoat tashkiloti bilan bog'liq bo'lgan guruhlar va norasmiy (o'z-o'zidan mavjud bo'lgan) guruhlarga bo'linadi.
- Ijtimoiy psixologik maqomiga ko'ra ular ikkiga bo'linadi, ya'ni mansublik guruhi – uning haqiqiy a'zolari mavjud (sinf, sport klubi va boshqalar) va inson hayolan tayanadigan referent guruhi.
- Faoliyat yuritishning barqarorligi va uzoq muddatlilikiga qarab doimiy, vaqtinchalik hamda tasodifiy guruhlarga ajratiladi.
- Hudud jihatidan ular hovli, mahalla yoki biror bir muassasa tarkibida faoliyat yuritishlari mumkin.
- Etakchilik borasida ular demokratik va avtoritar guruhlarga bo'linadi.

So'nggi o'n yilliklarda tengqurlar guruhlari voyaga etayotgan avlod ijtimoiylashuvida eng muhim mikroomillardan biriga aylandi. Avvalgi davrlarga qaraganda ularning o'rne ancha jiddiylashdi, bunga bir qator jarayonlar o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Urbanizatsiya shunga olib keldiki, borgan sari ko'p bolalar, o'smirlar shaharlarda yashashyapti va u erda ko'proq tengdoshlar bilan muomala qilish imkoniga ega bo'lishmoqda. Bu muomalani kattalar to'liq nazorat qila olishmaydi. Katta oilaning kichiklashuvi, bir bolali va to'liqsiz oilalarning ko'payishi, oilalarning noto'g'ri tashkillashtirilganligi, bolalar uchun oiladagi emotsional aloqalarning

etishmovchiligini uydan tashqarida to'ldirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Umumiy o'rta ma'lumot OAVlar shunga olib keladiki, voyaga etayotgan avlod o'zlarining savodxonliklari va madaniy rivojlanishlari darajasiga ko'ra ancha tenglashib qolishdi. Shuningdek, bolalarning tengqurlar guruhlariga birlashishlariga nafaqat kiyim-kechak yoki turmak, balki hayot tarzini ham belgilab beruvchi moda ham ta'sir ko'rsatmoqda.

Bolalar, o'smirlar va o'spirinlar bir vaqtning o'zida bir necha bir-biridan farqlanuvchi guruhlariga a'zo bo'lishlari mumkin. Rasmiy guruhlar (sinf, sport to'garagi va boshqalar) bolalar ijtimoiylashuviga ular hayotiy faoliyatining mazmuni, ularda shakllangan o'zaro munosabatlarning xarakteriga bog'liq ravishda ta'sir ko'rsatadi. Norasmiy guruhlar bolalar, o'spirinlar va o'smirlar ijtimoiylashuviga ularning tarkibi, yo'naltirilganligi, etakchilik turiga ko'ra ta'sir ko'rsatishadi.

Turli yosh va ijtimoiy madaniy xususiyatlarga ega bo'lishiga qaramay, tengqurlar guruhining ijtimoiylashuvdagi funktsiyalari universaldir. Birinchidan, guruh a'zolarini shu jamiyat madaniyatiga o'rgatadi, ya'ni ularning xulq-atvorini guruh a'zolarining milliy, diniy, mintaqaviy, ijtimoiy mansubligiga moslashtiradi. Ikkinchidan, tengqurlar guruhlarida ijobiy xulq-atvorga o'rgatiladi. Bu ularga namunaviy xulq-atvorlarni ko'rsatish, g'ayriijtimoiy xulq-atvorlarga nisbatan chora qo'llash orqali amalga oshiriladi. Uchinchidan, tengdoshlar guruhlarida bolalar, o'smirlar va o'spirinlarning kattalar, xususan ota-onalar ta'siridan avtonomlashuvlari jarayonida muhim o'rin tutadi. To'rtinchidan, guruh o'z a'zolariga yosh submadaniyatidan mustaqil bo'lish imkonini beradi.

O'rtoqlar va og'aynilar guruhlarida kiyinish, yurish-turish borasida tengdoshlar jamiyatiga mos bo'lishga harakat qilishadi. Shu bilan bir vaqtda o'z mustaqilliklarini ham saqlashadi. YA'ni boshqa bolalarni o'z guruhlariga qo'shmaslikka harakat qilishadi. Beshinchidan, tengdoshlar guruhlarida bolalar tomonidan o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini belgilab olish masalalarini echishga qulay yoki noqulay sharoitlar yaratib beradi. Oltinchidan, guruh o'z a'zolari tomonidan

“ekologik chuqurlik” sifatida qabul qilinadigan spetsifik ijtimoiy tashkilot hisoblanadi.

Guruhda emotsional va shaxsiy munosabatlar ham shakllanadi. Bolalar va yosh o'smirlar guruhlarida emotsional munosabatlarning asosiy funktsiyasi tengqurlar xulq-atvorini umumqabul qilingan xulq-atvor normalariga moslashdir. Bu holatda do'stlik rishtalari, simpatiya birinchi o'ringa ko'tariladi. Aslida ular ontogenezda ancha avval paydo bo'lishgan. Agar maktabgacha yoshdagi bola ularga amal qilsa, bu holat boshqa bolalar tomonidan ijobiy qabul qilinadi.

SHaxsiy munosabatlar guruhdagi o'zaro bog'liqlik bo'lib, bunda bir bola xulq-atvorining sababi boshqa bola uchun shaxsiy ma'noga ega bo'ladi. SHaxsiy munosabatlar bola atrofdagilar bilan munosabatda kattalar rolini bajarganda yorqin namoyon bo'ladi.

Bolalar hamjamiyati bolalar submadaniyatining tashuvchisi hisoblanadi. Bolalar submadaniyati – bu bolalarga jamiyatga ko'nikishlariga va o'z normalarini yaratishlariga ko'maklashuvchi madaniy hudud va muomala doirasidir.

Bolalar submadaniyati bolaning ilk ijtimoiylashuvi vazifasini bajaradi. O'smirlar, o'spirinlar submadaniyatining namoyon bo'lishiga ijtimoiy harakatning yangi shakllarini tuzish kiradi. Bu ijtimoiy pedagog tomonidan to'g'ri qabul qilinishi kerak. O'smirlar kichkina bolalardan ancha faollar hamda o'z o'rinlarini topishlari uchun yangi faoliyat va xulq-atvor shakllarini qidirishadi. Biroq ular ancha tavakkalchi va bunga tayyor emaslar. O'spirinlik davrining inqirozi ham ko'p borada yangi muqobil faoliyat normalarini yaratishga bog'liq. Shuning uchun o'spirin-o'smir submadaniyati nafaqat ijtimoiylashtiruvchi, balki konstruktiv ijodiy funktsiyani ham bajaradi. O'smirlar yoki o'spirinlar submadaniyatini kattalar olamidan ajratib turuvchi omillar madaniy va texnologik o'zgarishlar, yolg'izlik, OAVlarning qarama-qarshi ta'siri, ijtimoiy muhitning beqarorligi bilan bog'liq. Bu hollarda o'spirinlar va o'smirlar guruhlarida turli g'ayri-ijtimoiy xarakatlarga intilishlari xam mumkin.

O'spirinlar va o'smirlar submadaniyati rivojlanishining ikki yo'nalishi mavjud. Birinchisi u umumiy jihatlarga ega bo'lib, turli mintaqa va yo'nalishlarga ajraladi.

Ikkinchi yo'nalish yoshlar submadaniyatiga g'ayrimadaniyatlarning ta'siriga bog'liq. Bu holatda biz mavjud jamiyatning huquqiy asoslariga tajovuz qilmaydigan, biroq umumtomonidan qabul qilingan xulq-atvor normalariga qarshi chiquvchi yoshlarni uchratishimiz mumkin. G'ayri ijtimoiy madaniyatning borligi va uning tarqalishi u yoki bu jamiyatning inqirozidan hamda insonlarning qoniqmayotganligidan dalolat beradi.

Ijtimoiy pedagogning tarbiyasi og'ir o'spirinlar bilan ish olib borishi. Maktab ijtimoiy pedagogining asosiy muammosi tarbiyasi og'ir o'spirinlar, ya'ni 12-16 yoshli o'g'il-qizlardir. Bu davr shaxs shakllanishi jarayonida nihoyatda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga ham o'smirlik tarbiyachilar uchun ham qiyin davrdir.

O'spirinlik yoshida bolaning hayot sharoitlari va faoliyati ancha o'zgaradi, ruhiyatining qayta qurilishi ro'y beradi. Tengqurlari bilan muomala qilishning yangi shakllari paydo bo'ladi. Jamoada o'spirinning ijtimoiy maqomida o'zgarishlar ro'y beradi, ota-onalar va ustozlar tomonidan unga talablar kuchayadi

Bu yoshda o'spirinning vaqtinchalik oila va maktabda ruhiy ajralishi sodir bo'ladi. O'spirinning shakllanishida ota-onaning ahamiyati pasayadi. Odatda u rasmiy jamoa va norasmiy muomala guruhini tanlash bilan band bo'ladi va oxir oqibat o'zini qulay sezadigan, unga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan guruhni tanlaydi. Bu sport, texnika to'garagi bo'lishi mumkin. Shu bilan birga bu guruh o'smirlar yig'ilib, ichib-chekib o'tiradigan erto'la ham bo'lishi mumkin.

Bu yoshda o'spirinlarning kattalar, xususan, ota-onalar bilan muammolari paydo bo'ladi. Ota-ona o'z farzandiga yosh bolaga bo'lganday qarashadi, bola esa bu g'amxo'rlikdan chiqib ketmoqchi bo'ladi. Shuning uchun uning kattalar bilan munosabatida ko'p nizolar kelib chiqadi, bolada kattalar fikrlariga tanqid bilan qarash kuchayadi. Kattalar bilan munosabatlar xarakteri ham o'zgaradi: boysunish pozitsiyasidan bola tenglik pozitsiyasiga o'tmoqchi bo'ladi. Bir vaqtning o'zida tengdoshlar bilan ham o'zaro munosabatlarning xarakteri o'zgaradi. O'zpirinda kattalik hissi tug'iladi va bu xissiyot mustaqil bo'lishga intilish, kattalarning xohish- istaklariga qarshi chiqishda namoyon bo'ladi. Kichkina bolaga qaraganda

o'spirinning qiziqishlari ham ancha o'zgaradi. O'spiringa ijodiy faoliyatga intilish bilan bir qatorda qiziqishlarning beqarorligi ham xosdir.

Shunday qilib, o'spirinlik yoshining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratsak bo'ladi: emotsional voyaga etmaganlik, o'z xulq-atvorini to'liq nazorat qila olmaslik, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun imkoniyat va xohishlarini to'g'ri baholay olmaslik, katta bo'lishga intilish.

O'spirin etarlicha voyaga etgan shaxs emas. U insonning eng muhim xislatlari va jihatlari shakllanishi bosqichida bo'lgan shaxsdir. Bu bosqich bolalik va kattalik o'rtasidagi davrdir. SHaxs hali o'zini katta deb hisoblashi uchun etarli rivojlanmagan, biroq shu bilan birga atrofdagilar bilan munosabatga kirishish jarayonida o'z harakatlarida ijtimoiy me'yor va qoidalar talablariga amal qilishi uchun etarli rivojlangan.

O'spirin aqlli qarorlar qabul qilishga, ongli harakatlar sodir etish uchun axloqiy va huquqiy jihatdan mas'ul bo'lishga qodir. Shuni ta'kidlash joizki, o'spirin o'z xatti-harakatlari uchun huquqiy javobgarlikka tortiladigan shaxsdir. Garchi qonun voyaga etmaganlarning ijtimoiy psixologik rivojlanishini inobatga olib, ular uchun cheklangan javobgarlikni belgilasa ham, katta o'spirinlik va o'smirlik davrini shaxsiy javobgarlik bilan xarakterlanadigan yosh deb qabul qilsak bo'ladi.

Tarbiyasi og'ir o'spirinlar jismoniy jihatdan sog'-salomatdirlar, biroq ularning ta'lim-tarbiyasi buzilgan. Ular o'z tengdoshlaridan o'qishda ortda qoladilar, chunki ularda xotira, tafakkur va tasavvur hislari yaxshi rivojlanmagan.

Garchi ular o'zlariga qiziqarli narsani bajarishsa ham, ular mehnat qilishni yoqtirishmaydi, o'zlarini biror ishni bajarishga majbur qila olmaydi, tizimli shug'ullana olishmaydi. Tarbiyasi og'ir o'spirinlar maktab intizomi va tartibini buzishadi, o'qishni xohlashmaydi, o'qituvchilar, tengdoshlar, ota-ona bilan nizolashadilar. Maktabni tashlab ketishadi, o'zlarini omadsiz deb bilishadi, daydilik qilishadi, spirtli ichimlik, giyohvand moddalar iste'mol qilishadi, huquqbuzarliklar sodir etishadi. Ba'zan o'spirinlar jismoniy yoki jinsiy zo'rlik oqibatida o'z jonlariga qasd qilishadi.

O'spirinlarning pedagogik jihatdan tarbiyalanmaganliklari ijtimoiy pedagogik hodisa bo'lib, oilaviy va maktab tarbiyasining kamchiligidir, maktabdan tashqari tarbiya ishining qoniqarsiz yo'lga qoyilganligi natijasidir. Amaliyotda isbotlanganidek, o'spirinni o'rab turgan muhit shakllari odatda ijtimoiy pedagogik darajalari, yo'nalishlari, o'spiringa ta'sir qilish jihatidan turli bo'ladi. Agar oila, maktab, maktabdan tashqari muassasalarda bolani tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillarni nazorat qilsa, ko'cha-koyda ularni boshqarish ancha qiyin bo'ladi. Bu tarbiya jarayonida aks etmasligi mumkin emas. Chunki o'spirinlar bo'sh vaqtlarining aksariyatini aynan ko'chada o'tkazishadi. U erda ularda muloqot, ya'ni eng muhim ijtimoiy ehtiyojlardan biri shakllanadi. O'quvchi o'spirinlar uchun asosiy faoliyat bu o'qishdir. Biroq o'qish tarbiyasi og'ir o'spirinlar uchun o'qituvchilar va tengqurlarining hurmatini qozona olish vositasi emas. Shuning uchun ular o'zlariga muhim bo'lgan faoliyatni maktabdan tashqarida izlashadi. Aynan shu erda, o'zi kabi o'spirinlar davrasida ularga yomon xislatlar va qo'polliklari uchun tanbeh berishmaydi, aksincha bu kamchiliklarni kattalik alomati deb bilishadi.

Biroq hozirgi kunda maktabda, yashash joylarida, mahallalarda bolalar bilan birgalikda ijtimoiy ish olib borish amaliyoti paydo bo'lmoqda. Bu faoliyat tuman, mahalla, hamda maktabda ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishning yagona rejasi boyicha va barcha ijtimoiy xizmatlarni bolalar tarbiyasi va himoyasi muammosini echish uchun birlashtiradi. Yagona reja boyicha ish yuritish maktab pedagogik jamoasining faoliyatini tubdan o'zgartiradi. Pedagoglar maktabdan tashqari bolalar muassasi, sinf rahbarlari, guruh tarbiyachilari faoliyatiga qo'shilishadi va ular bilan yaqin hamkorlikda bo'lishadi.

Bu faoliyatda asosiy e'tibor bolaga qaratiladi, shuning uchun pedagogik jamoa faoliyati maktab devorlari ichida qolib ketmaydi, ular bolaga, oilasiga, bolalar birlashmalariga, tengdoshlar muhitiga murojaat qilishadi.

Pedagogik tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlashda ijtimoiy pedagog maktab va maktabdan tashqari jamoaning ularning xulq-atvoriga ta'sirini o'rganadi. Ular

bilan ish olib borishda yaxshi natijalarga erishish uchun bir qator shartlarni bajarishi lozim:

1. O'spirin bilan aloqa o'rnatish;
2. O'spirin bilan o'zaro yaxshi munosabatlarni o'rnatish;
3. Uning reaksiyasi, fikri, intilishlari, qiziqishlari, kelajakdagi rejalarini o'rganish.

Psixolog A.B.Filonov tomonidan ishlab chiqarilgan pedagogik texnologiya ham samarali hisoblanadi. Unda ijtimoiy pedagogning o'spirin bilan aloqasining bir nechta bosqichlari ko'rsatilgan:

- qarashlarida roziliklarning to'planishi;
- uning qiziqishlarini bilib olish;
- xarakteridagi salbiy xususiyatlarning sabablarini tushunish;
- uning shaxsiyatidagi salbiy xislatlarini o'rganish;
- yurish-turish va o'zaro munosabatning umumiy normalarini ishlab chiqish¹.

Y.V.Vasilkova tarbiyasi og'ir o'spirinning tarbiyasiga bosqichma-bosqich yondashuvni ilgari suradi²:

Birinchi bosqich: o'spirin va uning atrofida yashovchilar bilan yaxshi munosabatlarni o'rnatish;

Ikkinchi bosqich: o'spirinning shaxsiy varaqasi (delo) bilan tanishib chiqish;

Uchinchi bosqich: pedagogik tarbiyasi og'irligining sabablarini aniqlash;

To'rtinchi bosqich: ijtimoiy pedagogik xaritalarini tuzish;

Beshinchi bosqich: o'spirin shaxsiyatiga ijobiy ta'sir qiluvchi faoliyat turini tanlash;

Oltinchi bosqich: tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash jarayonining birlashishi, o'spirin faoliyatini o'z-o'zini mukammallashtirishga qaratish.

¹ Л.П.Филонов Деадаптив ыспиринлар билан реабилитация жараёнида алоқа ырниатиш технологияси. Замонавий шароитларда болалар ва ысмирлар реабилитацияси муаммолари ва тажрибаси. М, 1994. 127-143 б.

² Ю.В.Василкова, Т.А.Василкова Социал педагогика. М:Академия, 2003. 362-363 б.

Tarbiya jarayoniga kompleks yondoshuv o'spirinlar guruhlarida paydo bo'ladigan mikro muhitlarga faol ta'sir qilishni talab qiladi. Kriminologlarning ma'lumotiga ko'ra, voyaga etmaganlar aksar jinoyatlarini guruh bo'lib sodir etishadi. Biroq voyaga etmaganlar orasida huquqbuzarlikni bartaraf etish bo'yicha ko'pgina tavsiyalar individual profilaktika tavsiyalari hisoblanadi. Amaliyotda isbotlanganidek, ajratib olingan o'spirinning huquqbuzarliklarini bartaraf etishga qaratilgan pedagogik faoliyat har doim ham kutilgan natijalarga olib kelmaydi. Bu holat huquqbuzar o'spirinning yashash joyidagi guruhning a'zosi bo'lganligi va uning xatti-harakatlari guruh kayfiyati, ularning hayot tarzi, fikrlashi, boshqa a'zolariga bog'liq bo'lishi bilan izohlanadi. Demak, biz pedagogik tarbiyasi og'ir bolalar bilan individual faoliyat olib borishning muhimligini e'tirof etgan holda o'spirinlarni o'rab turgan mikromuhit bilan o'zaro aloqalarini o'rganish zarurligini ham ta'kidlab o'tamiz.

Pedagogik ta'sirlarning kompleks tizimi tarbiya vositalari, shakl va mazmunini bildirib, bu faoliyatning maqsadi deb pedagogik tarbiyasi og'ir bolalarni sinf jamoasi, o'qituvchilar, sinfdoshlar bilan munosabatlarining normallasuvi natijasida o'smir guruhlarining rejali qayta to'g'irlash hisoblanadi. Bu munosabatlarning normallasuvi o'smir shaxsning shakllanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiyasi og'ir o'smirlar bilan ish olib borish ommaviy so'rovnoma va anketa to'ldirish bilan amalga oshiriladi. Bu usullar pedagogik qarovsiz o'smirlar guruhlarining qaerda paydo bo'lganligi haqida ma'lumot olish imkonini beradi.

Tarbiyasi og'ir o'smirlar bilan ish olib borishda pedagog quyidagi parametrlarni inobatga olishi lozim: guruh hajmi, ularning yosh va ijtimoiy tarkibi, uchrashuv joylari va vaqti, guruh faoliyatining mazmuni va yo'nalishi. Muloqotning bu parametrlarini bilish tarbiyachiga tuman, shaharda o'smir guruhlarida o'zaro aloqalarini bilishning eng to'g'ri va samarali shakl, vositalarini qo'llashga yordam beradi. Ijtimoiy pedagog o'smirlar guruhining ijtimoiy tarkibini bilish ham muhim. Ijtimoiy tarkibi turli bo'lgan o'smirlar guruhlarida o'zaro axborot almashuv va

muloqot qilish qiziqarli bo'ladi. Biroq bu guruhlarda hayot haqida yolg'on tasavvurlarga ega ma'lumotlar ham tarqatilishi mumkin.

Tarbiyachining vazifasi:

- 1) guruhdagi muomalaning mazmunini bilish;
- 2) tarbiyaviy ta'sirni to'g'ri tashkil qilib, ma'lumotni to'g'ri tomonga yo'naltirish. Guruhlarning o'rganilishi va taxlil qilinishi lozim bo'lgan mashg'ulotlarini quyidagi turlarga ajratsak bo'ladi: vaqt boyicha – **doimiy** va **vaqtinchalik**, yo'nalishi boyicha – **ijobiy**(mehnat, sport, san'at bilan mashg'ul bo'lish) va **salbiy** (chekish, alkohol mahsulotlarini iste'mol qilish, qimor oynash).

Tarbiyasi og'ir o'smirlar guruhlari bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning uslublari va texnologiyalari quyidagilar:

- maktab va maktabdan tashqari o'smirlar jamoasi yordamida tarbiyaviy ta'sir (seksiya, klub, to'garaklar);
- intizomli, a'lochi o'quvchilarning pedagogik qarovsiz sinfdoshlariga ta'siri. Bu yo'nalish bir-biri bilan do'stlashish xohishi, o'zaro muomalaga talab bo'lganda juda muvaffaqiyatli amalga oshib, uning asosida qiziqishlar umumiyligi (sevimli sport turi, texnika, musiqa va boshqalar bilan shug'ullanish) yotadi. Bu yo'nalishni amalga oshirishning muvaffaqiyati ko'pincha o'qituvchi, sinf rahbarining mohir rahbarligiga bog'liq;
- sinf jamoasining pedagogik qarovsiz o'smirlarga ta'siri. Bu birgalikdagi faoliyat(sayohatga chiqish, spartakiadalar, san'at festivallari, ko'rgazmalar, jamoaviy harakatlar)ni talab qiladi. Sinfda jamoaviy ishlarga jalb qilingan pedagogik qarovsiz bolalar nafaqat o'zlari uchun balki jamoa uchun ham mehnat qilayotganlarini va ularning ishtirokiga ko'p narsa bog'liqligini anglab etishadi. Bunday faoliyatlarda og'aynichilik aloqalari vujudga keladi, boshqalarga nisbatan to'g'ri munosabat shakllanadi, yuklatilgan vazifa uchun mas'uliyat hissi ortadi;
- pedagogik qarovsiz bolalarga tarbiyaviy ta'sirning ko'rib chiqilgan yo'nalishlari muvaffaqiyatining ta'minlanishi mikromuhitning tarbiyaviy ishlari maktab jamoasi bilan birgalikda va bir vaqtning o'zida amalga oshirilishiga bog'liq.

Maktabdan tashqari o'smirlar jamoasi yordamida tarbiyaviy ta'sirni tashkil qilishda quyidagi holatlarni inobatga olish lozim:

1. To'garak, sektsiya, klubda o'smirlarda aniqlangan bitta qiziqish bilan cheklanmaslik kerak. Pedagog o'smirlarni mehnat, turli oyinlar, ijodiy faoliyat orqali atrofdagilar bilan normal munosabatlarga tayyorlashga intilish lozim.

2. Norasmiy guruhga yoki uning aksariyat a'zolariga ta'sir ko'rsata turib, ularni rasmiy guruhga o'tishlariga erishsa bo'ladi. Bu jarayonni shartli ravishda "rasmiylashtirish" deyiladi. Bu jarayon o'smirlar uchun sezdirilmagan holda tarbiyachi tomonidan norasmiy guruhning rasmiy guruhga aylanishidir.

Pedagogik qarovsiz bolalar bilan tarbiyaviy ish olib borishning yana bir xususiyati o'smirlarni o'zi tanlagan, uning bajarilishidan qoniqish sezadigan faoliyatni tanlashdir. Asta-sekin faoliyatdagi bunday ehtiyojni qondirish va rivojlantirish, keyinchalik o'zi bajarayotgan ishlari uchun mas'uliyat hissini oshiruvchi faoliyat turlari bilan to'ldirib borilishi lozim.

Tarbiyasi og'ir bolalar yoki o'smirlar bilan ish olib borish pedagogik qayta tarbiyalash jarayonini ko'zda tutadi. **Qayta tarbiyalash** – bola yoki o'smir yurish-turishidagi turli cheklanishlarni engib o'tish yoki bartaraf etishdir. Qayta tarbiya ham tarbiyachi, ham tarbiyalanuvchilar uchun ham og'ir jarayondir. Tarbiyalanuvchi yangi yo'lning istiqboli bilan qiziqishi lozim. Tarbiyachi esa tarbiyalanuvchining o'tmishi, bugungi kunini tahlil qilib, uning kelajagini tasavvur etishi lozim.

O'smirni qayta tarbiya yoki o'z-o'zini tarbiyalashga tayyorlash jarayoni bir necha bosqichdan iborat:

1. Tarbiyalanuvchini o'rganib chiqish;
2. O'smirning yurish-turishini o'zgartirish uchun uning ruhiy tayyorlash;
3. Ijobiy axloqiy xislatlarni to'plash;
4. Inqirozdan chiqish, o'z-o'zini tarbiyalashga o'tish.

Shuni ham inobatga olish kerakki, bu jarayonga tarbiyachidan tashqari o'smir mansub bo'lgan tarbiyalanuvchilar jamoasi ham qo'shiladi. Bunda tarbiyachi koordinator vazifasini bajarib, jamoani o'z o'rtoqlarini qayta tarbiyalashga

yo'naltiradi. O'smirlar bilan reabilitatsion markazda ishlayotgan ijtimoiy pedagog maxsus metodlardan foydalanib, tarbiyalanuvchi oldida o'z idealiga o'xshashga intilish maqsadini qoyadi. Bu o'smirning ijobiy tomonga o'zgarishiga yordam beradi.

Savollar:

Maktab yoshdagi bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning xususiyatlari nimadan iborat?

Maktabning ijtimoiy vazifalarini sanab bering?

O'quvchilarning ijtimoiylashuvi jarayonida tengdoshlar jamiyati va bolalar submadaniyatining ahamiyatini ochib bering?

“Tarbiyasi og'ir o'smirlar” ijtimoiy pedagogik muammo sifatida qanday o'ziga xosliklarga ega?

Maktab va yashash joyida tarbiyasi og'ir o'smirlar bilan ish olib borishda qanday ijtimoiy pedagogik bosqich va texnologiyalardan foydalaniladi?

Adabiyotlar:

Gurov V., Shinkarenko N. «Открытая» школа и социально-педагогическая работа с детьми // Воспитание школьников, 1994, № 2.

Zakatova I.K. Sotsialnaya pedagogika v shkole. – M., 1996.

Проблемы эстетического воспитания подростков. – M., 1994.

Tixomirova N.K. Sistema vospitatelnoy raboty v shkole na osnove programmy. – M., 1996.

Selevko G.K. Differentsiatsiya uchebnogo protsessa na osnove interesa detey. – M., 1996.

OTA-ONA QARAMOG'IDA BO'LMAGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN IJTIMOIIY PEDAGOGIK FAOLIYAT.

Ota-ona qaramog'ida bo'lmagan bolalar. Har qanday davlatda, har qanday jamiyatda ham ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar bo'lgan, hozir ham bor va keyin ham bo'ladi. Bu holatda davlat bu bolalarning rivojlanishi va tarbiyalanishi mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

Ota-onasini yo'qotgan bola bu haqiqatdan ham fojiali olamdir. Ota-onaga ega bo'lish ehtiyoji bolaning eng kuchli ehtiyojlaridan biri. Ota-onasiz bolalar o'z-o'zidan etim degan maqomni oladilar. “Etim” va “ijtimoiy etim” degan tushunchalar bir-biridan farqlanadi. Etim bolalar- bu 18 yoshgacha ota-onasining biri yoki ikkovi vafot etgan bolalardir. Ijtimoiy etim – biologik ota-onalari bor, biroq ular turli sabablar bilan uning tarbiyasi bilan shug'ullanmaydigan bolalar. Bu holatda ham unga g'amxo'rlik qilishni davlat o'z zimmasiga oladi. Ijtimoiy etimlik muammosi aksariyat rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarga xos muammo hisoblanadi.

Bola muammolarini o'rganish bilan shug'ullanayotgan pedagog va psixologlar shuni aniqlashdiki, hayotining ilk davrlaridanoq yaqinlaridan ajralib qolish bolaning keyingi taqdirini oldindan belgilab berar ekan. Ota-onasidan va umuman yaqinlaridan ayrilib qolish bolalar rivojida katta ta'sir ko'rsatadi.

Bolalik insonning ruhiy bardoshliligi, hayotga qiziqishini, maqsadga intiluvchanligini ta'minlovchi asosiy xislatlarning shakllanish davridir. Bu ma'naviy xislatlar betartib shakllanmaydi, ular ota-ona mehri ta'sirida, oilaning bola oldidagi har tomonlama mas'uliyat va mjburiyatlaridan kelib chiqib shakllanadi.

Etimlikning barcha sabablarini sanab o'tish mushkul, chunki bu turli fan sohalari (tibbiyot, psixologiya, sotsiologiya, pedagogika va boshqalar) olimlari shug'ullanayotgan ko'p aspektli muammodir. Biroq asosiy uchta sababni ajratib ko'rsatsak bo'ladi:

- ota-onalarning (odatda onalarning) o'z voyaga etmagan bolasidan voz kechishi, asosan go'daklik davridagi boladan voz kechishi;
- uning ota-onasidan ota-onalik huquqini olib qoyilgandan so'ng oiladan majburan ajratib olish;


- turli sabablar bilan ota-onalarning vafoti.


Bunday holatlarda etim bolalarni boqish, ta'lim berish, himoyalash uchun qonun bilan belgilangan vasiylik shakllari mavjud. Vasiylik –“voyaga etmagan etim bolalarga g'amho'rlik qilish va ularga qolgan mol-mulkka(bola voyaga etguncha) qarab turish, ma'naviy otalik”. Vasiy deganda muomalaga layoqatsizlarni shaxsiy va mulkiy huquqlarini qo'riqlovchi shaxs tushuniladi. Etim bolalarga vasiylik qilish ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: bolalikka olish yoki davlat qaramog'iga topshirish. Homiylik- “ biror kimsani himoya etish, tarafini olish”. Homiylik deganda bu kabi majburiyat zimmasiga yuklatilgan shaxs yoki muassasa tushuniladi. Homiylik yuklatilgan shaxs yoki korxona - homiy deyiladi.

Shunday qilib, ota-onalar qaramog'isiz qolgan bolalarga ota-onalari:

- vafot etgan;
- ota-onalik huquqidan mahrum bo'lgan;
- bedarak yo'qolgan;
- muomalaga layoqatsiz;
- axloq tuzatish koloniyalarida jazo o'tayotgan;
- jinoyat sodir etishda ayblanib, hibsda bo'lgan;
- bola tarbiyasidan boyin tovlayotgan;
- vaqtincha shifo, ijtimoiy maskanlarga joylashtirilgan, biroq olib ketilmayotgan bolalar kiradi.

6-chizma.





Bolani asrab oluvchi oila bolaning yuridik jihatdan yangi oilasi hisoblanadi. Bola u oilaning familiyasini olishi mumkin. U oila unga boshqa ism ham berishi mumkin. Bolalikka olingan bolaning barcha huquq va majburiyatlari o'z bolalarining huquq va majburiyatlariga tenglashtiriladi. Bolalikka olish bir nechta bosqichda o'tishi mumkin: avval bolaga shu mintaqada yangi ota-ona topishga harakat qilinadi, agar buning imkoni topilmasa, unda bolalikka oluvchilarni davlatdan tashqarida qidirishadi.

Bola asrab oluvchi ota-onalar bolali, bolasiz bo'lishi mumkin. Shuningdek, to'liqsiz oilalar, yakka shaxslar ham bola asrab olishi mumkin. Ularni bolani o'z oilasiga qabul qilishga undovchi bir qator sabablar mavjud, bular:

- fiziologik sabablarga ko'ra o'z bolasi bo'lmagan holatda bolali bo'lish xohishi;
- o'z bolasining vafot etishi;
- o'z bolalari ulg'aygach, yana bolali bo'lish xohishi;
- jamiyatda muhtoj bolalarga rahmdillik hissi;
- yolg'izlik hissi;

- diniy sabab va boshqalar.

Bolani oilaga berish avvalambor bunday oilalarni tanlab olish, ularni bu faoliyatga tayyorlashning effektiv mexanizmini ta'minlaydigan normativ-huquqiy bazaning yaratilishini talab qiladi.

Bola asrab oluvchi oilalar va ular vazifalarining farqlanishiga qaramay, ijtimoiy pedagogning bu oilalar bilan ish yuritishini belgilab beruvchi bir qator umumiy qoidalarni ajratsak bo'ladi. Bu faoliyatni bir qator bosqichlarga ajratsak bo'ladi: oilalarni tanlash, ota-onalarni o'qitish, bolalar ta'lim-tarbiyasi masalasi boyicha faoliyatlarining patronajini o'tkazish va boshqalar. Shuningdek, ijtimoiy pedagogning faoliyati doim boshqa mutaxassislar- ijtimoiy xodimlar, shifokorlar, psixologlar, defektologlar bilan hamkorlikda bo'ladi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat har qanday boshqa faoliyat kabi faoliyat maqsadi, sub'ekt va ob'ekti, funktsiyalari, tashkil qilish metodlari va usullari bilan aniqlanadi. Qabul qiluvchi oila bilan ijtimoiy pedagogik ish yuritishning maqsadi - oilada bolani normal tarbiyasini ta'minlash va uni har tomonlama rivojlantirish. Uning sub'ektlari yuqorida sanab o'tilgan mutaxassislardir.

Faoliyat ob'ekti oila va bola hisoblanadi. Bola asrab oluvchi oila bilan ijtimoiy pedagogik ish yuritishni bir nechta bosqichlarga ajratib, bu bosqichlarda ijtimoiy pedagog faoliyatining funktsiyalarini belgilasa bo'ladi.

2-jadval.

Bola asrab olgan oila bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat bosqichlari		Ijtimoiy pedagog faoliyati vazifalari	Ijtimoiy pedagogik faoliyat metodlari
1	Bola asrab oluvchi oilani qidirish	Axborot berish	Anketa so'rovlari o'tkazish, suhbat, intervyu
2	Bo'lg'usi qabul qiluvchi ota-onalarni o'rganish	Tashhiz qoyish (ilk)	Anketa so'rovlari o'tkazish, suhbat
3	Bola bo'lgan muassasa va	Vositachilik	Kuzatuv, suhbat

	oilalarga tashrif buyurish (bolalar uyi, inqirozli oila)		
4	Bo'lg'usi bola qabul qiluvchi oilani o'rganish	Tashhiz qoyish (guruhlashgan)	Test o'tkazish, suhbat, hujjatlarni o'rganish
5	Boshlang'ich ta'lim: ma'ruza, hikoya, suhbat, videofilmlar	Ta'lim berish	Ma'ruza, suhbat, kuzatuv, mashg'ulotlar
6	Bolani oilaga joylashtirish, ota-onalarga chuqur ta'lim berish	Patronaj	

Birinchi bosqich bola asrab oluvchi ota-onalarni qidirish bilan bog'liq. Bu mas'uliyatni boynilariga olmoqchi bo'lgan shaxslar tomonidan ariza berilib, unda o'z familiya, ismlari, yashash manzili, uy telefoni, bolalarining yoshi, qaysi jinsdagi va necha yoshli bola olmoqchiligi, bola bilan qancha muddat birga bo'lishlari va boshqalar ko'rsatilgan bo'ladi. Bu bosqichda ijtimoiy pedagog axborot berish funksiyasini bajarib, boshqa mutaxassislar bilan birgalikda so'rovnomma o'tkaziladi.

Ikkinchi bosqichda ariza topshirgan nomzodlarga anketa yoki boshqa hujjatlarni to'ldirishni taklif qilinadi. Unda bo'lajak ota-onalar oila tarixini bayon etishadi. O'z turmush tarzlarini, oila a'zolarining diniy mansubligini, turmush o'rtoqlarning sog'ligi holatini, moddiy holatlarini, oilaga bola qabul qilish sabablarini xarakterlab berishadi. Anketa yoki axborot xaritasini ijtimoiy pedagog yana o'sha mutaxassislar bilan birgalikda ishlab chiqadi. Shunday qilib, potentsial bola qabul qiluvchi oilaga oldindan tashxis qoyiladi.

Uchinchi bosqich oila, bolalar uyi yoki bola joylashgan boshqa muassasaga ilk tashrifdan iborat. Bu bosqichda ijtimoiy pedagog bola hamda qabul qiluvchi oila o'rtasida vositachilik vazifasini bajaradi. U bolani kuzatadi, uning tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan shaxslar bilan suhbatlar o'tkazadi.

To'rtinchi bosqich oila va uning atrofdagilarini yaxshilab o'rganishni talab qiladi (chuqurlashgan tashxis). Ijtimoiy pedagog bo'lajak ota-onalar tomonidan to'ldirilgan anketa va ariza bilan tanishib chiqib, bevosita oila bilan tanishadi, oila a'zolari bilan suhbatlar o'tkazadi, undagi pedagogik iqlimni, oila a'zolaridagi odatlarni va boshqa jihatlarni aniqlaydi. So'ngra ijtimoiy pedagog boshqa mutaxassislar bilan birgalikda oilaning yaqin atrofdagilarini (qo'shnilar, hamkasblar, do'stlar) o'rganib chiqadi. Bu suhbat yoki maxsus ishlab chiqarilgan anketalar yordamida bajarilishi mumkin.

Beshinchi bosqich bo'lajak ota-onalarni boshlang'ich o'qitish bilan bog'liq bo'lib, unda 2-3 kun mobaynida bola joylashgan muassasada nazariy bilimlarga asoslangan amaliy malaka oshirish o'tkaziladi. Bunda ijtimoiy pedagog ta'lim beruvchi funktsiyasini bajaradi, kurs dasturini ishlab chiqadi.

Oltinchi bosqich bolani asrab oluvchi oilaga topshirish bilan bog'liq. Bu holatda asosiy faoliyat vasiylik va adliya organlari tomonidan bajariladi. Bolani oilaga topshirgan vaqtdan boshlab ijtimoiy pedagog patronaj o'tkazish funktsiyasini bajaradi. Bolaning qabul qilgan oilasiga adaptatsiyasi boshlanadi. Bu esa ham bola, ham ota-onalarga muammolar tug'diradi. Shuning uchun bu bosqichda kirish kursining davomi bo'lgan ota-onalarni o'qitishning chuqurlashtirilgan kursi o'tiladi. Ijtimoiy pedagog boshqa mutaxassislar bilan birgalikda yangi dasturni ishlab chiqadi. Qabul qiluvchi oilada ota-onalarni o'qitish mazmuni ko'p holatlarga bog'liq: bolani qanday oila bolalikka oldi (ko'p bolali, bolasiz, ota-ona bir kishi hisoblanadigan), qabul qiluvchi ota-onaning yoshi, bolalikka olishga undagan sabablar, oilaga qabul qilishgan bolaning shaxsiyati (yoshi, jinsi, biologik ota-onalarining bor-yo'qligi).

Vasiy oila sud qarori asosida aniqlanadi. Vasiy vazifalariga bolani tarbiyalash va rivojlantirish, uning huquqlarini himoya qilish kiradi. Vasiy bola egaligida bo'lgan ko'char va ko'chmas mulklardan foydalanish va ularni saqlab qolishni ta'minlaydi. Biroq o'zi bu mulkdan foydalanish huquqiga ega emas.

Bolalikka oluvchi oilaning yana bir turi mavjud, ya'ni bolani vaqtinchalik qabul qiluvchi oila.. Bunday oila bola to'satdan oilasidan ayrilsa (turli sabablar

asosida; o'z oilasida fojiali vaziyat, o'lim va boshqalar) zarur bo'lib qoladi. Bolani vaqtinchalik qabul qiluvchi oila bolalikni himoya qilish shakllaridan biri sifatida bir qator rivojlangan davlatlarda keng tarqalgan. Bizning davlatda bunday oila keng tarqalmaganligini sababi, aksariyat hollarda o'zbek millatida ota-onasidan to'satdan ayrilgan bolalarni qarindoshlari, yaqinlari vasiylikka oladi.

Bolani vaqtinchalik qabul oilasi professional mutaxassislar oilasi bo'lgani bilan vasiylik oilasidan farq qiladi. Agar xorij tajribasiga murojaat qilsak, uning bir nechta belgilarini aniqlasak bo'ladi; bunday oilaning psixologik-pedagogik tayyorligiga mos tushuvchi malakaning mavjudligi, bu oila xizmatlariga haq to'lanishi; bolaning oilada bo'lish vaqti qabul qiluvchi ota-onaning ish staji muddati hisoblanishi va boshqalar.

Bola vaqtincha qabul qiluvchi oilada uning keyingi taqdiri xal bo'lgunga qadar yashaydi. U o'z oilasiga qaytishi, bolalar uyi, internat yoki boshqa muassasaga yuborilishi mumkin. Bolaning o'z oilasiga qaytib kelishi bola oiladan ajratib olingan sabablarning bartaraf etilishini ko'zda tutadi. Bular ota-onasining davolanishi, oila inqirozining tugashi va boshqalar.

Bolani bu oilada bo'lishi bir oydan bir necha yilgacha cho'zilishi mumkin. Bolani qabul qiluvchi oilada qisqa muddatli bo'lish o'z oilasida inqirozli holatda, to'satdan ota-onasidan judo bo'lganda bolaga shoshilinch yordam ko'rsatilishini anglatadi. Bolani qabul qiluvchi oilada uzoq muddat bo'lishi bola o'z oilasining uzoq rehabilitatsiya jarayoni yoki boshqa sabablar bilan izohlanishi mumkin.

Vaqtinchalik qabul oilasiga kelayotgan bolalar kontingentining murakkabligini (ijtimoiy qarovsiz, kasallik, jismoniy va ruhiy nuqsonlar) inobatga olib, oilalarda bu bolalarning normal rivojlanishi uchun alohida sharoitlar, g'amxo'rlik yaratilishi lozim. Bular bolaga boshdan kechirgan qiyin vaziyat bilan bog'liq stress holatidan chiqishga yordam beradi. Bunday oilaning asosiy maqsadi-biologik ota-onalar bilan aloqalarni ushlab turish va bolani o'z oilasiga qaytarib berish. Agar bolani o'z oilasiga qaytarishning imkoniyati bo'lmasa, unda uning keyingi taqdiri borasida sud qarori chiqmaguncha vaqtinchalik qabul oilasida

bo'lib turadi. Aslida bunday oila biologik oilada biror-bir inqirozli vaziyat yuzaga kelganda “tez tibbiy yordam” vazifasini bajaradi.

Davlat qaramog'i muassasalarida ijtimoiy pedagogik faoliyat.

Bolalarning asosiy ijtimoiy muammolari ularning psixofiziologik maqomi va ular yashayotgan jamiyatning ob'ektiv holatidan kelib chiqadi. Haqiqiy, uyg'un oila hayotini ko'rmagan bolalar juda kam holatda to'liq oilaviy munosabatlarni qura olishadi. Bunday sharoitlarda ijtimoiy muhim qadriyatlar-oila, nikoh, bolalar, ota-onalarning qadri pasayadi.

So'nggi yillarda oilaviy aloqalar tizimi ishida ham inqirozli o'zgarishlar ro'y berdi, chunki aksariyat ota-onalar bolalarini nafaqat ijtimoiy, balki fiziologik jihatdan ham ta'minlay olmadilar. Kambag'allik va uning oqibatlari bola, o'smir olamini vayron etadi, chunki uning ota-onasi, tabiiy himoyachilari bolaning barcha ehtiyojlarini qondirishga qurbi etmaydi.

Qarovsiz qolgan bolalar – oilaviy aloqalarning barbod bo'lishi natijasidir. Ijtimoiy etimlar soni borgan sari oshib bormoqda. Shuning uchun davlat birinchi navbatda bolani oilada saqlab qolish va davlat muassasasiga tarbiyalash uchun topshirishni oldini olishga barcha kuchini ishga solmoqda. Agar bolani oilada saqlab qolish iloji bo'lmasa, u uchun yangi oila qidiriladi. Biroq bolani yangi oila yoki tarbiya muassasasiga topshirayotganda bolaning etnik guruhi, mahalliy an'analari bilan bog'liq muhitda qolishi uchun barcha narsa qilinadi.

Har bir davlatda bola tarbiyasi va rivojlanishiga tegishli ijtimoiy qarorlar tizimi tuzilmoqda va mustahkamlanmoqda. Ularga quyidagi variantlarni kiritsak bo'ladi: bolani o'z oilasida saqlab qolish, o'z oilasiga qaytarish, davlat ichida bolalikka olish, boshqa davlatda bolalikka olish, maxsus tarbiya muassasalariga topshirish.

Agar bola bolalikka olinmasa yoki qabul qiluvchi oilaga topshirilmasa, unda uning tarbiyasi va rivojlanishi bilan davlat muassasalari shug'ullanadi.

Go'daklar uyida 3 yoshgacha bo'lgan tashlandiq bolalar, tug'ma etimlar tarbiyalanadi, keyinchalik ular bolalikka olinadilar yoki bolalar uyi hamda maktab internatlarga o'tishadi. Bolalar uyining maktab internatdan asosiy farqi, uning tarbiyalanuvchilari shu atrofdagi maktablarda ta'lim olishadi, maktab-internat tarbiyalanuvchilari esa o'sha muassasaning o'zida ham yashashadi, ham ta'lim olishadi.

O'z oilasidan boshqa joyda ulg'ayayotgan bola doimo g'ayritabiiy hodisadir. Go'dak hayotining ilk haftalarida hayotga eng qulay sharoitlarda onasiz tarbiya 90% holatlarda uning rivojlanishining buzilishiga olib keladi. Internat turidagi muassasalarda tarbiyalanayotgan bolalar ruhiy va emotsional deprivatsiyadan azob chekishadi, sensor jihatdan och qolishadi, ular real hayotdan ajratib olinganlar. Bolalar uylari, maktab-internatlarining deyarli barcha tarbiyalanuvchilari ruhiy jarohatni boshdan kechirishgan, bu esa ularning rivojlanishi uchun yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bunday bolalar chuqur ijtimoiy pedagogik qarovsizlik holatida bo'lishadi. Ijtimoiy tarbiya sharoitlari, emotsional-shaxsiy aloqalarning sustligi, oilaviy hayotning imitatsiyasi ijtimoiy infantilizm, kommunikativ muammolarni keltirib chiqaradi.

Bu vaziyatda go'daklar uylari, bolalar uylari, maktab-internatlar nafaqat ta'lim-tarbiya funktsiyalarini bajarishga qaratilganlar, ular bolaning normal ijtimoiylashuvi, uning to'liq rivojlanishini ta'minlashadi, nuqsonlarini to'g'irlashadi, tarbiyachilarning huquqiy va psixologik himoyalarini ta'minlashadilar. Bu faoliyatda bolalar va o'smirlarning psixologik xususiyatlarini yaxshi tushunadigan ijtimoiy pedagog o'z o'rniga ega.

Go'daklar uyida tarbiyalash xususiyatlari. Go'daklar uyi yosh bolalarni tarbiyalash tizimida alohida o'rin egallaydi. Bu tarbiyaviy-sog'lomlashtirish muassasalari ota-onasi qaramog'isiz qolgan bolalarga oila o'rnini bosishga, ona mehridan judo bo'lgan bolaning normal rivojlanishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga qaratilgan.

Hozirgi kunda go'daklar uyining moddiy bazasi ancha kengaydi, ulardagi tarbiyaviy ishlar ham yaxshilandi. Tarbiyaning ilmiy asoslangan asosiy

qoidalarining amalga oshirilishi bolalar rivojlanishida ijobiy natijalarga olib kelmoqda.

Go'daklar uylarida bolalar tarbiyasi tizimining effektivligini belgilab beruvchi asosiy omil tarbiyachilarning insoniyligi, o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishi hisoblanadi. Har bir tarbiyalanuvchiga mehr bilan munosabatda bo'lish bolalar sog'ligi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan asosiy shartdir.

Go'daklar uyi tarbiyachisi nafaqat tibbiy va pedagogik ma'lumotli bo'lishi, balki yuqori axloq, madaniyatga ega bo'lishi, bolalarni sevishi lozim.

Bolalar uylarida bolalarning tarbiyalanishi va rivojlanishi uchun sharoitlar yaratishda bolalarning yoshini emas, uning sog'ligi, holati va etishgan rivojlanish darajasini inobatga olish kerak.

Bolalarning bir qismi tarbiya jarayoniga yoshiga qarab qurilishi mumkin, biroq aksariyat tarbiyalanuvchilar o'zlaridan ancha kichik yoshli bolalarga mos keluvchi ta'lim tarbiyaga ehtiyoj seziladi. Odatda go'daklar uyiga ijtimoiy noxush oilalardan kuchsizlangan go'daklar kelib tushishadi, ularning ba'zilar esa bundan oldin uzoq vaqt shifoxonada ham davolanishgan. Ularga alohida e'tibor qaratish lozim.

Go'daklar uyining spetsifik xususiyatlari bola organizmi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan o'z salbiy jihatlariga ham ega. Odatda tarbiyachining har tomonlama rivojlanishini ta'minlash qiyin bo'ladi. Biroq bu go'daklar uyining asosiy maqsadi hisoblanadi. Tarbiyachi va ijtimoiy pedagog noxush omillarning bolaga ta'sirini susaytirishi, bola hayotini taassurotlar bilan boyitishi lozim.

Go'daklar uyining asosiy vazifasi bolalarning to'liq jismoniy va ruhiy rivojlanishlarini ta'minlashi, ularni jamiyat hayotiga tayyorlash, ularning ijtimoiy adaptatsiyalarini engillashtirishdir.

Go'daklar uyida pedagogik ishni tashkil qilayotganda yosh bolalarning asab-ruhiy rivojlanishlari qonuniyatlariga tayanish, ularning quyidagi xususiyatlari: jadallik, bolalar organizmining past qarshilik ko'rsatish darajasi, jismoniy va ruhiy rivojlanishning yaqin o'zaro munosabati, bolalarda kattalar bilan muomala

qilishga, ijobiy emotsiyalarga, harakat faolligiga, yangi taassurotlarga katta ehtiyoj borligi kabilarni inobatga olish lozim.

Go'daklar uyida bolalar sog'ligini saqlashga, xususan ularning asab tizimlarini asrashga katta e'tibor beriladi. Bu esa harakat, nutq, xotira, diqqat, tafakkur, tasviriy faoliyat, estetik va axloqiy rivojlanish asosi hisoblanadi. Go'dak hayotining ilk uch yili ichida kerakli ko'nikmalarni egallay olmasa keyinchalik buni o'rnini to'ydirishning iloji bo'lmaydi. Shuning uchun go'daklar uyining vazifasi bolaga hayotining ilk oylaridanoq rivojlanishdan ortda qolishga imkon bermaslik.

Go'daklar uyida tarbiyalanayotgan bolalar kontingenti bir qator xususiyatlari bilan ajralib turishadi. ijtimoiy noxush oilalardan kelib tushgan aksar bolalar noxush ijtimoiy va biologik analizga egalar. Agar xizmat ko'rsatuvchi shaxslar bola qichqirig'iga vaqtida javob bermasalar bolada shaxsiy-emotsional muomala aloqasi o'z vaqtida shakllanmaydi. Natijada hayotining ilk yilidayoq uning yurish-turishida ikki nuqson paydo bo'lishi mumkin. Birinchisi, bola passiv, harakat va emotsional faolligi past, bu esa salbiy odatlar (bammoq so'rish, boshini qimirlatib o'tirish)ning paydo bo'lishiga olib keladi.

Ikkinchisi, notinch uyqu, sababsiz yig'i, boshqa bolalarga agressiv munosabat va buning natijasi yurish-turishida salbiy streotiplar paydo bo'lishidir.

Bu nuqsonlari bor bolalarda kattalar bilan kam muomalada bo'lish nutq rivojining ortda qolishiga sabab bo'ladi. Hayotning ilk yilida oliy nerv sistemasining shakllanishiga etarli e'tibor bermaslik bu tizimning rivojiga keyinchalik ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Hayotining ikkinchi yilida bolaning anglash faolligi susayadi, bola xonada maqsadsiz harakatlanadi, yangi odamlardan qo'rqadi yoki aksincha ular bilan ortiqcha jismoniy aloqaga intiladi. Nutq rivojlanishi ortda qolaveradi, salbiy odatlar ham saqlanib qoladi.

Hayotining uchinchi yilida bolada mavhum anglashning ilk belgilari namoyon bo'lishi lozim: bola o'zini shaxs sifatida ajrata boshlaydi, uning nutqi muomala vositasiga aylanishi mumkin va boshqa go'daklar uyida tarbiyalanayotgan bolalarda bu borada ortda qolish kuzatilishi mumkin. asabiy namoyon bo'lishlar

kuchayadi (bolaga biror narsa rad etilganda yig'i bilan o'zini polga tashlashi mumkin), boshqa bolalarga, ba'zan kattalarga nisbatan agressivlik kuchayadi. Bular mikro ijtimoiy muhit xususiyatlari va sog'liq holati kabi ob'ektiv sabablarning natijasidir. Bunda kattalar bilan muomala qilishning etishmasligi va ijobiy emotsiyalarning kamligi asosiy o'rin tutishini inobatga olib, bularning o'rini bolaga tarbiyaviy ta'sir orqali to'ldirishga harakat qilish lozim. ijtimoiy pedagog oliy nerv faoliyatining rivojlanishini xarakterlaydigan normativ ko'rsatkichlardan kelib chiqishi kerak.

Go'daklar uyida bolalarning ijtimoiy adaptatsiyasi jarayonida

ijtimoiy pedagogning o'rni. Bola hayotining ilk yillarida unda u o'sib-rivojlanayotgan mikro ijtimoiy muhit talablarini aks etuvchi ijtimoiy yurish-turishning muayyan turi shakllanadi. Mikro ijtimoiy muhitning o'zgarishi yurish-turishning o'zgarishini ham keltirib chiqaradi. Bu esa yoshlik davrida anchagina mushkul vazifa bo'lib odatda adaptatsion sindrom rivojlanishiga olib keladi.

Go'daklar uyida bolalar doimo bolalar muassasasining mikro ijtimoiy muhitida bo'lishadi va bu muhit ular uchun ijtimoiy yurish-turishni shakllanishining asosi hisoblanadi. Bu sharoitlarda bolalar oiladagidan barvaqtroq tengdoshlari bilan muomalaga ko'nikishadi, kattalar bilan aloqalarga kirishishadi.

Bolalar uyida go'dak ijtimoiy yurish-turishning stereotipini o'zgartirish zarurati haqida gapirganda uch asosiy holatni nazarda tutish lozim:

bola hayotining ilk oylarida shifoxonadan to'g'ri go'daklar uyiga o'tkaziladi;

bola yoshiga qarab boshqa guruhga o'tkaziladi.

bola bolalikka olinadi yoki bolalar uyiga topshiriladi. Albatta kam uchraydigan holatlar ham bo'lishi mumkin. Masalan, bola go'daklar uyiga to'g'ri oilasidan kelib tushadi yoki onasi uni go'daklar uyiga tashlab ketadi, barcha sanab o'tilgan holatlar o'z xususiyatiga egalar, u yoki bu darajada adaptatsion sindromni keltirib chiqarishadi. Shuning uchun biz ularga batafsil to'xtalamiz.

Adaptatsiya atamasi "ko'nikish" degan ma'noni bildiradi. Barcha tipik mavjudotlarning muayyan iqlim, hududda rivojlanishiga ko'nikish xususiyati.

Evalyutsiyaning darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, organizmning evalyutsion imkoniyatlari ham shuncha yuqori bo'ladi.

Insonning boshqa tipik mavjudotlardan farqi uning ijtimoiy muhitda mavjud bo'lishidir. Inson uchun ijtimoiy muhit boshqa sharoitlar (iqlim, harorat, ovqatlanish va boshqalar) kabi ob'ektiv ta'sir omili hisoblanadi.

Insonning kelgusidagi o'zgarishlarga oldindan tayyorgarlik ko'rishi, o'zgargan ijtimoiy sharoitlar munosabati bilan yurish-turishni qayta qurish **ijtimoiy adaptatsiya** deyiladi. Muayyan mikro ijtimoiy muhitda (ish, oila va boshqalar) insonda u yoki bu ijtimoiy sharoitlarga adekvat yurish-turish jihatlari paydo bo'ladi. Ijtimoiy adaptatsiyada eng muhim rolmi miya po'stlog'i bajaradi.

Ijtimoiy adaptatsiyadagi ruhiy faoliyatning kuchayib ketishi yoki odatiy yurish-turish shakllarini o'zgartirish zaruriyati yuzaga kelgan qizg'inlik sabablari hisoblanadi. Ijtimoiy adaptatsiyaning muvaffaqiyatli kechishi uchun markaziy nerv tizimi hujayralarining chidamlilik darajasi, nerv jarayonlarining kuchi muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy adaptatsiya imkoniyatlari faqatgina tug'ilgandan so'ng rivojlanadi, oliy nerv faoliyati tizimi rivojidan ajralmas hisoblanadi.

Bola dunyoga kelgach, inson tomonidan yaratilgan muhitga tushadi. Kattalarning ta'siri va shaxsiy faoliyat natijasiga bolada shu muhitga mos tushuvchi yurish-turish reaksiyalari paydo bo'ladi. Turli yosh davrlarida bolalar va o'smirlar mikro ijtimoiy muhit o'zgarishlariga duchor kelishadi va bu o'zgarishlar ularning yurish-turishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy pedagogning bolalar uyidagi faoliyati bolani ijtimoiy munosabatlarga qo'shish va uning boshqalar muomalasini kengaytirish, insoniy munosabatlarga kirishish qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Ijtimoiy pedagog go'daklar uyi tarbiyachilari va boshqa xodimlari bilan yaqin hamkorlik yuritib, bolalarda ijtimoiy adaptatsiya qobiliyatini rivojlantirishning metodlarini bilishi lozim.

Go'daklar uylarida tarbiyalanayotgan bolalar o'z adaptatsion mexanizmlari bilan mashg'ulot o'tkazish uchun kamroq imkoniyatlarga egalar, demak ularda ijtimoiy

ko'nikish darajasi ham ancha past. Shuning uchun o'zgargan sharoitlarga o'tish ular uchun qiyin omil hisoblanadi. Ustiga ustak go'daklar uyi bolalari og'irlashgan biologik va ijtimoiy anamnezga egalar, ularning rivojlanishi va sog'ligi ko'rsatkichlari ham doimo optimal emas. Bu jihatlar ham markaziy nerv tizimi ishchanligini tushiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar funktsional tizimning ko'pgina tarkibiy qismlarining xomligi xarakterli bo'lib, bu ularda adaptatsion mexanizmlar tizimida qizg'inlik holatlarini tez paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Go'daklar uyi bolalari esa ruhiy stress holatiga juda oson tushishadi.

Adaptatsiyaning barcha shakllarini o'rganish bolaning yangi muhit sharoitlariga ko'nikishi bosqichlarini, shuningdek adaptatsion bosqichning murakkabligi darajasini belgilovchi omillarni aniqlash imkonini berdi.

Ko'nikish bosqichlari:

1) **keskin davr yoki dezadaptatsiya bosqichi.** Bu bosqichda yangi mikroijtimoiy muhit talablari va odatiy yurish-turish stereotiplari o'rtasida kelishmovchilik mavjud bo'ladi. Bu vaqtda ayniqsa yurish-turish parametrlarida-kattalar bilan munosabatlar, nutq faolligi, oyinlarda o'zgarishlar ko'p bo'ladi. Shuningdek, tana og'irligining kamayishi, infeksiyalarga qarshilik ko'rsatishning pasayishi kabi hodisalar ham kuzatiladi;

2) **adaptatsiyaning o'zi.** Bunda bola yangi muhitni faol o'zlashtirib, unga mos keluvchi yurish-turish shakllarini ishlab chiqadi. Bu davrda turli tizimlardagi chetga chiqishlarning kamayishi kuzatiladi. Hammadan tez ishtaha (15 kun) normallashadi, uyqu va emotsional holat vaqti cho'ziladi. Oyin va nutq faoliyati esa hammasidan keyin o'z o'rniga qaytadi (60 kungacha);

3) **kompensatsiya davri.** Bunda organizm faoliyati to'liq normallashadi. Birinchi va ikkinchi bosqichlarning xarakter va xususiyatlari adaptatsiyani murakkabligi bo'yicha tasniflash imkonini beradi;

4) **engil adaptatsiya.** Bola yurish-turishidagi buzilishlar muddati 20 kun bo'ladi. Bunda ishtahaning ham biroz pasayishi kuzatiladi. 10 kun mobaynida bola iste'mol qiladigan narsalar hajmi normasiga qaytadi, uyquning tiklanishi 7-10

kunda roy beradi, emotsional holat, nutq faoliyati va bolalar bilan o'zaro munosabatlar 15-20 kun ichida normallasadi.

Shu bilan birga kattalar bilan munosabatlar deyarli o'zgarmaydi, harakat faoliyati ham pasayadi. Bola adaptatsiya davrida kasallikka chalinmaydi;

5) **o'rta og'irlikdagi adaptatsiya**. Bola yurish-turishida barcha buzilishlar yaqqol namoyon bo'ladi va ularning muddati ancha uzoq. Uyqu va ishtaha 20-30 kunda normallasadi, mo'ljal olish faoliyatining buzilishi o'rtacha 20 kun davom etadi, nutq faoliyati 20-40 kungacha qayta tiklanmaydi. Emotsional holat bir oy mobaynida beqaror bo'lib turadi, harakat faoliyatining tiklanishi 30-35 kunda sodir bo'ladi.

Bu davrda ham kattalar bilan o'zaro munosabatlar buzilmaydi. O'rta og'irlikdagi adaptatsiya respirator indeksiyasi kabi kasalliklar paydo bo'lishi mumkin.

Adaptatsiyaning bu yo'nalishi bolalarda odatda 9 oylik yoshdan 1,5 yoshgacha qayd etiladi. Biroq agar bolalarda sog'liq bilan bog'liq muammolar bo'lsa yoki go'daklar uyida sog'lomlashtirish-tarbiya ishi yomon tashkil qilingan bo'lsa, har qanday yoshdagi bolada bu holatlar qo'zg'atilishi mumkin.

O'rta og'irlikdagi adaptatsiya bolalarda bir guruhdan boshqa guruhga o'tkazilayotganda, statsionardan go'daklar uyiga kelib tushganda namoyon bo'ladi.

6) **og'ir adaptatsiya**. Bu adaptatsiya turi muddatining uzunligi (2-6 oy va ko'proq) va barcha alomatlarining og'irligi bilan xarakterli hisoblanadi.

Organizmning ko'nikish imkoniyatlarining shakllanishi bola ruhiyatining emotsional-ijtimoiy va bilib olish sohasi bilan yaqin bog'liq hisoblanadi. Emotsional muvozanat va shu asosda shakllanadigan anglab olish faoliyatining yuqori darajasi engil va muvaffaqiyatli adaptatsiyani ta'minlaydi.

Bolani ijtimoiy adaptatsiyadan xalos etish kerak ekan deb oylashn o'tg'ri hisoblanadi. ijtimoiy pedagogning vazifasi bolaning adaptatsion imkoniyatlarini maqsadga muvofiq shakllantirish va mashq qildirishdir. Chunki bola o'z adaptatsion imkoniyatlarisiz o'zini turli ijtimoiy hodisalarda to'g'ri tuta olmaydi. Adaptatsion qobiliyatlarni mashq qildirish masalasi go'daklar uyida bolalar

hayotini tashkil qilishning eng muhim masalalaridandir. Bola yangi muhit sharoitlariga engil adaptatsiya darajasida ko'nikishga intilish va adaptatsiyaning og'ir buzilishlariga yo'l qoymaslik lozim.

Go'daklar uyida bolalar hayotini tashkil qilar ekan ijtimoiy pedagog unga sog'lomlashtirish ishining elementlarini qo'shishga harakat qilishi kerak.

Ijtimoiy pedagog faoliyatining eng muhim yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

Bola rivojlanishining va sog'ligining optimal holatini ta'minlash.

Bola bilan doimo muloqatda bo'ladigan kattalar tarkibining barqarorligini ushlab turish uchun 2 yoshgacha bolaga xizmat qiluvchilar sonini cheklab turish.

12-13 oylardan boshlab bolani unga doimiy xizmat qiluvchilar orqali boshqa qayta shaxslar, go'daklar uyining boshqa xonalari, haydovchilar, ko'cha transporti bilan tanishtirishi lozim.

Bola hayotining 3 yoshda bolalarni go'daklar uyidan tashqariga ko'proq chiqarish kerak, maktab o'quvchilari bilan uchrashuvlar tashkil qilish lozim.

Endigina go'daklar uyiga qabul qilingan bolalarning hayotiga kelsak, bunda avvalambor bola qaerdan kelayotganini (o'z oilasi yoki statsionardan) aniqlash va shu bilan birga bolaning shu paytgacha bo'lgan rejimini saqlab qolishi lozim. Ayniqsa ovqatlanish rejimini nihoyatda ehtiyotlik bilan o'zgartirish lozim: avvalambor ichimlik miqdorini 50-100 gramm ko'paytirish kerak va glyukoza qo'shilgan qorishma berish ham maqsadga muvofiqdir. Shuningdek 15-20 kun mobaynida hech qanaqa sanchish protseduralarini ham o'tkazmaslik lozim.

5) Bolani guruhdan guruhga o'tkazganda uni avval (1-2 oy avval) yangi xonasi, bolalar, xizmat ko'rsatuvchi shaxslar bilan tanishtirish kerak. Yangi guruhdagi, ayniqsa ilk kunlarda bola e'tibor, mehrga muhtoj bo'ladi. Unga eski guruhidan o'zi bilan biror bir oyinchoqni olib kelishga ham ruxsat bersa bo'ladi. Adaptatsion davr mobaynida rejimli o'zgartirish, emlash o'tkazishga ruxsat berilmaydi. Adaptatsiya varaqasi yoki guruh kundaligiga adaptatsion davrning yakunlanishini aniqlash uchun bolaning yurish-turishi, ishtahasi, uyquusi haqidagi ma'lumotlarni qayd etib borish kerak.

6) Go'dakning go'daklar uyiga oiladan topshirilishi ham bolaning maktabgacha tarbiya muassasaga kirishi kabi tashkillashtiriladi. Biroq shuni yodda tutish lozimki, go'daklar uyiga kirishdagi vaziyat ancha murakkabdir. Bola uchun odatiy sharoitlar birdan o'zgaradi, u yaqinlaridan judo bo'ladi, o'zini hech kimga kerak emas deb hisoblaydi. Bu holatda stress juda kuchli namoyon bo'ladi va og'ir adaptatsion sindrom ham paydo bo'lishi mumkin. Ijtimoiy pedagogning vazifasi bola bilan ko'proq shaxsan aloqa qilish, uning stress holati keltirib chiqargan yurish-turish buzilishlarini to'g'ri anglab etish, bolaga bu og'ir sinovni engishga harakat qilishdir.

Bolalar uylarida ijtimoiy pedagogik faoliyat yuritish. Bolalar uylari yosh alomatlariga ko'ra maktabgacha yoshdagi bolalar uylari, maktab o'quvchilari bolalar uylari va turli yoshdagi bolalar uchun bolalar uylariga bo'linishi mumkin.

Bolalar uylarining asosiy **vazifalari** quyidagilardan iborat:

Bolaning normal rivojlanishini ta'minlab beruvchi qulay sharoitlar yaratib berish;

Bolalar sog'ligini saqlash;

Bolaning ijtimoiy himoyasining tibbiy pedagogik va ijtimoiy adaptatsiyasini ta'minlash;

Tarbiyachilar huquq va manfaatlarini himoya qilish;

Bolalarning ta'lim dasturlarini o'zlashtirishi hamda shaxs, jamiyat, davlat manfaati yo'lida etarli ta'lim olish;

Tarbiyalanuvchilarning umumiy madaniyati, hayotga adaptatsiyasini shakllantirish;

Tarbiyalanuvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish va belgilab olish ehtiyojlarini shakllantirish.

Etim bolalarni qaramoqqa olish uchun maxsus muassasalar, etimxonalar mavjud. Etimxona faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari shundaki, bu muassasa ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning vaqtinchalik yashash joyidir. Ushbu muassasaning maqsadi qiyin hayotiy vaziyatlarda qolib ketgan bolalarni vaqtinchalik yashash joyi bilan ta'minlash va keyinchalik ularni ijtimoiy institutlarga joylashtirishdir.

Mamlakatda ijtimoiy-iqtisoiy vaziyatning o'zgarishi bu muassasalarning ko'pgina muammolari-bolalar ta'lim-tarbiyasi, adaptiv reabilitatsion muammolarni hal qilishga yangi yondoshuvlar ishlab chiqishni talab qiladi.

Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar tarbiyalanayotgan davlat qaramog'i muassasalari faoliyatining asosiy maqsadi bu muassasalardagi bolalarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash, tibbiy reabilitatsion xarakterdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish, bolalarga ta'lim berishni tashkillashtirishdir.

Bolalar uyi davlat qaramog'idagi bolalarning eng tipik muassasasi hisoblanadi. Tarbiyalanuvchilarda keng qamrovli ijtimoiy, tibbiy, psixologik, pedagogik muammolarning borligi tufayli bolalar uyida ijtimoiy pedagogik faoliyat yuritish zaruriyati tug'iladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kattalar tomonidan e'tibor qaratilmasligi jiddiy muammo hisoblanadi. Ularda kattalar bilan hamkorlik qilishga intilish etarli rivojlanmagan. Bolalarni kattalar bilan muloqotga kirishishiga undovchi sabab shuki, ularni katta odamning o'zi jalb qiladi, bolalar kattalar takliflarini bajonidil qabul qilishadi. Bu aloqalarning barchasi kattalarning e'tiborini tortishga qaratilgan bo'ladi.

Oilalarda yashovchi bolalar va bolalar uylari tarbiyalanuvchilari orasida ayniqsa shaxsiy muloqat borasida katta farqlarni kuzatsak bo'ladi. Buning sababi-bolalar uyida bola bilan kattalarning muloqot qilishi oiladagidan kamroqdir. Bolalar uyida bolaga kattalar kamroq e'tibor qaratishadi, aniqrog'i ularning e'tiborlari bir guruh bolalarga qaratilgan bo'ladi. Bolalar uyidagi kattalar o'zgarib turishadi, oilada esa buning aksi kuzatiladi. Va nihoyat bolalar uyidagi bolalar va kattalar muloqatining emotsional boyligi darajasi oilanikidan pastdir.

Kichik maktab yoshidagi bolalar tarbiyachilari uchun bolalar uyidagi kundalik faoliyati, u erda yashash rejimini bajarish bilan bevosita bog'liq sabablar yorqin namoyon bo'lishi xosdir. Bu yoshdagi bolalarning oiladagi sabablari esa ancha sermahsuldir. Motivatsion sohaning bunday cheklanganligi bolalar uyida bolalarning yashash sharoitlari va ularning kattalar bilan etarli muloqot qilmasliklariga bog'liq. Bu jihat turli nizoli vaziyatlarda, ayniqsa yorqin ifodasini

topadi: kattalar va bolalar manfaatlarining to'qnashuvi, tengdoshlari tomonidan ayblanishi, bolaning kattalar va tengdoshlari tomonidan tushunilmasligi va hokazo. Bu holatda tarbiyalanuvchining xarakteri o'z agressivligi bilan ajralishi mumkin. Shunday qilib, olimlar bolalar uylari tarbiyalanuvchi shaxsiyatining aqliy, xulq-atvor va ehtiyoj sohasini aniqlashdi.

O'smirlik yoshida bu sabablar o'smirning tengdoshlari orasida o'rnini topishga, o'z "men"ining rivojlanishiga muayyan qiyinchiliklar tug'diradi.

Bolalar uylari tarbiyalanuvchilarining aqliy, xulq-atvor va motivatsion tavsiflariga bola sog'ligi bilan bog'liq muammolar ham qo'shiladi. Aslida bolalar uylarida to'liq sog'-salomat bolaning o'zi yo'q-aksar bolalar yuqumli kasalliklarga ega. Ular orasida nogironlar ham uchrab turadi. Bolalar uylari tarbiyalanuvchilariga taksikomaniya, narkomaniya kabi holatlar xosdir.

Bolalar uylarida ijtimoiy pedagog boshqa mutaxassislar-tarbiyachilar, psixologlar, shifokorlar bilan yaqin hamkorlikda faoliyat olib boradi. Ijtimoiy pedagog faoliyatining maqsadi – bolalar uylari tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvidir. Bu maqsad quyidagi faoliyat turlarida amalga oshiriladi:

3-jadval.

Ijtimoiy pedagogik tashxis qoyish va maslahat	Ijtimoiy profilaktik faoliyat	Ijtimoiy tarbiya
Maqsadi: shaxs sotsiogenezi dinamika-sini kuzatish, uning buzilish sabablarini aniqlash; ijtimoiy-psixologik muammolarini va ular-ni hal qilish usul-larini o'rganish; tarbiyachilarning ijtimoiy adaptatsiyalari	Maqsadi: bolalar ijti-moiy rivojlanishidagi buzilishlarni oldini olish, shaxsning to'liq rivojlanishi uchun sharo-itlar yaratish; bolalarda ruhiy keskinlik profilak-tikasi dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish; qulay ijtimoiy-psixo-logik	Maqsadi: shaxs ijtimoiyla-shuvi jarayoniga faol ta'sir ko'rsatish, ijtimoiy tarbiya va ijtimoiy pedagogik reabilitatsiya dasturlari orqali unga ijobiy ta'sir ko'rsatish; hayotiy malakalar va ko'nikmalarni rivojlan-tirish dasturi; profiariantatsiya dasturi:

xususiyatlarini o'rga-nish; ijtimoiy tavakkal guruhi tarbiyalanuv-chilarini aniqlash; bolalar qiziqish va qobiliyatlarini o'rga-nish; ijtimoiy rivojla-nishning individual xaritalarini tuzish; bolalar rivojining ijtimoiy tarmoq va individual vaziyatiga tashxis qoyish; bolalarning kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishlariga tashxis qoyish; ijtimoiy xulq-atvor-dan chetga chiqishlariga tashxis qoyish.	mikromuhit yara-tish; tarbiyalanuvchilarning o'z oilalari, pedagoglar va tengdoshlari bilan muloqot qilishlarining eng optimal yo'lini tanlash; shaxslararo munosabat- larning profilaktikasi dasturi; ijtimoiy zararli illatlar (araqxo'rlik, giyohvandlik, taksiko-maniya)ning profilak-tikasi dasturi.	jinsiy tarbiya va oilaviy hayotga tayyorlash dasturi; aloqa ko'nikmalari va muloqot madaniyatini rivoj- lantirish dasturi; xulq-atvordagi turli chetga chiqishlarni (agressiya, avto- agressiya, adektiv xulq-atvor, uyatchanlik, autiz) to'g'rilash dasturi; xarakter aktsentuatsiyalar- ining psixoterapiyasi dasturi; “Men” obrazining to'g'rilash dasturi
--	---	--

O'z faoliyatida ijtimoiy pedagog **bir qator vazifalarni** hal qiladi:

bolaning ijtimoiy maqomini aniqlash;

tarbiyalanuvchilarning individual rivojlanish dasturini tuzish;

bola adaptatsiyasi, intergatsiyasi, rehabilitatsiyasi.

Shu bilan birga u o'z faoliyatida tashhiz qoyish, bashorat berish, rehabilitatsion vositachilik va patronaj o'tkazish vazifasini ham bajaradi. ijtimoiy pedagog faoliyati bola ijtimoiy maqomini aniqlashdan boshlanadi. Hujjatlarni o'rganish, suhbat, test o'tkazish yo'li bilan ijtimoiy pedagog echishi lozim bo'lgan muammolarni aniqlaydi. Bola kasallanishini tashhizi qanchalik aniq qoyilsa, unga

berish mumkin bo'lgan yordam turini aniqlash oson bo'ladi. Bolaning tarbiyasi jamoada kechadi, shuning uchun ijtimoiy pedagog bolalar jamoasini ham to'liq o'rganadi.

Buning uchun ijtimoiy pedagog tomonidan "bolani o'rganish varaqasi" hamda "Bolaning individual xaritasi" to'ldiradi.

4-jadval.

Bolani o'rganish varaqasi

O'g'il bola

Qiz bola F.I.SH.

Bola haqidagi umumiy ma'lumotlar

1. Bola yoshi _____

(tug'ilgan yili, kun, oy, joyi)

2. Bola joylashgan muassasa nomi va manzili

3. Qarindoshlari va ularning manzili _____

4. Millati

5. Ilova qilinadigan hujjatlar (tavsifnoma, tibbiy xarita, yozma ishlar, rasmlar)_____

6. Asosiy shikoyatlar_____

Bolaning yurish-turishi

Umumiy ma'lumotlar

1) qaerda ta'lim oladi;

2) qachon va qaysi yil;

ijtimoiy pedagog savollari	Javoblar		
	Tarbiyachi	Pedagog	Psixolog

3) takrorlash, qachon va qancha;

4) ta'lim jarayonida qanday qiyinchiliklar mavjud;

5) muvaffaqiyatning qiziqish tufayli oshishi;

- 6) o'zi o'qishni yoki eshitishni yoqtiradimi;
- 7) sevimli predmetlari;
- 8) sevimli oyinlari;
- 9) sevimli mashg'uloti;
- 10) musiqa;
- 11) ijtimoiy faoliyat, hayvonlar, tabiatga qiziqish;
- 12) jismoniy tarbiya va sport

Intellectual xulq-atvor

- 13) e'tibor, xotira;
- 14) ishlash qobiliyati;
- 15) darslarda o'zini tutishi;
- 16) zamon va makonda mo'ljal olish;
- 17) yoshga mos kelishi;
- 18) tarbiyasida chetga chiqishlar;
- 19) aqliy rivojlanishning ortda qolishi

Nutq

- 20) toza, duduqlanish, afaziya, sergaplik, lug'at boyligi, exolaliya va boshqalar

Mator ta'sirlar

- 21) epchillik, yurishi, yozuvi, kulgusi, chaynashi, kiyinishi, charchashi;
- 22) kayfiyati, negativizm, egotsentrizm, yalqovlik, yolg'onchilik, maqtanchoqlik;
- 23) og'riqqa chidamliligi;
- 24) ishontirish

Uyqu

- 25) tinch, chuqur, barvaqt, kech, uyqusizlik

Gastrik instinklari

- 26) spirtli ichimliklar iste'mol qilish

Jinsiy instinklari

- 27) jinslarga munosabati, uyatsiz harakatlar, rasmlar, so'kinish;
- 28) erta rivojlanish. Onanizm, sadizm, ekskibitsionizm

Ijtimoiy xulq-atvor

- 29) atrofdagilarga munosabati;
- 30) tartib, majburiyatlarga munosabati;
- 31) o'g'irlik, o'g'irlangan narsalardan foydalanish;
- 32) qochish, daydilik, gadoylik;

Ijod

- 33) shakl, mazmun, kuch, taqlid

Boladagi o'zgarishlar

- 34) qaysi munosabatlarda va qachon

5-jadval

Bolaning individual xaritasi

1. O'g'il bola

Qiz bola _____

2. Bola yoshi _____

(tug'ilgan yili, kun, oy, joyi)

3. Kelishi (qachon, qaerdan)_____

Oilasi haqida _____

Onasi

Otasi

Qarindoshlari

Vasiy

4. Tibbiy ko'rsatkichlari (jismoniy rivojlanish darajasi, yuqumli kasalliklar va boshqalar)

5. Pedagogik ko'rsatkichlari:

o'qitish jadalligi;

o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar;

o'qishdagi qiziqishlar

6. Psixologik ko'rsatkichlari:

temperament turi;

xarakter xususiyatlari;

“Men” obrazi;

psixologik rivojlanishining umumiy darajasi;

anglab oluvchi jarayonlarning o'ziga xosligi;

xulq-atvor xususiyatlari;

qobiliyatlari;

7. Ijtimoiy pedagogik tavsifi:

a) ijtimoiy zararli jihatlar:

erta alkogollashuv;

chekish;

taksik va psixotrop moddalarni iste'mol qilish;

asotsial o'yinlarga qiziqish;

jinsiy xohish

b) ijtimoiy xulq-atvorida chetga chiqishlar:

qo'pollik;

janjallar;

darsdan, mashg'ulotlardan va boshqa shunga o'xshashlardan qochish;

intizomsizlik;

kuchsizlarni urish;

qalloblik;

hayvonlarga qo'pol munosabatda bo'lish;

o'g'irlik;

jamoat tartibini buzish

v) rivojlanishning ijtimoiy vaziyati:

noxush ob'ektiv;

noxush sub'ektiv

g) ijtimoiy maqom:

etakchi;

guruhda olqishlanadigan;

muayyan shartsiz qabul qilingan;

nazardan qolgan odam;

jasur;

Ijtimoiy pedagogning keyingi vazifasi tarbiyalanuvchilarning individual rivojlanishi dasturini to'qish, ya'ni bolalar uyining bitiruvchisi qanaqa bo'lishi kerakligini tasavvur etish lozim. Buning uchun ijtimoiy pedagog tarbiyachi bilan birgalikda bolaning barcha hujjatlarini, uning muammolarini tahlil qiladi, vaziyatdan chiqish yo'llarini qidiradi.

Ish bosqichlari

1. Tayyorlov – muassasaga kirishlarida tanishish bolalar, bola hayoti muhitining omillari, aloqalar o'rnatish, ijtimoiy tashxisi, shaxsning pedagogik imkoniyatlari bilan tanishish, shahar (tuman) muassasalari bilan aloqalar o'rnatiladi, bolalar kartatekasi tuziladi, ishning qisqacha tahlili beriladi.

Tadqiqot usullari

Psixologik test o'tkazish:

- a) "maktab ta'limiga ko'nikish" anketasi;
- b) ruhiy holatlarning tashxis qilinishi;
- v) bolaning muhitga ko'nikishida muassasa ta'sirini aniqlash maqsadida kuzatuv olib borish, intervyu olish

Anketa so'rovnomasi o'tkazish:

- a) insho-bolaning ijodiy qiziqishini aniqlash uchun (adabiyot o'qituvchisi o'tkazadi);
- b) qiziqishlarini so'rab bilish;
- v) kasbiy qiziqish boyicha anketa

2. Tashkiliy – muammolarni tasniflash, ularni tahlil qilish. Ijtimoiy pedagog o'z faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini, ijtimoiy ijod shakllarini aniqlaydi, ishda ijtimoiy institutlarni (oilalar, maktab, yoshlar tashkilotlari, sog'lomlashtirish muassasalari, armiya, ijtimoiy xizmatlar) tartibga soladigan ijtimoiy yordamchilar tarkibini tuzadi, ta'lim, sog'liq, dam olish payti muammolari bilan shug'ullanuvchi tashkilot, to'garaklar imkoniyatlarini o'rganadi, ijtimoiy pedagogik tadqiqotlar natijalarini tizimlashtiradi.

3. Bevosita ijtimoiy ish-kuzatuv, g'amxo'rlik, maslahat berish, bola huquqlarini himoya qilishga yordam berish, murakkab vaziyatlarning tahlili.

Ish shakllari:

1. Tarbiyalanuvchi uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.
2. Bola ijtimoiylashuvi dinamikasini kuzatuv xaritasi orqali kuzatish.

Vositalar – predmetlar, hodisalar, jarayonlar.

Bolalar uyi sharoitlarida ijtimoiy adaptatsiya quyidagilarda namoyon bo'ladi:
jamo'a hayoti normalarini ongli ravishda qabul qilish va bajarish;
xulq-atvorini o'zi nazorat qilish, salbiy hodisalarga qarshilik ko'rsatish;
pedagogik ta'sirlarga adekvat munosabatda bo'lish

Ijtimoiy pedagog faoliyatining bu umumiy qoidalari bolalar uyi turi, bolalarning yoshi, ularning tabiiy-ijtimoiy va psixologik-pedagogik muammolariga qarab konkretlashadi.

Psixologlar bilan birgalikda ijtimoiy pedagog bitiruvchilarning o'z-o'zini belgilab olishlari (kasb-hunar to'g'risida suhbatlar, korxonalarga ekskursiyalar, professional ta'lim olish to'g'risida suhbatlar), insonning jamiyatdagi turli ijtimoiy rollarini o'zlashtirishlari (vatanparvar, oila a'zosi, jamiyat a'zosi, iste'molchi, professional va boshqa), oila funktsiyalari va tuzilishi bilan tanishishlari, adaptiv mexanizmlarning shakllanishi muammolari bilan shug'ullanishadi. Bolalar uyidagi murakkab tarbiyaviy jarayon tarbiyachilardan nafaqat bugungi vazifalarni, balki ham bolaning ham jamoaning rivojlanish tendentsiyalarini o'zlashtirishni talab qiladi.

Ijtimoiy pedagogning internatdagi faoliyatining asosiy funktsional vazifalari:

1. Tarbiyalanuvchilarga nisbatan insoniylik munosabatlarini shakllantirish, pedagogik jarayonda bolalarning huquqlari, manfaatlari, sog'liqlarini himoya qilish va saqlash.

2. Bola shaxsining xavfsizligini ta'minlash va psixologik qulay sharoit yaratish.

3. Tarbiyalanuvchilarning shaxsiy xususiyatlari, ularning hayotiy faoliyatlari, sharoitlarini o'rganish.

4. Bolalar va o'smirlarning qiziqish va ehtiyojlari, muammo va qiyinchiliklari, ularning ijtimoiy xulq-atvori va ijtimoiy adaptatsiyalarida chetga chiqishlarni aniqlash.

5. Ijtimoiylashuv jarayonida tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy pedagogik reabilitatsiyasini o'tkazish.

6. Tarbiyalanuvchilar uchun ijtimoiy qadrlil faoliyat turlarini tashkil qilish va tartibga solish.

7. Ijtimoiy va pedagogik qarovsiz tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy pedagogik reabilitatsiyasini o'tkazish.

8. Tarbiyalanuvchi va muassasa, oila a'zolari, ijtimoiy institutlar o'rtasida vositachi bo'lish.

9. Tarbiyalanuvchilarga yordam ko'rsatishda pedagoglar, psixologlar, vasiylar, ota-onalar bilan hamkorlik qilish.

10. Ijtimoiy xizmatlar xodimlari bilan birgalikda bitiruvchilarni ishga joylashtirish, ularni yashash joyi, imtiyozlar, nafaqalar bilan ta'minlash yuzasidan hamkorlik qilish.

Ijtimoiy pedagog faoliyatining **vazifalari**:

1. Tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy qarovsiz ahvolga tushishlari sabablarini tahlil qilish.

2. Bolalar va o'smirlarga ko'nika olishlari uchun ijtimoiy pedagogik yordam ko'rsatish.

3. Barcha tarbiyalanuvchilarni ularga qiziqishlarini ijtimoiy foydali faoliyatga jalb qilish.

4. Tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy maqomini tiklashi uchun pedagogik kollektiv xarakterlarini tartibga solish.

5. Turli sotsial institutlar vakillari bilan o'zaro munosabatga kirishganda bolalar huquqlarini himoya qilish.

Ijtimoiy pedagog faoliyatining **mazmuni**.

1. Tarbiyachilarning tavakkal guruhini aniqlash.
2. Bolalarning ruhiy-tibbiy va pedagogik xususiyatlarini o'rganish
3. Olingan natijalarni tahlil qilish. Bola rivojlanishi dinamikasini kuzatish.
4. Ijtimoiylashuv bilan bog'liq muammolarni echish uchun individual-korreksion dasturlarni ishlab chiqish.
5. Nazorat tashxisi o'tkazish.
6. Deviant bolalar va o'smirlar bilan ishlash.
7. Nogiron bolalar bilan ishlash.
8. Oilada bolaga konsultatsion yordam ko'rsatish.
9. Bolalar huquqlarini himoya qilish.

Ijtimoiy pedagogning bolalarning ijtimoiy adaptatsiyasi boyicha faoliyati dasturi.

Maqsadi: internat muassasi sharoitlarida shaxs rivojlanishi uchun ijtimoiy pedagogik sharoitlar yaratish.

Faoliyat ob'ekti: tarbiyalanuvchilar.

Vazifalari:

1. Dezadaptatsiya qilingan bolalarni aniqlash.
2. Bolalarning ijtimoiy dezadaptatsiyasi manbalari va sabablarini aniqlash.
3. Maktab va oilaviy nizolarni engib o'tish boyicha ijtimoiy pedagogik reabilitatsiyasi dasturlarini ishlab chiqish va ta'minlash, bolalar xulq-atvorlarini tuzatish, ularni o'quv faoliyati sub'ekti sifatidagi maqomlarini tiklash.
4. Reabilitatsion chora-tadbirlarning davomiyligi.
5. Bola mikromuhitida inqirozli holatni bartaraf etishda maslahat yoki boshqa yordam berish.
6. Bolalarning keyingi taqdirini hal qilishda bu masala bilan qiziqqan shaxslar bilan hamkorlik o'rnatish, ularning keyingi tarbiyalarining optimal variantini ishlab chiqish.

Kutilayotgan natija: shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi sifatida tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy adaptatsiyasi.

Savollar:

1. “Vasiylik”, “bolalikka olish”, “qaramog’iga olish” tushunchalariga ta’rif bering.
2. Qabul qiluvchi oila deganda nimani tushunasiz?
3. Ijtimoiy pedagogning qabul qiluvchi oila bilan ishlashining asosiy metodlari qaysilar?
4. Ijtimoiy pedagogning go’daklar uyidagi faoliyatining xususiyatlarini ta’riflang.
5. Ijtimoiy pedagogning bolalar uyi va internatdagi faoliyatining mazmunini bayon eting.

Adabiyotlar:

- Semeynyy kodeks Respubliki Uzbekistan. – T.: Adolat, 1998.
- Sbornik zakonodatelstv Respubliki Uzbekistan po voprosam zaщity materinstva i detstva. – T., 2004.
- Ocherki o razviti detey, ostavshixsya bez roditelskogo popecheniya /Pod red. M.N.Lazutovoy. – M., 1995.
- Lixanov A.A. Deti bez roditeley: Kn.dlya uchitelY. – M., 1987.
- Vasilkova Y.V., Vasilkova T.A. Sotsialnaya pedagogika. – M.: Akademiya, 2003.
- Ovcharova R.V. Spravochnaya kniga sotsialnogo pedagoga. – M.: TTS Sfera, 2002.
- Ozdorovitelnaya i vospitatelnaya rabota v dome rebenka. – M.: Prosvещenie, 1989.

NORMADAN OG'ISH VA DEVIATSIYA IJTIMOIIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.

Ijtimoiy pedagogikada norma va normadan chetga chiqish qoidalari. Har qanday jamiyatda, u jamiyat qaysi rivojlanish bosqichida bo'lishidan qat'iy nazar, doimiy e'tiborga muhtoj odamlar bor. Bular o'z jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida chetga chiqish, og'ish bor bo'lgan odamlardir. Bunaqa odamlar doim bir guruh bo'lib ajralishgan, jamiyat va davlatda ularga nisbatan alohida munosabat shakllangan.

Zamonaviy AQSH va Evropa davlatlarida u yoki bu og'ishlarga ega jamiyatga integratsiyalashuvi kontseptsiyasi amalga oshirilmoqda. U kontseptsiyaga ko'ra bu odamlar ham jamiyatning teng huquqli, biroq ba'zi bir muammo yoki cheklangan imkoniyatlarga ega a'zosi sifatida ko'riladi.

Hozirda cheklangan imkoniyatli shaxslar soni butun dunyoda shu jumladan, O'zbekistonda ham ortib borayotgani sababli, bu muammo yanada jiddiylashmoqda. Shuning uchun bunaqa odamlar avalambor bolalarning ko'payishini rejali ijtimoiy hal qilishni talab qiluvchi doimiy omil sifatida qarash lozim.

Tibbiyot, psixologiya, sotsiologiyada "norma"ning o'z ko'rsatkichlari, o'z me'yorlari mavjud. Normaga mos kelmaydigan jihatni-"og'ish", "chetga chiqish" deyishadi.

Ijtimoiy pedagogika uchun "norma" va "normadan og'ish" tushunchalari nihoyatda ahamiyatlidir. Ular bola xulq-atvori va rivojlanish jarayonini xarakterlash uchun qo'llanadi.

Og'ish ham ijobiy ham salbiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Masalan, bola rivojlanishida aqliy qoloqlik ham, qobiliyatlilik ham normadan og'ish hisoblanadi. Xulq-atvordagi jinoyatchilik, aroqxo'rlik, giyohvandlik va boshqa salbiy og'ishlar ham shaxsning ijtimoiy shakllanish jarayoniga ham jamiyat rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Og'ish turlari. Normadan chetga chiqishni shartli ravishda 4 guruhga ajratsak bo'ladi: jismoniy, ruhiy, pedagogik va sotsiologik. Ularni batafsil o'rganib chiqsak.

Normadan jismoniy og'ish avvalambor inson sog'ligiga bog'liq. Sog'liqdagi og'ish yoki irsiy omillar yoki biror-bir tashqi holatlar: og'ir ekologik holat, ichimlik suvining qoniqarsiz sifati, oila hayoti darajasining pasayishi va boshqalar asosida yuzaga kelishi mumkin.

Sog'ligida va rivojlanishida og'ishga moyillarning ko'p tasniflari mavjud. Umumjahon sog'liqni saqlash tashkiloti 1980 yilda cheklangan imkoniyatlarning uch zvenosi shkalasining britancha variantini qabul qildi:

kasallik, xastalik-ruhiy yoki fiziologik funktsiyalar, anatomik struktura elementlarini har qanday yo'qotish yoki ularning anomaliyasi;
cheklangan imkoniyat-inson uchun norma hisoblangan chegarada biror-bir faoliyatni bajarish qobiliyatini yoqotish yoki cheklab qoyish;
nogironlik-yosh, jins yoki ijtimoiy omillardan kelib chiqib insonning birov-bir faoliyatini bajarishni cheklovchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi cheklangan imkoniyat.

G'arb davlatlarida "sog'liqning cheklangan imkoniyatlariga ega shaxs" tushunchasi mavjud. Ularga ta'lim standartlarini o'zlashtirishga to'sqinlik qiluvchi jismoniy yoki ruhiy kamchiliklarga ega bolalar kiradi. Shuningdek, nuqson tushunchasi ham mavjud bo'lib, uning 4 turi-ruhiy, jismoniy, murakkab va og'ir turlari mavjud.

Jismoniy nuqsonlarga – inson organining faoliyat yurgizishga yoki rivojlanishidagi doimiy yoki vaqtinchalik kamchiliklar, shuningdek, har qanday somatik yoki yuqumli xastaliklar kiradi.

Ruhiy nuqsonlarga – insonning ruhiy rivojlanishidagi doimiy yoki vaqtinchalik kamchilik kiradi. Bularga nutq buzilishi, miya faoliyati, shuningdek, aqliy rivojlanishning buzilishlari kiradi.

Murakkab nuqson belgilangan tartibda tasdiqlangan jismoniy va ruhiy kamchiliklarni o'zida mujassam etadi.

Og'ir nuqson – belgilangan tartibda tasdiqlangan shunaqa nuqsonki, bu nuqson mavjud bo'lgan holatda davlat ta'lim standartlariga mos ravishda ta'lim olishning umuman iloji yo'q.

Bola jismoniy rivojlanishidagi og'ishlarga kasallik, ko'rish, eshitish qobiliyatlarining buzilishlari kiradi. Normadan ruhiy og'ishlar, avvalambor, bolaning aqliy rivojlanishi, uning ruhiy nuqsonlariga bog'liqdir. Bu turdagi og'ishlarga avvalambor ruhiy rivojlanishning to'xtab qolishi, bolalarning aqliy jihatdan ortda qolishi kiradi. Aqliy qoloqlik asab tizimining tug'ma nuqsonlari yoki jarohat asosida paydo bo'ladi. Bolalarda aqliy qoloqlik turli darajada-engil aqliy zaiflikdan, chuqur-tentaklikkacha namoyon bo'ladi.

Ruhiy og'ishlarga turli darajadagi nutq buzilishlari ham kiradi. Ruhiy og'ishlarning yana bir turi emotsion faoliyatining buzilishidir. Bu og'ish turining eng og'ir shakllari deb autizm-muloqotga ehtiyoj sezmaslik va suitsid (o'z-o'zini o'ldirish)larni keltirsak bo'ladi.

Bolalarning iqtidorliligi alohida og'ish turi hisoblanadi. Bu biror-bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlab beruvchi qobiliyatlarning o'ziga xos uyg'unligidir. Iqtidorlilik darajasi nafaqat qobiliyatlarga qarab balki, faoliyat mahsullari xarakteriga qarab, ham belgilanadi.

Pedagogik og'ishlar tushunchasi pedagogika va ijtimoiy pedagogikada hozircha kam qo'llaniladigan tushunchadir. Vaholanki, pedagogik faoliyatda pedagogik maqsadlarni amalga oshirish, shaxs rivojlanishi uchun sharoitlar yaratib berish uchun ta'lim olayotganlar faoliyatini tartibga solganidan turli normalar qo'llanmoqda. Avvalambor, bu ta'lim darajasini belgilaydigan standartlarga, shuningdek o'quvchi intilayotgan maqsadlarga tegishli. Bularga yana ta'lim olishda yuqori natijalarni ta'minlab beruvchi bola rivojlanishining normalarini ham kiritsak bo'ladi.

Ta'lim olinishi yoki olinmasligi normalari haqida nihoyatda aniqlik bilan gapirsa bo'ladi. So'nggi yillarda turli sabablarga ko'ra ta'lim ololmagan bolalar ham paydo bo'ldilar. Normadan bunaqa og'ishlarni pedagogik og'ish desak bo'ladi. Umumiy ta'lim olmagan bolalarni alohida toifaga kiritamiz. Bular

maktabga bormaydigan, faqatgina boshlang'ich maktabni tugatgan, umumiy o'rta ta'lim olmagan bolalardir. Bunaqa holatlarni yuzaga kelishi uchun bizning davlatda sabablar talaygina: dars qoldirish o'qishga intilishni susaytiradi, oiladagi notinch vaziyat bolani pul topish uchun ko'chaga chiqaradi, ekologik va ijtimoiy **kataklizmlar** bolalar ota-onalaridan judo bo'lishlariga olib keladi. Daydilikka moyilligi bo'lgan bolalar soni ham ko'paymoqda. Bolalar maktablarda tahsil olishmayotganining yana bir qancha sabablarini keltirsak bo'ladi.

Ruhiy va jismoniy rivojlanishda og'ishga ega bo'lgan bolalarning ta'lim olishlaridagi katta qiyinchiliklarini ham ta'kidlab o'tish joiz. Yuqorida aytilganidek, bunday bolalar uchun alohida maktablar bo'lib, u erda ular professional mutaxassislar qo'l ostida ta'lim olishadi. Biroq ko'p narsa bola qaerda yashashligiga -qishloq yoki shaharda, qanaqa oiladan ekanligiga bog'liq. Ba'zi sog'ligida muammosi bor bolalar uchun ta'lim uyda individual tarzda o'tiladi.

Bu bolalarning jamiyatga integratsiyalashuvining asosiy muammosi ularning keyinchalik professional ta'lim olishlari bilan bog'liq.

O'z ijtimoiy rivojlanishlarining buzilib bo'lganligi sababli biror-bir kasbiy faoliyatni tanlay olmaydigan bolalarni ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Bu bolalarni biror-bir ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat sohasida o'zlarini sinab ko'rish xohishi yo'qligi birlashtiradi. Bu holatda bu og'ishni engib o'tish uchun mutaxassisning ijtimoiy pedagogik yordamiga muhtoj bolalar ham paydo bo'lishadi.

Ijtimoiy og'ishlar " ijtimoiy norma" tushunchasi bilan bog'liqdir. Ijtimoiy norma bu insonlar yoki ijtimoiy guruhlar faoliyati yoki xulq-atvorining jamiyat rivojlanishining biror-bir bosqichida shakllangan yoki rasman o'rnatilgan qoidalari namunasidir. Aslida ijtimoiy norma kerakli xulq-atvor, ijtimoiy munosabatlar va faoliyatlar modeli hisoblanadi.

Bolalar uchun ijtimoiy normalarning o'ziga xos xususiyati shuki, ular tarbiya omili hisoblanib, uning jarayoni ijtimoiy norma va qadriyatlarni o'zlashtirish, ijtimoiy muhitga kirish, ijtimoiy tajriba va rollarni o'zlashtirish sodir bo'ladi._Bu holatda tarbiyaning boshqarish funksiyasi eng

muhim vazifani bajaradi, chunki uning vazifasi bolalar ongi va xulq-atvoriga ta'sir qiluvchi omillarni kerakli tarbiyaviy effekt ta'minlanadigan darajada tashkil qilishdir.

Sotsiologik, psixologik va pedagogik adabiyotlarda deviant xulq-atvoriga ega bolalar muammolari ustida etarli ish olib borilgan.

Bunday xulq-atvorning sabablari ham yaxshi o'rganib chiqilgan. Ular o'smirlik davrining qiyinchiliklari, jamiyatdagi ijtimoiy maqomning noaniqligi, davlat rivojlanishining beqarorligi, bola mustaqil chiqib keta olmaydigan ekstremal holatlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq.

Bu bolalarga yordam ko'rsatish uchun ixtisoslashgan ijtimoiy xizmatlar tuzilmoqda. Ijtimoiy xavfli xatti-harakat sodir etgan va 11 yoshga to'lgan bolalarni sud tibbiy-pedagogik komissiyasi xulosani inobatga olgan holda maxsus maktablar yoki maxsus kasbiy bilim yurtlariga yuborishlari mumkin.

M. A. Galaguzova tomonidan turli og'ish turlarining tasnifi quyidagicha berilgan:

6-jadval.

Jismoniy	Ruhiy	Pedagogik	ijtimoiy
1) kasallik;	4) ruhiy rivojlanishning	8) umumiy o'rta	10) etimlik;
2) ko'rish qobiliyatining buzilishi;	5) aqliy qoloqlik;	9) kasbiy ta'lim olishdan chetga chiqish;	11) xulq-atvor normasidan og'ish;
3) eshiti sh qobiliyatining buzilishi.	6) nutq buzilishi;	9) kasbiy ta'lim olishdan chetga chiqish.	12) norozilik;
	7) iqtidorlik.		13) takasikomaniya;
			14) foxi

			shabozlik; 15) day dilik va b.
--	--	--	--------------------------------------

Ijtimoiy pedagogning og'ish xulq-atvorli bolalar bilan ish yuritishi og'ishlar profilaktikasi, muayyan norma va qoidalarni buzishning oldini olish, shuningdek xulq-atvorida u yoki bu og'ish aniqlangan bolalarning reabilitatsiyasiga qaratilishi lozim.

Savollar:

1. Nima uchun ijtimoiy pedagogikada “norma” va “normadan og'ish” tushunchalari o'rganiladi?
2. Bolalarda normadan og'ishning sababi nimada?
3. Normadan pedagogik og'ish deganda nima tushuniladi?
4. “ Ijtimoiy og'ish” tushunchasining mohiyati nimada?
5. Normadan og'ishning qaysi nazariyalarini bilasiz?

Adabiyotlar:

- Deti s otkloneniyami v razvitii: Metod.posobie dlya pedagogov, vospitateley massovыx i spets.uchrejdeniy i roditeley. – M., 1997.
- Kleyberg Y.A. Sotsialные нормы i otkloneniY. – M., 1997.
- Korreksionnaya pedagogika: Ucheb.posobie. – M., 1998.
- Sotsialnaya dezadaptatsiya: narusheniya povedeniya u detey i podrostkov. – M., 1996.
- Em Z.B. Osobennosti obucheniya i vospitaniya umstvenno otstalыx detey. – T.: Ukituvchi, 1985.

DEVIANT XULQ-ATVOR BOLALAR BILAN IJTIMOIIY PEDAGOGIK FAOLIYAT YURITISH.

Deviatsiya va uning turlari. Odatda deviatsiyalar o'spirinlik davrida yuzaga keladi. O'spirinlik davri yoshlik davrlari ichida eng murakkabidir. Uni o'tish davri ham deb atashadi, chunki bu davr mobaynida bolalikdan yigitlikka o'tish roy beradi va bu jarayon o'smir rivojlanishining barcha jihatlarini-anatomik-fiziologik tuzilishi, aqliy, axloqiy rivojlanishida o'z ta'sirini ko'rsatadi.

O'smirlik davrida o'smir hayoti va faoliyatida jiddiy o'zgarishlar roy beradi, bu esa o'z navbatida ruhiyatning qayta shakllanishiga, tengdoshlari bilan munosabatlarning yangi shakllari paydo bo'lishiga olib keladi. O'smirning ijtimoiy maqomi o'zgaradi. Unga nisbatan kattalar tomonidan yanada jiddiyroq talablar qoyila boshlaydi.

Jamiyatda qabul qilingan qoidalar, xulq-atvor normalaridan chetga chiqqan o'smirlarni qiyin o'smir yoki qiyin tarbiyalanadigan o'smir deyishadi. Qiyin tarbiyalanish deganda pedagogik ta'sirga qarshilik ko'rsatish tushuniladi. O'smirning qiyin tarbiyalanishi, u tomonidan qabul qilingan norma va qoidalarga amal qilinmasligini fanda deviatsiya hodisasi orqali o'rganiladi.

Deviatsiya (og'ish) ham insonga, ham uni o'rab turgan olamga xos bo'lgan o'zgaruvchanlik hodisasining jihatlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy sohada o'zgaruvchanlik hodisasining jihatlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy sohada o'zgaruvchanlik faoliyatga bog'liq va insonning atrofdagilar bilan o'zaro munosabatini aks ettiradigan xulq-atvorida o'z ifodasini topadi. Avval aytib o'tganimizdek, xulq-atvor norma va chetga chiqqan bo'ladi.

O'smirning normal xulq-atvori uning bilan ijtimoiylashuvi rivojlanishi ehtiyojlariga mos tushuvchi mikrosotsium o'zaro munosabati. Agar bolani atrofdagilari o'smirning u yoki bu xususiyatlariga o'z vaqtida e'tibor qaratishsa, uning xulq-atvori doimo normal bo'ladi.

Bundan kelib chiqadiki, me'yordan chetga chiqqan xulq-atvorni jamiyat rivoji va tsivilizatsiyasini bola shaxsiyatining xususiyatlarini inobatga olmaslik oqibatida

buzilishiga olib keluvchi bolaning jamiyat bilan munosabati sifatida tushunsak bo'ladi.

Aftidan chetga chiquvchi xulq-atvor ijtimoiy dezadaptatsiya ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Bolalar va o'smirlar dezadaptatsiyasi haqida gapirganda bu jarayonga giriftor bo'lgan bolalar toifalarini aniqlab olish lozim:

maktabga qatnamaydigan maktab yoshidagi bolalar;

etim bolalar;

ijtimoiy etimlar, bolalar uylarida joylar etishmasligi sababli ular oylab o'z navbatlarini ota-onalik huquqidan mahrum etilgan ota-onalari bilan yashagan holda kutishadi. Shu bilan birga ular tuzuk ovqatlanishmaydi, jismoniy, ruhiy, jinsiy qiynoqlarga duchor bo'lishadi;

giyohvand va toksin moddalar iste'mol qiluvchi bolalar;

jinsiy intizomsiz bolalar;

g'ayriqonuniy hatti-harakatlar sodir etgan bolalar. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra ularning soni kattalarga qaraganda ikki hissa tez oshmoqda.

Deviatsiya deviant, delikvent va jinoiy xulq-atvordan iborat.

Deviant xulq-atvor – mikro ijtimoiy munosabatlar (oilaviy, maktabdagi munosabatlar) va kichik ijtimoiy guruhlariga xos bo'lgan ijtimoiy normalar va xulq-atvor qoidalarini buzish bilan bog'liq me'yordan og'uvchi xulq-atvor turlaridan biridir. Bu xulq-atvorni g'ayriintizomiy deb atasak ham bo'ladi. Deviant xulq-atvorning yorqin namoyon bo'lishiga namoyish, agressiya, chaqiruv, o'qishdan qochish va daydilik, boalar va o'smirlarning aroqxo'rlik, giyohvandlik va u bilan bog'liq asotsial harakatlar, jinsiy xarakterdagi asotsial hatti-harakatlar, o'ziga suiqasd qilishga urinishlarni misol qilib keltirsak bo'ladi.

Delinkvent xulq-atvor deviantdan farqli ravishda bolalar va o'smirlarning takrorlanib turuvchi asotsial hatti-harakatlar sifatida xarakterlanadi. Bu harakatlar huquqiy normalarni buzuvchi, biroq ijtimoiy xavf darajasiga ko'ra jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarmaydigan muayyan harakatlar majmuasiga aylanadi.

Delikvent xulq-atvorning quyidagi turlari mavjud:

agressiv xulq-atvor, bunga haqoratlash, sadistik harakatlar, o't qoyish kabilar kiradi;

g'arazli xulq-atvor: kichik o'g'riliklar, ta'magirlik, avtoulavlarni olib qochish va moddiy daromad olish maqsadidagi boshqa mulkiy tajovuzlar;

giyohvand moddalarni etishtirish va tarqatish.

Delikvent xulq-atvor nafaqat tashqi jihatdan, balki ichki-shaxsiy xulq-atvorda ham namoyon bo'ladi. YA'ni bunda o'smirda ichki tartibga solish tizimini nazorat qilishni susayishiga olib keluvchi qadriyatlarining o'zgarishi roy beradi.

Jinoiy hatti-harakat jinoiy javobgarlikka tortishga, ma'lum yoshga etganda jinoiy ish qo'zg'ashga sabab bo'luvchi va jinoyat kodeksining muayyan moddalarida nazarda tutilgan g'ayrihuquqiy hatti-harakatlar hisoblanadi.

Deviatsiyaning salbiy turlari ijtimoiy potologiya hisoblanadi. Bularga aroqxo'rlik, toksikomaniya, giyohvandlik, fohishabozlik, o'z joniga qasd qilish, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni kiritsak bo'ladi. Ular tizimni barbod etishadi, uning asoslariga putur etkazishadi va anchagina zarar keltirishadi.

O'smirlarning deviant xulq-atvori sabablari. Me'yordan chetga chiquvchi xulq-atvor murakkab tabiatga ega bo'lib, turli xil omillar bilan izohlanadi. Voyaga etmaganlarning deviant xulq-atvorini keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilardir:

1. **Biologik omillar** bola organizmida uning ijtimoiy adaptatsiyasini qiyinlashtiruvchi fiziologik yoki anotomik xususiyatlarning borligida o'z ifodasini topadi. Ularga quyidagilar kiradi:

irsiy xususiyatlar;

aqliy rivojlanishning buzilishi, eshitish va ko'rishning susayishi, asab tizimining zararlanishi va boshqalar;

organizmga psixofiziologik zo'r berish, nizoli holatlar, atrof-muhitning kimyoviy tarkibi, turli somatik, allergik, toksik kasallanishlarga olib keluvchi, ya'ni quvvat manbalari bilan bog'liq bo'lgan psixofiziologik xususiyatlar.

2. **Psixologik omillar.** Bularga bolada psixopatologiya yoki xarakterining aktsetkatsiyasining borligi kiradi. Bu me'yordan chetga chiqishlar asab kasalliklari,

psixopatiya, nevrosteniya va bolada g'ayriadekvant reaksiyalarni paydo qiluvchi boshqa omillarda namoyon bo'ladi.

Yorqin namoyon bo'lgan psixopatiyaga (tentaklik) ega bolalar psixiatrlar yordamiga muhtojlar.

Ruhiy me'yorning eng keskin varianti hisoblanmish aktsentuatsiyaga ega bolalar psixologik ta'sirlar uchun nihoyatda qaltis hisoblanadilar va ijtimoiy-tibbiy reabilitatsiyaga ehtiyoj sezadilar.

Bola rivojlanishining har bir davrida shaxsiyat va xarakterning ba'zi ruhiy hislatlari shakllanadi. O'smirda ruhiyat rivojlanishining ikki bosqichi kuzatiladi: yoki u yashaydigan ijtimoiy muhitdan bezib qoladi, yoki ko'nikib ketadi. Agar oilada bola ota-onasi tomonidan etarli mehr his qilmasa unda bu holatda uning himoya vositasi vazifasini begonalashuv bajaradi. Bu begonalashuv asabiy reaksiyalar, atrofdagilar bilna munosabatlarning buzilishi, emotsional sovuqlik, psixik rivojlanishning to'xtab qolishi, turli ruhiy patalogilarda namoyon bo'ladi.

O'smirlarga xos bo'lga rad etish, qarshi chiqish kabi hislatlar odatda bir-biriga emotsional bog'liq bo'lgan oilaviy munosabatlarning oqibati hisoblanadi.

O'smir axloqiy qadriyatlari tizimining shakllanmaganligi holatida uning qiziqishlari g'arazli xarakter kasb eta boshlaydi. Bunaqa o'smirlarga infantilizm, ko'ngilochar hikoyalar xosdir.

3. Ijtimoiy-pedagogik omillar maktab, oila va ijtimoiy tarbiya nuqsonlarida namoyon bo'lib, uning asosida yoshlik chog'ida salbiy tajriba to'planishligi bilan bolaning erta ijtimoiylashuvidagi og'ishlarga olib keluvchi yosh, jinsiy va individual xususiyatlar yotadi. Bunaqa bolalar avvalambor maktabda yomon tayyorlanishgan bo'lishadi, uy vazifalariga mas'uliyatsizlik bilan qarashadi, maktab baholariga befarqliklarini bildirishadi. Bu esa ularning o'quv dezadaptatsiyasidan dalolat beradi.

Maktab o'quvchisining dezadaptatsiyasi o'z rivojlanishida quyidagi bosqichlardan o'tadi:

o'quv dekompensatsiyasi – bola bir yoki bir nechta fanlarni o'zlashtirishida qayinchiliklra paydo bo'lishi bilan xarakterlanadigan holat;

maktab dezadaptatsiyasi – o'qish jarayonidagi qiyinchiliklar bilan bir qatorda o'qituvchilar, sinfdoshlar bilan nizolashishda namoyon bo'ladigan, xulq-atvor buzilishi bilan xarakterlanadigan bola holati;

ijtimoiy dezadaptatsiya – bu holatda o'qishga, maktab jamoasiga qiziqish batamom so'nadi, giyohvandlik, spirtli ichimliklarga qiziqish kuchayadi;

bo'sh vaqtni o'tkazish muhitining kriminallashuvi.

Bolaning psixosozial rivojida me'yordan chiqishning yana bir muhim omili noxush oila hisoblanadi. Voyaga etmagan bolalarda asosiy xulq-atvorni shakllanishiga olib keladigan oilaviy munosabatlar turlarini ajratib ko'rsatish ham muhim ahamiyatga ega. Ular:

o'zida bir tomondan bola xohishlariga erk berish, boshqa tomondan esa bolani nizoli vaziyatlarga undashni yoki oilada ikki axloq-oila uchun yurish-turish qoidalari, jamiyat uchun umuman boshqa qoidalarini mujassam etgan tariyaviy munosabatlar turi;

to'liqsiz oilada, bolalar va ota-onalarning uzoq muddat ayri yashashlari sharoitida tarbiyaviy ta'sirlarning beqaror turi;

spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar iste'moli, g'ayriaxloqiy hayot tarzi, ota-onalarning jinoiy xulq-atvori bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar turi.

SHafqatsiz muomala (haqorat) deb bolaga g'amxo'rlik qiluvchi yoki unga vasiylik qiluvchilar tomonidan unga zarar keltiruvchi harakatlarga aytiladi.

Bolaning ruhiy-ijtimoiy rivojlanishiga oila va uning ta'sirini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, aksariyat bolalarda ijtimoiylashuv shartlari buziladi. Ularning bir qismi devyatsiya holatiga olib boruvchi turli jismoniy va ruhiy xavflar ostida yashashadi, boshqalari esa jinoiy faoliyatlarga aralashib qolishgan.

4. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ijtimoiy tengsizlik, jamiyatning boylar va kambag'allarga sinflashishi, aholi ko'p qismining kambag'allashib ketishi, ishsizlik, inflyatsiya, daromad olish usullarining cheklab qoyilishidan iborat.

5. Axloqiy omillar bir tomondan zamonaviy jamiyatning past axloqiy darajasida, qadriyatlarining yo'qolib ketishida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan

esa jamiyatning deviant xulq-atvorning namoyon bo'lishiga befarq qarashida o'z aksini topadi.

Deviant xulq-atvorli bolalar bilan ijtimoiy-pedagogik amaliyot yuritish.

O'smirlar deviant xulq-atvorining profilaktikasi. O'smirlik yoshida deviatsiya namoyon bo'lishining tinimisiz oshib borishi ijtimoiy pedagog oldida bu o'smirlar bilan ishlashning yangi usullari, texnologiyalarini izlash va ularga tadbiq etish vazifasini qoyadi. Ilmiy nazariy va amaliyotda ikki asosiy texnologiya-profilaktika va reabilitatsiya keng tarqalgan.

Profilaktika – o'smirlar xulq-atvorida ijtimoiy normalardan og'ishning turli shakllarini keltirib chiqaruvchi asosiy sabab va sharoitlarni bartaraf etishga qaratilga ijtimoiy, tibbiy, tashkiliy, tarbiyaviy va davlat tadbirlarining majmuasidir. U asosan bolani o'rab turuvchi muhitga bog'liq bo'ladi.

Profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirayotganda ijtimoiy pedagog quyidagi qoidalarga suyanadi:

1. Ijtimoiy-madaniy normani o'zlashtirish shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida amalga oshadi. Qadriyatlar, g'oyalar va boshqa ramqiy tizimlar majmuasini o'zlashtirmay inson jamiyatning to'la qonli a'zosi sifatida faoliyat yurita olmaydi.
2. Ijtimoiy madaniy normaning muxolifi bolalarning ijtimoiy madaniy va pedagogik qarovsizligi bo'lib, u nafaqat bola rivojining g'ayrinormal alomati, balki uning zimmasiga anomal ijtimoiy holatlarni yuklatishning natijasi sifatida qaraladi.
3. Bolalar qarovsizligining profilaktikasi nafaqat mavhum ijtimoiy madaniy normadan, balki muayyan sharoitda yashashga majbur bo'lgan boladan kelib chiqishi lozim.
4. Bola reabilitatsiyasi faoliyat sub'ekti, ijtimoiy sub'ekt va shaxs darajasida amalga oshirilishi kerak.

“Profilaktika” atamasi o'zi noxush oqibatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etish ma'nosini bildiradi.

Ijtimoiy og'ishlar turli sabab va holatlardan kelib chiqishini inobatga olsak, profilaktik chora-tadbirlarning bir nechta turlarini ajratsa bo'ladi:

neytrallashtiruvchi;

o'rmini to'ldiruvchi;

ijtimoiy og'ishlarga sabab bo'luvchi holatlarni yuzaga kelishidan ogohlantiruvchi;

bu holatlarni bartaraf etuvchi;

o'tkaziladigan profilaktika ishlarini nazorat qiluvchi.

Ijtimoiy pedagogning o'smirlar bilan profilaktika ishlari olib borishiga bir nechta yondashuvlar mavjud:

Informatsion yondashuv-voyaga etmagan shaxslar ularga davlat va jamiyat tomonidan axloqiy normalarni bajarishga taqdim etilgan huquq va majburiyatlardan xabardor qilinadilar.

Ijtimoiy profilaktik yondashuv. Bunda asosiy maqsad negativ hodisalarni aniqlash, bartaraf etish va neytrallashtirishdir. Bu yondashuvning mohiyati davlat, jamiyat, muayyan ijtimoiy pedagogik muassasa, ijtimoiy pedagog tomonidan deviant xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, tashkiliy, huquqiy va tarbiyaviy chora tadbirlarni o'tkazishdan iborat.

Tibbiy-biologik yondashuvning mohiyati esa ijtimoiy normalardan ehtimoliy og'ishlarni turli ruhiy anomaliyalar bilan aziyat chekuvchi shaxslarga nisbatan davlat profilaktik xarakterdagi choralar vositasida oldini olish hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogik yondashuv deviant xulq-atvorga ega o'smirning ijobiy xislatlarini tiklashda namoyon bo'ladi.

Deviant xulq-atvorga ega bolalarning ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiyasi.

Ijtimoiy pedagogning dezadaptatsiya bo'lgan o'smirlar bilan ishlashining boshqa bir texnologiyasi ularning rehabilitatsiyasi hisoblanadi. Rehabilitatsiya keng turdagi vazifalar, elementar ko'nikmalardan tortib insonning jamiyatda to'liq integratsiyalashuvigacha bo'lgan masalalarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi sifatida qaralishi mumkin.

Rehabilitatsiya ob'ektlari quyidagilar:

1. Ijtimoiy va pedagogik qarovsiz bolalar.

Tavakkal guruhidagi bolalarning eng tarqalgan toifasi bo'lib, ularning qiyin tarbiyalanishi ruhiy pedagogik sabablar bilan izohlanadi. Qarovsizlikning asosiy belgilari deb etakchilik faoliyatidagi kamchiliklar, xulq-atvorda chetga og'ish, ijtimoiy adaptatsiya qiyinchiliklarini aytsak bo'ladi. Bu bolalar va o'smirlar faoliyatning to'la qonli sub'ekti bo'lmaganliklar uchun ularga asosiy yordamni pedagog, psixolog va ota-onalar ko'rsatishlari mumkin.

2. Voyaga etmagan huquqbuzarlar, etim bolalar, xulq-atvorida chetga og'ish bo'lgan o'smirlar.

Bu toifaga avvlambor ijtimoiy adaptatsiyada, ijtimoiy rollarni egallashda yordam ko'rsatish lozim.

Reabilitatsiyaning asosiy sub'ekti ijtimoiy pedagog bo'lib, u yuqorida sanab o'tilga funktsiyalarni bajara olishi, o'smirlar va bolalarga psixologik yordam ko'rsata olishi lozim.

3. Psixosomatik va nerv-psixologik sog'ligi buzilgan va funktsional og'ishlarga ega bolalar:

surunkali somatik kasalliklar,
funktsional buzilishlar,
asab-ruhiy hastaliklar,
aqliy qoloqlik,
nogironlik.

Bu toifa bolalar avvalambor tibbiy va ruhiy reabilitatsiyaga ehtiyoj sezadilar. Uning sub'ektlari shifokorlar va psixologlar bo'lib, ular shuningdek pedagog va ijtimoiy ishchilar bilan hamkorlikda kompleks reabilitatsiyani ham o'tkazishlari mumkin.

Reabilitatsion yordam xarakteri:

kechikkan yordamdan profilaktik yordamga o'tish,
jazolovchi yordamdan ayovchi yordamga o'tish,
tasodifiy yordamdan kafolatlangan va kompleks yordamga o'tish,
anonim yordamdan shaxsiy yordamga o'tish.

Adaptatsiyadan farqli o'laroq rehabilitatsiya tiklanish, faollashtirish sifatida tushuniladi. Rehabilitatsiya jarayonida o'rnini to'ldiruvchi mexanizm mavjud nuqsonni engib o'tish uchun qo'llanadi, adaptatsiya jarayonida esa u mavjud nuqsonga ko'nikish maqsadida qo'llanadi.

Demak, rehabilitatsiya bu bolani jamiyatdagi faol hayotga va ijtimoiy foydali mehnatga qaytarish maqsadidagi chora-tadbirlar tizimidir.

Rehabilitatsiyaning bir qancha turlari mavjud: tibbiy, psixologik, pedagogik, ijtimoiy-iqtisodiy, kasbiy, maishiy.

Tibbiy rehabilitatsiya bola organizmining u yoki bu yo'qotilgan funksiyasini o'rnini to'ldirish yoki to'liq va qisman tiklashga qaratilgan bo'ladi.

Ruhiy rehabilitatsiya o'smirning ruhiy sohasiga qaratilgan bo'lib, uning maqsadi deviant xulq-atvorli bola ongida uning hech kimga kerakmasligi haqidagi tasavvurni engib o'tishdir.

Kasbiy rehabilitatsiya o'smirni biror-bir kasbga o'rgatish, u uchun engillashtirilgan sharoitli va qisqartirilgan ish kuniga ega ish joylarini qidirishdan iborat.

Maishiy rehabilitatsiya o'smir uchun normal yashash sharoitlarini yaratishga qaratiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rehabilitatsiya deganda esa o'smir huquq va manfaatlarini himoya qilish, unga tegishli bo'lgan moddiy mulklar, to'lovlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tushuniladi.

Ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya – bola hayotiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega shaxsiy xislatlarni, uning jamiyat integratsiyasiga yordam beruvchi faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish, ijobiy rollarni, jamiyatda yurish-turish qoidalarini o'zlashtirishi, kerakli ma'lumot olishga qaratilgan tarbiyaviy xarakterdagi chora-tadbirlardir.

Ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya muassasalarining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

bolalar va o'smirlarni nazoratsizliklarini oldini olish;

voyaga etmaganlarning ijtimoiy dezadaptatsiyasilarining sabablari va manbalarini aniqlash;

kasbiy, o'quv, ijtimoiy-madaniy, sog'lomlashtirish va boshqa komponentlardan tashkil topgan bolalar va reabilitatsiyasining individual dasturlarini amalga oshirishini ta'minlash;

uy sharoitlarida reabilitatsion chora-tadbirlarning uzluksizligini ta'minlash uchun dezadaptatsiya bo'lgan bolalar oilalari bilan hamkorlik qilish va tavsiyalar tayyorlash;

nazoratsiz bolalar va o'smirlarning (18 yoshgacha) normal maishiy sharoitlarda vaqtinchalik yashashini ta'minlash (shu jumladan, ularga bepul ovqat tarqatish, tibbiy xizmatlar, ijtimoiy yordam ko'rsatish va b.);

oilada inqirozli vaziyatni bartaraf etish va bolaning o'z oilasiga qaytib kelishi uchun ruhiy, psixokorreksion va boshqa yordam ko'rsatish;

voyaga etmaganlarning keyingi taqdirini hal qilishda ishtirok etish;

boshqa muassasalar bilan hamkorlikda bolalarning keyingi tarbiyasining yanada optimal shakllarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Bu vazifalar ko'lami muassasalar faoliyatini kadrlar bilan ta'minlanishi va muayyan sharoitlarga bog'liq ravishda o'zgarib turishi mumkin.

Muassasalar quyidagi voyaga etmagan shaxslarga xizmat ko'rsatiladi:

- ✓ ijtimoiy reabilitatsiya, shoshilinch ijtimoiy psixokorreksion va tibbiy-psixologik yordamga muhtojlarga;
- ✓ ota-onalari, tengdoshlari, pedagoglar va boshqalar bilan muloqotda qiyinchiliklarga duchor bo'layotganlarga
- ✓ turli sabablarga ko'ra deprivatsiyaga mayli borlarga;
- ✓ noxush oilalarda istiqomat qiluvchilarga;
- ✓ etim bolalar va ota-onasi qaramog'isiz qolgan bolalar uchun (muassasada yashashga rozi bo'lmaganlarga).

Deviant xulq-atvorli o'smirlarning ijtimoiy pedagogik reabilitatsiyasi reabilitatsion markaz deb nomlanuvchi ixtisoslashgan muassasalarda amalga oshiriladi. Bu muassasalarning vazifalari:

nazoratsizlik, daydilik profilaktikasi;
ota-onasi aybi bilan yoki ekstrimal vaziyat tufayli qiyin hayotiy holatga tushib qolgan bolalarga tibbiy-psixologik yordam;
ijobiy ijtimoiy xulq-atvor, atrofdagilar bilan muomala qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
ota-onasi qaramog'isiz qolgan bolalarga nisbatan vasiylik funktsiyalarini bajarish;
shaxsning inqirozli ruhiy holatlarini bartaraf etishga yordam beruvchi ruhiy va pedagogik qo'llab-quvvatlanish;
oilaga qaytib kelishga ruxsat;
normal rivojlanish, ta'lim olish imkoniyati bilan ta'minlash;
ishga jolashtirilishiga g'amxo'rlik qilishdan iborat.

Bu muassasalarda ijtimoiy pedagogik rehabilitatsiya uch asosiy bosqichdan iborat: tashxis qilish rehabilitatsion dasturni yaratish va amalga oshirish, bolaning rehabilitatsiyadan keyingi himoyasi.

Tashxis qilish voyaga etmagan shaxsga emotsional sohasi rivojlanishi, shaxsiy xislatlar, ijtimoiy rollar, kasbiy qiziqishlarning shakllanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan ijtimoiy pedagogik tadqiqotlar o'tkazishni ko'zda tutadi.

Rehabilitatsion dastur har bir bola uchun individual tuzilib, faoliyatning asosiy elementlari-maqsadi, vazifasi, shakllari, vositalari, bosqichlarini o'zida mujassam etadi. Rehabilitatsiya dasturining asosiy maqsadi shaxsning axloqiy qadriyatlarini shakllantirish va to'g'rilash, bolalarga muomala ko'nikmalarini shakllantirishga yordam ko'rsatish.

Rehabilitatsiyadan keyingi himoya bolalarga rehabilitatsiya markazidan chiqqanidan so'ng oila, do'stlar, maktab jamoasi bilan uyg'un munosabatlarni tiklashga yordam beradi.

Qiyin tarbiyalanadigan bolalarning rehabilitatsiya jarayonida tarbiya muassasalari katta ahamiyatga ega.

Ta'lim muassasining rehabilitatsion xizmati umumiy yondashuv asosida funktsional majburiyatlar va kasbiy vakolatlar doirasida o'zaro munosabatga kirishuvchi va bola hamda uning munosabatlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan

o'zaro bog'liq chora-tadbirlar tizimini amalga oshiruvchi mutaxassislar guruhi va pedagogik jamoadir. Maktab reabilitatsiyasi (tibbiy-psixologik-pedagogik) reabilitatsiya xizmati modeli muassasa spetsifikasini ham inobatga oladi.

Bu reabilitatsiya xizmatining asosiy **vazifalari** quyidagilar:
bolalar va o'smirlar rivojlanishidagi o'zgarishlar sabablarini aniqlash;
ularni bartaraf etish vositalarini qidirish;
ta'lim-tarbiya, yashash sharoitlarini optimallashtirish;
normal shaxs rivojlanishiga yordam beruvchi pedagogik jarayonni tashkil qilish;
tavakkal guruhi bolalari va o'smirlarini o'z vaqtida aniqlash;
o'smirlarning ruhiy inqirozini engib o'tish;
maxsus reabilitatsion dasturlarni amalga oshirish orqali muhtojlarga har tomonlama yordam ko'rsatish.

Reabilitatsiyaning asosiy tamoyillari:

mintaqaviy xususiyatlarni, mintaqadagi ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy holatni inobatga olish;
sheriklik;
reabilitatsion chora-tadbirlarning keng qamrovliligi;
ketma-ketlik;
individual, insoniy yondashuv.

Mintaqaviy ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy vaziyatni bilish tamoyili bolalar kontingentlari, muassasalar strukturasini bilishni taqozo etadi.

SHeriklik tamoyili (ijtimoiy pedagog, shifokor, psixolog-bola) barcha psixologik-pedagogik va reabilitatsion chora-tadbirlarni bola shaxsi orqali amalga oshirilishidan iborat.

Keng qamrovlilik tamoyili reabilitatsion dasturni amalga oshirishdagi turli chora-tadbirlar komelksini ko'zda tutadi. Reabilitatsiyaning quyidagi bosqichlari mavjud: oilaviy, ijtimoiy va ta'lim va b.

Ketma-ketlik tamoyili bir reabilitatsion chora-tadbirdan boshqasiga asta-sekin o'tishni ko'zda tutadi.

Individual-insoniy yondashuv bola rivojlanishining nafaqat aktual balkishunga yaqin hududlarini ham inobatga olish lozimligini ko'zda tutadi.

Ta'lim muassasasining reabilitatsion tizimi asosan psixologik-pedagogik xarakterga ega, ya'ni uning mazmuni va shakllari asosiy maktab xodimlarining zimmasida bo'ladi. Avvalambor u bolalarni o'z maqomlarida (muomalaning to'laqonli a'zosi sifatida) va muomala layoqatiga ega (etakchi o'quv faoliyatining sub'ekti) sifatida tiklanishlariga qaratilgan. U bolalar, o'smirlar va ularning ijtimoiy atrof-muhiti bilan ish olib borishiga bog'liq. Pedagoglar shug'ullanuvchi nuqsonlar va me'yordan chetga og'ishlar sabablari asosan psixologik-pedagogik xarakterga ega bo'lib, kerakli vositalar yordamida to'g'ri yo'lga solinadilar.

Ta'lim muassasalarida ijtimoiy pedagogik reabilitatsiya qarovsiz bolalar va o'smirlarga nisbatan oilaviy va maktab repressiyalarini oldini olishga, nizoli vaziyatlarni hal qilishga, shuningdek, ularni o'quv faoliyatining sub'ekti sifatida tiklashga qaratiladi.

Reabilitatsion ijtimoiy pedagogik texnologiyalar. Deviant xulq-atvorga ega o'smirlar bilan ishlashning reabilitatsiya dasturlarini tuzishda quyidagilar inobatga olinadi:

1. Voyaga etmagan bolaning ijobiy xislatlariga suyanish. Ijtimoiy pedagog deviant xulq-atvorga ega bolani qoralay olmaydi. U uchun muvaffaqiyat vaziyatini yaratish orqali uning xulq-atvorida ijobiy xislatlarni topish kerak va ijtimoiy pedagog faoliyatini shunga muvofiq tashkil qilish lozim.
2. Hayotiy intilishlarni shakllantirish. Odatda maktabdagi surunkali muvaffaqiyatsizliklardan so'ng o'smirlar umidsizlikka tushishadi, o'z kuchlariga ishonch yo'qoladi. Bunday o'smir uchun keyingi kasbiy o'z-o'zini anglab olish muhim bo'lib, bu holatda ijtimoiy pedagogning psixolog bilan hamkorlikdagi faoliyati uning kelajakdagi kasbiy o'z-o'zini anglab olish muhimi bo'lib bu holatda ijtimoiy pedagogning psixolog bilan hamkorlikdagi faoliyati uning kelajakdagi kasbini aniqlashga qaratiladi.
3. Uning keyingi kasbiy taqdiri bilan bog'liq faoliyatdan tashqari deviant xulq-atvorli bolani u uchun ahamiyatli bo'lgan ijtimoiy faoliyatga jalb qilish ham

lozimdir. Bu murakkab vazifa hisoblanadi, chunki odatda bu holatda nafaqat u yoki bu faoliyat turiga nisbatan o'zgarishni, balki bolalar jamoasi bilan ham munosabatlarning normallashtirishini talab qiladi. Amaliyotning guvohlik berishicha, qiyin tarbiyalanadigan bolalarda boshqa o'quvchilarga qaraganda bo'sh vaqti to'rt marta ziyoddir.

4. O'smir bilan o'zaro munosabatlarga hurmat bilan qarash. Dezadaptatsiya bo'lgan bolalarda yaxshi muomalaning yo'qligi sababli har qanday tarbiyaviy ta'sir voyaga etmagan bola tomonidan qattiq qarshilikka duch keladi. Bunday bolalar bilan ish olib borishda ijtimoiy pedagogdan sabr-matnat talab qilinadi.

Reabilitatsion ijtimoiy pedagogik faoliyat jarayonida mutaxassis quyidagi vazifalarni bajaradi:

dezadaptatsiya boshlangunga qadar o'smirda bo'lgan ijobiy hislatlarni tiklash;

o'smirda u yoki ijtimoiy foydali faoliyatga kirishish orqali salbiy hislatlarini to'g'rilash, intilishni shakllantirish, o'smirning o'z-o'zini belgilab olishdagi ehtiyojini faollashtirish;

o'smir faoliyatining ijobiy motivatsiyasini faollashtirish.

Ta'lim muassasida bolalar va o'smirlar tibbiy-pedagogik reabilitatsiyasining namunasi

8- jadval.

Ta'lim sharoitlarining tibbiy-gigienik optimallashtirish (ovqatlanish, jihozlash)	O'quv-tarbiya jarayonini o'quvchilarning ruhiy-fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ratsional tashkil qilish	Sog'ligi holati boyicha turli o'quvchilar toifalari uchun ta'lim adaptatsiyasi	O'quvchilarning tibbiy-gigienik ta'limi va tayyorgarligi	Kasalliklarning ommaviy profilaktikasi, o'quvchilar jismoniy holatini optimallashtirish
---	---	--	--	---

9- jadval.

Reabilitatsion faoliyatning vazifalari, ob'ektlari va yo'nalishlari	Bu yo'nalishdagi faoliyat amalga oshiriladigan Muassasalar	Reabilitatsion dasturlarni amalga oshiruvchi Ishchilar toifalari
1. Ruhiy-pedagogik reabilitatsiya. Ob'ekt- ijtimoiy va pedagogik qarovsiz bolalar. Vazifalari: - maktab va oilaviy kamsitishlarni engish; - etakchi faoliyatda muvaffaqiyatga erishish; - ruhiy va shaxsiy rivojlanishning uyg'unlashuvi; - ijobiy "Men" obrazini shakllantirish; - ijtimoiy adovat profilaktikasi.	Umumta'lim maktabgacha muassasalari, maktablar, oddiy guruh (sinf), korrektsiya sinflari. Individual o'qitish maktablari. O'smirlar va bolalarga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish markazlari	Pedagoglar, amaliy psixologlar, ijtimoiy pedagoglar, logopedlar, korrektsion ta'lim o'qituvchilari
2. Ijtimoiy pedagogik reabilitatsiya Ob'ekt- nizoli tarbiya-viy vaziyatda bo'lgan dezadaptatsiya qilingan bolalar, etimlar, voyaga etmagan huquqbuzarlar. Vazifalari: - huquqlarni himoya qilish, vasiylik; - nazoratsizlikni oldini olish; - ijtimoiy zararli omillar profilaktikasi; - ijtimoiy maqomning tiklanishi; - psixofizik va shaxsiy rivojlanish sur'atlarini ushlab turish	Go'daklar uyi, Bolalar uyi, Maktab-internatlar, maxsus maktablar, xospislar, ijtimoiy yordam va ijtimoiy reabilitatsiya markazlari.	Ijtimoiy pedagoglar, ijtimoiy ishchilar, amaliy psixolog-tarbiyachilar, bolalar huquqlarini himoya qilish boyicha inspektorlar, psixoterapevtlar, psixonevrologlar.
3. Tibbiy pedagogik	Funktsional	Pedagog-defektolog,

reabilitatsiya. Ob'ekt-nogiron bolalar, tez-tez kasalga chalinuvchi bolalar, cheklangan aqliy imkoniyatlarga ega bolalar. Vazifalari: -tarbiyaviy mikromuhit gigienasi; -sog'lomlashtirish va davolash; -tibbiy profilaktika; -sog'liqni saqlash; - ijtimoiy adaptatsiya va reabilitatsiya; -zaxiradagi imkoniyatlardan foydalanish; -kompensatorlik funktsiya-larni rivojlantirish	buzilishlarga ega bolalar uchun muassasa. Korreksion maktab; nogironlar uylari; sog'liq markazlari; davolash markazlari; terapevt pedagogika markazlari; maktabgacha muassasalar va maktablarda logopedik guruhlar; ruhiy sog'liq va reabilitatsiya markazlari.	o'qituvchi-dektolog, tarbiyachilar, valsologlar, ijtimoiy ishchilar, ijtimoiy pedagoglar, tibbiy xodimlar, psixolog-defektologlar
--	--	---

Reabilitatsion ijtimoiy pedagogik texnologiyalar. Bolaning shaxsiy xususiyatlariga bog'liq ravishda reabilitatsiya dasturlarini tuzayotganda o'smirning qaysi holatda ekanligini ham inobatga olish darkor. Bu oiladagi yoki tengdoshlari davrasidagi janjal natijasida kelib chiqqan ijtimoiy qarovsizlik holati ham bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy pedagogning bu bolalar bilan ish olib borishi o'smir ichki olamini ijtimoiy sog'lomlashtirishga qaratiladi. Ijtimoiy pedagog bola tushib qolgan vaziyatni shoshilinch tashxis qoya olishi va ijtimoiy-shaxsiy-emotsional xislatlarning buzilishi sabablarini ham aniqlashi lozim.

Shu borada asosiy faoliyat turlariga: individual maslahat berish, salbiy emotsional ahamiyatga ega vaziyatlarni to'g'irlash maqsadida o'smirlarni trening guruhlariga qo'shish, bola qadriyatlari tizimi bilan individual ish olib borish, ijtimoiy ko'nikmalar paydo qilish kiradi.

Bundan tashqari bola va ota-ona o'rtasida yaxshi o'zaro munosabatlarni tiklash uchun oila bilan ham ish yuritish lozim. Bu faoliyat oila pedagogik pozitsiyalariga tashxiz qoyishni, ota-onalarni treynning guruhlariga jalb etishni ko'zda tutadi.

Inqirozli holatda turgan o'smir boshqacha yondashuvlarni talab qiladi. Odatda bunaqa xulq-atvor o'smirning hal qilib bo'lmaydigan vaziyatga munosabatini bildiradi. Bu toifa bolalar bilan ish olib borishda emotsional holatning shoshilinch diagnostikasi, bu muammo sabablarini aniqlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalariga o'rgatish, ijobiy "Men" kontseptsiyasini shakllantirish ustida ish olib borishni ko'zda tutadi.

Ijtimoiy pedagog faoliyatning boshqa bir yo'nalishi uy-joysiz bolalarga qaratilgan. Bu bolalar bilan ishlash ikki yo'nalishdan iborat:

bunaqa bolalarning yashab ketishlari uchun sharoitlar yaratish (tibbiy yordam ko'rsatish, ovqat bilan ta'minlash);

o'ziga, o'z kelajagiga ishonchni mustahkamlash uchun o'tgan hayotlarining salbiy tajribasidan xalos etish.

Asosiy ish metodi-patroj, asosiy ish shakli "Men" kontseptsiyasini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik treyning tashkil qilish.

Bu rehabilitatsiya dasturlarini quyidagi uch shartlarni bajargandagina, samarali tarzda amalga oshirsa bo'ladi:

1) dasturning barcha ishtirokchilarini-bola, ota-ona, ijtimoiy pedagog, mutaxassis yuqori motivatsiyasi;

2) mutaxassislar va rehabilitatsion muassasalar rahbarlarining ruhiy-pedagogik kompetentliklari;

3) turli davlat xizmatlari-ta'lim sog'liqni saqlash, ----- faoliyatini tartibga solish.

Dezadaptatsiya bo'lgan bolalar bilan ish olib borishning mavjud texnologiyalari deviant xulq-atvorni ijtimoiy nazorat ostiga olishga qaratilgan. Bu jarayon, birinchidan, eng xavfli deviant xulq-atvor shakllarini ijtimoiy foydali shakllar tomonidan siqib chiqarilishi; ikkinchidan, bolaning ijtimoiy faolligini ijtimoiy ma'qullanadigan tomonga yo'naltirish, uchinchidan, daydilik, giyohvandlik, besoqolbozlik, fohishabozlik bilan shug'ullanuvchi o'smirlarni jinoiy yoki ma'muriy kuzatuvdan xalos etish; to'rtinchidan, maxsus ijtimoiy yordam xizmatlarini tuzishdan iborat.

Savollar:

1. Deviant xulq-atvorga ega o'smirlar bilan ishlashning asosiy texnologiyalarini sanab o'ting.
2. Deviant xulq-atvor profilaktikasida axborot, ijtimoiy-profilaktik, tibbiy-biologik va ijtimoiy-pedagogik yondashuvlarning xususiyatlari nimadan iborat.
3. "Reabilitatsiya", "Ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya" tushunchalariga ta'rif bering.
4. Deviant xulq-atvorli o'smirlar uchun reabilitatsion dasturlarning asosiy tarkibiy qismlariga ta'rif bering.

DEVIANT XULQ-ATVOR BOLALAR BILAN IJTIMOIIY PEDAGOGIK FAOLIYAT YURITISH.

Bolaning shaxsiy xususiyatlariga bog'liq ravishda reabilitatsiya dasturlarini tuzayotganda o'smirning qaysi holatda ekanligini ham inobatga olish lozim. Bu oiladagi yoki tengdoshlari davrasidagi janjal natijasida kelib chiqqan ijtimoiy qarovsizlik holati ham bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy pedagogning bu bolalar bilan ish olib borishi o'smir ichki olamini ijtimoiy sog'lomlashtirishga qaratiladi. Ijtimoiy pedagog bola tushib qolgan vaziyatni shoshilinch tashxis qoya olishi va ijtimoiy shaxsiy emotsional xislatlarning buzilishi sabablarini ham aniqlashi lozim.

Bu borada asosiy faoliyat turlariga: individual maslahat berish, salbiy emotsional ahamiyatga ega vaziyatlarni to'g'irlash maqsadida o'smirlarni trening guruhlariga qo'shish, bola qadriyatlari tizimi bilan individual ish olib borish, ijtimoiy ko'nikmalar paydo qilish kiradi.

Bundan tashqari, bola va ota-ona o'rtasida o'zaro yaxshi munosabatlarni tiklash uchun oila bilan ham ish yuritish lozim. Bu faoliyat oila pedagogik pozitsiyalariga tashxis qilishni, ota-onalarni trening guruhlariga jalb qilishni ko'zda tutadi.

Inqirozli holatda turgan o'smir boshqa yondoshuvlarni talab qiladi. Odatda bunday xulq-atvor o'smirning hal qilib bo'lmaydigan vaziyatga munosabatini bildiradi. Bu toifa bolalar bilan ish olib borishda emotsional holatning shoshilinch diagnostikasi, bu muammo sabablarini aniqlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalariga o'rgatish, ijobiy "men" kontseptsiyasini shakllantirish ustida ish olib borishni ko'zda tutadi.

Ijtimoiy pedagog faoliyatining boshqa bir yo'nalishi uy-joysiz bolalarga qaratilgan. Bu bolalar bilan ishlash ikki yo'nalishdan iborat:

bunday bolalarning yashab ketishlari uchun sharoitlar yaratish (tibbiy yordam ko'rsatish, ovqat bilan ta'minlash)

o'ziga, o'z kelajagiga ishonchni mustahkamlash uchun o'tgan hayotlarining salbiy tajribasidan halos etish.

Ta'lim muassasasida bolalar va o'smirlar tibbiy-pedagogik reabilitatsiyasining namunasi.

10- jadval.

Ta'lim sharoitlari tibbiy-gigienik optimal lashuvi (oaqatlanish, jihozlar)	O'quv-tarbiya jarayonini o'quvchilar ruhiy fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ratsional tashkil qilish	Sog'ligi holati boyicha turli o'quvchilar toifalari uchun ta'lim adaptatsiyasi	O'quvchilar tibbiy-gigienik ta'limi va valeologik tayyorgarligi	Kasallik Larning ommaviy profilaktikasi o'quvchilar jismoniy holatining optimallashtirish
--	---	--	---	---

Ta'lim muassasalarida reabilitatsion faoliyat tizimi

11- jadval.

Reabilitatsion faoliyat vazifalari, ob'ektlari va yo'nalishlari	Bu yo'nalishda faoliyat yuritadigan muassasalar	Reabilitatsion dasturlarni amalga oshiruvchi ishchilar toifalari
---	---	--

1) Ruhiy-pedagogik reabilitatsiY. Ob'ekt- ijtimoiy va pedagogik qarovsiz bolalar. Vazifalari: -maktab va oilaviy kamsitishlarni engish -etakchi faoliyatda muvaffaqiyatga erishish -ruhiy va shaxsiy rivojlantirishning uyg'unlashuvi -ijobiy "men" obrazini shakllantirish - ijtimoiy adovat profilaktikasi	Umumta'lim maktabgacha muassasalari Maktablar: oddiy guruh (sinf), korreksion sinf, Individual o'qitish maktablari. O'smirlar va bolalarga psixologik yordam ko'rsatish markazlari.	Pedagoglar. Amaliy psixologlar. Logopedlar. Korreksion ta'lim o'qituvchilari.
2) ijtimoiy pedagogik reabilitatsiY. Ob'ekti-nizoli tarbiviy vaziyatda qolib ketgan dezadaptatsiya bo'lgan bolalar, voyaga etmagan huquqbuzarlar vazifalari: -huquqlarni himoya qilish, vasiylik -nazoratsizlikni oldini olish - ijtimoiy zararli omillar profilaktikasi - ijtimoiy maqomning tiklanishi -psixofizik va shaxsiy rivojlanish sur'atlarini ushlab qolish	Go'daklar uyi. Bolalar uyi. Maktab internati. Maxsus maktablar. Ijtimoiy yordam va ijti-moiy reabilitatsiya markazlari.	Ijtimoiy pedagoglar. Ijtimoiy ishchilar. Amaliy psixologik tarbiyachilar. Bolalar huquqlarini himoya qiluvchi ins-pektorlar. Psixoterapevtlar. Psixonervologlar.

3) tibbiy pedagogik reabilitatsiya. Ob'ekt-nogiron bolalar surunkali kasalliklarga chalinuvchi bolalar, aqliy imkoniyatlari cheklangan bolalar Vazifalar: -tarbiyaviy mikromuhit gigiyena; -sog'lomlashtirish va davolash; -tibbiy profilaktika; -sog'liqni saqlash; - ijtimoiy adaptatsiya va reabilitatsiya; -zahiradagi imkoniyatlardan foydalanish; -kompensatorlik funksiyalarini rivojlantirish	Korreksion maktab Nogironlar uylari Sog'liqni saqlash markazlari Davolash markazlari Terapevt pedagog Maktabgacha muassasalar va logopedik guruhlar Reabilitatsiya markazlari	Pedagog-defeknolog. O'qituvchi-defeknolog. Tarbiyachilar. Valeologlar Ijtimoiy ishchilar. Ijtimoiy pedagoglar Tibbiy xodimlar. Psixolog-defeknologlar.
---	--	--

KPIRTLII ICHIMLIKLIAR ISTE'MOL QILADIGAN O'SMIRLIAR BILAN IJTIMOIY PEDAGOGIK FAOLIIAT YURITISH

Bolalar ichkilikbozligi va ayniqsa uning yoshlar o'rtasida keng tarqalishi eng jiddiy ijtimoiy pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ichkilikbozlik tushunchasi ikki o'rinda aniqlanadi. Tibbiy nuqtai nazardan ichkilikbozlik spirtli ichimliklar iste'mol qilishga engib bo'lmas ehtiyoj tug'ilishida namoyon bo'ladigan surunkali kasallikdir. Ijtimoiy pedagogik nuqtai nazardan ichkilikbozlik spirtli ichimlikka deviant patologik ruju qoyish bilan xarakterlanadigan deviant xulq-atvor shaxslaridan biridir.

Bolalik davrida ichkilikbozlik muammosi shaxs ijtimoiylashuvi jarayoni bilan bevosita bog'liq. Chunki, birinchidan, u aniq ijtimoiy psixologik sabablar tufayli kelib chiqadi, ikkinchidan odatda deviant xulq-atvor kabi g'ayri ijtimoiy hislatlarning kelib chiqishiga olib keladi.

Ichkilikbozlik namoyon bo'lishining ijtimoiy psixologik omillari bir xil emas. Ular ichida mikroijtimoiy va shaxsiy omillarni ajratsak bo'ladi. SHaxsiy omillar vazifasini shaxsiy va xarakterologik xususiyatlar bajarishi mumkin. Mikroijtimoiy omillarga alkogollashuv ko'rsatkichlari (ichkilik iste'mol qilish yoshi, sabablari), oila tarkibi va unda alkogollashuv darajasi kabi ijtimoiy va ijtimoiy psixologik belgilar kiradi.

Ijtimoiy psixologik omillar shartli ravishdagina ikkiga ajratiladi. Alkogollashuv jarayoniga ta'sir ko'rsatar ekan, ular yaxlit va kompleks tarzda o'rganilishi lozim.

Yuqorida alkogollashuv darajasiga (bir oyda kamida bir marta iste'mol qilish) ega o'smirlar guruhida ijobiy ijtimoiy mikro muhitda shaxsning ijtimoiy adaptatsiyasini ta'minlovchi shaxsiy xususiyatlar tizimi yaxshi rivojlangan.

Bolalar ichkilikbozligi bir qator xususiyatlarga ega:

- spirtli ichimliklarga tez ko'nikish;
- ichkilikbozlikning tez rivojlanishi;
- davolashning samaradorligi;
- organizmning tez buzilishi jarayoni.

12-jadval.

Yosh	Sabablar	Oqibatlar
Bolalikning ilk davri (0-3 yosh)	homila davridagi ichkilikbozlik; homiladorlikning ilk 3 oyida spirtli ichimlik iste'moli; emizish vaqtida spirtli ichimliklar iste'moli	epilepsiya, aqli zaiflik; jismoniy rivojlanish anomaliyasi; aqliy rivojlanish anomaliyasi
Maktabgacha va kichik maktab yoshi (3-9 yosh)	ota-onalarning pedagogik savodsizligi; oilaviy alkogol an'analari	organizmning alkogol zaharlanishi; spirtli ichimlikliklarga qiziqish paydo bo'lishi
O'spirinlik va o'smirlik davri (9-18 yosh)	oiladagi noma'lum holat; o'zini namoyon qilish; OAVlaridagi reklama; bo'sh vaqdda band bo'lmaslik; ichkilikbozlikning oqibatlari haqida bilimlarning yo'qligi; shaxsning psixologik xususiyatlari; muammodan qochish.	spirtli ichimliklarga maylning shakllanishi; spirtli ichimlik iste'mol qilish odatining shakllanishi alkogol xulq-atvorning steriotipining paydo bo'lmagan holatda huquqbuzarlik sodir etish; mast holatda g'ayri huquqiy harakatlarning oqibatini oylamasdan sodir etish; spirtli ichimlikni ruhiy muammolarni bartaraf etuvchi doping sifatida iste'mol qilish.

Bolalarning spirtli ichimliklarga ko'nikishlari asosan 3 davrda: bolalikning ilk davri, maktabgacha yoshda va kichik maktab davri, o'smirlik davrida jadal kechadi.

Birinch davr – bolalikning ilk davri bo'lib, unda bolalarning alkogollashuvi ixtiyorsiz xarakterga ega. Bu bir necha sabablarga ko'ra ro' beradi-homiladorlik va

emizish davrida spirtli ichimlik iste'mol qilish, mast holatda homilador bo'lish. Ichki organ va a'zolarining jadal shakllanishi jarayoni kechayotganda homilaning zaharlanishi rivojlanishning turli anomaliyalariga olib keladi-oyoq va qo'llarning rivojlanmasligi, barmoqlarning birlashib ketishi, jinsiy a'zodagi nuqsonlar, bosh hajmining kichiklashishi va boshqalar.

Homila alkogol oldida himoyasiz bo'lgani sababli u alkogolning miyaga kirishini bartaraf eta olmaydi va buning natijasida aqli norasolikni kuzatsak bo'ladi. Bunday bolalar garchi bolaliklarida hayot bilan vidolashmasalar ham butun umr aqli noraso bo'lib o'tadilar.

Ikkinchi davr – maktabgacha va kichik maktab yoshi. Bu davrdagi eng ahamiyatli sabablar: ota-onalarning pedagogik bilimsizligi va spirtli ichimlikka qiziqish paydo bo'lishiga olib keluvchi oilaviy ichkilikbozlik an'analaridir.

Biologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ichkilikbozlik irsiy jihatdan avloddan-avlodga o'tmaydi, faqatgina unga mayl o'tadi. Bolalarda ichkilikbozlikning rivojlanishiga ota-onalarning yomon odatlari, oiladagi vaziyat hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Maktab sinfdosh bolalarning xususiyatlaridan kelib chiqib ota-onalar shuni esda tutishlari lozimki, spirtli ichimliklar iste'mol qilishga nisbatan salbiy munosabatlarni shakllantirishning zaruriy sharti bola shaxsiyatiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, uning maktab hayotiga doimiy e'tibor qaratish, maktabda va oilada gigienik normalarga amal qilishdir.

Agar oilada hech kim bolaning maktab hayoti bilan qiziqishmasa yoki nomiga qiziqsa (baholarni nazorat qilish surunkali tarzda ortda qolayotgan bola to'liqsizlik xissini boshdan og'ir kechiradi) maktabga nisbatan qiziqishi neytrallashadi, so'ngra bolada ta'lim olishga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi. u o'zini namoyon qilishning boshqa usullarini qidira boshlaydi. Odatda bu bola ko'cha guruhlariga qo'shilib qoladi va u erda spirtli ichimliklar iste'mol qilishga o'rganadi. Agar bola spirtli ichimlik bilan tanish bo'lsa va bu "tanishuv" oilada sodir bo'lgan bo'lsa, bu o'rganish jarayoni nihoyatda oson kechadi. Natijada

maktab, maktab hayotiga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi va bola o'ziga o'xshagan bolalarning ko'cha guruhini afzal ko'ra boshlaydi.

Uchinchi bosqich – o'spirinlik va o'smirlik davri. Bu davrdagi asosiy sabablarga oiladagi nomaqbul holat, o'zini namoyon qilish, OAVlaridagi reklama, muammolardan qochish, shaxsning psixologik xususiyatlari, ichkilikbozlik oqibatlarini haqidagi bilimlarning yo'qligi kiradi. Bu davrda ichkilikka ruju qoyish ro'y beradi. ijtimoiy adabiyotlarda ichkilikka mayli bor bolalarning 4 turi aniqlangan:

o'ziga yuqori baho bergan bolalar

shafqatsiz va agressiv xulq – atvorli bolalar

amaliy hayotga ko'nikmagan, shaxsiy tashabbus qobiliyatidan judo bo'lgan bolalar turg'unlikka tushgan bolalar

Bolalarning spirtli ichimlik iste'mol qilishiga tortilganliklarining bir nechta darajalari mavjud:

nolga teng daraja-juda kamdan-kam iste'mol qilish;

epizodik iste'mol darajasi-turli spirtli ichimliklar turlari bilan tanishlik;

yuqori daraja-1 oyda ikki martadan ortiq iste'mol qilish;

namoyon bo'lgan ruhiy tobelik darajasi-mast bo'lishning ruhiy holatning istalgan holatiga aylanishi, ichimlikka ruhiy qaram bo'lishning yuzaga kelishi;

ichimlikka jism tobe bo'lish darajasi-spirtli ichimlikni nazoratsiz iste'mol qilish;

SHaxsning alkogollashuvi-aroqxo'rga aylanishi.

Ijtimoiy pedagogikaning ichimlik iste'mol qilishga mayli bor bolalar bilan faoliyat olib borishning asosiy yo'nalishlari:

adaptatsion-bolaning shaxsiy ijobiy xislatlar rivojlantirish orqali bolaning adaptativ xususiyatlarini to'g'rilash;

profilaktik – bolalarda spirtli ichimlik iste'mol qilishga salbiy munosabat shakllantirish;

vositachilik – bola va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish.

reabilitatsion – alkogol tobe holatidagi bolani ijtimoiy reabilitatsiya qilish.

O'z faoliyatida ijtimoiy pedagog quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

ijtimoiy pedagog faoliyatining **birinchi vazifasi** tashxis qoyish bo'lib, bolaning spirtli ichimlik ichishga ruju qoyishining oldini olishga qaratilgan. Bu vazifa spirtli ichimlik iste'mol qilishga mayli bor bola haqida axborot to'plash, uning real shaxsiy xususiyatlarini o'rganish, bola oilasi to'g'risida ma'lumotlar to'plash, bolaga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan manbalarni o'rganish, ichkilikbozlikning etakchilarini aniqlash, bolani alkogollashuvga undayotgan salbiy omillarni o'rganish, bolaga mikromuhit ta'sirini o'rganish orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchi vazifasi – bashorat qilish. Uning mohiyati shuki, qoyilgan tashxis asosida ichkilikbozlikka mayli bor bola bilan ish olib borishning aniq ijtimoiy pedagogik dasturi ishlab chiqiladi. Bu dastur bosqichma-bosqich amalga oshib, ijtimoiy adaptatsiya, korrektsiya yoki reabilitatsiyani keltirib chiqaradi.

Uchinchi vazifasi ta'lim-tarbiya bo'lib, bolada uning ijtimoiy pedagogik reabilitatsiyasi davomida shakllanishi lozim bo'lgan xislatlarni, bolalar va kattalar xulq-atvori va faoliyatiga pedagogik ta'sirni oshirish, bola tarbiyasidagi bo'shliqlarni to'ldirish, ichkilikbozlik muammosini engib o'tish uchun lozim bo'lgan malaka va ko'nikmalarni shakllantirishni ko'zda tutadi.

Ijtimoiy pedagogning **to'rtinchi vazifasi** – huquqiy himoya bo'lib, uning mohiyati shuki, ijtimoiy pedagog faoliyati huquqiy asosda ko'riladi.

Beshinchi vazifasi – tashkiliy funktsiya. U ichkilikbozlikka mayli bor bola bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat yuritish turli mutaxassislarining ishtirokini talab qiladi, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun sharoitlar yaratadi, bolalar, kattalar uchun ijtimoiy foydali faoliyatni tashkil qiladi.

Oltinchi vazifasi – kommunikativ. Bunda ko'zga ijtimoiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida uning ishtirokchilari orasida ko'pgina aloqalar o'rnatiladi.

Ettinchi vazifa – profilaktik funktsiya bo'lib, u erishilgan ijobiy natijalarni mustahkamlashni ko'zda tutadi va ichkilikbozlik alomatlarining paydo bo'lishini bartaraf etadi. Bu vazifalar ijtimoiy patronaj o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy pedagogning bolalar hayotining alkogollashuvga qarshi qaratish tarbiyalanuvchilarining yoshiga qarab o'z xususiyatlariga ega.

Maktabgacha va kichik maktab yoshi.

Bir yoshdan etti yoshgacha bolada odatlar shakllanishida hal qiluvchi ta'sirni ota-onalar ko'rsatishadi. Shuning uchun bu yoshda ijtimoiy pedagogning oila bilan ishlashi muhim ahamiyatga ega. U quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning madaniyatini shakllantirish, chunki faqatgina uyg'un oilaviy munosabatlar sharoitlarida axloqiy antialkogol odatlar paydo bo'lishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bu odatlarning paydo bo'lishi uchun ota-onalarda optimal xulq – atvorni shakllantirish lozim.

2. Bola hayotiy faoliyatining sog'lom muhitini shakllantirish.

Ijtimoiy pedagog faoliyati ota-onalarda sog'lom ijtimoiy psixologik yo'l-yo'riqlarni shakllantirishga va bolalarning spirtli ichimlik iste'mol qilgani uchun ota-onalarning shaxsiy javobgarligi haqidagi fikrni ilgari surishga qaratilishi lozim. Ota-onalar bilan ichkilikbozliklikka qarshi kurash bola yoshiga qarab amalga oshirilishi lozim. Biroq bu faoliyatning natijasi ota-onalarni bolalarning ichkilikka qarshi tarbiyasiga qo'shilishlari kerak. Ota-onalarning ichkilikbozlikka qarshi tarbiyasi haqida bilimlar targ'iboti quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

1. Alkogolning inson organizmiga, bolaning to'liq shakllanmagan organizmiga zarari, bolalarning spirtli ichimlik iste'mol qilishlarining yomon oqibatlarini, voyaga etmaganlarni spirtli ichimliklar iste'mol qilishga o'rgatishning axloqiy va huquqiy javobgarligi haqida.

2. Kichik maktab yoshining spetsifik xususiyatlari anotolik, morfologik, psixofiziologik xususiyatlari bilan tanishtirish. Maktabda ta'lim olishning birinchi bosqichiga bola hayotidagi eng inqirozli bosqich sifatida ta'rif berish, boshlang'ich bosqichga ko'nikish qiyinchiliklari haqida, yosh shaxsning faol ijtimoiylashuvining boshlanishi haqida, ta'lim muhitining ijtimoiy va psixologik sharoitlari haqida ma'lumot berish.

3. Kichik maktab yoshidan bolalarda sog'lom hayot tarziga intilishni shakllantirish uchun ota-onalarning optimal xulq-atvorlariga erishish. Bu oilaning ichkilikbozlik an'analari kichik maktab yoshiga xos bo'lgan taqlidiy xulq-atvorni inobatga olgan holda ko'rib chiqish, bolaning maktabdagi yutuqlariga e'tiborli bo'lish,

bolalarning bo'sh vaqtlarini o'tkazishlariga yordam berish, uni noxush oilaviy – maishiy nizolardan holiroq qilish.

Shuningdek, ijtimoiy pedagog ota-onalar bilan hamkorlikda bo'sh vaqt, bayramlarni spirtli ichimliksiz o'tkazish rejasini ham ishlab chiqish lozim.

Faoliyatning asosiy metodi suhbat, maslahat, trening shaklida o'tkaziladigan oilaviy profilaktika hisoblanadi. Ijtimoiy pedagog ota-onalar harakatlariga axloqiy xarakter berishi lozim. Oilaviy profilaktika tanbeh, tahdidlarga asoslanmasligi lozim. U bolaning tengdoshlari bilan aloqalarini to'g'irlashga, ularni ijobiy faoliyatga jalb etishga, oilada o'z maqomini tiklashga qaratilishi lozim.

O'smirlik davri.

O'spirinlikdan farqli o'laroq 17-18 yoshli o'quvchilarda tengdoshlari jamoasiga emotsional tobelik kuchli bo'lmay, birinchi o'ringa individuallik ko'tariladi. Hayotda o'z o'rnini qidirish, o'zini biror-bir kasbiy faoliyatda anglab olish bilan birgalikda o'z ijtimoiy qiyofasini ham shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy pedagog o'z e'tiborini ichimlik iste'mol qilishga mayli bor o'smirlar bilan individual ish olib borishga qaratadi. Bu faoliyat quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

1. Bola hayotiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etish maqsadida individual konsultatsiyalar o'tkazish.
2. SHaxsni ijtimoiy tarbiyalash, ijtimoiy pedagogik mashqlar orqali o'smirlar ijtimoiy ijobiy xulq –atvor normalarini o'zlashtirishga yordam beradi.

O'smirlarning ichkilikka qarshi metodlar asosiy va yordamchi metodlarga ajratiladi.

Asosiylari-suhbat jarayonida ijtimoiypedagog tomonidan o'z nuqtai nazari, dalillari, faktlarni monologik bayon etish, ma'ruzalar o'qish.

Yordamchilar-kitob yordamida mustaqil ish olib borish, tajribalar o'tkazish va boshqalar. Bu metodlar turli ish shakllari-jamoaviy, individual shaklda va turli mikromuhitlarda-oila, maktab jamoasi, do'stlar davrasida amalga oshiriladi.

O'spirinlar (11-14 yosh). Bu davr inson faoliyatining eng murakkab davrlaridan biridir. Bu davrda uyg'un faoliyatning faollashuvi fanida organizmning

barcha organlarining jadal rivojlanishi kuzatiladi. Bu jarayon jinsiy etuklikning kelishi bilan yakun topadi. Organ va tizimlarning bunday qayta qurilishi bilan davom etadi. Bola u uchun obro'li bo'lgan kattalarning ko'rsatmalariga amal qilgan kichik maktab yoshidan farqli ravishda o'spirin o'z xulq-atvor tamoyillariga, o'z qarashlariga amal qilishga harakat qiladi, mustaqillikka ehtiyoj tug'iladi, kattalar nasihatleri tanqid ostiga olinadi, ularga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi.

Aynan o'spirinlik davrida ichkilikka ruju qoyishning ilk bosqichi boshlanishi mumkin. Chunki u o'spirin guruhlari sharoitida namoyon bo'ladi va shuning uchun "jamoaviy ichkilik tobeligi" xarakteriga ega bo'ladi. Bu yoshdagi bola katta bo'lishga yoki kattalardek ko'rinishga harakat qiladi. Bu ham ijobiy ham salbiy ma'noda namoyon bo'lishi mumkin.

Katta bo'lish tendentsiyasi agar axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarga asoslanmasa, ijtimoiy salbiy ma'noda: chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, jinsiy mas'uliyatsizlik, huquqbuzarliklarda namoyon bo'ladi.

O'spirinlik davrida 11 yoshdan boshlab kattalar bolaga avvalgidek ta'sirlarini o'tkaza olmaydilar va bola uchun tengdoshlari bilan muloqotda bo'lish katta ahamiyat kasb eta boshlaydi. O'spirinning ijtimoiy maqomi qancha past bo'lsa, uning guruhga ta'siri shuncha kam bo'ladi.

Shuning uchun bu yoshda ijtimoiy pedagog faoliyatida asosiy urg'u guruh bilan ishlashga qaratiladi. Bu quyidagi faoliyat yo'nalishlari orqali amalga oshiriladi:

1. Ichkilikbozlik sabablari va oqibatleri profilaktikasi. Buni ichkilikbozlik bilan bog'liq mavzularda baxs-munozaralar o'tkazish orqali amalga oshirsa bo'ladi. Bu mashg'ulotlar natijasi guruhning barcha ishtirokchilari amal qiladigan guruh qarashining shakllanishi bo'lishi lozim.

Bahs-munozaradan tashqari rasmiy oyinlar ham o'tkazish mumkin. Ichkilikbozlik profilaktikasiga qaratilgan bunday oyinlarda bolaning shaxsiy rivojlanish, jamoaviy muomala malakalariga o'rganishga erishsa bo'ladi. Ijtimoiy pedagog o'spirinlar guruhida shakllantirish mumkin bo'lgan asosiy ijtimoiy malakalar bu

ichkilikka qarshi dalillarni aniq ilgari surish va tengdoshlari bosimiga qarshi tura olishdir.

Ish shakllari: bahs, ekskursiya, suhbat. Bolalarni qo'rqitadigan usullardan foydalanish maqsadga muvofiq emas.

2. O'spirinlarning bo'sh vaqtini tashkillashtirish, chunki bo'sh vaqtni mazmunsiz o'tkazish o'spirin tomonidan spirtli ichimlik iste'mol qilish xavfini oshiradi. To'garak, sektsiya, klub, bolalar va o'smirlar tashkilotlari faoliyatini yorqin reklama qilish zarur. Ijtimoiy pedagog o'spirinning qiziqishlarini bilishi va uning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga yordam berishi lozim.

Bu yoshning psixologik xususiyatlari tufayli bo'sh vaqtni o'tkazishning jamoaviy shakllarini rivojlantirish lozim. Shuni inobatga olish lozimki, deviant xulq – atvorli bolalar asosan intellektual faoliyat bilan emas, balki sport bilan shug'ullanishga qiziqishadi. Shuning uchun ularning sport sektsiyalariga qatnashishlariga yanada ko'proq sharoitlar yaratib berish lozim.

3. Ijtimoiypedagog tomonidan o'tkazilayotgan ichkilikka qarshi tarbiya bolada mustahkam antialkogol qarashlarni: sog'lom hayot tarzining zarurligi, organizm shakllanayotgan paytda spirtli ichimlik iste'mol qilish mumkin emasligi, ichkilikbozlikning axloqsiz omil ekanligini-shakllantirishga qaratiladi.

4. Maktab pedagog jamoasini ichkilikka qarshi yo'naltirish ham ijtimoiy pedagog vazifasi hisoblanadi. O'spirin yoshidagi o'quvchilarning ta'lim dasturi bilan tanishish asosida ijtimoiy pedagog ichkilikka qarshi tarbiya elementlarini maktab darslari tarkibiga kiritishni ilgari surishi mumkin.

Savollar:

1. "Ichkilikbozlik" tushunchasiga ta'rif bering?
2. Bolalar ichkibozligining xususiyatlarini ochib ko'rsating?
3. O'spirin yoshdagi bolalarning ichkilikbozligi sabablari va oqibatlarini tushuntirib bering?
4. Bolalarda ichkilikka ruju qoyishni keltirib chiqaruvchi oilaviy xarakterdagi sabablarga nimalar kiradi?

5. Ijtimoiypedagogning ichkilikbozlikka qarshi faoliyatining asosiy yo'nalishlari va funktsiyalari qaysilar?
6. Bolalar va o'smirlarning antialkogol rehabilitatsiyasi metod va shakllarini sanab o'ting.

Adabiyotlar:

Antialkogolnoe vospitanie detey v seme. Metod.rekomendatsii /Avtor-sostavitel L.V.Shishkova. – T.: UzNIIPN, 1990.

Vasilkova Y.V., Vasilkova T.A. Sotsialnaya pedagogika. – M.: Prosvetshenie, 2003.

Antialkogolnoe vospitanie v seme /Pod red. D.V.Kolesova. – M.: Pedagogika, 1990.

Kolesov D.V. Besedy ob antialkogolnom vospitanii. – M., 1987.

Muratova I.D., Sidorov P.I. Antialkogolnoe vospitanie v shkole. – Arxangelsk, 1997.

Klassnyy chas «Deti i alkohol» // Sputnik klassnogo rukovoditel'Y. – M.: TSentr «Pedagogicheskiy poisk», 2001. – S. 118-122.

GIYOHVANDLIK BOLALAR DEVIANT XULQ-ATVORINING SHAKLLARIDAN BIRI SIFATIDA

Giyohvandlik tushunchasi. Giyohvandlik deganda eyforiya holatini keltirib chiqaruvchi moddalarga ishtiyoq tushuniladi. Eyforiya – haqiqiy ahvolga mos kelmagan holda kayfiyatning ko'tarinki bo'lishi holatidir. Giyohvand moddalarni iste'mol qilish nafaqat alohida shaxsga balki jamiyatga ham zarar keltiradi.

Ijtimoiy tibbiy sohada giyohvand moddalarni iste'mol qilishning ikki turi mavjud:

1) giyohvand giyovhand moddalarni iste'mol qilishni o'z ixtiyori bilan chek qoyishi mumkin bo'lgan holat, 2) u bu ishni qilishga qurbi etmaydigan holat.

Giyohvandlikni ijtimoiy pedagogik yo'nalishda o'rganish uni giyohvandlikka jismoniy yoki ruhiy tobelik bilan xarakterlanadigan deviant xulq-atvor shakli ekanligini aniqlasa bo'ladi. Bu tobelik bolani jismoniy yoki ruhiy ishdan chiqishiga, shaxsning ijtimoiy adaptatsiyasiga olib keladi.

Giyovhandlikning turlaridan biri taksikomaniya hisoblanadi. Taksikomaniyada giyovhand modda o'rniga organizmga benzin kabi maishiy kimyo vositalar kiritiladi.

Taksikomanlar odatda 13-14 yoshli o'smirlar bo'lib, ular o'z organizmlarining zaharlanishi oqibatlarini tushuna olishmaydi. Taksikomaniyaning xavfi shundaki, bolalar organizm zaharlanishi natijasida yo nobud bo'lishadi yoki shunga olib boruvchi harakatlar sodir etishadi. Taksikoman tirik qolgan taqdirda ham bola organizmiga zaharli moddalarning ta'siri juda yomon oqibatlar-nogironlik, aqli norasolikka olib keladi.

Giyohvandlik hozirgi kunda quyidagi sabablarga ko'ra jiddiy muammo hisoblanadi:

o'smir yoshidagi giyohvandlarning ommaviy ko'payishi;

qimmat turuvchi va kuchli ta'sir ko'rsatuvchi narkotik moddalarni iste'mol qilishning keng tarqalishi;

giyohvand bolalar va o'smirlar ijtimoiy maqomining o'zgarishi.

Agar 5 yil avval bular asosan noxush oilalarda voyaga etgan farzandlar bo'lsa, hozirgi kunda giyohvand bolalar va o'smirlar safi yuqori daromadli oilalar

farzandlari bilan to'lib bormoqda. Bu oilalardagi o'smirning moliyaviy erkinligi, yuqori bo'lmagan axloqiy normalar alohida yoshlar submadaniyatini shakllantirishga olib keldi. U submadaniyatlarda etakchi qadriyat vazifasini erkin vaqt o'tkazish bajaradi. Giyohvand moddalar esa muayyan hayot tarzining xususiyati hisoblanadi. Mashhur diskotekalar, rok-yulduzlar kontsertlari giyohvand moddalar iste'mol qilinadigan xavfli joylarga aylangan.

Bugungi kunda garchi bir dozasi uchun narxi 50-150\$ bo'lsa ham kokoin, heroin, "ekstozi" tabletkalari kabi giyohvand moddalarni iste'mol qilish katta xavf tug'dirmoqda. Birinchi iste'mol qilish bosqichi "yarim giyohvandlik" bosqichiga aylanib unda o'smir turli narkotik vositalarni qayta – qayta iste'mol qila boshlaydi. Turli narkotiklarni iste'mol qilgan o'smir ularning ichidan birini tanlab oladi. Bu erda chetga chiquvchi xulq – atvorning kasallikka aylanishi haqida gapirish mumkin. Chunki kerakli narkotik turi tanlangach, giyohvandning avval ruhiy, so'ngra jismoniy tobeligi boshlanadi.

O'smirlik davrining qiyinchiliklari haqida yuqorida to'xtab o'tilgan edi. O'smir guruhlar o'z xususiyatlariga ega bo'lib, ular:

kattalarning g'amxo'rligiga qarshi chiqish

tengdoshlar bilan guruhlarga birlashish kabi o'smir xulq-atvor reaksiyalari bilan bog'liq.

O'smirning giyohvandlik xulq-atvori asosida ma'lum sabablar yotadi:

shaxsning xarakterli ko'rsatkichlari;

ruhiy va jismoniy og'ishlar;

Uning shaxsiyatiga turli omillar ta'siri:

a) biologik omillar – narkotik vositalarga nisbatan bag'rikenglik, kasallik, charchoq munosabati bilan giyohvand moddalar qabul qilish;

b) ruhiy – eyforiya holatini boshdan kechirishga qiziqish, o'zini namoyon qilishga intilish, ijobiy ijtimoiy qiziqishlarning yo'qligi, ruhiyatning buzilishi;

v) ijtimoiy tengdoshlar guruhlari, moddaning ta'siri;

d) ijtimoiy madaniy va submadaniyatning ta'siri-ba'zi yoshlar guruhlari narkotiklarni hayotning ajralmas bo'lagi deb hisoblashadi;

- e) yoshlarning giyohvandlashuv muammolarini uzoq vaqt oshkor qilmasliklari;
- j) sobiq mafkuraviy va ijtimoiy institutlarning barham topishi, o'smirlarning g'arb madaniyati bilan qiziqib qolishlari;
- z) narkotiklarga etishish mumkinligi.

Yoshlar giyohvandligi bilan shug'ullanayotgan pedagoglar va olimlar o'smirlarning giyohvand moddalarni iste'mol qilishlari sabablari haqida o'z nazariyalarini ilgari surmoqdalar. Bu nazariyalarning mazmuni va nomlanishi ular qaysi omillarni eng muhim deb hisoblashlariga ko'ra aniqlanadi.

Programmalashtirish nazariyasining tarafdorlari (G.A.Shichko, E.I.Bextel, A.N.Mayurov, S.N.SHeverdin, F.G.Uglov, A.A.Gabiani, A.I.Durandina, Dj.di Djennaro va boshqalar) ijtimoiymadaniy omilni yaqqol ajratib, o'smir spirtli ichimlik, giyohvand moddalarni iste'mol qilishi jamiyatda keng tarqalgan ichish-chekish an'analari, spirtli ichimliklar reklamasi, atrofdagilarning yomon namunasi oqibati deb hisoblashadi. Demak, o'quvchilarni informatsion va psixologikantialkogol himoya bilan qurollantirish lozim.

Ijtimoiy pedagogik qarovsizlik nazariyasi tarafdorlari (D.V.Kolesov, V.Gul'dman, M.Raytenberg, A.F.Boyko, B.S.Bratus va P.I.Sidirov) bolalar va o'smirlarning giyohvand xulq – atvorini mikro ijtimoiy muhitning noxush sharoitlari va o'smirning psixologik xususiyatlari keltirib chiqaradi deb hisoblashadi. Muammoning echimini bu nazariya tarafdorlari o'quvchilarning ijtimoiy pedagogik qarovsizliklarini oldini olishda deb ko'rsatishadi.

Bulardan kelib chiqqan holda shunday savol tug'iladi – voyaga etmaganlarning giyohvand bo'lib qolishlariga nima sabab bo'lmoqda? Bunda hammasi muayyan bir shaxsga bog'liq.

Giyohvandlikning nafaqat o'zi, balki ashxs rivojlanishi, uning ijtimoiy hayotda ishtirok etishi uchun yomon oqibatlarni keltirib chiqarishi ham salbiy hodisadir.

Giyohvandlik oqibatlari uch turga ajratiladi: biologik, ijtimoiy psixologik va jinoiy.

Biologik oqibatlarga faollik, shaxsning quvvat zahirasi tushishi, biologik ehtiyojlarning kamayishi (ovqat, uyqu), qarshilik ko'rsatishning pasayishi, bola organizmining barbod bo'lishi kiradi.

Ijtimoiy psixologik oqibatlarni bolaning axloqiy degradatsiyasi deb xarakterlasak bo'ladi. Avval unda giyohvand modda iste'mol qilishdan boshqa qiziqishlari va ehtiyojlari pasayadi, so'ngra umuman yo'q bo'lib ketadi. Giyohvand moddaga qiziqish butun hayotning o'rnini bosadi. Atrof-muhit giyohvand tomonidan giyohvand moddalarni topishni va iste'mol qilishni og'irlashtiruvchi va engillashtiruvchi nuqtai nazardan baholanadi. Jamiyat bilan foydali ijtimoiy aloqalar uziladi (giyohvand do'stlaridan ajraladi, o'qishni xohlamaydi). Ruhiy qulay holat faqatgina giyohvand moddaning kerakli me'yori iste'mol qilinganda yuzaga kelishi mumkin.

Giyovhandlikning jinoiy oqibatlari biologik va ijtimoiypsixologik oqibatlar bilan izohlanadi. Bu o'zaro aloqaning mexanizmi quyidagi ko'rinishga ega. Giyohvand o'z qiziqishi, ehtiyojlarini qondirish uchun o'qishni yoki ishini tashlashi kerak. Chunki uning vaqti faqat giyohvand moddalar izlash bilan o'tadi. Ularni doimiy xarid qilishga mablag' etishmaganligidan giyohvand ularninoqonuniy yo'l bilan qo'lga kiritish yo'llarini izlaydi (o'g'irlik, talon-taroj orqali). Pul yo'q bo'lgan hollarda narkoman o'z maqsadiga etishish uchun har nimaga xatto qotillikka ham tayyor bo'ladi.

Narkotik vositalarni noqonuniy ishlab chiqarish, qo'lga kiritish, saqlash yoki sotish, bolalarni narkotik moddalar iste'mol qilishga undash, tarkibida narkotik moddalar bo'lgan o'simliklarni etishtirish, narkotik iste'mol qilish uchun maxsus joylarni tashkil qilish bilan bog'liq jinoyatlar boshqa guruhga mansubdir.

Giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchi o'smirlarni aniqlash muayyan qiyinchilik tug'diradi, ularni bevosita davolash bilan tibbiy-narkologik xizmat ko'rsatuvchilar shug'ullanishadi, ijtimoiypedagogning maktabdagi asosiy faoliyati narkomaniya profilaktikasi.

Milliy va xorij pedagogik adabiyotlarida zararli odatlar profilaktikasi masalalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, yosh avlodning giyohvandlikka qarshi

tarbiyasi masalasida ikki asosiy tendentsiya kuzatiladi: axborot-faoliyat yondoshuvi (milliy adabiyotlarda) va axborot-faoliyat yondoshuvi (xorij amaliyotida).

Axborot-faoliyat yondoshuvi tarbiyalanuvchining o'zini giyohvandlikka qarshi faoliyatga jalb qilish orqali giyohvandlikka qarshi kurash yuritishni nazarda tutadi (A..N.Yakushev, K.R.Ismagilov).

Informatsion-emotsional yondoshuvda axborot bilan bir qatorda ijtimoiy-psixologik treningga ham katta e'tibor qaratiladi.

Xorij giyohvandlikka qarshi tarbiyasida faol metodlarga etakchi rol topshirilib, ularning o'ziga xos xususiyati faoliyat, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilganlikdir. Bundan kelib chiqadiki, ijtimoiy pedagog maktab o'quvchilari bilan birgalikda giyohvandlikka qarshi dasturni ishlab chiqayotganida faol metodlardan foydalanishi lozim. Bunday zamonaviy metodlarga giyohvandlikka qarshi treninglar, oyinlar kiradi.

Falsafa, sotsiologiya va pedagogikada oyin shaxs ijtimoiy individligini shakllantirish usuli hisoblanadi. Oyin nazariyachilari bolalar va o'smirlar yoshidagi oyin hayotga tayyorgarlik usullaridan biri hisoblanishini tan olishgan. Uning faoliyati boshqalar tajribasini o'zida sinab ko'rishning tayyor modeli hisoblanib, shaxsning aqli va hissiyotiga ta'sir qiladi (A.S.Makarenko, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, D.N.Uznadze va boshqalar).

Uzoq muddatli oyinlar rolli oyinlarning maxsus turi hisoblanib, uning asosiy xususiyatlari ommaviylik, muddatining uzunligi, oyinning real haqiqatlar bilan bog'lanib ketishidir. Uzoq muddatli oyin darsdan tashqari tadbir sifatida o'tkazilib, giyohvandlikka qarshi xulq-atvor, munosabat shakllantirishga qaratilgan. Bu oyni o'tkazishda ijtimoiy-pedagogning vazifasi rollarni tarbiyaviy effekti maksimal ta'minlaydigan qilib taqsimlashdir. Xususan pedagog yoki pedagoglar guruhi oyinda qatnashishadi, yuqori sinf o'quvchilari pedagoglar va o'smirlar o'rtasida vositachi bo'lishadi.

Ijtimoiy-pedagog maktab ta'lim tarbiyasining turli yo'nalishlariga moslab oyni tashkillashtiradi.

Ona-tili va adabiyoti, tarix, davlat huquq asoslari, kimyo, biologiya darslariga o'quvchilar insho, bayon, diktant yozishadi, giyohvandlikka qarshi kurash mavzusida nutq va referatlar bilan chiqish qilishadi.

Sinfdan tashqari faoliyatlarida ular giyohvandlikka qarshi qaratilgan devoriy gazetalar, rasmlar tayyorlashadi. Shuningdek, intervyu metodi ham qo'llanilib, u nafaqat giyohvand shaxslardan, balki ularning oila a'zolari, qo'shnilaridan ham olinadi. Sinfdan tashqari faoliyatda ijtimoiypedagog o'smirlarga mahalliy huquqni muhofaza qiluvchi, ijtimoiy, tibbiy-narkologik muassasalar bilan aloqalar o'rnatishga yordam beradi. O'quvchilar militsiya va narkologik statistikani, tumandagi giyohvandlik vaziyatni o'rganishadi, bolalar uylariga borishadi.

Barcha to'plangan materiallar pedagog-tashkilotchi qo'llariga to'planadi va uzoq muddatli oyinni yakunlaydigan teatrli sahna ko'rinishi uchun ishlatiladi. Uzoq muddatli oyin o'quvchilarning giyohvandlikka qarshi faoliyati bilan ham bog'liq. Unda o'quvchilar mustaqil ravishda giyohvandlikka qarshi adabiyotlarni o'rganishadi, referat va dokladlar tayyorlashadi, giyohvandlikka qarshi reydlarda ishtirok etishadi, mahalliy giyohvandlik holatini o'rganish bo'yicha mustaqil tadqiqotlar olib borishadi.

Savol va topshiriqlar:

“Giyohvandlik” tushunchasiga ta'rif bering?

O'smirlar orasida giyohvandlikning biologik, psixologik va ijtimoiy sabablarini alohida ko'rsating.

O'smirlar giyohvandligi oqibatlarini sanab bering?

Ijtimoiypedagogning giyohvandlik profilaktikasida o'smir o'quvchilar bilan o'tkazadigan oyin metodlari mohiyatini tushuntiring.

Adabiyotlar:

Kurbanov SH., Seytxalilov E. Otvetstvennost obrazovaniya v preduprezhdenii narkomanii. – T., 2003.

SHaripova D.D., CHernikov V.G. Protivonarkoticheskoe vospitanie podrastayushchego pokoleniY. – T.: Ukituvchi, 1991.

Nikolaeva L.P. Uroki profilaktiki narkomanii v shkole. – M.: Izd.Mosk. Psixologosots.instituta: Voronej: MODEK, 2003.

Metodika i texnologiya raboty sotsialnogo pedagoga / Pod red. M.A.Galaguzovoy. – M.: Izd.tsentr «Akademiya», 2002.

IJTIMOIIY PEDAGOGIK FAOLIYAT METODIKASI VA TEXNOLOGIYALARI

Metod va usul tushunchalari, ularning farqlari. O'z kasbining xususiyatlarini o'rganib chiqqan ijtimoiy pedagog oldida bu bilimlarni bolalar ijtimoiylashuvida, ularni deviant xulq-atvorini oldini olishda ularga yordam berish jarayonida amaliy tadbiriq etish muammosi ko'riladi. Bu muammoni hal qilish uchun ijtimoiy pedagogik faoliyat metodlari va texnologiyalarini bilish zarur. Avvalambor bu tushunchalarning ta'rifini aniqlab olish lozim. Olimlarning fikricha, ijtimoiy pedagogik amaliyotidagi metodlar-bola ijtimoiylashuvi yoki reabilitatsiyasiga yordam beruvchi ijobiy ijtimoiy tajriba to'planishini ta'minlovchi ijtimoiy pedagogik va bolaning o'zaro bog'liq faoliyati bo'lganligi uchun ijtimoiy pedagogika metodlari haaqida gapirish hali erta. Ular hozir shakllanish bosqichidalar. Shuning uchun ijtimoiy pedagog o'z amaliy faoliyatida pedagogika, psixologiya va ijtimoiy ishda qo'llanayotgan metodlardan foydalanadi.

Metoddan tashqari ijtimoiy pedagogikada "usul" va "vositalar" tushunchalari qo'llaniladi. Usul metodning ifodasi sifatida tushunilib, metodga nisbatan xususiy, boysunuvchan xarakterga ega. Aslida har bir metod amaliyot tomonidan to'plangan, nazariya tomonidan umumlashtirilgan usullar majmuasi orqali amalga oshiriladi.

Ijtimoiy pedagogning u yoki bu usulni qo'llashi aniq ijtimoiy pedagogik vaziyatga, bola xulq – atvoriga, zahiradagi usullarga bog'liq vosita usul va metoddan ko'ra kengroq tushuncha hisoblanadi. Chunki usul va metod faqatgina muayyan holatlarda vosita vazifasini bajarishlari mumkin. Vositalar – ijtimoiy pedagog tomonidan oldiga qoyilgan maqsadga erishishi uchun qo'llanadigan moddiy, emotsional, aqliy va boshqa shartlar majmuasidir. Vositalar o'z mohiyatiga ko'ra faoliyat usullari hisoblanishmaydi, faqatgina biror-bir pedagogik maqsad (masalan, oyin, suhbat, disput, konferentsiya, trening va boshqalar)ga etishishi uchun qo'llanilganida faoliyat usuliga aylanishadi.

Ba'zi olimlar ijtimoiy pedagogika metodlarini umumiy pedagogika metodlariga mos qilib tasniflashadi:

ishontirish;

talab qilish;

hikoya;

suhbat va bahs;

jazolash va maqtash

Biroq ijtimoiy pedagogika xususiyatlarini qamrab oluvchi metodlar tasnifi quyidagi ko'rinishga ega:

Ijtimoiy pedagog tomonidan qo'llaniladigan asosiy metodlar tasnifi

13-jadval.

Metodlar		
Ijtimoiy ish metodlari	Psixologik	Pedagogik
Ijtimoiy diagnostika metodlari: intervyu; monitoring; ijtimoiy so'rov; ekspertiza; biografik metod;	Psixotashxis intelekt va qobiliyatlar testlari; shaxsiy so'rovnomalar; loyihaviy testlar; rasmi testlar; sotsimetriya;	Tashkiliy pedagogik eksperiment; Pedagogik tashhis metodlari pedagogik kuza-tuv; tabiiy eksperiment;
Ijtimoiy profilaktika metodlari: preventiv metod; ijtimoiy davolash; sotsiodrama; qo'llab-quvvatlash	Psixokorreksion metodlar oyin terapiyasi; tajriba ijtimoiypsixologik trening; xulq-atvor treningi;	Ta'lim metodlari og'zaki (hikoya, suhbat, bahs, ma'ruza); ko'rgazmali (namoyish, darslik bilan ishlash); amaliy (mashqlar, laboratoriya ishlari, didaktik oyinlar, ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar); tarbiya metodlari; namuna;
Ijtimoiy nazorat metodlari: ijtimoiy nazorat; ijtimoiy vasiylik; ijtimoiy-tibbiy g'amxo'rlik;	Psixologik maslahat berish metodlari empatik tinglash; sharhlash; identifikatsiya; fasilitatsiya;	ishontirish;

ijtimoiy xizmat ko'rsatish Ijtimoiy reabilitatsiya metodlari: mehnat terapiyasi; guruh terapiyasi; maqom o'zgarishi; inqiroz kelishi Ijtimoiy iqtisodiy metodlar: imtiyoz metodlari; kompensatsiya metod-lari; ijtimoiy patronaj; tibbiy patronaj; ijtimoiy iqtisodiy choralar Tashkiliy metodlar: reglamentlashtirish; normalashtirish; tanqid; ijro nazorati	gipotezalarni ilgari surish Psixoterapiya metodlari suggestil; o'z-o'zini ishontirish; ratsionallashuv; psixotahlil; tranzakt tahlil; guruh terapiyasi; xulq-atvor terapiyasi; oilaviy psixoterapiya	o'qitish; jazolash; maqtash; mashq; istiqbol; oyin; ishonch; muvaffaqiyat; o'z-o'zini tarbiyalash
Ijtimoiy pedagogik metodlar		
ijtimoiy tarbiya bo'lagi sifatidagi metodlar Harakatga ko'niktirish metodlari Mustahkamlash Hamkorlik	Ta'sir metodlari Ongga ta'sir Hissiyotlarga ta'sir Xulq-atvorga ta'sir qiluvchi metodlar	ijtimoiy pedagogik hamkorlikni tashkil qilish metodlari: Faoliyatni tashkil qilish Muomala metodi Baholash metodi O'z-o'zini amalga oshirish metodi

Shunday qilib, ijtimoiy pedagogik faoliyat metodikasi ijtimoiy pedagogik faoliyat shakllari, metodlari, vositalari va nazorati mazmunining majmuasi hisoblanadi.

Turli metodlarning maqsadga muvofiq birikishi ijtimoiy pedagogik texnologiyaning mohiyatini tashkil qiladi.

“Ijtimoiy pedagogik texnologiyalar” tushunchasi “pedagogik texnologiya” va “ijtimoiy texnologiya” tushunchalaridan kelib chiqqan.

Pedagogik texnologiya ikki sohada o'z ildizlariga ega. Birinchisi, texnik fanlar o'quv jarayonining effektivligini oshirishga yordam beruvchi texnik vositalarni qo'llash va ishlab chiqish. Ikkinchisi, ijtimoiy fanlar hisoblanadi.

80-yillar o'rtalarida pedagogik amaliyotda SH.A.Amonashvili (ijtimoiy-shaxsiy texnologiya), V.P.Bespalko (dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyasi), S.N.Lo'senkova (istiqbolli ta'lim) va boshqalarning pedagogik texnologiyalari, V.A.Karakovskiy, N.E.Selivanova, N.I.Hurkova va boshqalarning pedagogik tarbiya tizimlari umum tan olindi. “Pedagogik texnologiyalar” o'quv fani professional pedagoglarni tayyorlash dasturiga kiritildi.

Hozirgi kunda pedagogik texnologiyalar deganda insoniyat va texnik zahiralardan foydalanishi orqali o'quvchilarning ta'lim-tarbiya jarayonlarini rejalashtirish, bahslash metodlari tushuniladi. Pedagogikada texnologik yondoshuvning maqsadi barcha maqsadlarga erishish kafolatlangan ta'lim – tarbiya jarayonini tashkil qilishdir.

Pedagogik texnologiyalar pedagogik jarayonning barcha boshqariladigan tarkibiy qismlarini tizimli tahlil qilish, nazorat qilishni ko'zda tutadi.

“Ijtimoiy texnologiyalar” tushunchasi sotsiologiyada vujudga kelgan va ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishi asosi bo'lgan natijalarni dasturlash imkoniyati bilan bog'liq.

Ijtimoiy texnologiyalarning turlaridan biri ijtimoiy ish texnologiyalari bo'lib, ular ijtimoiy pedagogik texnologiyalarga juda yaqin, chunki yuqorida ta'kidlagandek, ijtimoiy pedagog va ijtimoiy ishchi faoliyatining jihatlari ko'p.

Ijtimoiy pedagogik texnologiya ijtimoiy va pedagogik texnologiyalarni birlashtiruvchi texnologiya hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish imkoni ijtimoiy pedagogik faoliyatning o'z tuzilishiga ega ekanligiga bog'liq. Ijtimoiy pedagogik faoliyat

maqsad va vazifalarni aniqlashdan boshlanadi. Bularni mutaxassislar echishlari lozim, ya'ni bolada muomala ko'nikmalarini shakllantirish, unga yangi muhitga ko'nikishga yordam berishdir va boshqa maqsadlar o'z navbatida faoliyat mazmuni, uning amalga oshirish metodlari va uni tashkillashtirish shakllarini aniqlab beradi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat maqsadi, uning natijalari va mazmuni qanchalik to'g'ri aniqlanganligi, unga erishish uchun qanday metodlar tanlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, ijtimoiy pedagogik texnologiya ijtimoiy pedagogik faoliyat metodlari va usullari majmuasidir.

Ijtimoiy pedagogning aralashishni talab qiluvchi har qanday muammoni hal qilish unga tashxis qoyishdan boshlanadi. Tashxis qoyish axborot tahlili, to'plash va tizimlashtirishdan iborat.

Keyingi bosqich bu muammoni hal qilish yo'llarini qidirish. Buning uchun tashxis asosida maqsad qoyiladi va unga muvofiq faoliyatning aniq vazifalari belgilanadi.

Ijtimoiy pedagog qanday texnologiyani qo'llashga ko'ra shunga mos tushuvchi faoliyat metodlari va shakllarini tanlaydi. Ish yakunlanganidan so'ng ijtimoiy pedagog bola muammosi qanchalik to'g'ri hal qilinganiga baho berishi lozim.

Ijtimoiy texnologiyalar tasnifi

Tasnif asosi	ijtimoiy texnologiyalar turlari
Qo'llanishi sohasi	Global Universal Mintaqaviy
Ob'ektlar	Guruh Jamoat Individual
Hal qilinayotgan vazifalar xarakteri	Tashkiliy Informatsion Innovatsion
Metodlarni o'zlashtirish sohasi	ijtimoiy modellashtirish ijtimoiy bashorat berish Sotsial-tibbiy Ijtimoiypsixologik ijtimoiy pedagogik

ijtimoiy ish yo'nalishlari	ijtimoiy pedagogik profilaktika ijtimoiy pedagogik qo'llab-quvvatlash ijtimoiy rivojlanishi vaziyatini ijtimoiy pedagogik to'g'irlash Bolalikni ijtimoiy himoyasi Bolalar va o'smirlarning ijtimoiy pedagogik rehabilitatsiyasi ijtimoiy tashhiz qoyish Ijtimoiyprofilaktika Ijtimoiynazorat Ijtimoiyreabilitatsiya Ijtimoiyadaptatsiya Ijtimoiypatronaj Ijtimoiyta'minot Ijtimoiyterapiya Ijtimoiymaslahat berish
----------------------------	---

Ijtimoiy pedagogik texnologiyani qo'llashning misoli sifatida muammoning o'smir bilan ishlash texnologiyasini keltirsak bo'ladi.

Maslahatga tayyorgarlik	Aloqa o'rnatish	Vaziyatni o'rganish	Maqsad qoyish	Hal qilishni izlash	Xulosa
Professional pozitsiyani ishlab chiqish, ichki dialog-konsultatsiyaga ko'ndirish, o'smirlar bilan ishlayotgan psixologlar talablarini tahlil qilish	Ishonchli munosabat, qo'llab-quvvatlash, in'iko, sinonim savollar, rezyume (umumlashtirilgan savol), mavzuni o'zgartirish, o'zgaruvchan savollar, mijoz hissiyotlarini tushunish, mijoz va psixolog xis-tuyg'ularining verballashuvi, holatlar tavsifi. Metafora	Nima? Qiyinchiliklar va ularning sabablarini tahlil qilish. Qanday? a) tahlilning informatsion-kognitiv parametrlari b) motivatsion parametrlari v) operatsion (malaka, qobiliyatlar) g) emotsional energetik (his-tuyg'u, temperament)	Sen nimaga erishmoqchisan? Sen nimani olmoqchisan? Bu senga nima uchun kerak? Sen o'zingni kelajakda qanday his qilishni xohlaysan? kabi savollarni berish. Maqsadni shakllantirish: reallik, jalb etishlik, aniqlik, tekshirish	Axborot berish, onologiya metodi, mantiqiy asoslash. Aniq istak. Parodoksal instruktsiya. Emotsional zararlanish. Relaksatsiya. Vaziyat tahlili. Ichki muzokaralar. SHaxsiy tarix transformatsiyasi.	Savol: bizda qanday o'zgarishlar bo'ldi? Mijoz tomonidan natijalar sarhisobi, o'zgarishlarni parametrlari ga qarab tahlil qilish inson nimaga erishmoqchi, u qanday munosabatda bo'ladi (keskinlik darajasining

		d) xarakter va xulq-atvor jihatlari		Ijtimoiy muammolar. Maqsadga intilish. Rolli ijro. Ijobiy kayfiyat.	o'zgarishi, energiya paydo bo'lishi). U nima biladi? (tasavvur, fikr, o'zgarishi)
--	--	-------------------------------------	--	---	---

Keng tarqalgan va effektiv ijtimoiy pedagogik texnologiyalardan biri trening hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogik trening – jamoaviy ish olib borishning faol metodlariga asoslangan pedagogik ta'sirdir. Bu tashkillashtirilgan muloqatning maxsus turi bo'lib, uning davomida shaxs rivojlanishishi, kommunikativ malakalar paydo bo'lishi, psixologik yordam ko'rsatish masalalari hal qilinadi.

Mashg'ulotlar davomida o'smirlarda ichki qurilmalar almashuvi sodir bo'ladi, bilimlar kengayadi, o'ziga va atrofdagilarga ijobiy munosabat tajribasi shakllanadi. Trening mashg'ulotlari paytida har bir o'smirlarga g'amxo'rlik ko'rsatiladi. U boshqalarning yordamiga tayanishi mumkin. Shuning uchun turli muomala stillarini sinab ko'rishi, odamlararo ishonishni o'rganishi, avval unga xos bo'lmagan kommunikativ malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishga qodir. Bu mashg'ulotlar jamiyatda yanada faol hayotga tayyorlaydi. ijtimoiy pedagogik trening guruhining vazifasi har bir ishtirokchiga o'zini individual vositalar bilan namoyon qilishga yordam berishdir. Biroq buning uchun o'z-o'zini anglab olishi lozim.

SHaxs o'z-o'zini tarbiyalashni quyidagi yo'nalishlar boyicha amalga oshiradi:

o'z “men”ini boshqalar bilan qiyoslash orqali qabul qilish, ya'ni inson boshqalar chetdan kuzatish qulayligi uchun bundan foydalanadi. Bu esa o'zini guruhning boshqa a'zolari bilan qiyoslashga ajoyib imkoniyat yaratadi.

O'zini boshqalarning qabul qilishlari orqali qabul qilish, ya'ni atrofdagilar berayotgan ma'lumotlarni qayta munosabat asosida ishlatish. Bu atrofdoshlarning so'zlari, his-tuyg'ulari, xulq-atvor reaksiyalari orqali o'ziga bo'lgan munosabatini bilib olishga yordam beradi.

O'zini faoliyat natijasi orqali qabul qilish, ya'ni inson nima qilganiga baho berish. O'z-o'zini baholashning bu usuli o'z imkoniyatlari haqidagi fikrni mustahkamlaydi.

O'zini tashqi qiyofa bahosi orqali qabul qilish.

SHaxsning rivojlanishiga imkon yaratuvchi trening maqsadlari:

a) ishtirokchilarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish, ularning boshqalar bilan faol munosabatga kirishish qobiliyatini o'zlashtirish.

b) o'smirlarning faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirish va o'z hayotlarida o'zgarish sodir eta olish qobiliyatini rivojlantirish.

v) psixologik madaniy darajasini ko'tarish.

Qolib ketgan

Treningning asosiy tamoyillari:

Ishtirokchilarning o'zaro hurmati va ishonchiga asoslangan to'laqonli shaxslararo muomala.

Doimiy qayta aloqa, ya'ni ishtirokchi boshqa ishtirokchilar xatti-harakatlariga baho beruvchi ma'lumotlarni olishi.

O'z-o'ziga tashxis qoyish .

Rivojlanishning optimallasuvi.

Aqliy va emotsional sohalarning uyg'unlashuvi.

Trening va uning alohida mashg'ulotlarida ixtiyoriy qatnashish.

Guruh dinamikasiga yordam beruvchi guruhning doimiy tarkibi.

Yakkalik.

Mikroguruhlarda ishlash imkonini beruvchi erkin hudud.

Texnologiyalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatiga joriy qilish mablag'ni iqtisod qilish ijtimoiy pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil qilishni ta'minlaydi, ijtimoiy pedagog oldida turgan vazifalarni hal qilishning effektivligiga yordam beradi. Ijtimoiy pedagog texnologiyalar ijtimoiy pedagogning keng ko'lamdagi vazifalari- tashxis qoyish, ijtimoiy profilaktika, ijtimoiy adaptatsiya va ijtimoiy reabilitatsiyani echishga yordam beradi.

Savollar:

Ijtimoiy pedagogik faoliyat metodikasiga ta'rif bering?

Ijtimoiy pedagogik texnologiya mohiyatini ochib bering?

Ijtimoiy pedagogik faoliyat metodlari va texnologiyalarini tasniflang

Ijtimoiy pedagogik trening o'tkazish xususiyatlarini aniqlang?

Adabiyotlar:

Metodika i texnologiya sotsialno-pedagogicheskoy deyatelnosti. – M., 2003.
 Bespalko V.P. Slagaemye pedagogicheskoy texnologii. – M., 1989.
 Klarin M. Metodologicheskie texnologii v uchebnom protsesse. – M., 1989.
 Sotsialnaya pedagogika /Pod red. M.A.Galaguzovoy. – M., 2003.
 Ovcharova E.V. Spravnaya kniga sotsialnogo pedagoga. – M., 2003.
 Pedagogika /Pod red. P.I.Pidkasistogo. – M., 1995.

O'QUV TEMATIK REJA:

MAVZU	Ma'ruza	Amaliyot
ijtimoiy pedagogika rivojlanishining madaniy tarixiy asoslari		
1) Xorij ijtimoiy pedagogikasi tarixi.		
2) O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika tarixi.		
O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika rivojlanishining shart-sharoitlari.		
3) O'zbek xalq pedagogikasi ijtimoiy g'oyalari.		
4) Islomning ma'naviy va axloqiy o'gitlarining ijtimoiy mazmuni.		
5) Milliy mentalitet va uning ijtimoiylashuv jarayonidagi o'rni.		
6) Mahalla ijtimoiylashuvning an'anaviy milliy omili.		
7) O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika shakllanishining va rivojlanishining ijtimoiysiyosiy va pedagogik asoslari.		
ijtimoiy pedagogika fan sifatida		
8) ijtimoiy pedagogika tushunchasi.		
9) ijtimoiy pedagogika bo'limlari va funktsiyalari.		

10) ijtimoiy pedagogika kategoriyalari		
11) ijtimoiy pedagogika amaliy faoliyat sohasi sifatida.		
Ijtimoiylashuv ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida		
12) Ijtimoiylashuv tushunchasi.		
13) Ijtimoiylashuv jarayoni.		
14) Ijtimoiylashuv kanallari-omil, vosita.		
15) Tarbiya ijtimoiylashuv sifatida.		
Ijtimoiy pedagogik faoliyat.		
16) Oila bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat olib borish.		
17) Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy adaptatsiyasi boyicha ijtimoiy pedagogik faoliyat.		
18) Ijtimoiy pedagogning maktab yoshidagi bolalar bilan ish olib borishi.		
19) Ijtimoiy pedagogning ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar bilan faoliyati.		
20) Normadan og'ish va devyatsiya ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.		
21) Deviant xulq-atvor bolalar bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat yuritish.		
22) Spirtli ichimliklar iste'mol qiluvchi o'smirlar bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat.		
23) Giyohvandlik bolalar xulq-atvorining deviant shakli sifatida.		
24) ijtimoiy pedagogik faoliyat metodika va texnologiyasi.		

“IJTIMOIY PEDAGOGIKA” KURSI DASTURI

Ijtimoiy pedagogika rivojlanishining madaniy tarixiy asoslari.

1. Xorij ijtimoiy pedagogikasi tarixi.

Ijtimoiy pedagogika pedagogika fani sohasi sifatida. Ijtimoiy pedagogika rivojlanishi bosqichlari va uning etuk vakillari. XX-XXI asr boshlarida ijtimoiy pedagogik faoliyatning asosiy yo'nalishlari va xususiyatlari.

2. O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika tarixi.

Ijtimoiy pedagogika g'oyalari qadimgi diniy adabiyot va manbalarda, xalq og'zaki ijodida va pedagogik traktatlarda ta'lim – tarbiya ijtimoiylashuvi tamoyillari Markaziy Osiyo qomusiy olimlari-Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek meroslarida o'z aksini topgan. O'zbek olimlari va ma'rifatparvar shoirlari Yusuf Xos Hojib, Burxoniddin Zarnujiy, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Munis Xorazmiy, Muhammad Ogahiy, Ubadulla Zavqiy, Said Ahmad Siddiqiylarning ijtimoiy pedagogik qarashlari. XIX asr oxiri XX asr boshlari demokrat shoirlari-A.Avloniy, Miskin, Xamzalarning ijtimoiy pedagogik g'oyalari va faoliyatlari. 1920-40 yillarda ijtimoiy pedagogik tarbiyaning asosiy yo'nalishlari-maktablarga ka kambag'allarga oilalariga moddiy yordam, boqimsizlikka qarshi kurash. Savodsizlikni bartaraf etish. K.Libkxney nomidagi mehnat maktabi faoliyati. G'ofur G'ulom faoliyati. Urush yillarida O'zbekistonda ijtimoiy pedagogik faoliyat-bolalar uylari tarmoqlarining kengayishi, evakuatsiya qilingan bolalarni oilaviy bolalikka olish. Urushdan keyingi davrda bolalar uylari tarmoqlarini yaratish. XX asr 70-yillarida yoshlar o'rtasida ichkilikbozlik, giyohvandlik, fohishabozlik kabi ijtimoiy muammolarning keskinlashuvi. Zamonaviy davrda O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika oldida turgan vazifalar.

O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika rivojlanishining shart-sharoitlari

3. O'zbek xalq pedagogikasining ijtimoiy g'oyalari.

Xalq ijtimoiy pedagogikasining amaliy yo'naltirilganligi. Xalq pedagogikasining asosiy ijtimoiy pedagogik tamoyillari-har tomonlama etuk shaxsni tarbiyalash, oilaviy tarbiyaning etakchi o'rni, xalq ijodida aks etishi va boshqalar.

4. Islom ma'naviy va axloqiy o'g'itlarining ijtimoiy mazmuni.

Qur'on va hadislarning ijtimoiy axloqiy, ijtimoiy pedagogik va ijtimoiy yuridik mohiyati. Fuqarolarning teng huquqliligi, huquqiy himoyasi, oshkoralik, adolat, erkinlik tamoyillari. Islomning 5 ustuni-iymon, namoz, ro'za, zakot, haj. Qur'onda ta'lim-tarbiya va ma'naviy kamolotga tayyorlash masalalari.

5. Milliy mentalitet va uning ijtimoiylashuv jarayonlarida tutgan o'rni.

Zamonaviy davrda milliy omilni inobatga olish o'rni mustaqil demokratik davlat barpo etishda millat mentalitetining ahamiyati. Mentalitet ijtimoiylashuvining eng muhim makrofaktori – xalqning namoyon bo'lishi sifatida millatning funktsiyalari. "Mentallik" va "mentalitet" tushunchalari. Insonlarning milliy psixologik xususiyatlarining shaxs ijtimoiylashuviga ta'siri. Insonlar ijtimoiy faoliyatida stereotiplar o'rni. Oila milliy an'analar va qadriyatlarni saqlab qolishning eng asosiy instituti sifatida. Bugungi kunda o'zbek xalq mentalitetining tarkibiy qismlari.

6. Mahalla ijtimoiylashuvning an'anaviy milliy omili sifatida.

Mahalla o'z-o'zini boshqarish organi va demokratiyalash va bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiylashuvning muhim omili sifatida. Mahallaning ma'naviy ahloqiy, ijtimoiy madaniy-ma'rifiy, xayrli funktsiyalari, uning yuridik vakolatlari. Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy tizimida mahallaning o'rni. O'zbekiston Respublikasining mahalla qo'mitalari to'g'risidagi qonunlari.

7. O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika shakllanishi va rivojlanishining ijtimoiy siyosiy va yuridik asoslari.

O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika fani va amaliy faoliyati rivojlanishining metodologik asoslari. Ijtimoiy pedagogik faoliyat rivojlanishining shart-sharoitlari. Zamonaviy bosqichda davlatimizning ijtimoiy siyosati olib borilayotgan ijtimoiy islohotlarning yuridik asosi – O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining kam ta'minlangan oilalarga yordam berish, nogiron bolali oilalarga ko'maklashish, tibbiy-ijtimoiy patronaj, onalik va bolalikni himoyalash, etim bolalar uchun "bolalar shaharchalari" tashkil qilish to'g'risidagi qarorlari, farmon va farmoyishlari. O'zbekiston Respublikasi kontsepsiyasi.

Ijtimoiy pedagogika asoslari.

8. Ijtimoiy pedagogika fan sifatida.

Ijtimoiy pedagogika ta'rifi. O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi muammolari. ijtimoiy pedagogikaning umumiy pedagogika bilan aloqasi. ijtimoiy pedagogikaning o'ziga xos xususiyatlari, uning boshqa fanlar bilan aloqasi.

9. Ijtimoiy pedagogika bo'limlari va funktsiyalari.

Ijtimoiy tarbiya texnologiyalari, metodika, psixologiya, nazariya, sotsiologiya, falsafa. Funktsiyalarning asosiy guruhlari-nazariy, gumanistik, amaliy, ularning o'ziga xos xususiyatlari.

10. Ijtimoiy pedagogika kategoriyalari.

Kategoriya ta'rifi. Ijtimoiy pedagogik faoliyat bolaga ijtimoiylashuv jarayonida yordam berish sifatida. Koordinatsion va reabilitatsion faoliyat. Ijtimoiy tarbiya shaxsning to'laqonli rivojlanishi uchun shart – sharoitlar yaratish sifatida. Ijtimoiy tajriba tashkil qilish, ijtimoiy tarbiyada individual yordam ko'rsatishning ahamiyati.

11. Ijtimoiy pedagogika amaliy faoliyat sohasi sifatida.

"Ijtimoiy pedagog" va "Ijtimoiy ishchi" tushunchalari. Ularning umumiy va farqli jihatlari. Ijtimoiy ish ob'ekti. "ijtimoiy ish" tushunchasi va uning mazmuni.

Ijtimoiylashuv ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida.

12. Ijtimoiylashuv tushunchasi.

Ijtimoiylashuv mohiyati va uning tushunchasini sharhlashga turli yondoshuvlar. Ijtimoiylashuv ta'rifi.

13. Ijtimoiylashuv jarayoni.

Ijtimoiylashuv jarayonida adaptatsiya va yakkalikning uyg'unlashuvi. Ijtimoiylashuvning ikki tomoni o'rtasida tenglikning o'rnatilishi.

14. Ijtimoiylashuvni amalga oshirish kanallari.

Ijtimoiylashuv vositalari, omillari va mexanizmlari. Muomala va faoliyat jarayonida ijtimoiylashuv. Ijtimoiylashuvning mega-mikro-mezoomillari. Biologik va ijtimoiy omillarning o'rni.

15. Tarbiya ijtimoiylashuv sifatida.

Tarbiya jarayonini professional boshqarish. SHaxsning jamiyatga integratsiyalashuvi jarayonida tarbiyaning o'rni. Ijtimoiy dezadaptatsiya hodisasi. Ijtimoiy tarbiyatamoyillari. Ijtimoiy pedagogik faoliyat.

16. Oila bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat yuritish.

Oila ijtimoiylashuvning eng muhim mikroomili sifatida. O'zbekistonda oila muammolari. Oilaning asosiy funktsiyalari. Oilaning ijtimoiy maqomi. ijtimoiy pedagogning oila bilan ish olib borishi. Oilaga ijtimoiy pedagogik yordam ko'rsatishning shakllari va turlari.

17. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy adaptatsiya boyicha ijtimoiy pedagogik faoliyati.

Ijtimoiy adaptatsiya tushunchasi. Bolalik vaqtida adaptatsiya ahamiyati. Maktabdan tashqari bolalar muassasasi sharoitida bolalar adaptatsiyasi, xususiyatlari. Adaptatsiya turlari. Og'ir adaptatsiya sabablari. MTM va bolalar bog'chalarida bolalarning muvaffaqiyatli adaptatsiyasini ta'minlash boyicha ijtimoiy pedagogik faoliyati.

18. Ijtimoiy pedagogikaning maktab yoshidagi bolalar bilan ish olib borish.

Maktabning ijtimoiy muammolari. Ta'lim-tarbiya rolining kuchaytirilishi. Ijtimoiy muammolarni hal qilish boyicha ma'muriy maktab psixologi ota-onalar qo'mitalarining faoliyati. O'quvchilarning ijtimoiylashuv jarayoniga tengdoshlari va yoshlar submadaniyatining ta'siri. Ijtimoiy pedagogning tarbiyasi og'ir o'smirlar bilan ishlashi. Pedagogik qarovsizlik ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida. Ijtimoiy pedagogning maktabda va yashash joyida pedagogik qarovsiz bolalar bilan ishlashi.

19. Ota-onasi qaramog'isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat yuritish.

Etimlik muammosi va uning sabablari. Ijtimoiy etimlik tushunchasi. Etim bolalarga vasiylik qilish. Etimlarni qaramoqqa olish yo'llari-bolalikka olish hamda davlat qaramog'i muassasasiga topshirish. Bolalar uylari va internatlarda ijtimoiy pedagogik faoliyat yuritish.

20. Normadan og'ish va deviatsiya ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.

Norma va normadan og'ish tushunchasi. Og'ish turlari: jismoniy, ruhiy, pedagogik, ijtimoiy deviatsiya tushunchasi. Deviatsiya turlari. Deviant xulq-atvor sabablari-biologik, psixologik, ijtimoiy pedagogik, ijtimoiy iqtisodiy, axloqiy.

21. Deviant xulq-atvorga ega bolalar bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat yuritish.

O'smirlar deviant xulq-atvori profilaktikasi. Profilaktika faoliyati vazifalari. O'smirlar bilan profilaktika ishiga turli yondoshuvlar. Deviant xulq-atvorli bolalar reabilitatsiyasi. Ijtimoiy pedagogik reabilitatsiya mazmuni. Maktab reabilitatsion xizmati. Reabilitatsion ijtimoiy pedagogik texnologiyalar.

22. Spirtli ichimliklar iste'mol qiluvchi o'smirlar bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat.

Ichkilikbozlik o'smirlar deviant xulq-atvori turlaridan biri sifatida. Ichkilikbozlik paydo bo'lishida mikroijtimoiy va shaxsiy omillar. Bolalar ichkilikbozligi xususiyatlari va oqibatlari. Ijtimoiy pedagogikaning bolalar va o'smirlar bilan ichkilikbozlikka qarshi kurash faoliyati asosiy yo'nalishlari.

23. Narkomaniya bolalar deviant xulq-atvori shakli sifatida.

Giyohvandlik ijtimoiy pedagogik muammo sifatida. Giyohvandlikning biologik, psixologik, ijtimoiy va ijtimoiy pedagogik sabablari. Giyohvandlik paydo bo'lishi va tarqalishining ilmiy nazariyalari. Giyohvandlikning biologik, ijtimoiy psixologik va jinoiy oqibatlari. Giyohvandlik profilaktikasi. Giyohvandlikka qarshi trening, devian o'smirlarga ijobiy ta'sir qilishning effektiv chorasi sifatida rol o'ynaydi.

24. Ijtimoiy pedagogik faoliyat metodika va texnologiyasi.

“Metod”, “usul” va “vosita” tushunchasi. Ijtimoiy pedagogik texnologiyalarning ijtimoiy va pedagogik texnologiyalar bilan aloqasi. Ijtimoiy pedagogik texnologiyalarning ijtimoiy va pedagogik texnologiyalar bilan aloqasi. Ijtimoiy pedagogik metodika va texnologiya tushunchasi. Ijtimoiy pedagogik metod va texnologiyalar tasnifi. Ijtimoiy pedagogik texnologiya algoritmi va bosqichlari. Trening ijtimoiy pedagogik texnologiya turi sifatida. Texnologiyalarning ijtimoiy pedagogika amaliy faoliyatida tutgan o'рни va ahamiyati.

Lug'at

Avtonomlashuv – (yunoncha, “avto” – o'zim, “homus” – qonun) o'z – o'zini boshqarish va tartibga solish imkoniyatini qo'lga kiritish.

Adaptatsiya – insonning ijtimoiy muhit bilan faol o'zaro munosabatda bo'lish va uning potentsialini shaxsiy rivojlanish uchun ishlatish qobiliyati.

Anamnez – ota -ona yoki bolani tarbiyalovchi boshqa shaxslardan shifokor, pedagog yoki psixolog tomonidan bola haqida ma'lumot olish. Anamnez to'planayotganda bolaning irsiyligi, boshdan kechirgan kasalliklari, nutq, oyin faoliyati rivojlanish xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar aniqlanadi.

Anomaliya – jismoniy yoki ruhiy rivojlanishning umumiy normalaridan og'ish.

Anomal bolalar – normal ruhiy va jismoniy rivojlanishda buzilishlar bo'lgan bolalar. Ularni engib o'tish uchun maxsus metodlar talab qilinadi.

Affektiv buzilishlar – emotsional sohaning buzilishi bo'lib, kuchli asabiylashish, asabiylashish darajasining tushib ketishida namoyon bo'ladi. (opatiya, befarqlik). Bular markaziy nerv sistemasining funktsional va organik buzilishi oqibatida yuzaga keladi.

Bolalar jinoyatchiligi – salbiy ijtimoiy huquqiy hodisa bo'lib, voyaga etmaganlar tomonidan sodir etiladigan barcha g'ayri huquqiy xatti-harakatlar majmuasi hisoblanadi.

Bolaning ijtimoiylashuvi – uning ijtimoiy hayotga qo'shilishi bo'lib, shu jamiyatda xos bilimlar, qadriyatlar, norma-qoidalar, xulq-atvor namunalarini o'zlashtirishdan iborat. (M.A. Galaguzova)

Bolaning ijtimoiy adaptatsiyasi – bolaning ijtimoiy muhit sharoitlariga faol ko'nikishi, bolaning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlari turi.

Bolaning ijtimoiy dezadaptatsiyasi – uning ijtimoiy muhit sharoitlariga muvaffaqiyatli ko'nikishiga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlarning yo'qotilishi.

Bolalikni ijtimoiy himoyalash – qonunchilik va bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro konventsiyada mustahkamlangan voyaga etmaganlar huquqlarining kafolatini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar. Bu bolalarning optimal biologik

va ijtimoiy rivojlanishini, ijtimoiy iqtisodiy sharoitlarga ko'nikishini ta'minlab beruvchi huquqiy, iqtisodiy, tibbiy va psixologik-pedagogik choralar kompleksidir.

Bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish – ijtimoiy himoyaning shakllaridan biri bo'lib, kam ta'minlangan oilalar farzandlarining hayotiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ijtimoiy chora-tadbirlar majmuasi- ijtimoiy pedagog bolalarga turli yordam ko'rsatadi. Biroq ularning ichida ustuvor yordam bolalikni ijtimoiy pedagogik qo'llab-quvvatlash hisoblanadi.

Bolalikka olish – bolalikka oluvchi va bolalikka olinuvchi o'rtasida ota-ona va farzandlar o'rtasida mavjud huquq va majburiyatlarni o'rnatuvchi yuridik akt.

Vasiylik – muomalaga layoqatsiz shaxslarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoya qilish.

Guruhning ijtimoiy psixologik iqlimi – guruh har bir a'zosining faoliyatiga ta'sir qiluvchi guruhdagi munosabatlarning dinamik maydoni.

Deviant xulq atvor – ijtimoiy yoki axloqiy normalarga mos kelmaydigan xulq-atvor.

Delinkventlik (ing. “gunohkorlik”) – o'rnatilgan normalarni buzuvchi va huquqbuzarlikka olib keluvchi xulq-atvor.

Dinamik steriotip – bosh miya faoliyatining fiziologik shakli bo'lib, inson xatti-harakatining shartli reflektor tartibida namoyon bo'ladi. Ularga insonning odatlari, oddiy mehnat ko'nikmalari kiradi.

Etim bolalar – 18 yoshgacha bo'lgan bir yoki ota-onasining ikkisi ham vafot etgan bolalar.

Etimlik – jamiyatda ota-onasidan judo bo'lgan bolalarning borligi bilan izohlanadigan ijtimoiy hodisa.

Jamoa – ijtimoiy munosabatlar va yagona ijtimoiy faoliyat asosida birlashgan guruh.

Jinoyat – delinkvent xulq-atvor turi bo'lib, shaxsga, qonun bilan qo'riqlanadigan ob'ektlarga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli xatti-harakat.

Jinoiy xulq-atvor – jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga etganda jinoiy ish qo'zg'atishga asos bo'luvchi g'ayri huquqiy harakatlar.

Ijtimoiylashuv – insonning butun hayoti mobaynida o'z-o'zini o'zgartirish va rivojlantirishning boshqariladigan va maqsadga yo'naltirilgan jarayoni.

Ijtimoiy tarbiya – bevosita insoniy munosabatlar, shuningdek shu

Insoniylik – bolani shaxs sifatida qadrlaydigan, uning g'ururi va erkinligini himoyalash bilan xarakterlanadigan, inson manfaatini ijtimoiy institutlarni baholashning asosiy me'yori deb hisoblaydigan qarashlar tizimi.

Infantilizm – organizmning ruhiy rivojlanishidagi to'xtab qolish bo'lib, bolalik davridagi rivojlanish bosqichi jihatlarini saqlab qolish bilan xarakterlanadi.

Inqiroz – shaxs rivojlanishining diskret vaziyatida uning maqsadga qaratilgan hayotiy faoliyatining to'xtab qolishi. Surunkali inqiroz ijtimoiy dezadaptatsiya, o'z joniga qasd qilish, asab-ruhiy va psixologik kasalliklarga olib kelishi mumkin.

Ishontirish – mantiq, isbot-dalilga asoslangan aqliy emotsional ta'sir. Uning mohiyati inson ongiga ta'sir qilishga qaratilgan, demak ishontirishning muvaffaqiyali bo'lishi ong qonunlariga mos kelishiga bog'liq. Ishontiruvchi so'zlar tushunarli bo'lishi kerak. Ishontirish individual tajribaga qaratilishi lozim.

Ichki ishonch – axborotni tanqidsiz qabul qilish va unga muvofiq kayfiyat, xulq-atvorni o'zlashtirishga qaratilgan ta'sir. Ishontirishning samaradorligi ishontiruvchi shaxsning kuchi va boshqa shaxsning ishonuvchanligi, shuningdek ular o'rtasidagi munosabatlarga bog'liq.

Iqtidorlilik – bolaning o'z yoshi normalariga nisbatan aqliy rivojlanishda ancha ilgari ketishi.

Katamnez – davolash yakunlangandan so'ng kasal haqida olinadigan ma'lumotlar. Maxsus kuzatuv ostida bo'lgan o'quvchilarning mehnat hayoti, ta'limi to'g'risida davriy ma'lumot to'plash.

Kommunikativlik – shaxslararo muloqot madaniyatiga ega bo'lish, bolani tinglash va eshitish qobiliyati, muomalaga kirisha olish va aloqa o'rnatish, axborot to'plash, turli ijtimoiy munosabatlar o'rnatish va rivojlantirish, bolaning verbal va noverbal xulq-atvorini kuzatish.

Kompensatsiya – buzilgan funktsiyalar o'rnini to'ldirish, rivojlantirish.

Konkretlik – umumiy fikrlardan voz kechish va savollarga aniq javob berish qobiliyati.

Korreksion tarbiya – jamiyatdagi hayotga ko'nikish uchun sharoitlar yaratish, ba'zi toifa odamlarni rivojlanish nuqsonlarini engib o'tish yoki bartaraf etish.

Madaniyat – jamiyat, ijodiy kurslar va inson qobiliyatlarining tarixan rivojlanish darajasi bo'lib, insonlar hayoti va faoliyatini tashkil qilish shakllari, shuningdek, ular tomonidan yaratilayotgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarda o'z ifodasini topadi.

Madaniyatlilik – bola tarbiyasi va ijtimoiylashuvi jarayoni shu jamiyat va millatning ma'naviy va moddiy madaniyati asosida qurilishi lozim.

Maqom – bemorni ko'rilayotgandagi holati tavsifi.

“Men” kontsepsiyasi – insonning o'zi haqidagi tasavvurlari tizimi.

Mikrosotsium – o'z tarkibiga oila, qo'shnichilik, tengdoshlar guruhlar, turli ijtimoiy, davlat, diniy, xususiy va tarbiyaviy tashkilotlari mavjud, muayyan hududda faoliyat yurituvchi jamiyat.

Nazoratsizlik – bolalarni, ularning xulq-atvorini, bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazishlarini nazorat qilmaslik, ularning tarbiyasi haqida qayg'urmaslik.

Oila – insonlar kundalik hayotining asosiy qismi- jinsiy munosabatlar, bolani dunyoga keltirish, bolalarning ilk ijtimoiylashuvi kabi holatlar sodir bo'ladigan ijtimoiy institut.

Ontogenez – hayvon yoki o'simlik olamining yaralishidan boshlab hayotining oxirigacha individual rivojlanishi. Ontogenez organizmning tashqi muhitning aniq bir sharoitlarda rivojlanishi hisoblanadi. Ontogeneza har organizm birin-ketin rivojlanish bosqichlaridan o'tadi. Inson ontogenezi ikki bosqichdan iborat-prenatal va postnatal.

Pedagogik tashxis – o'quvchi va o'quvchilar jamoasi shaxsiyatini ta'lim-tarbiya jarayoniga individual va differentsial yondoshuvni ta'minlash uchun o'rganish.

Pedagogik texnologiya – ta'lim-tarbiyaning pedagogik samaradorligini oshiruvchi omillar tahlili orqali optimallashtirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya bolalarni natijaviy qilib tarbiyalash, ta'lim berish va rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogik texnologiyalarning asosiy belgilari natijalilik, algoritm mavjudligi, iqtisod, loyihalashtirish, butunlik va boshqarish hisoblanadi. Bu pedagogik texnologiyalar ish samaradorligini oshirishi, har qanday sharoitlarda qo'llaniladi, bir-biri bilan bog'liq aniq ifodalangan bosqichlarga egaligidan dalolat beradi.

Pedagogik qarovsizlik – shaxs rivojlanishiga barcha omillar majmuasining dezintegratsiya ta'siri oqibati. Ular avvalambor to'laqonli individual-psixologik rivojlanishni ta'minlovchi etakchi faoliyat turlarini qoniqarsiz o'zlashtirishda namoyon bo'ladi.

Professional ijtimoiy pedagogik faoliyat – bolalar va o'smirlarni o'rab turuvchi mikrojamiyatda ijtimoiy tarbiyasi boyicha bosqichma-bosqich ish olib borish bo'lib, bolalarning muvaffaqiyatli adaptatsiyasi, individuallashuvi va integratsiyasiga qaratilgan. Uning ob'ekti bola hisoblanib, predmeti-bolalarning ijtimoiy tarbiyasi jarayonidir.

Rahmdillik – kimgadir yordam berishga tayyor bo'lish yoki kimnidir hamdardlik, insonparvarlik tufayli kechirish.

Reabilitatsiya – bemorning psixofizik imkoniyatlari doirasida normal mehnat va hayotga qaytishi. Bu avvalambor tibbiyot yordamidan insonning jismoniy nuqsonlarini bartaraf etish, ikkinchidan maxsus o'quv metodlarini qo'llash, uchinchidan professional tayyorganlik asosida erishiladi.

Referent guruh – inson uchun o'lchov birligi hisoblangan tavsiyalar, ma'lumotlar.

Refleksiya – insonning ichki ruhiy faoliyati bo'lib, o'z xatti – harakatlari, hislatlari, holatlarini anglab olishga qaratilgan; insonning o'z ma'naviy dunyosini anglab olishi.

Somatik – jismoniy.

Ijtimoiy adaptatsiya – metod va usullar tizimi bo'lib, uning maqsadi insonlarga ularning ijtimoiylashuvi va yangi ijtimoiy sharoitlarga ko'nikishlariga yordam berish.

Ijtimoiy diagnostika – ijtimoiy hodisani, uning holatini xarakterlaydigan va uning rivojlanish tendentsiyalarini aniqlash maqsadida kompleks o'rganish jarayoni. Metod, usullar vositasida tadqiq etishga asoslanadi. ijtimoiy diagnoztika

ijtimoiy muammoni a'zolarga bo'lib tashlash orqali o'rganishni ko'zda tutadi. Olingan ijtimoiy tashhiz o'rganilayotgan ijtimoiy hodisalarning salbiy tendentsiyalarini oldini olishga qaratilgan amaliy harakatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy etim – biologik ota-onaga ega, biroq ular muayyan sabablarga ko'ra bola tarbiyasi bilan shug'ullanishmaydi va unga g'amxo'rlik qilishmaydi.

Ijtimoiy informatsion yordam – bolalarni ijtimoiy g'amxo'rlik, himoya, shuningdek ijtimoiy xizmatlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashga qaratilgan yordam.

Ijtimoiy ish – ijtimoiy sohadagi tashkiliy faoliyat bo'lib, jamiyatning barcha qatlamlaridagi ijtimoiy muammolarni echishga qodir bo'lgan maxsus ijtimoiy mexanizm hisoblanadi. Uning maqsadi inson manfaati va ehtiyojlarini moddiylashtirish, ijtimoiy va shaxsiy ahsmiyatga ega natijalarni qo'lga kiritish, jamiyatda shaxsning, guruhning yoki jamoaning ijtimoiy maqomini mustahkamlash yoki o'zgartirish.

Ijtimoiy iqtisodiy yordam – muhtoj bolalarning ruhiy, axloqiy va emotsional holatini tiklash boyicha muassasa, markazlarda yordam ko'rsatish.

Ijtimoiy normalar – insonlar xatti – harakatlarini, ularning ijtimoiy hayotini muayyan madaniyat, jamiyat qadriyatlariga muvofiq tartibga soluvchi xulq-atvor me'yorlari.

Ijtimoiy patronaj – shaxs huquqlari, voyaga etmaganlarning mol-mulklarini himoya qilishning maxsus turi. Texnologiya sifatida ijtimoiy vasiylik vasiylikka muhtoj odamlarni aniqlaydi, vasiylarni tanlaydi, ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi. Patronaj uyda profilaktik, sog'lomlashtirish, sanitar chora-tadbirlarni o'tkazishni ko'zda tutadi.

Ijtimoiy pedagog – ijtimoiy pedagogika mutaxassisligi boyicha o'rta yoki oliy professional ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassis, ijtimoiy pedagogik faoliyatni professional tartibda yurita oladigan mutaxassis.

Ijtimoiy pedagogika – shaxs ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o'rganishga, jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilish maqsadidagi samarali metodlar va

ijtimoiy pedagogik faoliyat texnologiyalarini joriy qilishga qaratilgan pedagogika sohasi.

Ijtimoiy pedagogik bashorat – bolani yuzaga kelgan muammo bilan bog'liq ravishda biror bir ijtimoiy pedagogik faoliyatga jalb qilish orqali bu muammoni xal qilishni bashorat qilish. ijtimoiy pedagogik bashorat ijtimoiy pedagogik jarayonning mantig'i va mohiyati, uning qonuniyatlarini bilishga tayanadi.

Ijtimoiy pedagogik markaz – ijtimoiy psixologik markazlar, xududiy guruh va birlashmalar, tarbiya muassasalari tarmog'i.

Ijtimoiy pedagogning professional maqomi – sub'ektning huquq, majburiyatri va vakolatlarini aniqlab beruvchi shaxslararo munosabatlar tizimidagi o'rni. Ijtimoiy pedagog maqomi u egallab turgan holatning in'ikosi hisoblanadi: ma'muriy ijtimoiy pedagog, jamoaviy ijtimoiy pedagog, oilaviy ijtimoiy pedagog, ta'lim muassasasining ijtimoiy pedagogi. Biroq professional maqom obro'-e'tiborini aniqlab bermaydi. Ular professional-shaxsiy munosabatlar jarayonida shakllanadi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat metodikasi – ijtimoiy pedagogik faoliyatning mazmuni, shakli, usullari, vositalari va nazorati majmuasi.

Ijtimoiy pedagog refleksiysi – har bir bosqichda o'z faoliyatini tahlil qilish, uning salbiy va ijobiy tomonlarini aniqlash, olingan natijalarni bola shaxsiyatiga ta'sirini o'rganish.

Ijtimoiy pedagogik reabilitatsiya – bola organizmining ba'zi buzilgan funktsiyalari, uning ijtimoiy maqomining o'zgarishi va unda og'uvchi xulq-atvorning paydo bo'lishi bilan bog'liq bolaning ijtimoiy aloqalarni yo'qotishini tiklashga qaratilgan choralar tizimi.

Ijtimoiy pedagogik profilaktika – bolada turli faollik turlarining namoyon bo'lishiga va bolalarning optimal ijtimoiy rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan ijtimoiy tarbiya chora-tadbirlar tizimi.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat – bolaga ijtimoiylashuv jarayonida va jamiyatda o'z-o'zini amalga oshirishi uchun yordam ko'rsatishga qaratilgan professional faoliyat.

Ijtimoiy pedagogik faoliyat texnologiyasi – ratsional va maqsadga qaratilgan xatti-harakatlar bilan xarakterlanadigan amaliy ijtimoiy pedagogik faoliyat, metod va usullari majmuasi.

Ijtimoiy pedagogik yordam – bolaning ijtimoiylashuvi va to'la qonli rivojlanishi uchun psixologik, pedagogik sharoitlar yaratib beruvchi ijtimoiy pedagogik chora-tadbirlar tizimi.

Ijtimoiy profilaktika – turli salbiy xarakterdagi ijtimoiy og'ishlarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar va shart-sharoitlarni oldini olish, bartaraf etish yoki neytrallashtirishga qaratilgan davlat, ijtimoiy, ijtimoiy-tibbiy va tashkiliy chora-tadbirlar majmuasi.

Ijtimoiy-psixologik yordam – oila va mikro jamiyatda qulay mikroiklimni yaratishga, uy, maktab jamoasining salbiy ta'sirlarini bartaraf etishga qaratilgan yordam.

Ijtimoiy reabilitatsiya – insonning ijtimoiy muhitda faoliyat yuritish qobiliyatini tiklashga qaratilgan jarayon-texnologiya sifatida tibbiy, maishiy, kasbiy, shaxsiy darajadagi reabilitatsiyaga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini ilgari suradi.

Ijtimoiy reabilitatsion yordam – bolalarning ruhiy, aqliy, emotsional holati va sog'ligini tiklashga qaratilgan yordam.

Ijtimoiy sog'lik – individning tashqi muhit bilan o'zaro munosabatlarining mukammallashuvi shakli va vositalarini muayyan darajasidir, bu o'zaro munosabatlarning muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beruvchi ruhiy va shaxsiy rivojlanish darajasi. ijtimoiy sog'likning aksi ijtimoiy qarovsizlik holatidir.

Ijtimoiy tajriba – turli ko'nikmalar va malakalar, ___ va usullar, xulq-atvor normalari va stereotiplari, insonlar bilan muomala tajtibasi, adaptatsiya, o'z-o'zini anglab olish tajribalari majmuasi.

Ijtimoiy tarbiya – shaxsning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga ega hislatlarni shakllantirish jarayoni.

Ijtimoiy tarbiyada yoshga ko'ra yondashuv – inson rivojlanishiga har bir yosh guruhning xususiyatlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda shart-sharoit yaratib berish.

Ijtimoiy tarbiyaga individual yondashuv – tarbiyalanuvchilarning individual xususiyatlarini ham shaxsiy ham individ darajasida inobatga olish.

Ijtimoiy ta'lim – ijtimoiy bilimlarni va bolaning ijtimoiylashuviga ko'maklashuvchi ijtimoiy ko'nikma va malakalarni etkazish jarayoni.

Ijtimoiy ta'minot – davlat moddiy ta'minoti tizimi va ijtimoiy yordamga muhtojlarga yordam ko'rsatish doirasida turli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi.

Ijtimoiy terapiya – davlat tuzilmalari, jamoat tashkilotlari va birlashmalari, shu jumladan diniy tashkilotlarning ijtimoiy munosabatlarning muayyan bir shakllariga amaliy ta'sir qilish jarayoni.

Ijtimoiy texnologiya – turli ijtimoiy muammolarni echish va aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlashda ijtimoiy ishchilar va ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalari tomonidan qo'llaniladigan vosita, metod va ta'sirlar majmuasidir. ijtimoiy pedagog faoliyatining zahirasi 4 turdagi ijtimoiy texnologiyani kuzatish mumkin: ijtimoiy ishga tegishli, ijtimoiy psixologik, ijtimoiy tibbiy, ijtimoiy pedagogik.

Ijtimoiy qarovsizlik – ijtimoiy xislatlar, ehtiyojlar, qadriyatlarning rivojlanmasligiga, bo'sh ijtimoiy refleksiyaga, ijtimoiy rollarni egallashda qiyinchiliklarga olib keluvchi omillarning oqibati.

Ijtimoiy harakat – turli ijtimoiy guruhlarning umumiy maqsad sari qaratilgan birgalikdagi xatti-harakatlari.

Ijtimoiy hudud – bola ko'z o'ngida har kuni sodir bo'ladigan harakatlar, ijtimoiy munosabatlar, transport, narsa-predmetlarning qiyofasining majmuasi.

Ijtimoiy huquqiy yordam – inson va bola huquqlariga amal qilishga, bu huquqlarni amalga oshirishga, bolalarni oilaviy, mehnat, fuqarolik masalalari boyicha huquqiy tarbiyalashga qaratilgan yordam.

Sotsium – insonning ijtimoiy atrof-muxiti, hamjamiyati.

Submadaniyat – muayyan insonlar guruhining hayot tarziga ta'sir qiluvchi ijtimoiy psixologik belgilar (norma, qadriyat, steriotip, did) majmuasi.

Tayanch shaxs – insonning asosiy hayotiy intilishlarini belgilab beruvchi tabiiy qolipdir. Tayanch intilishlar hammada bir hil bo'ladi, biroq ularning namoyon bo'lishi genetik va tashqi omillarga bog'liq bo'ladi.

Tibbiy - ijtimoiy yordam – ta'lim-tarbiya jarayonida sog'likni tiklash yoki mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar.

SHaxslararo munosabatlar – ommaviy ijtimoiypsixologik hodisalar bo'lib, bir guruhda bo'lgan va birgalikdagifaoliyat hamda muloqot jarayonida bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda namoyon bo'ladi.

SHaxslararo muomala – insonlar orasida aloqalar o'rnatishning murakkab jarayoni. Pedagogik jamoada shaxslararo muomalaning quyidagi xususiyatlari to'g'rilanishga muhtoj: ba'zi pedagoglarning sabrsizligi, irodasizligi, kasbdoshlarini tinlay olmaslik, o'z maqomini oqlash. ijtimoiy pedagogik treninglar, boshlang'ich pedagog maktablari orqali sabr-matонат, tinglash madaniyati kabi xislatlarni shakllantirsa bo'ladi.

SHaxsning hayot tarzi – maqsadga muvofiq shakllangan qiziqishlar, faoliyat turlari va hayot yo'llari tizimi.

SHaxsning o'z –o'zini rivojlantirishi – bu insonning o'z hayotiy faoliyatining sub'ektiga aylanishidir. Sub'ektlilik-insonning hayotdagi faol, mustaqil holati va maqomi. U inson tug'ilishidanoq unga xos bo'lib, uning ilk psixologik namoyon bo'lishi bolaning jonlanishi hisoblanadi. Yosh o'tgan sari u o'z shakllarini o'zgartiradi-insonda axloqiy, estetik, ijtimoiy va psixologik qo'zg'atuvchi sabablar paydo bo'ladi. Inson o'z-o'zini anglash, muomala va faoliyat sub'ektiga aylanadi. Bu faollik ham shaklan ham mazmunan o'zgaradi. Inson qanchalik yoshi o'tsa u shunchalik ko'proq o'z-o'zini rivojlantirish sub'ekti bo'ladi.

Xayriya – alohida shaxslar yoki tashkilotlar tomonidan kam ta'minlangan oilalar, muhtojlarga ko'rsatiladigan yordam.

Homiylik – voyaga etmaganlarning (boshqa toifa insonlarning ham) shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoya qilish shakli, ya'ni homiylikda vasiylikka qaraganda ancha keng toifadagi bolalar huquqlari himoya qilinishi mumkin.

Huquqbuzarlik – biror-bir huquqni buzuvchi har qanday xatti-harakat. Huquqbuzarliklar ijtimoiy xavfli harakat va jinoyatlarga bo'linadi.

O'zaro munosabatlar – jamoada ijtimoiy psixologik iqlimni shakllantirish asosi.

O'z-o'zini aktuallashtirish – insonning o'z shaxsiy imkoniyatlarini to'liq aniqlashga va rivojlantirishga qaratilgan doimiy intilish.

O'z-o'zini anglash – inson ongining eng oliy irodasi bo'lib, o'zi haqidagi tasavvurlar, xulq-atvori, faoliyati, ehtiyojlarini anglashdan namoyon bo'ladi.

O'z-o'zini tarbiyalash – insonning o'zida ijobiy xislatlarni shakllantirish va salbiy xislatlarni bartaraf etishga qaratilgan, tashkillashtirilgan faoliyati.

Qadriyatlar – harakat usuli, metodikasi va uning individual etimga aylanishi uchun shart-sharoit yaratish.

Qurilma (ustanovka) – muayyan xulq-atvor, tasavvurni boshdan kechirishga tayyor bo'lish. Qurilmalar faoliyatning barqaror kechishini belgilab berishadi. Agar shaxsiy qurilmalar kasbiy faoliyatning xarakterini belgilab bersa ijtimoiy qurilmalar mutaxassisning mijoz bilan o'zaro munosabati usullariga oydinlik kiritadi.

Emotsional zararlanish – bevosita emotsional holatlarni uzatish orqali ta'sir ko'rsatish (qo'l, yuz xatti-harakatlari, intonatsiya)

Empatiya – dunyoga boshqalar nazari bilan qarash, uni boshqalar kabi tushunish, boshqalarning xatti-harakatlarini ularning nuqtai nazariga ko'ra qabul qilish va shu bilan birga o'zining tushunchasini bildirishga qodirlik.

MUNDARIJA

SO'Z BOSHI	3
I BOB. IJTIMOIIY PEDAGOGIKA RIVOJLANISHINING MADANIY-TARIXIIY ASOSLARI.	
Xorij ijtimoiy pedagogikasi tarixi.	5
O'zbekistonda ijtimoiy pedagogika tarixi.	15
II BOB. O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY PEDAGOGIKA RIVOJLANISHINING SHART-SHAROITLARI	
O'zbek xalq pedagogikasi ijtimoiy g'oyalari.	36
Islomning ma'naviy va axloqiy o'gitlarining ijtimoiy mazmuni.	40
Milliy mentalitet va uning ijtimoiylashuv jarayonidagi o'rni.	47
Mahalla ijtimoiylashuvning an'anaviy milliy omili.	55
O'zbekistonda zamonaviy bosqichda ijtimoiy pedagogika rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy va huququqiy asoslari	64

III BOB. IJTIMOIIY PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA

Ijtimoiy pedagogika tushunchasi.	72
Ijtimoiy pedagogika soralari va vazifalari.	77
Ijtimoiy pedagogika kategoriyalari	81
Ijtimoiy pedagogika amaliy faoliyat sohasi sifatida.	84

IV BOB. IJTIMOIIYLASHUV IJTIMOIIY-PEDAGOGIK FAN SIFATIDA

Ijtimoiylashuv tushunchasi, jarayoni, vositalari, mexanizmi, kanallari	90
Tarbiya ijtimoiy institut sifatida.	104

V BOB. IJTIMOIIY-PEDAGOGIK FAOLIYAT

Oila bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat olib borish.	
Ta'lim muassasalari ishtirokchilarining ijtimoiy adaptatsiyasi boyicha ijtimoiy pedagogik faoliyati.	
Ijtimoiy pedagogning ta'lim oluvchilar bilan olib boradigan ishlari.	
Ijtimoiy pedagogning ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar bilan olib boradigan faoliyati	
Normadan og'ish va deviatsiya ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.	
Deviant xulq-atvor bolalar bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat yuritish.	
Spirтли ichimliklar iste'mol qiluvchi o'smirlar bilan ijtimoiy pedagogik faoliyat.	
Giyohvandlik bolalar xulq-atvorining deviant shakli sifatida.	
Ijtimoiy pedagogik faoliyat metodikasi va texnologiyasi.	